

ABU NASR FOROBIY

**FOZIL ODAMLAR
SHAHRI**

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON MILLIY ENSIKLOPEDIYASI»
DAVLAT ILMIIY NASHRIYOTI

- Abu Nasr Forobiy.
- F84 **Fozil odamlar shahri.** Nodir va dono fikrlar. — T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 160 b.

BBK 84(5U)I

H Y31 10 31003
F84 294

Ushbu kitobda Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri, o‘z davrining yorqin yulduzi Abu Nasr Forobiyning ayrim risolalari o‘rin olgan.

Allomaning “Fozil odamlar shahri”, “Aflatun qonunlari mohiyati” (Talxisu navomisi Aflatun), “Arastu falsafasi” (Falsafatu Aristutolis) kabi asarlari bu muhtaram zot haqidagi tasavvurimizni bismuncha kengaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Majmua Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti tomonidan 1993-yilda nashr etilgan “Fozil odamlar shahri” tanlangan asarlari asosida qayta tartiblandi.



F 4702620202-2
358—2004

© “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.

ABU NASR FOROBIY

Forobiy (taxallusi; to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy) (873, Forob sh. – 950, Damashq) – jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mutasakkir, O'rta Osiyolik mashhur faylasuf, ensiklopedist olim. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyat parvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti uning nomi bilan bog'liq. Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida ulug'lanib, "Al-Muallim as-soniy" ("Ikkinch muallim", Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" deb yuritilgan.

Boshlang'ich ma'lumotini ona yurtida oldi, Toshkent (Shosh) da bo'ldi, Buxoro, Samarcanda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga qarab yo'l oldi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan O'rta Osiyodan kelgan ko'p ilm ahllari to'planishgan edi.

U bu yerda o'rta asr fani va tilining turli sohalarini o'rganishga kirishdi, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishdi. Turli diniy e'tiqod va falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo'ldi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Taxminan 941-yildan Forobiy Damashqda yashagan, kamtar va g'aribona kun kechirgan, asosan ilm bilan shug'ullangan. So'nggi yillar u Xalab (Aleppo)da turib ijod qilgan, tadqiqotchilar uning bu davrdagi hayotini eng samarali davr deb hisoblaydilar.

Forobiy 949—950 yillarda Misrga borgan, so'ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan. Damashqdagi “Bob as-sa’ir” qabristoniga dafn qilingan.

Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqan.

Forobiy yunon mutafakkirlari — Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemy, Porfiriy va boshqalar asarlariga sharhlar yozgan.

Forobiy o‘rta asrlar sharoitida birinchi bo‘lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta‘limot yaratdi. Bu ta‘limotda ijtimoiy hayotning ko‘p masalalari — davlatni boshqarish, ta‘lim-tarbiya, axloq, ma‘rifat, diniy e’tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalarni qamrab olgan.

Bu borada uning “Fozil odamlar shahri” asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyat (“inson jamoasi”)ning kelib chiqishi haqida shunday yozadi: “Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi... Bunday jamoa a‘zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi”.

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolatga erishishining zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Butun insonlarni o‘zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. Doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

FOZIL ODAMLAR SHAHRI

Abu Nasr al-Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asari boblari ta’rifি:

1. Alloh Taolo nima va unga qanday e’tiqod qilish kerakligi haqida so’z; u qanday tavsif etilishi kerak, qaysi vajhdan u boshqa mavjudotga sabab bo’lib qoldi; bu undan qanday qilib yuz beradi; ularni qanday yuzaga keltiradi; u bilan bog’liqligi qanday; u qanday qilib bilinadi va qanday qilib aql yuritilishi kerak; uni qaysi nom bilan atash lozim bo’ladi; bu ismlar nimalarga dalolat qilishi kerak bo’ladi.

2. Farishtalar deb e’tiqod qilinishi kerak bo’lgan mayjudot haqida so’z. Ularning har birining mohiyati nima, ular qanday, ularning paydo bo’lish sabablari, darajalari, bir-biriga bo’lgan martabalari, ularning har birida nimalar yuz berishi mumkinligi, qanday qilib ulardan yuz beradigan narsa (boshqa) har bir narsaga sabab bo’lgan, ularning choralar haqida; chindan ham ularning har biri osmon jismlaridan bo’lgan jismning sabablaridir, uni idora qilish unga topshirilgan.

3. Osmon jismlarining o’zaro bog’liqligi haqida so’z; Ularning har biri alohida-alohida ikkinchisi bilan bog’liqligi haqida; ularning har biri ikkinchisi unga bog’liq bo’lgan osmon jismlarini idora qilishi haqida;

4. Osmon ostida bo’lgan jismlar haqida so’z; ular hayulloniymodda jismlardir; uning borligi qanday yuz berdi, u qancha, ularning har birining javhari – substansiyasi nimada; oldin aytib o’tilgan mavjudotdan uning farqi nimada – shular haqida.

5. Modda va suvrat haqida so’z; ularning har biri alohida olganda nimadan iborat; ular ikkalovi jismlarning

ABU NASR FOROBIV

ko'rinishimi, ularning har birining boshqasidan farqi, darajasi nimada; ular bilan zohir bo'ladigan moddalar nimalardan iborat; ularning ikkalovida moddaga asoslangan vujud nimadan iborat; suvrat bilan qaysi vujud hosil bo'ladi – shular haqida so'z.

6. O'zi maloika deyilishi mumkin bo'lgan va kayfiyatidan mavjudot deb tavsif qilinadiganlar haqida so'z.

7. Umuman Osmon jismalari deb tavsif qilinadigan narsalar haqida so'z.

8. Umuman moddiy jismal qanday yuzaga keladi: ularning qay bri – birinchi, qay bri – ikkinchi va qay bri – uchinchi va shu tariqa ketaverib, nihoyat oxirida yuzaga keladigan narsa inson bo'lib qolishi haqida; qisqacha, har bir sinf – turning yuzaga kelishi haqida xabarlar.

9. Ulardan bo'lgan har bir turning boqiy qolishi uchun qanday shart-sharoit choralar bo'lishi haqida; har bir nav shaxslarning saqlanishi haqida; ularni idora qilishda adolatli chora-tadbir haqida; ulardan nima yuzaga kelsa, bari adashmasdan, xiloflikka bormasdan, nuqsonga yo'l qo'ymasdan, adolat natijasida, hukmlar yuritish va kamolatga etishish bilan bo'lishi kerak. Chunki bular hammasi bo'lishi vojib bo'lgan narsalar bo'lib, ularning mavjudot tabiatlarida bo'lishi mumkin bo'lмаган narsalardan boshqa narsa emasligi haqida.

10. Inson haqida, inson nafsining quvvatlari haqida va uning paydo bo'lishi haqida, avvalan, qaysi bri yuzaga kelgani, ikkinchisi – qachon, uchinchisi – qachon yuzaga kelgani, ularning o'zaro munosabatlari haqida, ularning qay bri boshqarishi haqida; qaysi bri boshqasiga xizmat qiladi; qaysi bri faqat boshchilik qalidi; qay bri ularning biror narsasiga xizmat qiladi, qaysi bri qaysisini idora qiladi – shular haqida.

11. Inson a'zolarining paydo bo'lishi va ularning darajalari haqida, ba'zilarining boshqalari bilan munosabat darajalari haqida; ularning qaysinisi bosh masala va qay bri al-xodim – ikkinchi darajali masala, raisi qanday qilib boshchilik qila oladi va ularning ikkinchi darajalisi qanday qilib xizmat qila oladi – shu haqida.

12. Erkak va xotin jinsi haqida; ularning har birining quvvati hamda ularning har birining fe'l'i haqida; ulardan qanday

qilib bola paydo bo‘lishi haqida; ularning bir-biridan farqi, bir-biriga nisbatan umumiyligi haqida; uning erkakligi va xotinligining sababi; nega bola o‘z ota-onalariga o‘xshashi yoki o‘zining ajdodlariga o‘xhash bo‘lishi yo bo‘lmasa ularning hech qaysinisiga —na ajdodiga va na ota-onasiga o‘xshamasligi haqida.

13. Nutqli insonning ma’qulot-aql qabul qiladigan qismi tuzilishi qanday, ularning turlari qanday; quvvatli aql (aqli qaviy) nima va fe’lli aql — aqli bilfe’l nima va moddiy aql nima va aqli munfail (passiv intellekt) nima degani-yu, faol aql (aktiv aql) nima degani va uning darajalari haqida va nega faol aql deb ataladi-yu, uning fe’li-harakati nima — shular haqida; yana quvvatda bo‘lgan hatto fe’lli aql bo‘la oladigan quvvatlar qanday qilib ma’qulot sifatida tasvirlanadi, hatto fe’lli — harakatdagи aql bo‘ladi. Iroda degani nima, ular ikkalovi nafsnинг qaysi bo‘laklariga taalluqli, to‘la baxt-saodat nima-yu, fazilat va nuqsonlar nima, ixtiyor degani nima, harakatdagи xayr ishlar nima-yu yomon ishlar nima, ulardan nima go‘zal sanaladi-yu nima qabih sanaladi — shular haqida.

14. Nafs bo‘laklari haqida bo‘lgan mutaxayyil-xayolga horiladigan bo‘laklar haqida so‘z; ular fe’l-harakatlarining turlari haqida; u nafsnинг qaysi turiga taalluqli, uning to‘g‘riligiga bo‘lgan sabab, unda nimaga to‘g‘ri deb ishonish mumkin; (payg‘ambarlik) vahiyisi qanday yuz heradi; insonlarning qaysi turiga vahiy kelishi mumkin; qaysi bir toifadagi odam vahiyga duch kelishi mumkin; kelajakda bo‘ladigan narsadan xabar heradigan va unga ishonadigan kishilar ko‘pligining sababi nimada — shular haqida.

15. Jamiyatda inson hojati va o‘zaro yordami haqida; insoniy jamiyatlarining turlari haqida va fozil jamiyat haqida; fozil shahar nima degani, u qanday idora qilinadi, uning bo‘laklarining tartibi qanday, fozil shaharda fozil raisning turlari va avvalgi fozil raisning tartibi qanday bo‘lishi kerakligi haqida; fozil shaharga boshliq bo‘ladi deb e’tiqod qilinadigan bola yo yigitda qanday alomat va belgilari bo‘lishi mumkinligi haqida; unda bunday belgilari topilguday bo‘lsa, qaysi sharoitda kamolga yetib, hatto unga birinchi fozil rais bo‘lib olishi mumkinligi haqida; fozil shaharga qarama-qarshi bo‘lgan

ABU NASR FOROBIY

shaharlar qancha, johil shahar degani nima, zalolatga ketib toygan shaharlar-chi; johil shaharlar va ularni idora qilish usullari haqida.

16. So'ngra baxt-saodat zikri haqida, unga fozil shahar ahli o'z hayoti davomida, vafotidan so'ng qanday qilib erishishi haqida; fozil shaharga qarama-qarshi bo'lgan shahar ahli vafotidan so'ng qanday baxtsizlikka duchor bo'lishi haqida.

17. O'sha fozil shaharda rasm-rusmlar qanday bo'lishi haqida; so'ngra ko'p odamlarda buzuq usullar, yolg'onchilikka oid narsalar, ulardan johillik qarashlarining paydo bo'lishi haqida.

18. So'ngra johiliy qarashlar xususiyati yuzaga kelib, undan johiliy shaharlarda paydo bo'ladigan fe'llar hosil bo'lishi haqida.

19. So'ngra buzg'un usullar to'g'risida, undan to'g'ri yo'lidan toygan shahar ahli qarashlari kelib chiqishi haqida.

1. BIRINCHI MAVJUD' HAQIDA SO'Z

Birinchi mayjud boshqa barcha mayjudot borligining birinchi sababidir. Bo'lishi mumkin bo'lgan turli-tuman kamchiliklarning barchasidan ozod-pokdir. Undan boshqa barcha mayjud narsa nuqsonlik bo'lishi ehtimolidan xoli emas. (Nuqson) birgina bo'lishi mumkin va yo birdan ko'p bo'lishi mumkin.

Ammo zoti avvalga kelsak, u barcha nuqsonlardan xolidir. Uning borlig'i barcha (borliq) dan afzal² va boshqa borliqlardan oldin kelur, uning borlig'idan yana ustun bo'lgan va undan oldin keladigan boshqa borliqning bo'lishi ham mumkin emas. Demak, u borliq ustunligi (fazilati) borasida eng yuksak darajadadur, borliq mukammalligi nuqtai nazaridan qarasak, u eng yuqori martabadadur.

Shuning uchun uning borlig'i bilan javharining³ yo'qlik qorishmasi hech qaysi holatda ham bo'lishi mumkin emas.

¹ Birinchi mayjud, ba'zida birinchi vujud deganda Tangri tushuniladi.

² Ya'ni, u mukammaldir, deyilmoxchi

³ Ya'ni asosi

Chunki yo'qlik va uning teskarisi (ziddi) ikkalovining bo'lishi mumkin emas, bo'lsa ham u oy falagidagina bo'lishi mumkin, xolos. Chunki yo'qlik esa vujudi bo'l'magan, (ya'ni) bor bo'l'magan bir narsadir.

Uning vujudi bilquvvat bor bo'lishi mumkin bo'l'maganiday, uning har qanday tarzda borlig'i ham butunlay mumkin bo'lmas. Shuning uchun ham uning vujudi yo'qligining ham imkoniy yo'qdir. Shu sababdan u azaliydir, uning azaliyligi doimo uning borligida — javhari (substansiysi)da borligidandur, u o'z borligiga hech qanday ehtiyoj ham sezmagan zotdir, uning doimo borligi uning egaligi uchun yetarlidir. Borliq hech mahal uning vujudi kabi bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, u o'zining abadiy borlig'ida o'z javhari bilan va o'zining azaliyligi bilan qanoat hosil qiladi, uning asli uning abadiyligi va doimo borligi uchun yetarlidir. Lekin borliq aslida xuddi uning vujudiga o'xshash bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, uning vujud darajasi ham vujudi ham unga o'xshamasligi ham mumkin, yo bo'lmasa unga yetarli bo'lmasligi ham mumkin, uning mavjudligi o'zi uchun sabab bo'lmasligi ham mumkin yo u bilan (bihi) yo bo'lmasa undan (anhu) va yoki uning uchun (lahu) bo'lishi nimadan ekanligini (bilish) mumkin bo'l'magan bir borliq (mavjudot)dir. Chunki u modda ham emasdur, u na moddaga asos bo'la oladi, na sub'ekt (mavzu)ga tayanch bo'la oladi, balki uning borligi (vujudi) har turli moddani va barcha sub'ektdan boqimsiz (ya'ni xoli)dur. Shuningdek, uning suvrati ham bo'lmaydi. Chunki suvrat faqat moddadan bo'lishi mumkin, xolos. Agar unda suvrat bo'lganida edi, u holda uning zoti modda va suvratdan tuzilgan bo'lar edi. U shunday bo'lganida edi, uning asosi (ya'ni borligi) albatta, o'zi paydo bo'ladiyan ikki qismdan tarkib topgan bo'lardi. Shunday ekan, chindan ham, uning bo'laklarining har biri uning bus-butun vujudiga sabab bo'lgan bo'lardi. Biz uni birinchi sabab deb bayon etdik. Shuningdek, o'z mohiyati bilan bu maqsad va g'oyaga erishish uchun uning borligida na maqsad bo'ladi, na g'oya bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu uning borligiga sabab bo'lgan bo'lardi. Bu holatda uning o'zi birinchi sabab bo'l'magan bo'lardi.

Shu bilan birga uning borligi undan oldin keladigan hech qaysi narsadan foydalanmagan, chunki u o'zidan past bo'lgan narsadan foydalanishdan uzoqdir.

2. ALLOHNING SHERIGI YO'QLIGI HAQIDA SO'Z

Birinchi mavjud bo'lgan zot (ya'ni Tangri) o'zining asl mohiyati bilan boshqacha, barcha narsalardan farqlidir; uning borligi esa uning o'zidan boshqa hech kimga tegishli ham emas (faqat uning o'ziga tegishlidir). Chunki borlig'i shu borliq bo'lgan narsa bilan ayni borliqqa sohib bo'lgan boshqa bir narsa orasida har xil farqlilik va ayirma bo'lishi mumkin emasdir. Unday holda o'rtada ikki narsa esa asl mohiyat bo'lmay, balki birgina asl – o'zak bo'lishi mumkin, xolos. U hech o'zgarmasligi mumkin. Bordi-yu, oralarida biror farqlilik bo'lguday bo'lsa, u holda ularni birlashtiradigandan ayni o'sha narsa bo'lmay, balki boshqa bir narsa bo'lishi mumkin. U holda ularning hir-birining boshqasidan farq qiladigan tomoni ular borlig'ining bir qismini tashkil etadi. Ularni birlashtiradigan tomoni esa uning boshqa qismini tashkil etadi. Shunday qilib, bu ikkalovining har biri tushuncha bilan belgilanadi, ikkala qismning har biri esa o'sha asosning sababi bo'ladi. U, o'z navbatida, endi birinchi bo'lolmaydi, balki bunda undan oldin keladigan boshqa borliq bo'lib, u uning borlig'iga sabab bo'ladi – bu esa (o'z navbatida) amri maholdir.

Bordi-yu, agar bu borliq boshqa bo'lsa-yu, u shu sababli ilk borliqdan ajralib tursa - u farq qilishda ham faqat ilkni ajratib tursa shundagina ilk borliq ajraladi, uning o'z borlig'i bo'ladi, mana shu borliq esa, o'z navbatida, ularni birlashtirib turadi. Mana shu borliq ikkalasiga ham mushtarak hisoblanadi. Shunday ekan, bu boshqa bir borliq ikki narsadan tarkib topgan bo'ladi, unga maxsus bo'lgan va bunga sherik bo'lgan narsadan tuzilgan bo'ladi. Natijada birinchining borligi boshqasining ham boriligining ayni o'zi bo'lolmaydi, balki bu borliq sodda bo'linmaydigan bo'ladi, birinchisi esa bo'linadigan bo'ladi. U holda bu boshqa borliqning borlig'i

qoim bo'lgan ikki parchasi bo'ladi. Shunday ekan, birinchisini ikki qismi bo'ladi, bundan u tashkil topgan bo'ladi, uning borlig'ining sababi ham bo'ladi, nihoyat, bundan past bo'ladi, hamda noqis bo'ladi. Bundan chiqdi, bu narsa borliq nuqtai nazaridan birinchi darajali emas deganidir.

Xuddi shuningdek, bundan boshqa ilk borliqdan tashqari, tur – nav jihatidan uning o'xhashi bo'lgan boshqa bir narsa bor bo'lsa, ilk borliqning borligi mukammal bo'lolmaydi. Chunki mukammallik o'z turidan boshqa bo'lgan borliqning o'zidan tashqarida bor bo'lishi mumkin bo'lmagan narsadir. Bu har bir narsada kechishi mumkin bo'lgan holatdir. Chunki buyuklik xolilik nuqtai nazaridan mukammal bo'lgan, o'z turidan boshqa bir buyuklikning o'zidan tashqarisida bor bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa. Demak, mukammallik asl ildizida bo'lgan bo'lsa, undan tashqarida bo'lgan narsada bo'lishi mumkin emas. Ayni shaklda mukammal bo'lgan har bir jism Quyosh. Oy va boshqa kezadigan yulduzlarda bo'lgani kabi o'z turidan boshqa bir narsada bor bo'lishi mumkin bo'lmagan narsadir.

Shuningdek, birinchi sabab mukammal borliq bo'lgan bo'lsa, u holda u o'zidan boshqa navdag'i narsa bo'la olmasligi turgan gap. Demak, uning bir o'zi bu borliqda yakkayu yagonadir, u shu jihatdan ham birinchidir.

3. UNING ZIDDI YO'QLIGI HAQIDA SO'Z

Shuningdek ilk mayjud zotning ziddi bo'lishi ham mumkin emas. Ziddning tushunchasi (ya'ni ma'nosi) anglashilgan taqdirda bu ayon bo'lib qoladi. Chunki zid (barcha) narsalardan (butunlay) farq qiladi va bir narsaning ziddi shu narsaning o'zi – asli bo'lib qolishi mumkin emas. Ammo bir-biridan farq qiladigan har bir qarama-qarshi narsa ham uning ziddi bo'lavermaydi. Shunisi ham borki, bu narsaning o'zi bo'la olmagan barcha narsa ham uning ziddi bo'lishi mumkin emas. Lekin har bir qarama-qarshilik ham zid bo'lavermaydi. Narsa bo'la olmaydigan har bir narsa ham bir-biriga zid bo'lolmaydi. Lekin ayni paytda narsa bo'lgan barcha narsa ham qarama-qarshi harakatda bo'ladi. Qarama-qarshi bo'lgan har bir narsa birga bo'lsa, u albatta, buzilishga va

o'z yo'lida aynashga olib keladi. Zidlarning har birining tabiat shunday bo'ladi, ulardan birining qay yerda bo'lishidan qat'i nazar, uning yo'qligi ikkinchisining borgini taqozo etadi. Ziddi bo'lishi mumkin bo'lgan har bir narsada ahvol shundaydir. Bordi-yu, ularning biri boshqasi turgan yerda bor bo'lguday bo'lib qolsa bormi, u holda u uni halok etadi. Bu shuning uchunki, u joyni u birinchi bo'lib egallagan bo'ladi. (shu tariqa biri - boshqasining joylashishiga yo'l bermaydi). Bu hol qarama-qarshiligi bor bo'lgan barcha narsaga taalluqlidir. Shunday ekan, agar bir narsa boshqa hollarda bo'lmay, balki o'z harakt-fe'lida boshqasiga zid bo'lar ekan, bu holda bu faqat harakatiga taalluqli bo'ladi. Agar javharlari (substansiyasi) xoliligi nuqtai nazaridan bir-biriga zid kayfiyatda bo'lsalar, bu holat sifatlariga ham taalluqli bo'ladi. Bordi-yu bu qarama-qarshilik javhariga taalluqli bo'lsa, u holda ularning ikkalasining javhari ham shu sifatni oladi.

Shunday ekan, agar ilk mavjud zot zid bo'ladigan bo'lsa, u shu sifatdan uning ziddiga aloqadorligi tushuntiriladi. Bundan chiqdi har bir qarama-qarshilikda bo'lgan narsa boshqa tomondan buzdirilishi lozim bo'ladi va birinchi esa o'z tabiat bilan qarama-qarshi tomondan inkor etilgan bo'ladi. Bu esa uning javharida (substansiyasida) mavjud bo'lgan bo'ladi. Demak, nimaiki inkor etilgan bo'lsa, u o'z javhari va boqiyligini topolmagan bo'ladi. Balki uning mavjudligi davom etishi uchun javhari yetarli bo'Imagan bo'ladi. Borligini hosil qilish uchun javharining bo'lishi yetarligina emas, balki uning borligiga qandaydir narsa bo'lishi talab qilinadi. Ammo bor bo'lishiga imkon bo'Imagan har bir narsaning azaliv bo'lishi imkon ham mumkin emasdir. Asl javharining boqiyligiga yoki borligiga yetarli bo'Imagan narsa o'z borligi yoki boqiyligiga o'zidan boshqa yana biror sabab bo'lishi kerak bo'ladi. Bunday narsa esa ilk borliq bo'lolmaydi.

Shuningdek, uning borligi uning ziddi bo'Imaganligi tufayligina bo'ladi. Demak, ziddining yo'qligi esa uning borligining sababi bo'ladi. Demak, bu holda ilk borliq butunlay birinchi sabab bo'lolmaydi.

Shuningdek, bu ikkaloviga shu narsa bo'lishi lozim bo'ladi: bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki zid narsa to'qnash kelishi

ham mumkin. Shunda ularning biri boshqasini yo‘q qiladi. Ammo bu joy uning o‘rni sanaladi, yo jinsi, yo bo‘lmasa ular ikkalovidan boshqa bir narsa bo‘lishi ham mumkin. Bu joy sobit bo‘lishi mumkin. Bordi-yu, bu ikkalovi bir-biriga (qarama-qarshi) tomon bo‘lishsa, u holda ular bir-biridan keyin ketma-ket kelgan bo‘lur edi. Shuning uchun bu yer ularning har biridan avvalroq bo‘lgan vujud bo‘ladi.

Bordi-yu, agar bir kimsa bu keltirilgan sifatlarga sohib bo‘lman boshqa bir zid narsalarni o‘rtaga qo‘ysa, hu o‘rtaga qo‘yilgan narsa boshqasining ziddi bo‘lmaydi, balki u qarama-qarshisi bo‘ladi. U ziddan bo‘lak bir qarama-qarshiliklardan bo‘lgan bir narsa bo‘ladi. Biz ilk borliqning o‘zidan boshqa narsalarga ega bo‘lganini inkor etmaymiz. Buning natijasida ayni shu borliqqa sohib bo‘lgan bir zidning va yoki boshqa bir narsaning borligini qabul etolmaymiz. U holda hech bir bor bo‘lgan narsa ilk borliqning ayni o‘scha borliq darajasida bo‘lmaydi. Chunki ikki qarama-qarshi tomonlar bir va ayni borliq martabasida bo‘la olmaydi.

Demak, ilk borliq, aslida borliq xoliligi nuqtai nazaridan yagonadir, uning mavjudligiga undan boshqa hech narsa ishtirok etmaydi, uning borliq turini bo‘la oладиган hech bir narsa yo‘q. Demak, u birdir, u o‘z navi jihatidan ham, martabasi jihatidan ham yakkayu yagonadir.

4. POK TANGRINING TA’RIFI YO‘QLIGI HAQIDA SO‘Z

Shu bilan birga ilk borliq-aytib o‘tilganidek, javhar-aslini maydonga keltiradigan narsalarga bo‘linmaydigandir. Bu shuning uchunki, ilk borliqning ma’nosini sharhlab beradigan biror ta’rifning o‘zi yo‘q. Bu ma’no uning ikki qismidan iborat bo‘lgan jihatini sharhlab bera olishga dalolat qiladi. Shunday bo‘lgan taqdirda javharlashishga (ya’ni, substansiyalashishga) yordam bergen bo‘laklari uning borligiga sabab bo‘lgan bo‘lardi. Bu xuddi tushuncha ma’no biror narsaning ta’rifiga bo‘lak bo‘lganidek, uning ta’riflanganiga sabab ham bo‘ladi. Shunday qilib, modda ham xuddi suvrat kabi ular ikkalovlaridan tarkib topishiga sabab bo‘ladi. Bu esa ilk borliqqa bog‘liq o‘laroq

mumkin bo'lmagan narsa. Chunki u ilk borliqdir, uning borlig'iqa butunlay sabab ham yo'qdir.

Shunday ekan, u bunday qismlarga bo'linmaydigani kabi, sonlarga (kammiya) yo qandaydir boshqa mayda parchalarga ham bo'linmaydi. Bundan ayni zamonda shu bir zarurat kelib chiqadiki, bunda uning ulug'ligi va uning aslo jismi yo'qligi ma'lum bo'ladi. Bu jihatdan esa u birginadir, xolos. Uning birligining ma'nosi ham shuki, u bo'linmasdir. Bundan chiqdi, har bir narsa biror sabab bo'lib bo'linmas ekan, demak, u bo'linmasligi jihatidan ham birdir. Bordi-yu, agar u fe'lli jixatidan bo'linmasa, bu jihatdan u birdir. Bordi-yu kayfiyat jihatidan bo'linmasa, u kayfiyat jihatidan ham birdir, o'z javharida bo'linmas ekan, u javharida ham birdir. Shunday ekan, Birinchi Borliq o'z javhari jihatidan ham bo'linmasdir.

5. UNING BIRLIGI ZOTINING O'ZIDIR, U ALLOH TAOLO, OLIM, HAKIMDIR, U HAQDIR. BARHAYOTDIR

O'zining borlig'i bilan u boshqa barcha mayjudotdan ajralib turadi, u zotida mavjud bo'lgan narsadan boshqada bo'lishi mumkin ham emas. Mana shuning uchun ham u o'zidan boshqa va zotida bo'lmagan barcha narsadan o'zining yagonaligi bilan ajralib turadi. Uning yagonaligining ma'nosi shuki, u o'ziga xos bo'lgan vujuddan iboratdir. Ana shu bilan barcha mayjudot o'zidan boshqa bo'lganlaridan farq qilib turadi. Xuddi ana shu holat barcha mavjud narsalar birdir, deyishga olib keladi. Bu shuning uchunki, u faqat ungagina xos bo'lgan vujudga ega bo'lganligi jihatidan shunday bo'ladi. Xuddi shu ma'no al-mavjud ul-avval (Birinchi Mavjud) ma'nolaridan biriga borib taqaladi. Birinchi borliq ham shunday. Shu jihatdan ham birinchi mavjud ham birdir, undan tashqari bo'lgan har qaysi birga birning ismi va uning ma'nosi to'g'ri keladi.

Madomiki, u modda emas ekan, biror sabab bilan modda ham bo'la olmagan ekan, u o'z mohiyati (bivujudihi) bilan fe'lli aqldan iboratdir (aqil bilfe'l). Chunki u aqlni suvrat bo'lishidan tutib turadi. Chindan ham u fe'l orqali aqlga keladi.

Bu esa modda bo'lib, unda biror narsa bor bo'ladi. Xuddi shuningdek, narsa moddaga muhtoj bo'limgan holda mavjud bo'lsa, bu o'z mohiyati bilan fe'lli aql bo'la oladi. Birinchi borliqning ahvoli mana shu. Shunday ekan, demak, bu holda u faoli aql (aktiv intellekt) bo'la oladi. Shu bilan birga u shunday o'z javhari bilan ma'qul, (ya'ni aql qabul qila oladi). Chindan ham, u o'z mohiyati bilan fe'lli orqali aql qabul qila oladigan sub'ekt bo'ladi. Chunki, u shuningdek, aql qabul qiladigan ob'ektdan aqlini tutib turadi va natijada, u modda bo'la oladi. U aql orqali qabul qilinadi, chunki uning o'zi aqldan iboratdir. Modomiki, o'z mohiyati e'tibori bilan aql bo'lgach, aql qabul qaladigan zaruratga ehtiyoji qolmaydi, natijada, o'zidan tashqaridan bo'lgan boshqa bir aqli bo'lgan zotga zarurati ham qolmaydi.

Balki, aksincha, uning o'zi o'z zotini bilishga qodir bo'ladi. Modomiki, u o'z zotidan fikr qilishga qobil bo'la olar ekan, u oqil bo'la oladi. Natijada uning zoti aqlga erishsa, u holda u fe'lli bilan aqlga ega bo'ladi. Shuningdek, u o'z fe'lli bilan aql bo'lishga qodir bo'la olmaydi, uning zotiga aql bo'lishga ham qurbi yetmaydi, natijada tashqaridan ham foydalana olmaydi. Balki u aql bo'la oladi, u o'z zoti bilan fikr qiladigan, oqil bo'la oladi. Zotining o'zi aqlga erishdimi, demak, uning o'zi ham aqlga erisha oladi. U bir jihatdan aqlga erisha oladimi, demak, u ma'quldir (aql qabul qiladigandir). Modomiki, u aql bo'lar ekan, demak, u aql qabul qiladigan ob'ekt ham bo'la oladi. Modomiki, u oqil bo'lar ekan, demak, uning barchasi yagona zotdan iborat u bo'linmaydigan bir javhardan iboratdir.

Inson o'zi, masalan, aql qabul qiladigan intellektdan iborat, lekin unda bor bo'lgan ma'qul (aqlii) narsa ham aqlini egallaydigan fe'l bo'lomaydi. Balki u qabul qiladigan quvvatdagi aql bo'la oladi. U aql o'z martabasiga erishadigan bo'lsagina qabul qila oladi. Demak, bundan chiqdi, insondagi aql qabul qiladigan-ma'qul narsa hech mahal intellekt bo'lomaydi (boshqacha qilib aytganda "aqlga olib kelolmaydi").

Ayni zamonda bizning aqlimiz oqil bo'limoq nuqtai nazaridan intellekt emas, bizning substansiyamiz oqil

bo‘lganligi sababli uni aql qabul qilolmaydi. Biroq, ilk borliq bunday emas. Bilamizki, substansiyamiz intellekt bo‘lgani uchungina emas, balki bizni aql egallay olishi nuqtai nazaridan olamdan xabardormiz. Ularning hammasi bir ma’noda tutashib ketadi. Ular bir javhar (substansiya) bo‘lib, bo‘linmas bir negizdan iboratdir.

Bilag‘on (olim) haqidagi ahvol xuddi mana shundan iborat. U o‘z fazilati bilan bilish uchun o‘z zotidan tashqarida bo‘lgan boshqa hech qanday narsadan foydalanishga o‘zida ehtiyoj sezmaydi. Xuddi shuningdek, uning o‘zini bildirishi uchun ham boshqa bir zotga zarurati yo‘qdir. Aksincha, uning o‘zi ham bilish va bilinishi uchun o‘z javhari (substansiya) bilan kifoyalanadi. Uning ilmi ham o‘z javharidan boshqa bir narsa emas. Natijada, u bilag‘ondir va bilingan hamdir. Uning bilimi esa yagona zot va yagona javhar (substansiya)dan iboratdir.

Shuningdek, u hakimdir, uning hakimligi eng yaxshi narsalarni eng afzal bilimlar bilan bilishdan iboratdir. U o‘zini tushunishi va bilishi bilan eng mukammal bo‘lgan narsalarni ham bilib oladi. Eng mukammal bo‘lgan bilim esa doimiy bilimdan iboratdir, u yo‘q bo‘lib ketmaydi, bu bilim esa uning o‘zini bilishidir.

Shuningdek, uning to‘g‘ri va haq bo‘lishining o‘zi ham ayni shu holatni bayon etadi. Chunki to‘g‘ri va haq bo‘lgan narsa shu bor bo‘lgan narsadan iboratdir. U shu narsaga xos bo‘lgan eng to‘g‘ri va haqiqat ham uning o‘zigagina oid bo‘lgan borlig‘idir. Eng mukammal borliq ham uning borlig‘idan olgan ulushidir. So‘ngra chindan ham to‘g‘ri va haq bo‘lgan va ba‘zan aql soyasida bor bo‘lgan – bu bor bo‘lish ham bir tushuncha nuqtai nazaridan-narsani aql qabul qilishiga aytildi. Unda bu mavjud-bor bo‘lganga ma’qil bo‘lishi nuqtai nazaridan to‘g‘ri va haq deyilur; chunki borliq – uni aql qabul qildimi-yo‘qmi, bari-bir, borliq deyiladi. Shunday qilib, ilk borliq ikki munosabat bilan haqiqat bo‘la oladi: biri – borligining eng mukammal borliq bo‘lishi bilan va boshqasi – ikkinchisi esa aql egallaydigan tarzda egallanadi va u o‘scha mavjud bo‘lgan narsa bilangina to‘g‘ri egallanadi va u o‘scha mavjud bo‘lgan narsa bilangina to‘g‘ri va haqiqat bo‘la oladi. U to‘g‘ri va haqiqat

bo'lmoq uchun ma'qul bo'lish e'tibori bilan tushunadigan va uning salohiyatini egallaydigan o'zidan boshqa kimsaga muhtoj emasdir. Yana u bu har ikki tomon aloqasi tufayli boshqa har narsadan yana ham to'g'ri bo'lishga loyiqidir. Uning to'g'riliqi va haqiqiyligi shundan iboratki, u to'g'ri va haqiqiylikdan boshqa bir narsa emasdir.

Shu bilan birga u tirikdir (hayy) va hayot bo'lishi nuqtai nazaridan ham ahvol shundaydir. Bu ikki so'z bilan ikki zotga emas, balki bir zotga ishora qilinmoqchi. Chunki tirik (hayy)ning ma'nosi eng afzal aql bilan eng mukammal ma'qulning qamrab olishidan iboratdir, va yoki eng mukammal biluvchining eng mukammal bilim bilan qurollanishidan iboratdir.

6. ALLOHNING ULUG'VORLIGI, SHON-SHAVKATI VA OLIJANOBLIGI HAQIDA SO'Z

Shuningdek, bu uning ulug'vorligi, shon-shavkati va olidianobligiga ham taalluqlidir. Chunki ulug'vorlik, shon-shavkat va olidianoblik biror narsada namoyon bo'lgan, bu uning kamolot hosil qilganiga bog'liq, yo bo'lmasa o'zining javhari (substansiyasi)ga bog'liq, yo bo'lmasa o'zining birorta oraz (aksidensiyasi)ga bog'liqdir. Bu narsa ko'pincha tasodifiy kamolot haqida gapirilganda, xusumat biz haqimizda gapirilganda seziladi.

Chunonchi, boylik, ilm va yo badan hodisalaridan biror narsa gapiriladi. Birinchi borliq kamolotiga ko'ra boshqa barcha narsadan ajralib turadi. Masalan, uning ulug'vorligi, shon-shavkati va olidianobligi boshqa barcha ulug'vorlik va shon-shavkatdan ajralib turadi. Uning ulug'vorligi, olidianobligi va sharafi uning asli-ildizi bo'lib, bu uning javharidagi kamoloti bo'ladi. (Lekin) uning javhari (substansiyasi) va zotidan tashqari bo'lgan boshqa bir narsa bo'lolmaydi. U o'z zoti bilan ulug'vor, olidianob va sharafli bo'ladi, uning asli o'zidan boshqa har qanday bir narsaga qaram emas. U boshqasini qanchafik maqtasin yo maqtamasin, buyukligini ko'kka ko'tarsin yo ko'tarmasin, sharafini yuksaltirsin yo

yuksaltirmasin, baribir, o'zi buyuklikka, o'zi shon-sharafga sohibdir.

Barcha mavjudotning husni, go'zalligi, ziynatining (xosiyati) shundan iboratki, u o'z vujudini afzal holatga keltirib, so'nggi kamolotga erishadi. Shunday qilib, ilk borliq eng mukammal (afzal) vujud bo'lgach, uning go'zalligi ham go'zallik sohibi bo'lgan har qanday chiroydan ustun turadi. Xuddi shundayin, barcha go'zallik sohibining ham ziynat va go'zalligida shunday bo'ladi. So'ngra bularning hammasi uning zoti (mohiyati)da va javhari (substansiyasi)da bo'ladi. Bu esa uning o'zi (borliq)da bo'ladi va uning ko'magi bilan zoti aql qabul qilgan bo'ladi, demakdir.

Ammo bizga kelganda, shuni aytish kerakki, bizning jamolimiz, ziynatimiz, go'zalligimiz bizning orazimiz (aksidensiyamiz)da bo'ladi, bizdan tashqarida bo'lgan narsalarimizda, zotimizda, javhar (substansiya)mizda ham bo'lmaydi. Undagi jamol va kamolot bir zotdan boshqada bo'lmaydi. Xuddi shunday ahvol boshqa narsalarda ham yuz beradi.

Lazzat, shodlik va farog'at yuz beradi, o'zining to'laqonliligi eng go'zal, eng ulug'vor va eng ziynatli narsani ko'proq idrok qilish bilan nihoyasiga yetiladi va kamolotga yetkaziladi. Demak, ilk borliq nihoyatda go'zal, oljanob va eng ziynatlidir. Uning o'z zotiga bo'lgan idroki butunlay nihoyasiga yetgan, mukammal edi. Uning o'z javhari (substansiyasi) bilan egallagan o'sha bilimi esa mutlaqo eng afzal ilmlardan edi. Ilk borliq lazzatlanadigan lazzat tabiatini biz hatto idrok qilishga ham erisha olmaymiz, uning ulug'lik miqdorini ham bilolmaymiz. Bilsak ham faqat qiyos (analogiya) bilan, o'zimiz lazzat deb biladigan narsamiz orqali sezibgina bilamiz. Bular nazdimizda nima bo'lgan bo'lsa, o'shaning hammasi eng mukammal, eng go'zal va nihoyasiga yetib idrok qilingan bo'lsa bo'ladi; bular yo his bilan va yo xayol bilan yoki bo'lmasa aqliy bilimlar jarayoni bilan tugallanadi. Bunday hollarda bizda shunday lazzat paydo bo'ladiki, go'yo u o'zidan ustun bo'lgan barcha buyuk lazzatlardan baland keladi. Garchi bu hol bizga lazzat paydo qilsa ham, biz unda bularning hammasi ulug'likda barcha

lazzatlardan ham yuqori turishini bilib olamiz. Garchi bu hol bizni baqoga erishtiradigan va tez o'tar bo'lsa ham, ana shunda biz o'zimizni baxtga o'ta sazovor va unga g'arq bo'lgan deb bilamiz.

Uning ilmining qiyosi va asl zotidan afzał bo'lgan uning idroki eng go'zal, eng porloq bo'lgan narsaning tamoman mukammal bo'lgan bir yo'sinda idrok etganimiz misoli bir uning sururi, qiyosi, lazzati va rohat-farog'ati bizning zavq-shavq bilan kutib olishimizni bildiradi. Chunki bu ahvolda bizda buyuklik nuqtai nazaridan butunlay boshqa rohatdan ustun bo'lgan bir rohat-farog'at hosil bo'ladi va shunda biz o'tmiga qo'yganimiz bilan natijasi va buyuk bir baxtlilik tuyg'usi bilan to'lamiz. Shundayki, bu ahvol bizda uzoq muddatli emas, balki tezginada o'rtadan ko'tariladi. U holda ilk borliqning o'zi eng mukammal, eng go'zal va eng porloq bo'lgan narsa haqidagi bilimi va idroki bizning o'zimizga ko'ra eng mukammal va eng porloq bo'lgan narsa haqidagi bilim va idrokimiz bilan yuzma-yuz kelib qolsa, bizning o'zimiz erishganimiz chegarali xursandchilik, sevinch va baxtliligidir oldida uning shodligi, sevinchi va baxtliliği kabitidir. Endi bizning idrokimiz bilan uning idroki orasida bizning bilimimiz mavzui bilan uning bilimi mavzui orasida hech bir nisbat bo'lmaganiga ko'ra-bunchalik bir nisbat bo'lsa so'ngsiz darajada ahamiyatsizdir-bizga tuyulgan rohat, shodu-xurramlik bilan ilk borliqning tuygan xursandchiligi orasida hech bir nisbat yo'qdir. Oralarida bir nisbat bo'lsa ham, bu o'ta ahamiyatsizdir. Chunki kichik bir parcha bo'lgan bilan zamон ichida miqdori chegarasiz bo'lgan bir narsa orasida qanday nisbat bo'lishi mumkin va yana oxirgi darajada kamchilikli bo'lgan bir narsani yuksak mukammal darajasida bo'lgan narsa bilan qanday nisbati bo'lishi mumkin? Shunisi borki, uning o'zi o'z zoti bilan lazzatlanadi, ko'proq shod-xurramlikka erishadi, o'zi bilan o'zi rohatlanadi, rohatlanganda ham uning (ya'ni rohatning—*tarjimon*.) eng ulug'veriga erishadi. U o'z zotini sevadi,unga oshiq, o'zi o'ziga ko'proq berilgan.

Shunday qilib, ochiq-oydinki, Birinchi Sabab o'z zotini yaxshi ko'radi. Uning o'zi o'ziga mahliyo va o'zi bilan o'zi

mag'rur bo'lishi bilan o'zimizni o'zimiz sevishimizdan paydo bo'lgan ishqimiz orasidagi nisbat uning o'zining ustunligi va mukammalligi bilan bizning o'zimizdan g'ururlanganimiz o'sha ustunlik va mukammalligimiz orasidagi nisbat kabitdir. Shu Birichi Sababdag'i muhib-sevguchi (o'sha) mahbub-seviluvchining o'zidir. Bu esa oramizda bo'ladiganning teskarisidir. Chunki biz uchun ma'shuq — u fazilat va jamolgo'zallikdan iboratdur. Vaholanki, oramizda bo'l mish oshiq hech qanday jamol va kamol — fazilatga erishmagan bo'ladi. Lekin oshiq boshqa quvvatga ega bo'ladi. Ammo u na ma'shuqqa va na sevgi ob'ektiga tegishli bo'ladi.

Ammo chindan ham oshiq misoli o'sha ma'shuqning o'zidir. Muhib-sevuvchi o'sha seviluvchi-mahbubning o'zidir. U Birinchi mahbub va Birinchi ma'shuqdir. Harqalay, birining uni sevishi va yoki sevmasligi, unga oshiq bo'lishi va yoki bo'lmasligining ahamiyati yo'qdir. U ilk sevgan va oshiq bo'lgandir.

7. BARCHA BORLIQ QANDAY QILIB UNDAN SODIR BO'LGANI HAQIDA SO'Z

Ilk borliq shunday borliqki, undan barcha borliq vujudga keladi. Chindan ham Ilk borliqning qay vaqtidan beri borligidan boshlab, undan nima yuzaga kelishi, barcha borliq inson orasidagi bog'liqlikmi yoki Uning ixtiyori bilanmi, — bizga ma'lum bo'lgan borliq hislar orqali bilinadimi yo burhon — isbotlar bilan bilinadimi — (shularni qamrashi kerak.) Undan vujudga kelgan narsaning borlig'i shundayki, u boshqa bir narsaning borligiga kerak bo'lgan fayzning natijasidir. Ilk borliqdan boshqa bo'lgan har qanday bir narsaning borligi uning o'zining borligidan sodir bo'ladi. Shu nuqtai nazardan undan vujudga kelgan narsaning borligi Ilk borliqdan kelib chiqadi, bu esa uning o'zining borlig'inining nihoniy sababchisi degan gap emas. Bu xuddi Birinchining borlig'i misoli hir o'g'ilning borligiga ota-onasi borligi sabab bo'lgani kabitdir. Bu degan so'z (Birinchi Borliqdan) yuzaga keladigan narsa ko'pincha unga qandaydir mukammallik keltiradi. Misol uchun,

biz birovga pul berdik, buning evaziga biz ulardan minnatdorchilik eshitdir yo bo'lmasa qandaydir boshqa yaxshiliklar ko'rdik. Bu bilan biz o'zimizda qandaydir barkamollik paydo qilamiz. Demak, ilk borliqning borligi boshqa har qanday bir narsaning borligi uchun emasdir va boshqa bir narsaning borligining o'zi ham uning borligini maqsad qilib olib, usiz yashay olmaydi. Chunki agar shunday bo'lganda edi, bu holda uning borligi tashqi bir sababga ega bo'lgan bo'lardi. Shu bilan u boshqa Birinchi Sabab bo'la olmasdi.

Undan tashqari boshqalarga mayjudlikni berib, uning o'zidan avval paydo bo'lмаган barkamollikka erishmaydi. Bu xuddi pul berib yo boshqa biror bir narsa berib, uning evaziga lazzat yoki minnatdorchilik, yo ustunlik, yo bo'lmasa yaxshiliklardan birortasiga ega bo'lishga o'xshab ketadi. Bu narsalarning hech biri birinchi borliq bilan sodir bo'lishi mumkin emas, chunki bu uning birinchiligini va avvalligini barcha sohada xarob qilgan bo'lardi va u o'zidan tashqarida bo'lgan bir borliqni va uning mayjudligi sababini vujudga keltirgan bo'lardi.

Aksincha, Ilk borliq faqat o'zining borligi uchungina mayjud, boshqa mayjudot esa uning o'zida bordir. Demak, bu uning javhariga va uning borlig'iiga aloqador bo'ladi. Shuning uchun ham uning borligi boshqalarga toshib o'tib, boshqa mayjudotlarga va ular javhariga borliq baxsh etadi. Natijada uning borlig'i aslida javharini tashkil qilib, u shu bilan birga o'zidan boshqasi borligini yuzaga keltiradigan borliqning ayni o'zidir. Lekin ilk borliq hech mahal ikki qismga bo'linmaydi: uning biri bilan u o'z zoti aslini javharlashtirishini yuzaga keltirsa, boshqasi bilan esa undan boshqa narsaning hosil bo'lishini, ya'ni bir narsaning o'zidan chiqqan ikki narsaga bo'linmasligini bildiradi. Bu xuddi biz ikki unsurdan tuzilishimiz kabidir: (go'yoki) ulardan biri bilan biz javharimizni bilib olamiz, boshqasi bilan esa yozish san'atini, asarlar ta'lif qilish yo'l-yo'rig'inib bilib olamiz. Balki u yagona zot va yagona javhardan iboratdir, uning o'zidan boshqa narsalar yuzaga keladi.

U tufayli undan xuddi uning o'ziga o'xshagan boshqa bir narsa yuzaga keladi. Shuningdek, uning vujudidan fayz oladigan va o'z zotidan bo'limgan boshqa bir narsaning bo'lishiga ham uning ehtiyoji yo'qdir. Xuddi shunday unga na oraz (aksidensiya) kerak yoki na u avval sohib bo'limgan, (ammo) unga shakl beradigan harakat kerak, na o'z zotidan tashqarida bo'lgan olat kerak, (ularning hech qaysisiga uning ehtiyoji yo'qdir). Bu xuddi olovda yuz beradigan zaruratga o'xshab ketadi. Suvdan bug' chiqarilib, so'ng haroratga aylanishi uchun u orqali suv bug'latiladi, u shu bug'latilishga muhtojdir. Shu bilan birga quyosh dunyomizga issiqlik berish uchun harakat etishga ham muhtoj. U o'z harakati tufayli avval sohib bo'limgan holat ega bo'ladi. Bu harakat bilan erishilgan holat natijasida telegramizdagi narsalarda issiqlik hosil bo'ladi. Bu xuddi duradgorga daraxtni arralashga arra, bo'lish va parchalashga bolta kerak bo'lganiday bir holdir.

Shundayki, ilk borliqning mavjudligi boshqasining borligining fayzi bilan o'z javharidan bo'lgan borliqdan yana ham mukammal bo'limgani kabi, o'zining javharlashgan borlig'i ham o'zidan boshqasining borligidan mukammal emasdир. Balki bularning ikkalasining ham zoti birdir.

Demak, undan fayz olishga hech kim to'siq bo'lolmaydi, garchi u to'siq uning o'zidanmi yo bo'lmasa undan tashqaridanmi — buning farqi yo'q.

8. MAVJUDOT DARAJALARI HAQIDA SO'Z

Mavjudot ko'pdir. U shu ko'pligi bilan birga mukammalligi bilan ham farqlidir. Ilk borliqning asli shundayki, ular xoh mukammal bo'lsin, xoh nuqsonli bo'lsin, baribir, qanday bo'lishidan qat'i nazar, barcha borliq undan fayz olgan asldan iborat. Uning asl javhari shunday bir asl zotki, barcha mavjud bo'lgan narsalar uning o'zidan toshib (fayz olib), bu sirada o'z darajalariga ko'ra, undan ayrılib borliqqa keladilar va har bir bor bo'lgan o'zini borliqdan ayirganiga va ilk borliqqa

yaqinlik darajasiga ko'ra maydonga keladi. Borliq nuqtai nazaridan qaraganda, bu vaqtida eng mukammal bo'lgandan boshlanadi. Uning ketidan ozroq mukammal bo'lgan narsa keladi. Shunday qilib, mukammal bo'limgandan yana ham oz mukammal bo'lganlar, ya'ni nuqsonli bo'lganlar keladi. Shunday qilib, nihoyat borliq nuqtai nazaridan shunday darajaga yetib kelinadiki, uning narigisida hech qanday boshqa borlik bo'lmasligi ayon bo'ladi, demak, undan tashqarisida boshqa vujud yo'qdir. Uning javhari undan bor bo'ladigan barcha borliqning javhari kabitidir. Busiz u o'z borlig'idan ham farq qilgan bo'lardi.

Ilk borliq o'z zotidan juvonnard — saxiydir va uning juvonnardligi uning javhari — aslida singdirilgandir. Undan mavjudot qismilarga bo'linib, tartiblanadi. Ilk borliq bu darajalarga bo'linar ekan, unga qanday bog'liqligi bo'lsa, o'shanchalik o'z ulushini oladi. Shunday qilib u odil va uning odilligi uning javhariga singdirilgan va undan ilgari keladi. U narsa javharidan tashqarida bo'lgan qandaydir hitor narsadan ilgari kelmaydi.

Ilk borliqning asli — javhari ham shunday, agar mavjudot undan paydo bo'ladigan bo'lsa, o'zlarining darajalariga qarab birlashadilar, bir-birlariga bog'lanadilar, tartibga tushadilar. Bu shunday bo'ladiki bu qadar ko'pchilikning hammasi misoli bir narsa yaxlit kabi borliq sifatida maydonga keladi. Ularni bir-biri bilan birlashtiradigan va bog'laydigan narsa ular javharidan oldin keladi, shundayki, ularning borliqlarini tashkil etgan o'zlarining javhar — asllari ularning birlashishlari va kelishishlарни yuzaga keltiradi. Ba'zilarida esa bir-biriga bog'liq bo'lgan javhar asosida yuz beradi. Chunonchi, inson borliqlarini bir-biri bilan birlashtirishga xos bo'lgan muhabbat kabi. Bunda ularning hollariga bog'liq bo'lib, ularning borligini tashkil etadigan javhariga aloqasi yo'qdir. Chunki sevgi-muhabbat insonlarda bo'ladigan bir holatdir, lekin u javhar emasdir. Bularning bu holları ilk borliqdan yuzaga keladi. Chunki ilk borliqning javhari — asli shunday bir javharki, boshqa borliqlar o'z javhari bilan birga ularni bir-biri bilan birlashtiradigan kelishtiradigan va bir butunlikni tashkil etishni saqlab qoladigan hollarini ham undan olgan bo'ladi...

11. MARTABALAR O'RTASIDAGI BO'LINISH, MODDIY VA ILOHIY BO'LINISHLAR HAQIDA SO'Z

Bu mavjudotning tartib va darajalari avvalo eng nomukammallikdan boshlanadi. So'ngra o'zidan yanada mukammal bo'lgandan tortib, undan ham mukammal bo'lganga qarab boradi va hattoki undan oshib bo'lmaydigan darajadagi mukammallikka erishgunga qadar ham boradi. Ularning eng past qadrlisi mushtarak bo'lgan ilk moddadir. Unsurlar bu ilk moddadan ham qadrlisi sanaladi. Keyin bular sirasiga ma'daniy jismlar kiradi. Til va tushuncha sohibi bo'lgan tirik zotdan ortiqroq mukammal bo'lgan biror zot yo'qdir.

Ammo avval eslatilgan mavjudotga kelsak, ular tartibi shundayki, ular eng afzal darajalar bilan boshlanadi. Ulardan oldin eng mukammal bo'lgani keladi. Keyin eng qusurli bo'lganga yetgunga qadar yana ko'p mukammallikdan oz mukammallikka qarab boradi. Ular ichida eng mukammal bo'lgani ilk borliqdir. Ammo ilk mayjud zotdan yuzaga kelgan borliqlar orasidan chiqqan eng afzali bir so'z bilan aytganda bular jism bo'lmagan va jismlardan deb hisoblanmaganlardir. Undan so'ng samoviy jismlar keladi. Moddadan ajralib bor bo'lganlar ichida eng mukammali ikkinchisidir. Undan so'ngra tartib bilan to o'n birinchiga yetgunga qadar boshqalari keladi. Eng yuksak jismlar ichida eng mukammali avvalgi osmondir. Keyin ikkinchisi keladi. Keyin boshqalari kelib, u to tugagunga qadar o'n birinchisigacha keladi. Shu bilan u oy kurrasiga qadar keladi. Ilk borliqdan so'ng keladigan ajralgan sonlar sanog'i o'ndir. Osmon jismlari to'plami to'qqiz donadir, xulosa qilib aystsak, bularning hammasi o'n to'qqizdir.

Har bir o'nta (borliq)da o'z yo'liga bittadan darajalari bo'ladi. Uning borlig'i o'zidan boshqa hech kimga hech qachon tegishli bo'lmaydi, chunki boshqasi uning borlig'iga qatnashadi. Bu butunlay boshqa bo'lib, u hu so'nggisidan butunlay farq qiladi. U zaruratiga ko'ra undan ajralib turadigan boshqa bir narsaga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib bu holatda boshqa borliqning borligi chindan ham, uning borlig'inining ayni o'zi bo'lolmaydi. Shunda bu boshqa borliqning o'zining

borligi o'sha tufayli bor bo'lganligiga qaramasdan bor bo'lolmas edi.

Bundan chiqdi, demak, ikki vujud bir xil vujud bo'lmay, balki ularning har biri boshqasiga xos bo'lmay, o'zigagina xos bo'lgan vujud bo'ladi.

Shunisi ham borki, yana har birining qarama-qarshi tomoni ham bo'lishi mumkin emas, chunki ziddi bo'lgan har bir narsada shunday holat bo'ladi, unda o'ziga va ziddiga mushtarak bo'lgan umumiy bir modda bo'ladi. Ammo hu ortiqcha borliqlarning hech birining moddasi bo'lishi mumkin emas.

Yana shunday, bir turga oid bo'lgan o'sha bir narsaning o'zining xili ko'pligining o'zi bu turning shakli sonining ko'p bo'lishidandir. Ammo shunisi ham borki, moddasi bo'limgan har bir narsa navida o'zidan boshqa bir narsaning ziddi bo'lishi mumkin ham emas.

Shuningdek, zidlari esa yo asl — javharlari qarama-qarshi bo'lgan narsalardan yuzaga keladilar va yoki ahvollari xuddi sovuq yo issiq kabi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bir narsadan yuzaga keladilar.

Shu bilan birga zidlari shu narsadan yuzaga keladilar: yo asllari bir biriga qarama-qarshi bo'lgan narsalardan paydo bo'ladi, yoki hollari va nisbatlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bir narsadan yuzaga keladilar. Misoli sovuq yo issiq kabi.

Bu ikkalasi ham quyoshdan chiqadilar. Ammo quyoshning turli-tuman ikki xil holati bor. Ba'zan u dunyoga nisbatan yaqinlashadi, ba'zan uzoqlashadi. Mana shu ikki qarama-qarshi holatda bir-biriga teskari bo'lgan hollar va nisbatlar chiqadi.

Demak, ilk borliq ikkinchi borliqqa nisbatan zid bo'lolmaydi va uning hollari ikkinchi bor bo'lganga nisbatan ham zid bo'lolmaydi: ikkinchiga bo'lgan nisbati ham biror zidlik munosabatida bo'lmaydi. Ikkinci borliqda ham biror qarama-qarshilik bo'lishi mumkin emas. Xuddi shuningdek u to o'ninchiga yetgunga qadar uchinchi va boshqalarida ham shu holat yuz beradi.

O'n ilk borliqning har biri o'z zotini tushinadi va ilk borlijni ham tushinadi. Lekin shunisi borki, ularning hech biri ham o'z zotini tushinishda undan ortiqcha qobiliyatga ega bo'lolmaydi. Balki aksincha aql qabul qiladigan fazilatning hammasini to'laligicha o'zlashtiradi. Shunda u buni ayni shu holda o'z zoti bo'lgan Birinchi sabab bilan o'zlashtiradi.

Ilk borliqning mukammalligi ularning har qaysisining mukammalligidan qanchalik ortiq bo'lsa-da; ularning har birining ilk borlijni tushingan zamон sezilgan zavq uning o'zini tushingan vaqt sezilgan zavqdan o'shancha ortiqchadir.

Bu xuddi shuningdek, Birinchi sababga erishib, uning o'z zoti bilan lazzatlanishi uning o'ziga bo'lgan zavq va sevgisidan afzal bo'lgani kabi. Bu xuddi o'z go'zalligi va zavqiga erishgan kabi Birinchi sababga erishganidekdir. Shunday qilib ularning har biri dastlab Birinchi sababga qanday erishgan bo'lsa, o'shanday birinchi mahbub bo'ladi, xuddi avvaldan aql olgandy.

Birinchi sabab zavqlanadigan bo'ladi. Undan keyingina o'z zotidan aql oladi.

Birinchi sabab bu o'sha o'nta borliq bilan aloqadorligi tufayli u Birinchi mahbub va Birinchi ma'shuq ham bo'ladi.

12. OSMON JISMLARI NIMALARDA ISHTIROK ETISHI HAQIDA SO'Z

Osmon jismlari to'qqiz turkumdan iborat bo'lgan to'qqiz darajalardan tashkil topadi. Har bir turkum doiraviy bir jismni qamrab oladi. Uning birinchisi faqat yagona jismdan iborat bo'lib, u faqat doiraviy tusda tez harakatda bo'ladijan jism ichida bo'ladi. Ikkinchisi esa biror mushtarak harakatga sohib bo'lgan jismni qamrab oladi. Bu esa faqat ikki harakatga sohibdir, ular darajasida ishtirot etadilar. Uchinchisidan keyin kutilgan yetti jismga qadar bo'lgan har bir jism o'z harakatlariiga o'ziga xos bo'lgan ko'p jismlarni qamrab oladi.

Bu jismlarning har birining o'ziga xos harakatlari bilan birga boshqalari bilan mushtarak bo'lgan boshqa harakatlari ham bo'ladi.

Bu jismlarning barchasi jins nuqtai nazardan ayni bir xil bo'lib, tur jihatidan bir-biridan farq qiladiganlardir. Har bir turda bir jismdan boshqa jism bo'lmaydi. Shu shaklda bu jism bilan hech qanday qo'shilib ketadigan narsa ham bo'lmaydi. Masalan, quyoshni olsak, uning turiga sherik bo'lib ketadigan boshqa biror nav narsa bo'lmaydi. U o'z borligida yakkayu yagonadir. Oy va shunga o'xhash sayyorlarda ham ahvol ayni shuning o'zidir. Bular barchasi osmoniy jismlar bo'lib, ular moddiy jismlarni eslatadi, ular shakl va asos – substansiyaga o'xhash shaklni qabul qiladigan bir xil sababga egadir. Bu shakllar mana shu sabablar (al-mavzuot) ichidadir. Shunisi ham horki, bu suvrat – shakllar qarama-qarshiliklarga ega emasdirlar. Bu osmoniy jismlarning hech qaysisi ham o'z shaklidan boshqa hech qanday shaklni qabul qilishga qobil bo'la olmaganlari kabi usiz hatto mavjud ham bo'lolmaydilar. Chunki bu sabablarni tashuvchi unga mos har qancha suvrat-shakllar yo'q bo'lmaydi, sababi shuki, uning suvratlari aql qabul qilishiga to'sqinlik qilmaydi yoki o'z mohiyat e'tibori bilan aql qabul qiladi.

Shunday qilib, har bir samoviy jism o'z suvrat-shakllari orqali aql qabul qiladiganlardan sanaladi, ya'ni bilfe'l aqldir. Bu esa ma'lum bir borliqni biladi va ilk borliqni tushunadi degan so'zdir. O'z zotidan aql oladigan barcha narsalar ham aql bo'la olmaydi, chunki uning (ayni bir holda) o'z sababini aql qamrab ola oladi. Vaholanki, bu narsa (ya'ni sabab) unga aql qamrab oladigan narsa emas edi. Demak, modomiki, o'zini tushungan suvratda aql bo'lish bilan birga o'z shaklida aql qabul qila olmaydigan bir aql ham bor bo'ladi. Bundan chiqqi, o'sha narsa barcha javharlanadigan va tasvirlanadigan narsani aql qabul qiladi. Demak, u o'z mohiyati bilan bir shakl va sababdan tuzilgan bo'ladi. Xuddi mana shu bilan moddadan va birinchi sababdan va har turli uni tashuvchi bo'lmish ilk borliq va o'nta moddiy borliq va boshqa barcha sabablardan farq qiladi, inson bo'lsa shu mushtarak bir narsa bilan qatnashadi.

Har bir osmon jismlari o'z zoti e'tibori bilan o'zidan lazzatlanadi. U faqat o'z zoti bilan bog'liq bo'lgan narsalarni bilib ulgurgani bilangina emas, balki birinchi sababni bilib

ulgurgani bilan lazzatlanadi, undan so'ng o'z zotidan ajralgan vujuddan aql oladi. Shu bilan birga u birinchiga bo'lgan ishqil bilan, o'zi bilan o'zi mahliyoligi bilan qatnashadi. Bu narsa Birinchi sababdan sodir bo'ladigan go'zallik va jamol bilan yuzaga keladi. Aslida esa bu narsalarning barchasi o'sha o'n (aqldan) pastda turadi.

Bunda ishtirok etadiganlardan hayulloni — moddiylari ular ichida eng sharaflisi va eng afzali sanaladi. Chindan ham bu narsaning eng ustun bo'lgan shakllari bo'ladi, bu doira shaklida bo'ladi. Ularning eng yaxshi ko'rinishli sifatlari bo'ladi. Bu esa ziyyodur. Chindan ham uning ba'zi qismlaridan ziyo chiqariladi. Chunonchi, bunga yulduzlarni misolga olsak ham bo'ladi. Ularning ba'zi qismlari shaffof bo'ladi, chunki ular o'zlarini dan-o'zlarini nurga to'la, ba'zisi nurni yulduzdan oladi. Ularda eng afzal harakatlari ham bo'ladi. Bu doiraviy harakatdan iboratdir.

Osmon jismlarining o'ntasi avval boshdan ularning javharlarini tashkil etadigan eng afzal mukammal asoslari bilan birlashadilar. Shu bilan birga ular o'zlariga xos bo'lgan ulug'lik, shakllari va kaysiytlari ko'rindigan tomonlari bilan kamolot hosil qiladilar.

13. OSMON JISMLARI HARAKATI VA ULARNING QAYSI NARSAGA NISBATAN HARAKAT QILISHI HAQIDA SO'Z

Osmon jismlari o'sha (o'ntadan) shu bilan farq qiladiki, unda hammadan oldin unga tomon intilishi mumkin bo'lgan to'g'ri harakatlarida maqsad ayon bo'lmaydi. O'z-o'zidan to'g'ridan-to'g'ri harakat etadigan narsa bir jism bilan yuzaga kelgan eng unimsiz va eng quyidagi orazlar guruhidan sanaladi. Chunki har bir jism biror (ma'lum) yerda bo'ladi. Bu jism ega bo'lgan yer turida esa bir jismga aylanish zarurati paydo bo'ladi. Bu turdan bir yerga ega bo'lgan bir jism bir butun bo'lgan holda bu turning butunligidan tashqari chiqolmaydi. Lekin bu navlarning parchalari hor, bu yerda bo'lgan jismlarning ham parchalari hor. Endi bu jismning parchalaridan

hech biri uning o'rinalashgan erining bo'laklaridan qaysi birida bo'lmasin, bir boshqa parchasi bo'lishidan a'lo emasdir. Aksincha, bu jismning har bir parchasi uni o'rab olgan yerining har bir parchasini bir-birining ortidan egallab olishi kerak edi. Ayni shaklda u bu parchani har qanday vaqtida bo'lsa ham egallab olishi boshqa bir vaqtida egallashidan a'lo emas edi. Jismning har bir qismi istagan vaqtida o'sha o'rab olgan bo'lakni egallay oladi.

Shunday qilib, bu holat doimiy yuz berib turadi. Jismning har qanday bir parchasi belgilangan yerning ma'lum bir parchasini ishg'ol eta borgan har gal o'zini o'rab olgan va shu tariqa u doimiy bo'lib turishi zarurdek bo'lib ko'rindi. Shu vaqtida o'rinalashgan yerning ikki parchasini bir vaqtning o'zida jismning bir parchasi tarafidan egallanishi imkonsizdir. Chunki o'zining tevaragidagi bor imkoniyatlarining hamma qismlarini izchil ravishda egallamasdan turib, o'zi bor bo'lgan va (kelajakda) boshqasining yo'nalishi (jismning parchasi) o'z makonini tark etishi kerak. Chunki unda bo'lgan qism bu vaqtida u bilan vaqt jihatidan avlo bo'lomaydi. Bu esa unga doimo (shunday) bo'lishi kerak edi. Bordiyu agar u qism unga doimo tegishli bo'lмаган ekan, vaholanki, u son jihatdan (vohidan bi-l-adad) u o'z navbatida yakkayu-yagonadir. Bu esa shuning uchunki, goho u unga tegishli bo'ladi, goho tegishli bo'lmaydi. Keyin u navi o'z o'xshashiga qaytadi. So'ng, shuningdek, undan bir qancha vaqtga bo'linadi. Keyin uchinchi o'xshashiga qaytadi. Shu bilan bir qancha vaqtga undan bo'shaydi, keyin to'rtinchi o'xshashiga qaytadi. Shu tariqa u benihoya bu zaylda davom bo'laveradi.

Bundan ma'lum bo'lishicha, uning doirasida harakatga kelgan jismlar u bilan o'rin almashinadilar va ularga qaytadilar, bular hammasi tevaragida samo bo'lgan jismlar bilan munosabatda bo'ladilar. Bu yerda nisbatda bo'lgan so'zning ma'nosи shuki, agar shunday deyilsa, bu shunga tegishli yo bu shunday kelib chiqqan yo shunga o'xshash deganidir!...

¹ Qolgan qismi tarjimada tushirib qoldirildi.

18. INSON JONI VA QUVVATLARI BO'LAKLARI HAQIDA SO'Z

Insonning borliqqa kelishi bilan dastlab o'rtaga tushgan narsa shu bo'ladi, unda u o'zini boqadigan quvvat paydo qiladi. Bu esa g'izolanuvchi quvvat edi. Bundan so'ngra o'rtaga chiqqan narsa misoli bir issiqlik, sovuqlik kabi jismga tegib bilinadigan tuyg'un quvvatlar, ta'm, hid, ovoz kabi seziladigan narsalar va rang, ziyo kabi barcha ko'rildigani narsalar bo'ldi. Ammo shunisi ham borki, tuyg'ular paydo bo'lishi bilan birga boshqa bir quvvat ham o'rtaga chiqadi. Bu esa tuyulgan narsalarga bog'liq bo'lib, ularni istash va yoki ulardan qochish tarzida yuzaga keladi. Undan so'ngra insonda butunlay boshqa bir quvvat o'rtaga chiqadi. Bu unga tegishli hislar kuzatuvlarida g'oyib bo'lganidan so'ng bu orqali uning o'zida o'rnashgan tuyg'un narsalarni saqlab qoladi. Bu esa mutaxayyila – xayol qilish quvvati edi. Bu quvvat bilan inson tuyg'un narsalarni bir-biri bilan birlashtiradi, yo bo'lmasa ularni bir-biridan ayiradi. Bu tarkib bo'lgan narsalar yo ayirilgan narsalar turli-tuman bo'ladi, bularning ba'zilari yanglish – kozib bo'ladi, ba'zilari to'g'ri – sodiq bo'ladi. Bu xayol qilingan narsalar bilan bog'liq holda bu quvvatga kelib tutashadi. Bundan keyin esa insonda aql quvvati maydonga chiqadi, bu bilan inson aql qabul qiladigan narsalar – ma'qulotni bilmak imkoniga erishadi. Bu tufayli u go'zal bilan xunukni bir-biridan ayira oladi, san'at bilan bilimni yaratadi. Shuningdek, u aql qabul qiladigan narsalar bilan bog'liq bo'lgan bir orzu ham bu quvvatga kelib tutashadi.

Bulardan g'izolanuvchi quvvat esa unda yakkayu yagona boshqaruvchi (rais) quvvat bo'lib, u bir qator yordamchi va xizmatkorlari bo'lgan quvvatlardan iboratdir. G'izolanuvchi quvvat asosiy quvvat bo'lib, u badan a'zolari orasida – og'izda bo'ladi. G'izolanuvchi va yordamchi bo'lgan quvvatlar boshqa quvvatlar orasida tarqatilgan bo'ladi. Bularning har biri ma'lum bir quvvatga o'rnashgan bo'ladi. Bu quvvatlar ichida hukmron hisoblangan quvvat o'z tabiatini bilan boshqa quvvatlarni idora qiladi. Boshqa quvvatlar o'z harakatlarida ularga o'xshab ketadi. Ular hukmron quvvatlar fe'llarida markazi qalbda bo'lgan tabiiy g'arazlariga o'xshaydi. Bu xuddi

me'da, jigar, qorataloq kabi bunga xizmat qiladigan a'zolar, bu xizmat qiladigan a'zolarga xizmat etadigan a'zolar va bu a'zolarning xizmatkori bo'lgan boshqa a'zolar ham shu qabildadir. Chunki qorataloq (o'z tabiati bilan) ham boshqaruvchi a'zo, ham boshqariladigan a'zodir. U qalbning ma'muri hisoblanadi, u o't, buyrak kabilarga o'xshash a'zolarning amiri sanaladi, siyidik qopi buyrakka, buyrak qorataloqqa, qorataloq qalbga xizmat qiladi. Boshqa a'zolarning ahvoli ham ayni shuning o'zidir.

Tuyg'u quvvatining (al-quvvatu al-xossa) ham bir amiri, ham uning yordamchilari bor. Yordamchilari esa o'sha hammaga mashhur bo'lgan besh tuyg'u bo'lib, har kimga bilingan ko'z, qulqoq va boshqa tuyg'u a'zolariga tarqalgan bo'ladi, hu tuyg'ularning har biri o'ziga xos bo'lgan jinsni idrok etadi.

Amir quvvat bo'lsa beshta tuyg'u tomonidan idrok etiladigan o'sha har bir narsadan xabardor qiluvchining egalari bo'ladi. Xuddi bu besh tuyg'u o'sha quvvatga o'xshab ketadi va xuddi ularning har biri misoli bir turli xabar birla yo bo'lmasa mam'lakatning bir qismidan o'ziga ayrim bir xabar keltirishni bo'yniga olgan xabarchilardan sanaladi. Amir hisoblanadigan quvvat misoli bir podishoh kabitidur, uning nazdida xabarlar podishohlikning barcha qismlaridan xabarchilar orqali yig'ilib turadi. Mana shu podishoh ham yurakdan joy olgan. Xayol surish quvvati (quvvati mutaxiyyila)da jismning boshqa a'zolaringa ham tarqalgan yordamchi a'zolari yo'q; u yakkayu yagona bo'lib, uning yeri ham qalbdir, u sezgilarga ta'sir qilmay qo'ysa, o'zi sezgan narsalarini saqlab qola oladi. O'z tabiati bo'yicha u seziladigan narsalar – mahsulotga hokimdir, ular ustidan hukm yuritadi. U bir narsani ikkinchisidan ajratadi, turli-tuman tarkib topadigan narsalarning biri bilan muvosiqat topib, ikkinchisi bo'lgan seziluvchi narsalar bilan qarama-qarshi bo'ladi.

Ammo notiqa quvvatiga (quvvati notiqaga) kelsak, ular boshqa a'zo turlari ichida na oziqlanadigan turlarini va na xizmat qiladigan turlarini biladi, ba'ki ular boshqa xayol suradigan barcha quvvatlarni, ya'ni boshqaradigan va bo'yinsunadigan quvvatlarni biladi. Har bir jins ham boshqariladi, ham boshqaradi. Chunki u mutaxayyila quvvatlarni boshqaruvchisi va uni boshqaradigan maxsus quvvatlarni ham raisi sanaladi.

G'izolantiruvchi qvvat ularda asosiy qvvat hisoblanadi. Intiluvchi qvvat – bu shunday bir qvvatki, u yo bir narsani istaydi yo bo'lmasa undan yuz o'giradi. U qvvat boshqaruvchisi (rais) sanalib, uning yordamchilari bo'ladi. Bu qvvat tufayli unda iroda (istak) yuzaga keladi, iroda esa qabul qilingan va idrok qilingan narsadan yo his orqali yo xayol-tasavvur orqali yo bo'lmasa nutqiy qvvat orqali yuz o'giriladi. Unda iroda biror bir narsani bilishi va yoki badani orqali yo bo'lmasa biror a'zosi orqali biror narsani bajo keltirishga intilishi kerak. Ammo yuz o'girishga kelsak, u asosiy yuz o'giradagin qvvatdan iborat bo'ladi.

Ammo badaniy fe'llarga kelsak, ular shunday qvvatlar bilan yuzaga keladiki, ular yuz o'girish qvvatiga xizmat qiladilar. Bu qvvat a'zolarda tarqalgan bo'ladi, ularga bu harakatlarini amalga oshirilishiga imkon beradi. Bularning ba'zisi asablardir, ba'zisi paylardir, bular, o'z navbatida, hayvon va insonni ularga bo'lgan intiladigan (ya'ni orzu etgan) fe'llarini bajo keltirish uchun badan ichiga yoyilgan bo'ladi. Bu a'zolar, chunonchi, inson va hayvonning qo'llari, oyoqlari va badanning istak bilan harakat qiladigan boshqa a'zolari sanaladi. Bu holda yuqorida aytilgan va badanning bir tur bo'laklariga yoyilgan bu qvvatlarning hammasi jismiy qurollar sanalib, yurakda bo'lgan asosiy ham buyuradigan iroda qvvatining badaniy olatlari va xizmatkorlaridir.

Bir narsani bilish nutqiy qvvat bilan yo bo'lmasa xayol surish – taxayyul qvvati bilan va yoki tuyg'ular – hislar bilan qo'lga kiritiladi. Agar aqliy qvvat bilan idrok etiladigan narsalar xususiyatiga ega bo'lgan bir narsani bilish istalganda, orzu qilingan narsani o'zida saqlagan fe'l aqliy qvvatda bo'lgan boshqa bir qvvatdan tug'iladi. Mana bu fikriy qvvat sanaladi. Ana shu bilan fikr yuritish, tush ko'rish, diqqat bilan tekshirish, xulosa chiqarish mumkin bo'ladi.

Bordiyu agar his bilan bilinadigan narsalarni his orqali bilish istagi paydo bo'lsa va unga erishish mumkin bo'lsa, bu, albatta, badan fe'li bilan ruh fe'lining birlashishidan yuzaga kelgan bo'ladi. Chunonchi, ko'rishni orzu qilgan

narsalarimizga qarash uchun nigohimizni unga qaratishimiz bunga misol bo'la oladi. Agar u narsa uzoqlashtirilsa, biz unga to'ppa-to'g'ri yuramiz, bordiyu unga yetishga biror to'siq bor bo'lsa, biz qo'llarimiz bilan u to'siqni bartaraf qilamiz. Bu holda o'sha harakatlar jismoniy harakatlar bo'lib, lekin hissler o'z yo'lida ruhning bir fe'li bo'lishi bilan birga butun badan fe'llari bo'ladilar. Boshqa tuyg'ular bilan ham ahvol xuddi shuning o'zidir.

Bordiyu agar bir narsaning taxayyuli orzu etilgan bo'lsa, bu narsaga har xil vositalar yo'li bilan erishiladi. Ulardan biri, avvalan, taxayyul quvvati bilan ishlaydi, misoli bir istalgan va yoki kutilgan narsani tasavvur qilganday, yo bo'lmasa, o'tmishdagi biror narsani tasavvur qilish yoki taxayyul quvvatidan hosil bo'lgan narsani istash kabi; so'ngra o'sha narsani, misoli qo'rqtadigan yo quvontiradigan ishlarni taxayyul yo'li bilan yoki notiqa quvvati bilan tasavvur qilish mumkin. Mana bu narsa quvvatlar sanaladi.

19. BU QUVVATLAR QANDAY QILIB YAGONA JON BO'LAKLARI BO'LA OLISHI HAQIDA SO'Z

Asosiy g'izolantiruvchi quvvat asosiy tuyg'u quvvatining moddasi kabidir. Tuyg'u quvvati – g'izolanuvchining suvrati – shaklidir. O'z navbatida, asosiy tuyg'u quvvati mutaxayyila, xayol suradigan quvvatga xuddi modda bo'lgandaydir. Bu esa, o'z navbatida, asosiy tuyg'u quvvatining moddasi, taxayyul quvvati esa amir bo'lgan tuyg'u quvvatining suvrat-shakli bo'lganidaydir. Taxayyul quvvati esa fikr yuritadigan quvvatning moddasidir, bu esa o'z navbatida, barcha suvratlarning nihoysidir. U hech qanday boshqa quvvatlarning moddasi bo'lmay, balki undan oldin keladigan barcha shakllarning qiyofasidir. Orzu etiladigan quvvatga kelsak, issiqlik-haroratning olovda bo'lishi va olovning esa o'zi bilan cheklangan narsaga qaram bo'lishi kabi amir bo'lgan tuyg'u quvvatiga, taxayyul quvvatiga va aqliy quvvatga bog'liqdir.

Qalb shunday bir asosiy a'zoki, badanni undan boshqa hech qanday a'zolar bilan idora qilib bo'lmaydi. Undan keyin miya keladi. U ham asosiy a'zolardan sanaladi. Lekin uning raisligi birinchi darajali bo'lmay, balki ikkinchi darajadadir. Bu shuning uchunki, u barcha a'zolarni boshqarishini qalb bilan idora qiladi. U faqat qalbgagina xizmat qiladi. Shunisi ham borki, uning tabiatidan maqsadi qalbga xizmat qilish bo'lgani uchun boshqa a'zolarga ham xizmat qiladi. Bu xuddi uy egasi bo'lgan kishiga o'xshaydi. U o'z tabiatidan odamlarga xizmat qilishi borasida o'z xo'jayiniga xizmat qiladi, uning o'ziga esa hovlining barcha odamlari xizmat qilganidek. Ikkala holatda ham xo'jayinning istagiga ko'ra xizmat qilishi turgan gap. Miya yurakdan keyin uning o'rinnbosari sifatida ish yuritib, xuddi uning xizmatini bajo keltiradi, shunda u asosiy a'zo moslanmagan holatga u moslanib oladi, shu bilan birga u yurakning olijanob hatti-xarakti xizmatini bajo keltirib yuradi.

Shundan ma'lum bo'lishicha, qalb tug'ma haroratning bolog'idir. Harorat undan boshqa barcha a'zolarga o'tadi, shunday qilib qo'llab quvvatlanadi, oziq oladi. Bu esa tabiiy hayot ruhini yo'g'on tomirlar vositasi bilan qalbdan a'zolarga yuborish bilan bajo etiladi. Qalbning saqlanishi uzoq muddat davom etadigan haroratning tabiiy a'zolar ichida ko'rinishida davom etadi. Miya (addimog') qalb uzatadigan haroratni yumshatadi, shu bilan har bir a'zoga yetishadigan harorat unda o'rtacha – mo'tadil holatda bo'ladi. Bu miyaning eng avvalgi fe'l-harakatlaridan bo'ladi. Shu bilan birga u avvalgi va umuman a'zolarga yetkazadigan xizmati sanaladi.

Bu ishlarning bir turiga quyidagilar kiradi: asablar ikki xil bo'ladi. Uning bir turi qalbda bo'lgan boshliq (ar-rais) tuyg'u quvvati yordamchilarining asboblaridir. Bu xuddi har bir his o'ziga xos bo'lgan sezgi a'zolarini sezganiga o'xshab ketadi. Boshqalari esa misoli a'zolarning quroli kabidir, bu yurakda bo'lgan orzu quvvatiga xizmat etadigan a'zolarning olatlaridir. Unga istagan harakatiga bo'lgan imkoniyatni beradi.

Miya esa yana qalbga xizmat qiladi, u his asablariga yordam beradi, bu asablar (o'z navbatida) oziqlantiradigan

quvvatlarni sezadigan kuchlarni qo'llab-quvvatlaydi. Miya asablarning istagan harakatlarini ta'minlab unga yordam beradi, u a'zolarining irodaviy harakatlarini amalga oshirishga qodir bo'ladi, bu harakat vositasida bu a'zolar markaziy qalb bo'lgan orzu quvvatiga xizmat qiladi.

Aksar bunday asablarning yurakda ildizi bo'ladi, bu bilan ular miyadan oziqlanib, o'z quvvatlarini barqaror qila oladilar. Boshqa ko'p ildizlari esa o'z ibtidolarini orqa miyadan oladilar, orqa miyadan yuqorisi ham bosh miya bilan bog'liqdir. Miya bu borada orqa miya ishtiroki tufayli yordam qiladi.

Bularning boshqa bir turiga kelsak, taxayyul quvvati yuzaga kelishiga qalbning harorati chegaralangan bir darajaga kelishi tufayligina bo'ladi. Ayni shu holatda notiq quvvati ham, shuningdek, yurak harorati o'z harakatining ma'lum darajasiga yetishi bilan yuzaga keladi. Narsalarni fikrlarda saqlab qolish va biror narsani eslab qolish ham shunga o'xshashdir.

Shuningdek, miya qalbga xizmat qiladi, bunda uning haroratini tiklab beradi, natijada uning taxayyuli yaxshilanadi, yaxshi tafakkur qiladi, xotirasida durustroq mushohada qiladi, yaxshigina eslab qolishga qobil bo'ladi. O'zining bir bo'lagi bilan miya haroratni o'rtamiyona qiladi, u bilan taxayyulni tuzatadi; boshqa bir bo'lagi bilan fikr yuritishni tuzatib, uning ish qobiliyatini o'rtamiyona qiladi; uchinchi bo'lagi bilan esa esda saqlash va xotirada qoldirishga xizmat qiladi. Bu shuning uchunki, qalb tabiiy haroratning bulog'i bo'lganidan boshqa barcha a'zolarga ham yetmay qolmaydigan, ham ortib qolmaydigan tarzda tarqatish uchun uning harorati haddan tashqari kuchli bo'lishi mumkin.

Harorat shuningdek, o'zicha juda kuchli bo'lmasligi ham mumkin, ammo qalb maqsadiga mos bo'lishi mumkin.

Shuningdek, a'zolarning o'zлari, qalb tomonidan o'zлariga yuborilgan bu haroratga moslanib, tuzalishga yetarli bo'lmaydilar. Bundan chiqdi, a'zolarga kirib boradigan qalbning o'rtacha harorati o'z holicha harakatlarini yaxshi yakunlashga imkon beradigan mo'tadil holatda bo'lmaydi. Shuning uchun miya o'z tabiatidan boshqa a'zolarga nisbatan

sovug va nam (bordan rutuban) qilib yaratilgan, hatto shunday bir nafsoniy kuch bilan qalbning harorati chegaralangan o'rtacha holat bo'ladi.

Undan keyin tuyg'u va harakat asablari o'z tabiatlari bo'yicha yerli sanalgan, ya'ni tez fursatda qurishni qabul qiladigan xususiyatga ega. Shuning uchun ularda namlikni uzoqroq muddat saqlab qoladigan bir cho'zilishga va qisqarishga zarurat mavjuddir. Shu bilan birga tuyg'u asablarida bu tug'ma va butunlay xiralikdan mahrum bo'lgan ruhga muhtojlik ham bor; bu esa miya qismlarida harakat qiladigan tug'ma ruhning oddiy bir holati bo'ladi. Yurak o'zi o'tli haroratga ega, uning bu xususiyati yurakda kuchni (sezgi asablarida) saqlab qolish uchun imkon bermaydi. Shu sababdan ham uning qurib qolishini tezlashtirmaslik, noziklashib qolib nuramasliklari hamda kuch va harakatdan qolib ketmasliklari uchun ularning asab ildizlari qalbning ichiga joylashtirilgan. Bu shuning uchunki, bularning ikkalasa ham o'ta namlidir, ular asablarda namlikni saqlab qoladi, bu namlik asablarni yumshoq holda saqlab turadi. Shu tarzda bu asablarga bog'liq bo'lgan ruhiy quvvatlar mana shu namlik tarafidan o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Ba'zi asablarda bunday rutubat kirib borishiga zarurat seziladi. Bu esa suvsimon latif, lekin tutib bo'lmaydigan bo'lishi kerak. Boshqa ba'zilari esa qandaydir yopishqoq bo'lishi kerak. Bundan chiqdi, o'sha suvliga zarurat sezgan va yopishqoq bo'limgani miyada ildizi bo'ladi. Bunda shu bilan birga suv kabi namlik bo'lishiga zarurat sezib, yana u yopishqoq bo'lsa, bu holda uning asab ildizlari miyada bo'ladi. O'sha rutubatga oz zarurat sezgan asablar o'z ildizlari bilan umurtqaning ost qismida va quyruq qismida bo'ladi.

Miyadan so'ng daraja nuqtai nazaridan kelsak, jigar keladi, undan keyin taloq va undan so'ng esa bachadon keladi. Har bir quvvat a'zoda bo'ladi, bu esa jismoniy qovushish bilan bajo keltiriladi, bular vositasida ular bir a'zodan ikkinchisiga o'tadi. Bunda bir zururat paydo bo'ladi, bunda u o'sha boshqasi shundoq ham birinchi asablar birlashmasi bilan tutashtirilgan bo'ladi. Bu xuddi asab va miya bilan ko'p tomondan tutashgan, yana ko'p tomondan orqa miya bilan

tutashgan, yo bo'lmasa, bu a'zoga muttasil oqish yo'li bilan bu jism bog'langan bo'ladi.

Bu quvvatlar unga xizmat qiladi, yo bo'lmasa misoli bir og'iz, o'pka, buyrak, taloq, jigar va boshqalar kabi istasa ma'mur yo bo'lmasa amir va quvvat bo'lib, bu a'zolar bilan birlashadi, bu jism ichida oqadigan bir yo'l yo oqar suv bo'lish zarurati lozim bo'ladi. Bu xuddi miyaning yurakka ta'sir etgani kabi yuz beradi.

Birinchi bo'lib a'zoda qalb paydo bo'ladi, undan so'ng miya, keyin jigar, keyin taloq, undan so'ng boshqalari bo'ladi. Harakatda bo'lgan a'zolarning eng oxirisiga bola tug'adigan a'zo kiradi. Bular badanni boshqaradi. Bu xuddi tuxumlarning fe'li va erkak haroratning saqlab qolinishi bilan bu urug'da xotin jinsi tabiatini ruhini beradi.

Tug'ilish bilan bo'ladigan quvvat ikkiga bo'linadi. Birinchisi hukmron bo'ladi, boshqasi xizmat qiladigan bo'ladi. Hukmron bo'lgan quvvat qalbda makon tutadi; xizmat qiladigani esa tug'ish a'zolarida bo'ladi. Tug'adigan quvvat esa ikkiga ajraladi. Ularning biri moddadan bo'lib, undan bunday quvvatlar mavjud bo'lgan hayvon yuzaga keladi. Boshqalari esa hayvondan bo'lib, bunda modda to bu navga tegishli shakl hosil bo'lmaguncha harakat qiladi. Modda tayyorlaydigan quvvat bu xotin jinsi quvvatidir. Unga shakl beradigan quvvat bu erkak quvvatidir. Xotin jinsi shunday bir quvvatki, bu bilan modda tayyorlanadi, erkak jinsi shunday bir quvvatki, bu bilan o'sha modda o'sha quvvati bo'lgan nav shaklni yuzaga keltiradi. Qalbga xizmat qilgan a'zo unga hayvon moddasini beradi, bu bachadon sanaladi. Moddaga shakl berishga xizmat qiladigan va unga inson yo (boshqa bir) hayvon tusini beradigan modda maniydir. Maniy agar xotin jinsi bachadonga kiritilsa, unda qon bilan uchtrashadi, u esa, o'z navbatida, bachadonda inson shaklini qabul qiladigan bir holat hozir bo'lib, unda to bu qondan inson shakli vujudga keladi. Bachadonda paydo bo'lgan qon bu inson moddasi sanaladi. Urug' esa o'sha moddani shakl hosil qilgunga qadar harakatga keltiruvchi omildir.

Bachadonda tayyorlangan urug'ning qonga munosabati misoli bir sutning sutmorda quyuqlashganiga o'xshash bir

darajadadir. Sutdon bunda misoli sutning achishida uning na bir qismi va na bir moddasi bo'Imaganidek, bachadonda urug' ham quyuq bo'lgan qonning na bo'lagi va na moddasi bo'lolmaydi. Maniy ham xuddi mana shunday bo'lib, bachadon qondan tuzilib qotadigan na bir bo'lak ham emas, va na bir modda ham emas, go'yoki sut mis qozonda ivib qatiq bo'lganidek, bachadonda ham qondan (bola) paydo bo'ladi.

Insonda urug' paydo qiladigan narsa – bu urug' turadigan idishdir, bu esa teri ostidagi yo'g'on tomirlardir. Bu tomirlar erkak urug'idan yordam olib turadi. Mana shu yo'g'on tomirlar orqali olatda bo'lgan urug' unga qarab oqib tushadi, bu esa zarur bo'lgan urug' bo'lib, u bachadonga tushadi, unda mavjud bo'lgan qon esa to a'zo tashkil bo'lgunga qadar har bir a'zoning va barcha a'zolar shaklini o'zgartirib turadi.

Urug' – maniy esa erkak asbobi sanaladi.

Asboblar ba'zan birlashgan bo'ladi, ba'zan esa ajralgan bo'ladi. Masalan, tabib asbob-uskunalarini misol bo'lgani kabi. Tabib qo'li davolash asbobi sanaladi. Jarroh pichog'i ham tabib asbobidir, bu bilan u odamlarni davolaydi. Davo ham tabib asbobi hisoblanadi, lekin quvvatga sohib bo'lolmaydi. Bu bilan tabib xastani davolaydi. Nihoyat, dori – bu alohida asbob sanaladi, tabib esa o'z harakati va amaliyot qilayotganida bu ish bilan mashg'ul bo'ladi. Shundagina tabib badanga harakatga keltiradigan quvvat berib, kasal badanini sog'liqqa tomon yo'naltiradi. Bordiyu agar davo bu kuchni paydo qila olsa, shundagina tabib o'sha davoni, masalan, kasal badaniga yubora oladi. Bu shundayki, buni davolayotgan tabib hozir bo'ladiyo yo'hozir bo'lnaydimi, va yoki u o'lganmi, buning farqi bo'lmaydi, iloj xasta sog'ligiga yo'naladi. Erkak urug' i bilan bo'ladijan voqeja mana shundan iborat. Jarroh pichog'i ham faqat undan foydalanadigan tabib bilangina ish bajo keltiradigan asbob sanaladi. Tabib qo'li esa pichoqqa nisbatan ham ko'proq ishlatiladigan narsadir. Ammo doriga kelsak, u tabib bu ishga aloqasi bo'ldimi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar, bir quvvat bilan harakat qiladi. Urug' bilan ham xuddi, shunday bo'ladi. Chunki u erkakning tanosil quvvatini ishga tushiradigan asbob bo'lib, u alohida harakat qiladi. Maniy

qoplari va idishlar esa badanga tutashib ketgan tug'dirish asbobidir. Yo'g'on tomirlar holati misoli bir qalbda asosiy quvvatdan bo'lgan maniy asboblari kabi davo tayyorlaydigan va unga ta'sir kuchini beradigan tabib qo'liga o'xshash kasal badanini sog'liqqa yo'naltirgan bo'ladi. Chunki bu yo'g'on tomirlarni, chindan ham, qalb tabiiy ravishda ishlataldi; bu asboblar urug'ga shunday bir quvvat beradiki, bu quvvat bilan u bachadonda qonni to o'sha tirik zotning ma'lum bir navi shakliga keltirgunga qadar harakat qiladi.

Agar qon urug'ni qabul qilsa, o'sha quvvat shaklcha tomonga intiladi, bunda birinchi galda qalb yuzaga keladi. Uning tuzilishi orqali boshqa a'zolar tuzilishini ham boshlang'ich kuchini yurakdan oladigan tomonlarini ham bilib olish mumkin. Bordiyu agar oziqlantiruvchi quvvat bilan birga moddani tayyorlaydigan quvvat ishlab chiqarilsa, u holda barcha boshqa a'zolar misoli moddaning a'zosidagidek bo'ladi. Agar unda shakl beradigan quvvat boshqa a'zolarga o'xshab qolsa, u holda erkak a'zosiga aylanadi. Boshqa hollarda esa urg'ochilar turi paydo bo'ladi. Undan keyin urg'ochisigayam, erkagigayam bir xil holatda bo'ladigan nafsoniy quvvatlar yuzaga keladi.

Bu ikki quvvat, men bunda xotinlik va erkaklik quvvatini nazarda tutayapman, insonlarda farqli bo'lib, turli-tuman bo'ladi. Ko'pchilik o'simliklarda bu ikkalasi ham urug'idan unib chiqadigan o'simliklar bo'lgani kabi, ba'zi bir shaxsda bu butunlay birlashgan holdadir. Chunki o'simlikda modda bo'lgani kabi bu moddani shaklga harakat ettiradigan bir quvvati ham bor. Urug' shaklni qabul qilish uchun o'zidagi quvvatni shaklga qarab tortadi, u shaklni qabul qilib olishga intiladi. Shaklni qabul qilishga tayyorgarlikni beruvchi xotinlik quvvati bo'ladi. Shaklga tomon bo'lgan harakatni berguvchi erkaklik quvvati sanaladi.

Hayvonlar ichida ham xuddi shunday xususiyatga sohib bo'lganlar bo'ladi. Ularning ba'zilari borki, burlarda xotinlik quvvati to'la-to'kis namoyon bo'ladi. Ular to'la ko'rsatilmagan erkaklar quvvati bilan birlashib ketadi. Xotinlik quvvati bu holatda ma'lum miqdorda o'z vazifasini bajaradi, so'ng yo'q

bo'ladi. Shu jihatdan xotinlik quvvati tashqi yordamgu muhtoj bo'ladi. Bu misoli tuxumini shamloga uchirib yuborgan parrandalarga o'xshab ketadi. Shunga o'xhash holat ko'pchilik baliqlarda yuz beradi, ularning modalari urug'larini sochib yuboradilar, ulardan keyin erkaklari ular ketidan yurib, tuxumlarga namlik sachratadilar. Suyuqlik tekkan urug'laridan hayvonlar chiqadi, suyuqlik tegmaganlari esa buziladi, ya'ni o'ladi.

Ammo inson holi bunday emas. Bu ikki kuch ikkita ayrim-ayrim shaxsda bo'ladi. Ularning har birining o'ziga xos bo'lgan a'zolari bo'ladi. Bu a'zolar ularda bir xildir, har bir jinsda ham bu a'zolar mushtarakdir. Ularning nafsoniy quvvati ham, a'zolari ham o'shanday bir xil, bunda faqat ikki jinsiy kuch boshqacha, xolos. Erkaklari issiqroq bo'ladi, harakat etish va urinish a'zolari erkaklarda kuchli bo'ladi. Bu jihatdan erkaklar baquvvat sanaladi. Ruhiy xususiyatlarga kelsak, g'azab va shiddat kabi quvvatlar xotin jinsida bo'shroq, erkaklarda kuchliroqdir. Marhamat va shafqat kabi xislatlar xotinlarda yana ham kuchlidir. Shundayki, erkaklar orasida tuyg'ulari xotinlarnikiga nisbatan va yoki xotinlar orasida tuyg'ulari erkaklarnikiga o'xshagan bo'lishligi hech bir monelik ham qilmaydi. Erkak va xotinlar shunday qilib bir-birlaridan ayri-ayridurlar.

Ammo tuyg'u quvvti, muxayyila quvvati va notiqa quvvati borasida erkak va xotinlar orasida hech qanday farq yo'q. Tashqi dunyoning bo'ladigan ta'siri tufayli tuyg'u quvvatlarida turlituman jinslar yuzaga keladi; hesh asosiy sezgi a'zolari tufayli seziladigan turli-tuman turlar paydo bo'ladi, ular asosiy sezgi quvvatlarida bir-birlari bilan birlashtiriladi. Bu quvvatda maydonga keladigan tuyg'ular muxayyila quvvatida taxayyulning ko'rinishlari (rusum) kabi yuzaga keladi. Shu bilan ularda hissiy tuyg'ular g'oyib bo'lganda ham ular saqlanib qoladilar. Muxayyila quvvati ba'zan ularni bir-biridan ayirmoq, ba'zan esa bir-birlari bilan birlashtirmoq borasida tur jihatdan benihoya tarkibda bo'ladi. Ularning ba'zisi to'g'ri (sodiq), ba'zisi esa noto'g'ri (kozib) bo'ladi.

26. FOZIL SHAHAR HOKIMINING FAZILATLARI HAQIDA SO'Z

Bunday shaharga hokim bo'ladigan odam (Allohdan boshqa) hech kimga bo'ysunmasligi kerak. Fozillar shahrining birinchi boshlig'i shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur. Fozillar shahri hokimi avvalo to'rt muchasi sog'-solim bo'lib, o'ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a'zosidagi nuqson halal bermasligi lozim, aksincha, u sog'-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim. (Ikkinchidan), bunday shahar hokimi tabiatan nozik farostli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg'ab olishi, shu sohada umumiylahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. (Uchinchidan), u anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarini unutmasligi zarur. (To'rtinchidan), u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. (Beshinchidan), u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur. (Oltinchidan), u (ustozlardan) ta'lim olishga, bilim ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish, o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur. (Yettinchidan), taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur. (Sakkizinchidan), u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onnei va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur. (To'qqizinchidan), u o'z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur. (O'ninchidan), bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlarga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) bo'lishi zarur. (O'n birinchidan) tabiatan adolatparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabri-zulmni, mustabid va zolimlarni yomon ko'rvuchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani

adolatga chaqiruvchi, nohaq jaþrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ravchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz bo'lishi zarur. (O'n ikkinchidan), o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi, qo'rkoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur.

Mana shu barcha xislatlarning bir odamda jamlanishi amri mahol, zero bunday tug'ma fazilatlar sohibi bo'lgan odamlar juda kam uchraydi va ular nodir insonlardir. Mabodo fozillar shahrida shunday barkamol inson topilib qolsa, unda yuqoridagi fazilatlardan oltiasi, yoki beshtasi kamol topganida ham, u aql va zakovotda benazirligi tufayli fozillar shahriga rahbarlik qila oladi. Ba'zi mahallarda fozillar shahrida bunday odam yo'q bo'lib qolganida ham (vafot etganida, yoxud boshqa joyga ketgan vaqtida — *tarjimon*) ana shu imom (hokim) yoxud uning izdoshlari (agar mazkur imomdan so'ng birin-ketin shaharga boshliq bo'lsalar) chiqargan qonun va tartiblarga amal qilinadi.

Avvalgi imom o'miga kelgan keyingi rahbarda ham yuqorida aytilgan xislatlar — fazilatlar yoshlikdan shakllangan bo'lishi zarur. Ana shunda bu keyingi imomda yana oltita fazilat hosil qilinishi zarur:

Birinchisi — donishmandlik.

Ikkinchisi — avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlar va tartiblarni xotirida yaxshi saqlab qolish va ularga amal qilishi uchun quvvai hofizaga ega bo'lish.

Uchinchisi — agar avvalgi imomlar davridan biror (yoki bir qancha) sohaga taalluqli qonun qolmagan bo'lsa, bunday qonunni o'ylab topish uchun ijod, ixtiro qilish quvvatiga ega bo'lish.

To'rtinchisi — hozirgi haqiqiy ahvolni tez payqab olish va kelgusida yuz beradigan, avvalgi imomlar ko'zda tutmagan voqealarni oldindan ko'ra bilish uchun bashoratgo'ylik xislatiga ega bo'lish. Bu xislat unga halq farovonligini yaxshilash yo'lida kerak bo'ladi.

Beshinchisi — avvalgi imomlar o'rnatgan qonunlarga, shuningdek, avvalgilardan ibrat olib, o'zi yaratgan qonunlarga

xalq amal qilishi uchun qizg'in so'zlash – notiqlik xislatlariga ega bo'lish.

Oltinchisi – zarur hollarda arb ishlariga mohirona rahbarlik qilish uchun yetarli jismoniy quvvatga ega bo'lish; ham jang qilishni, ham sarkarda sifatida jangu-jadalga rahbarlik qilish uchun harbiy san'atni yaxshi bilish.

Mabodo shu xislatlarning barchasini o'zida jamlagan bir odam topilmasa, lekin ikki kishi birgalashib, shu xislatlarga ega bo'lishsa (ya'ni biri – donishmand, ikkinchisi – qolgan xislatlar sohibi bo'lsa) shu ikkovini fozillar shahriga rahbarlikka qo'yish zarur. Mabodo bir guruh odamlar birgalikda ana shu xislatlarga ega bo'lishsa (ya'ni – birida bu, ikkinchisida u, uchinchisida yana boshqa xislatlar bo'lsa) ana shu fozillar guruhini yurt rahbarligiga qo'yish zarur. Shu guruh a'zolari birgalashib, o'zaro kelishib harakat qilsa har biri fozil hokim bo'lishi mumkin. Mabodo biror zamonda fozillar shahrida hokimlik qilayotgan bir yoki bir necha kishida boshqa zarur xislatlar bo'lsayu, ammo, donishmandlik bo'limasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi.

27. FOZIL SHAHARNING ZIDDI BO'LGAN SHAHARLAR HAQIDA SO'Z

Fozillar shahrining ziddi bo'lgan shahar – johillar shahri, benomuslar shahri, ayrboshlovchilar shahri, adashgan, zaloatdag'i odamlar shahridir. Bu shaharlarning vakillari – ayrim odamlar ham fozillarning ziddi bo'lgan odamlardir.

Johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmaydi, baxt-saodat nimaligini bilmaydi ham. Chunki, jaholatdag'i odamlar hech qachon baxt topmagan va baxt saodatga ishonmaydi ham. Farovonlikka kelsak, jaholatdag'i odamlar (haqiqiy obodlikni bilmasdan) ba'zilar nazarida baxtu-davlat bo'lib ko'rindigan o'tkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyonи, jismoniy lazzatlarni, xirsu-shahvatni, obro', amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o'ylaydilar. Shu ne'matlardan har biri jaholatdag'i odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo'lib ko'rindi.

Zotan, (moddiy va ruhiy) ne'matlarning hammasi birligida uyg'unlashgan chog'dagina haqiqiy baxt-saodatga erishish mumkin. Bu ne'matlarning teskarisi – tan kasalliklari, kambag'alchilik, zavq, lazzatlar va hurmat, obro'ning yo'qligi – baxtsizlik bo'lib ko'rindi.

Johillar shahrining bir qancha turlari bor. Shulardan biri zaruriy ehtiyojlar shahridir. Bunday shahar aholisi faqat badan uchun zarur bo'lgan narsalar: oziq-ovqat, ichimlik, kiyim-kechak, turar joy, jinsiy aloqa hamda shularga erishish uchun bir-birlariga yordam berish bilangina cheklangan odamlardir.

Ayrboshlovchilar shahrining aholisi – to'qchilik va mol-dunyoga erishuvda bir-birlariga o'zaro yordam berishni hayotning asosiy maqsadi deb biladilar.

Razolat (tubanlik) va badbaxtlik shahri – bunday shahar aholisi faqat yeish, ichishdan, jinsiy aloqadan huzur-halovatga erishishga, hissiy lazzatlar, ishrat, kayf-safoning barcha turlariga intiladilar.

Obro'parastlar shahri. Bunday shahar aholisi o'zaro bir-birlarini maqtashni, ko'kka ko'tarishni yaxshi ko'radilar. Ularni o'zga xalqlar so'zda ham, ishda ham ulug'lashlarini istaydilar. Bir-birlarining oldida yoki begonalar ko'ziga ulug'ver, shon-shavkatli bo'lib ko'rinishni xohlaydilar. (Butun dunyoni bosib olishga intilgan Rumo (Rim) imperiyasi poytaxti shundai shahar namunasidir – *tarjimon*).

Amalparastlar, hokimiyatparastlar shahri. Bunday shahar aholisi – barcha xalqlar ularga bo'ysunishini, o'zlarini hech kimga bo'y sunmaslikni xohlaydilar. Ularning fikru-zikrig'alabalar, futuxatlar nashidasini surishga qaratilgandir.

Shahvatparastlar shahri. Bunday shahar aholisining har biri ehtiroslari tizginini jilovlamay, istalgancha shahvat nafslarini, tuban mayllarini qondirishga intiladi.

Jaholatdagi shaharlarning hokimlari ham xuddi shu shaharlar aholisi kabidur. Ular o'zi hukmronlik qilgan shaharlarda yuqorida sanab o'tilgan shaxsiy istaklarini tinimsiz qondirishga intiladilar.

Jaholatdagi shaharlar aholisining mashg'ulotlari ham yuqorida aytigan maqsadlarga xizmat qiladi.

Benomuslar shahrining odamlari fozillar shahri odamlariday baxt-saodatni, xaq-taoloni, u yaratgan hilqatlarni, aqlini va boshqa narsalarni biladilar, va ularga ishonadilar, ammo ularga amal qilmay, yuqorida aytganimiz jaholatdagi shaharlarning aholisiga o'xshab yashaydilar.

Beqaror shahar. Bunday shahar aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlari avvallari fozillar shahri aholisining qarashlari va ishlariga o'xhash bo'lgan, ammo keyinchalik bu yurtga begona g'oyalar asta kirib olib, uning aholisi qarashlarini butunlay o'zgartirib yuborgan.

Adashgan shahar aholisining fikricha, baxt-saodatga faqat o'lgandan keyin yetishish mumkin. Ammo, bu shahar xalqining Alloh-taolo azza va jalla haqida, uning yaratgan hilqatlari va faol aqlga doir fikr-mulohazalari, tasavvurlari shu qadar chalkashib ketganki, bunday tasavvurlar halol yashash uchun asos bo'lolmaydi, bu (chalkash) tasavvurlar Alloh yaratgan hilqatlarning suvratlarini ham aslini ham aks ettirmaydi.

Bunday shaharning birinchi boshlig'i o'zini ilohiy nur sohibi qilib ko'rsatadi, ammo aslida bunday emas; u o'zining ilohiyligini isbotlash uchun aldon, riyo, kibru-havo bilan ish tutadi.

Bunday shaharlarning hokimlari fozillar shahri hokimlarining teskarisidir. Shaharni boshqarish usullari ham mutlaqo qarama-qarshidir. Bu fikr shu shaharlar aholisiga ham taalluqlidir. Fozil shaharlarning bir-biriga izdosh bo'lgan imom-boshliqlari yagona abadiy boshliqning yagona ruhini mujassam etadilar. Mabodo bir zamonda ko'pchilik shunday shaharlarning hokimlari yashasalar ular ham birgalikda yagona abadiy hukmdori, ularning ruhlari esa yagona abadiy hukmdor ruhini mujassam etadilar. Fozillar shahri odamlaridan ba'zilari hamma uchun mushtarak — umumiy bo'lgan bilimlarni o'rganib ish yuritadilar, ba'zilari esa faqat muayyan mavqedagi odamlar bilishi zarur bo'lgan bilimlarni o'rganish va ish yuritish bilan shug'ullanadilar. Bu odamlarning har biri, shunday umumiy va xususiy bilimlar va faoliyatlar orqali saodatga erishadilar. Har bir shaxs baxt-saodatga eltuvchi faoliyat bilan qancha uzoqroq va avvalgidan yanada yaxshiroq shug'ullanaversa uning ko'ngli, ruhiy holati ham shunga

muvofiq komilroq, fozilroq bo'lib boradi. Go'yo mohir xattot husnixat bilan uzlusiz shug'ullanaver ganida dastxati tobora go'zallashib, bundan tobora o'zining ham zavqi oshib boraver ganidek, kamolot orqali, baxt-saodat topishga intiluvchi zotning ham qalbi tobora poklanib, yaxshiliklar qilganiga o'zining ham ko'ngli o'sib, zavqi oshib boraveradi. Bunday zotning ko'ngli — ruhi shu qadar yuksalib, go'zallashib, barkamolla shib boradiki, endi uning ruhi moddiy tayanchlarga yoki vositalarga bog'liq bo'lmay, tobora ulardan ozod bo'lib boradi va oxiri moddiy holatning vayronligi yoki yo'qolishi barkamol ruh uchun ahamiyatsiz bo'lib qoladi.

Ruh moddiylikdan, hayulotdan ajralib, boshqa bir vujud shakliga ham kirmagach, u endi vujudda yuz beruvchi turli holatlardan ham holi bo'ladi. Endi bu ruhga nisbatan harakat yoki sukunatda degan fikrlarni aytib bo'lmaydi. Endi bunday ruhga nisbatan vujudsiz (ya'ni sof) ruhlarga ishlatiladigan sifatlarnigina qo'llash mumkin. Inson aqlida moddiy vujudlarga nisbatan qo'llaniladigan barcha narsalarni (va hodisalarini — *tarjimon*) endi vujuddan qutulgan ruhga nisbatan qo'llanish mumkin emas. Ruhning bunday holatini anglash va tasavvur qilish mushkul va g'ayrichadir. Ozod bo'lgan ruhlarning bir-biridan farqi nimada? Farq shundaki, mazkur ruhlar jismida ekanligida, inson vujudlarining mizojlari turlichaligi tufayli ruhlar ham turlicha bo'ladi. Vujudlarning holati o'zgarishi bilan ruhlar ham o'zgarishi tabiiydir. Jismlarning o'zgaruvchanligi cheksiz bo'lgani kabi ruhlarning o'zgaruvchanligi ham cheksizdir.

28. RUHLARNING BIR-BIRI BILAN QO'SHILISHI HAQIDA SO'Z

Odamlarning bir avlodi o'lib ketgach, ularning jismlari yo'q bo'lib ketadiyu, ammo ularning ruhlari vujud (qafasi) dan qutulib, saodatga erishadi. So'ng boshqalar ularning o'rmini egallab, ular qilgan ishlarni qiladilar. Bu avlod odamlari ham dunyodan o'tgach, xuddi shunday yo'l bilan ruhlar avvalgilarning izidan borib, qiyofalari (fe'l va fazilatlar), quvvati va sifati o'xshash, yaqin ruhlar bilan qo'shilishlari

mumkin. Ammo, bir qancha o'xshash ruhlар bir-biri bilan qo'shilganlarida har qancha kabir (ulkan) bo'lsalar ham (jismsizligi tufayli) makonda bir-birini siqib chiqarmaydilar. Chunki, ular hech qachon makonni egallamaydilar va ruhlarning qo'shiluvlari tanalarining qo'shiluviday yuz bermaydi.

O'zaro yaqin (ko'ngilyaqin) ruhlarning qanchalik ko'pchiligi bir-biri bilan qo'shilsa, ular shuncha ko'p huzur-halovatga erishadilar. (Ko'ngilyaqin ruhlар bu dunyoda, tirikligida bir-biriga yaqinlashganlarida ham rohat-farog'atga erishadilar — *tarjimon*). Har bir yangi kelgan ruh o'ziga o'xshash avvalgi ruh bilan qo'shilganida huzur-halovat yanada ortadi. Shuningdek, keyin kelgan (o'xshash) ruhlар qo'shilganida avvalgi ruhlarning huzur-halovati ham yanada ortadi. Chunki, o'z mohiyati (ma'nosi)ni topgan avvalgi ruh keyin kelgan (o'xshash) ruhlarning mohiyatlarini qayta-qayta topishdan rohat-farog'ati yana va yana ortaveradi. Ruhlarning sifatlarining bunday o'zaro qo'shilishi oqibatida ularning (aqliy) quvvatlari miqdor jihatidan ham tobora ortadi. Bunday holatni yana yuqorida aytganimiz xattotning uzoq mashq davomida naqshdagи mahorati ortgani sari bu mashg'ulotdan oladigan zavq-shavqi ham ortib borishiga o'xshatish mumkin. Xattot izchil ravishda mahorati ortganida o'zi ham barkamollahib borganiday ruhlар ham izchil ravishda bir-biriga qo'shilganlarida (ma'naviy) kuchlari ortib, barkamollahib boradi. Ruhlarning bir-biriga cheksiz qo'shilaverish imkonи bo'lgани uchun har bir ruhning boshqalari bilan cheksiz qo'shilaverishidan oladigan huzur-halovati ham cheksiz ortib horaveradi.

Bizdan avval (bu dunyodan) ketgan avlodlar-ajdoddalarimizning ruhlарining ahvoloti ham xuddi shundaydir.

29. KASB-HUNAR VA BAXT TUSHUNCHALARI HAQIDA SO'Z

Baxtning turli darajalarining bir-biridan afzalligi uch xil alomatga qarab aniqlanadi. Biz quyida ko'rib chiqayotgan hunar va san'atlarning bir-biridan afzalligi ham xuddi shu alomatlarga qarab aniqlanadi.

Hunar va san'atlar qaysi tur va sohalarga taalluqli ekanligiga ko'ra bir-biridan afzal ko'rindi. Masalan, bo'z to'qish, shoyi to'qish, attorlik, hovli supurish, raqs san'ati, fiqh ilmi, tabiblik yoki so'z san'ati bir-biridan qanchalik afzal bo'lsa baxtga erishuv darajalari ham shunga o'xshashdir.

Bundan tashqari bir turdag'i san'at, hunar sohiblari ham malaka (miqdori) jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir xattot o'z hunarinig ko'pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo'lishi mumkin. Boshqa biri o'z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin. Mazkur humar (xattotlik)ni yaxshi egallash uchun xattot tilni, so'z san'atini, husnixatni va hisob-kitob, riyoziyotni puxta bilishi zarur. Shu hunar egalaridan biri masalan, husnixatni va riyoziyotni yaxshi biladi, boshqasi tilni, so'z san'atini va husnixatning ba'zi jihatlarini yaxshi biladi, uchinchisi — mana shu ilmlarning hammasida mohir.

Xattotlarning sifat jihatidan bir-biridan afzalligi shundaki, masalan, husnixat san'atini egallagan ikki xattotdan biri (o'zi tanlagan) shu sohada kuchliroq, biri — kuchsizroq bo'lishi mumkin. Bu, sifatdag'i afzallikdir.

Baxtlilik darajasiga erishuvda ham insonlar yuqorida giga o'xshash bir-biridan afzalroq bo'lishi mumkin.

Boshqa shaharlarning aholisiga kelsak, bu odamlarning fe'l'i yomon bo'lgani uchun hunarlari ham ularning ko'ngli yomonligini tuzatolmaydi. Yomon xattot tabiatan badbaxtlig'i tufayli yozuvi ham tohora xunuklashib boraveradi, uning hunari, san'ati tobora orqaga ketaveradi. Fazilatsiz shaharlarning odamlari yomon fe'llari, tabiatlari tufayli ko'ngillari — ruhlari ham yomonlashib boraveradi. Mabodo ular ana shu yomon ishlarida izchil sa'y harakat, kuch-g'ayrat ko'rsatsa ularning ruhlari yanada ko'proq yomonlashadi va oxiri mayib-majruh bo'lib qoladi. Shu tufayli ular o'zlariga yoqadigan yomon ishlardan huzur-halovat oladilar. Vujudi, jismi kasal bo'lgan odam (masalan, bezgak tutayotgan kishi mijoji buzilganidan, o'ziga yoqmaydigan taomlarni yeyishdan huzur qiladi va tabiatan me'dasiga yoqadigan taomlar unga yoqimsiz ko'rindi; ruhan kasal odamlar ham yomon istaklari va odatlari tufayli buzilgan tasavvurlariga qarab, yomon, (axloqsiz) fe'l-harakatlardan huzurlanadilar va go'zal

qiliqlarni, ishlarni yoqtirmaydilar yoki umuman go'zalligini tasavvur qilolmaydilar. Vujudi kasal odamlar o'z kasalligini bilmasdan o'zlarini soppa-sog' deb o'ylab, tabibning maslahatlarini olmagani kabi ruhan kasal odamlar ham o'zlarini soppa-sog' (va fazilatli) deb o'ylab, rahbari, muallimi yoki ustozining nasihatlariga qulq solmaydilar.

31. FOZIL SHAHAR AHLI UCHUN MUSHTARAK BO'LGAN NARSALAR HAQIDA SO'Z

Fozillar shahrining barcha aholisi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlар quyidagilardir. Birinchidan, ular asliy sababni va uning barcha sifatlarini bilishi zarur. So'ng moddiylikdan tashqari mavjud narsalarni va ularning sifatlarinni, shuningdek, ularning faol aqlga qadar bo'lgan darajalarini hamda ulardan har birining sifatalrini bilishi zarur. So'ng ular samoviy xilqatlarni va ulardan har birining sifatlarini, so'ng shu hilqatlardan pastdag'i tabiiy jismlarni, shuningdek, ularning qanday vujudga kelishi va yo'qolishi hamda ularda yuz berayotgan barcha hodisalarning mukammalligi, yaxlitligi, muruvvat, adolat bilan, oqilona ekanligini, bu hodisalarda hech bir nuqson, hech biradolatsizlik yo'qligini bilishlari zarur. Fozil odamlar yana odamzod qanday yaralganini (uning jismiga kirgan) ruhning xususiyatlarini, faol aql uning ruhini qanday qilib nurlantirganini, shu tufayli insonda dastlabki tushunchalar paydo bo'lganligini, u Allohning irodasiga bo'ysunish va nimalarda erkinligini bilishlari zarur. Fozil odamlar yana shahar (davlatning) birinchi rahbari u yoki bu vaqt mobaynida yo'q bo'lib qolganida (biror yoqqa ketganida), kasalligida va hakozo, uning o'rnnini bosa oladigan rahbarlarni bilishi zarur. Fozillar shahri, uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt-saodat nima ekanligini bilishlari zarur. Ular yana fazilatsiz shaharlar va ularning aholisi o'lganidan so'ng ruhlari oxiratda ne kechishini, ba'zilari baxtsizlik, falokatga uchrab, ba'zilari yo'q bo'lib ketishini, fozillar shahri aholisi oxiratda nelarga erishuvini, nelardan saqlanishini bilishlari zarur.

Shularning hammasini ikki yo'l bilan bilib olish mumkin: Birinchidan, yuqoridagi hodisalar aslida qanday mavjud bo'lsa, inson qalbiga, ko'ngliga o'shanday o'rashib qolsa (boshqalarning ko'nglida o'shanday o'rashib qolsa), bu bilimlar qiyos yoxud taqlid asosida vujudga keladi. Ba'zi odamlar o'sha narsalarni o'zları his etishi tufayli ko'ngillarida shu bilimlar vujudga keladi.

Fozillar shahridagi donishmandlar bu narsalarni isbotlash yo'li bilan yoki dil sezgisi bilan bilib oladilar. Donishmandlarga ishonib, ixlos qo'yib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Ba'zilar esa bu narsalarni boshqalarning tasavvurlaricha taqlib orqali biladilar. Bunday odamlar tabiatan yoki odatlariga ko'ra ruhiy bilimlarni aslida qanday mavjud bo'lsa, shunday tushunish qobiliyatiga ega emasdir. Mana shu ikki xil tasavvurlar ham bilim manbaidir, ammo donishmandlarning bilimlari, albatta eng yaxshi bilimlardir. Narsa hodisalarni birovlarning tasavvurlari orqali taqlidan biluvchi odamlar ham turlicha darajada biladilar.

Shulardan ba'zilarining narsa, hodisa haqidagi bilimlari o'sha narsa yoki hodisaning o'ziga o'xshash yoki yaqin bo'ladi. Boshqa ba'zilarning bilimlari o'sha narsa-hodisadan uzoqroq bo'ladi. Yana ba'zilarning bilimlari o'sha narsa-hodisadan yana uzoqroq, ba'zilarniki o'sha narsadan (yoki hodisa yoxud sifatidan) juda uzoq, yana ba'zilarning bilimi narsa-hodisa (yo sifat)dan benihoya uzoq bo'ladi.

Har bir xalqning, yoki har bir shahar aholisining narsa-hodisalarga doir tasavvurlari o'zlariga tanish tasavvurlardir. Ayrim xalqlarning muayyan hilqat haqidagi eng mashhur (keng tarqagan) tasavvurlarida ham ozmi-ko'pmi tafovut, farqlar bor. Chunki, har bir xalq o'sha narsa, hodisani o'zicha anglab, o'zicha aks ettiradi. Shu tufayli fazilatli shaharlarning turli xalqlari yagona (haq-taolo)ga ishonib, yagona saodatga va yagona maqsadga (masalan, oxiratda jannatga munosib bo'lishga) intilsalarda, ularning dinlari turlicha bo'lishi mumkin.

Mana shu (turli xalqlar uchun umumiy) hilqatlar tegishli dalillar bilan bilib olingach, bu hilqatlar haqida hech qanday

bahslarga, soxta donolikka asoslangan bahslarga ham, narsaning asl tabiatini tushunmay u haqda soxta tushunchaga ega bo'lishdan kelib chiquvchi bahslarga ham o'rin qolmaydi.

Ana shu narsalar haqida taqlidiy tasavvur hosil qilinganida esa bahsli o'rinalar uchraydi. Ba'zi taqlidiy tasavvurlarda ozroq boshqalarida ko'proq bahsli o'rinalar uchrashi mumkin. Va ana shu bahsli, munozarali o'rirlarning ba'zilari oshkora aytilishi, ba'zilari yashirin qoldirilishi mumkin.

Narsa, hodisalarni taqlidiy tasavvurlar vositasida o'rganuvchi odamlar orasidan bahsli o'rinalarni payqab, shu haqda o'ylaydiganlar ham turlichadir. Bunday odamlar ham bir necha toifaga bo'linadilar.

Rahbarga, (yo'lboschchiga, ustozga) muhtojlar. Shunday (ustozga muhtoj) kishilardan ba'zilari biror narsa, hodisa haqida tasavvurlarning (bahsli yoki) soxta ekanligini bilib qolsa, boshqa haqiqatga yaqinroq tasavvur darajasiga ko'tariladilar va ular uchun shu masalada bahsli o'rin qolmaydi. Agar u mana shu (keyingi) tasavvur bilan qanoatlansa shu tasavvurda qolaveradi. Ammo (qanoatlanmasa) u har gal keyingi tasavvurida ham nuqsonlar borligini sezib qoladi, u yanada yuqoriroq bosqichga ko'tariladi. Mabodo unga barcha (keyingi) tasavvurlari ham yolg'on ko'rina boshlasa, u haqiqatga yetishishga yaqinlashadi.

Jaholatdagi shaharlar, (aholisining) maqsadlarini ko'zlaydigan (obro'-izzatga, mol-dunyoga, boylikdan rohatlanishga intiladigan) odamlar esa alohida toifadir. Bunday odamlar fozillar shahrida haligi maqsadlar bilan yashash ta'qiqlanganini ko'rib, u yerdagi (adolatli) qonunlarni buzishga, haqiqatga aloqador narsalardan uzoqlashishga, (bu qonun-qoidalar, tasavvurlarni) buzub aks ettirishga urinadilar. Ular bunga ikki yo'l bilan erishadilar: Ular yuqorida aytilgan bahsli o'rinalni o'zlaricha taxmin qiladilar, ikkinchidan, soxta donolik va aldon yo'liga o'tadilar. Ular jaholatli va tuban maqsadlariga erishuviga hech kim to'sqinlik qilmasligi uchun shunday yo'ldan boradilar. Bunday odamlarni fazilatli shaharlar jamoasiga qabul qilmaslik kerak.

Yana bir toifa odamlar ham borki, ular tafakkuri zaifligi tufayli haqiqatdan chalg'ib ketadilar va tasavvurlaridan qay biri to'g'riyu, qay biri yolg'on, ajratolmay qoladilar. Ular hech bahs talab qilmaydigan haqiqiy tasavvurni ham yolg'on deb o'ylaydilar. Ular haqiqatni anglash uchun yaqinroq borganlarida zehni zaifligi tufayli chalg'ib ketadilar va haqiqatni aslidan boshqacha tushunib, yolg'onni o'zlaricha haqiqat deb o'ylaydilar. Mabodo ularga tasavvurlari yolg'on tuyilsa, ular o'zlarining tasavvurlari yolg'on ekanligini bilmay asl haqiqatni yolg'on deb o'ylaydilar. Oqibatda bu odamlar "umuman haqiqat yo'q, haqiqatga yetishdim deganlar o'z-o'zini aldovchilardir, odamlarni haqiqat yo'lidan boshlamoqchi bo'lganlar yolg'onchi, kazzoblardir, ular bunday kattaroq mansabga yoki boylikka erishish maqsadida shunday so'zlarni aytmoqdalar" deb o'ylaydilar. Pirovard natijada bu toifa odamlarning ba'zilari gangib qoladilar, boshqalari narsa va hodisalarni olisdan ko'ruchchi yoki tushida (g'ira-shira) ko'ruchchi odamga o'xshab, haqiqat bor-ku ammo, uni bilishga odamzodning aqli yetmaydi, deb o'ylaydilar. Bunday odamlar o'zлari bilgan narsalarni ham buzib talqin etishga intilib, erishgan narsalarini haqiqat emas, balki buzib talqin qilganlarini haqiqat deb o'ylaydilar.

32. JAHOLATDAGI VA ADASHGAN SHAHARLAR AHLI QARASHLARI HAQIDA SO'Z

Aholilarining diniy e'tiqodlari xurofiy, xato dunyo-qarashlarga asoslangan shaharlarni jaholatdagi yoki adashgan shaharlar deymiz.

Ularning ba'zilari bunday fikrlashadi: ba'zi mavjudotlar bir-biriga qarshidir va bir-birlarini yo'q qilishga intiladilar. Mazkur mavjudotlarning har biri yashash sharoitida shunday quvvai maxfuzga egaki, shu narsa vositasida u qarama-qarshi mavjudotdan o'zini himoya qiladi va o'z zotini yo'qolib ketishdan asrab qoladi. U, yashash sharoitida yana shunday quvvatga egaki, shu narsa vositasida u o'ziga qarshi narsani yo'qotib, o'rnida o'ziga o'xshash mavjudotni paydo qiladi.

Va nihoyat, unga shunday bir qobiliyat beriladiki, shuning yordamida u turli narsalardan foydalanib, yashash uchun doimiy yaxshi sharoit vujudga keltirishga intiladi.

Mazkur mavjudotlarning ko‘pchiligi o‘zlariga ato etilgan qobiliyat tufayli qarshi ish ko‘ruvchi (tug‘dirgan mashaqqatlarni) yengib o‘ta oladilar. Shu tarzda olamdag‘i har bir mavjudot o‘ziga qarshi va umuman boshqa mavjudotlarni yo‘qotib, o‘z yashash sharoitini yaxshilashga intiladi. Bizga shunday ko‘rinadiki, olamdag‘i barcha mavjudotlar faqat o‘z yashash sharoitlarini yaxshilash uchun, o‘ziga foya keltirmay zarar keltiradigan boshqa barcha mavjudotlarni yo‘qotish uchun, faqat o‘zining yaxshiroq yashashini ta‘minlash uchun dunyoga kelgan. Biz hayotda juda ko‘p hayvonlarga tashlanib, o‘zlariga tuzukroq foya chiqmasa ham ularga zarar yetkazish va yo‘q qilish uchun hamla qiladigan juda ko‘p hayvonlarni ko‘ramiz. Go‘yo ularning har biri dunyoda faqat o‘zi yashashi kerakday, boshqa mavjudotlarning yashashi unga zarar keltiradiganday, shu hayvon borligining o‘zi uning uchun zararday, tabiatda boshqalarni yo‘q qilishga intiluvchi hayvonlarni uchratamiz. Mabodo, biror mavjudot boshqa mavjudotlarni yo‘q qilishni ko‘zlamaganida ham, o‘z foydasi uchun ularni qiy nab ishlatishga intiladi. Ba’zi navdag‘i mavjudotlar boshqa navdag‘i mavjudotlar bilan xuddi shunday munosabatdadirlar. Hatto bir navdag‘i mavjudotlar o‘zaro ham shunday munosabatdadirlar. Bu mavjudotlar shunday yaralganki, doimo bir-biriga qarshi kurashib, bir-birlariga dushmanlik qiladilar. Eng kuchlilari boshqalariga nisbatan mukammalroq tuzilgan bo‘ladi. G‘olib kelganlar ham bir-birini yo‘qotishga urinadilar, go‘yo boshqa mavjudotlar nomukammalday, ularning borligi bularga zarar keltiradiganday, yoxud boshqalar ularga faqat (qulday) xizmat qilish uchun yaralganday, barchasi bir-birini ezib ishlatishga intiladi.

Mana shu hodisalarda hech bir tartib, izchillik yo‘q, deb o‘ylashadi; mavjudotlarning shu fe‘l-atvorlarida turli darajalari yo‘q deb o‘ylaydilar: bu mavjudotlarning turli xususiyatlari ularning o‘z fe‘l-atvoridan kelib chiqmasdan, tartibsiz yuzaga chiqaveradi, deb o‘ylaydilar. Biz kuzatgan ma‘lum

mayjudotlarda ham shu va shunga o'xhash hodisalarni ko'ramiz.

Ba'zilarning o'yashicha, mayjudotlarning tug'ma fe'l-atvori shunday. Bu mayjudotlar o'zlarining aqlsiz yoxud aqlli hayvonlarga o'xhash tabiatlariga ko'ra, o'z bilganlaricha, erkin holda harakat qiladilar. Shundaylarning fikricha (tabiatan) shaharlar bir biriga qarshi kurashishlari, o'zaro dushmanlik qilishlari zarur. Ularning (fazilatlik) darajalari yo'q, birlari boshqalariga nisbatan hurmatga sazovorroq emaslar, ularning xatti-harakatlarida izchillik, tartib yo'q, deb o'ylaydilar. Ular har bir odam o'zidagi barcha noz-ne'matlardan o'zi foydalanishi, shaxsiy manfaati uchun boshqalarga qarshi kurashishi kerak, eng baxtli odam shu kurashda dushmanlarni yengib chiqqan odamdir, deb o'ylaydilar.

Mana shu (sabab)larning hammasi tufayli ko'pchilik shaharlarda jaholatdagи shaharlar aholisining qarashlariga xos fikr-AQIDAлar kelib chiqadi. Ba'zilar, odamlar o'tasida tabiiy yoki ixtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zarar etkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mabodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri g'olib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganida kelishadilar, deb o'ylaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar, agar ana shu kuch yo'qolsa kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar, deb hisoblaydilar. Insoniyatga xos hayvoniy aqidalardan biri mana shu aqidadir.

Boshqa ba'zilar esa, odamlar ayrim holda yashaganlarida yordamchilar va xizmatchilarsiz o'zlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirolmagani uchun, shularning g'amxo'rligisiz yashay olmaganlari uchun birlashib yashash foydalidir, deb o'ylaydilar.

Ba'zilar fikricha, bunday birlashuv majburlash, zo'rlik ishlatish bilan amalga oshadi, yordamchilarga ehtiyoji bor odam boshqa odamlarning bir guruhini o'ziga bo'ysundiradi va o'sha guruhni o'zi uchun ishlatadi. O'sha odam xuddi shu

guruh yordamida boshqa guruhlarni ham o'ziga bo'yundiradi. Bu holda yordamchi unga teng emas, balki g'olib oldidagi mag'lub holatidadir. Chunonchi, kim jisman va qurollari bilan boshqalardan kuchli bo'lsa o'sha boshqa bir odamni o'ziga bo'yundiradi va uning yordamida yana boshqa odamni yoki bir guruohni bo'yundiradi va shular yordamida yana boshqa guruhlarni bo'yundiradi. Oqibatda ana shu odamda muayyan miqdordagi yordamchilar paydo bo'ladi va ular turli mavqelarga ega bo'ladilar. O'sha odam o'ziga yetarli miqdorda yordamchilarini to'plab olgach, ularni o'z xohish-istiklarining quroliga aylantiradi.

Boshqa ba'zilar o'ylashicha, odamlar orasida muayyan bog'lanish mehr-oqibat va kelishuv bor, ammo ular bu bog'lanish, kelishuv zamirida nimalar yotishini turlicha tushunadilar. Ba'zilar insonlar umumiyligi (jamoa bo'lib yashashi)ning sababi ularning bir ajdoddan tarqalganida deb bilishadi. Ya'ni, bir ajdodga mansub (ko'pchilik) odamlarning birgalashib, o'zaro kelishib, bir-biriga yordamlashib yashashlaridan maqsad, shu yo'l bilan boshqa ajdod vakillarini yengish uchun va ulardan yengilmaslik uchundur. Odamlar (turli ajdodlardan) kelib chiqishlari tufayli bir-birlari bilan nizolashadilar va yovlashadilar. (Qarindosh-urug'lar uchun) umumiy bo'lgan ajdod — bobokalonlariga kimki yaqinroq tursa aloqalari kuchliroq, shajara atrofidagi shox-butoqlarga taalluqli avlodlarning aloqalari kuchsizroq bo'ladi. Eng uzoqlari esa yaqinligi yo'qolib bordi-keldi o'rniغا o'zaro adovatlashib yashashlari mumkin. Tashqi zarurat tug'ilganida, masalan tasodify falokat kelib qolganida yov hujum qilganida ular yovga qarshi kurashishlari o'zlarini himoya qilishlari uchun katta guruhlarga birlashadilar.

Ba'zilar o'ylashicha, odamlarning o'zaro bog'liqligi zamirida qabila, urug'lik munosabatlari yotadi, bir qabilaning erkaklari boshqa qabilaning qizlariga uylandilar — demak, qarindosh-urug'chilik vujudga keladi. Ba'zilar o'ylashicha yana eng birinchi hukmdor o'ziga bo'ysungan (qabila va urug')larni birlashtiradi va shu bilan g'alabaga erishib, jaholatdagи shaharlar yoqtiradigan biror baxt-saodat (masalan, moddiy boyliklar)ni qo'nga kiritadi.

Ayrimlar o'ylashicha, odamlarning o'zaro bog'lanishlari biror qasam, bitim va o'zaro ittifoqqa asoslanadi. Bunda har bir shaxs (shu ittifoqdagi, bitimdag'i) boshqa odamlarga qarshi chiqmaslikni, ularni tashlab ketmaslikni, yengilmaslik va g'alaba qozonish uchun birqalikda jang qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Yana ba'zilar o'ylashicha, odamlar o'rtasidagi bog'lanish robitalari shu odamlarning xulq-atvori, tabiat'i, fe'li va tilining umumiyligiga asoslanadi. Har bir xalq o'ziga xos mana shunday xususiyatlarga ega. Shu tufayli har bir xalq vakillari boshqa xalq vakillariga aralashib, qo'shilib ketmasligi kerak. Chunki, turli xalqlar xuddi ana shu xususiyatlari bilan farqlanib turadi.

Boshqalar o'ylashicha, odamlarning o'zaro bog'liqligi uylari, umuman yashash joylarining umumiyligiga asoslanadi. Har uydagi odamlar o'zaro yaqin aloqalarda bo'ladilar, yana ular bir ko'chada yana bir mahallada yashaydilar. Shu tufayli odam avvalo qo'shnisi bilan yaqin bo'ladi. Yana u xuddi shu qo'shnisi bilan bir ko'chada, bir mahallada, bir shaharda va nihoyat shu shaharni yaratgan bir yurtda yashaydi.

AFLOTUN QONUNLARI MOHIYATI

(*Talxisu navomisi Aflatun*)

Agar inson har qanday hayvondan biror narsada ustun bo'lsa, u-narsa va xatti-harakatlarning farqini ajratishga yordam beruvchi bir kuch bo'ladi va inson o'sha kuch yordamida narsalar hamda xatti-harakatlaridan o'z xohishi bo'yicha foydalanadi. Inson, ularning qaysi biri foydali, qaysi biri zararli ekanligi o'ziga ravshan bo'lmaguncha kuzatadi va foydaligini tanlab olib o'zlashtiradi, zararligini rad etib, ulardan o'zini olib qochadi. Kuchlarning harakatga aylanishi tajriba yordamida ro'yobga chiqadi. Tajribaning mohiyati-ayrim turlar to'g'risida fikrlash va o'sha ayrim narsalar bilan mos keladigan umumiyatlar haqida mulohaza qilishdan iboratdir.

Tajriba o'tkazib, bu tajriba va harakatlarda narsaning haqiqiy mohiyatiga qarama-qarshi holati haqida o'ylab adashgan odam barkamol emas, balki bu ishda kim eng ko'p tajribaga erishsa, o'sha eng mo''tabar va eng barkamol insondir. Yanglishishlar uchun sabablar bisyor. Ulardan (yanglish fikrlashdan) sufstanik san'at haqida so'z yuritganlar foydalanishgan.

Donishmand kishilar, ayrim narsalar ustida o'z kuzatishlari paytida umumiy fikrlar va mulohazalarga suyanishga tug'ma qobiliyatları bo'lgan odamlar emas, balki tajriba orqali asl haqiqatga yetishgan kishilar oqil insonlardir. Shuningdek, ayrim narsalarni o'zida mujassam etgan vaqt davomida o'sha narsaning shunday ish-harakati bir necha bor kuzatilsa, o'sha ayrim narsa substansional bo'lib qoladi. Xuddi bir yoki ikki va undan ham ko'p marta to'g'ri gapirilsa, haqiqatning butunlay haqqoniyligi haqidagi mulohaza tug'ma qobiliyatga o'xshab qolganiday, bu narsa haqida shu ish-harakatlar kechgan jam'i

vaqtiga qarab baho beradilar. Yolg'on gapirilganda ham xuddi shunday bo'ladi. Jasurlik, qo'rqoqlik yoki inson tabiatining boshqa biror jihatini bir necha bor mulohaza qilinsa, u holda bular haqida hamma, doimo o'z fikrini bildiradi.

Agar oqillar odamlardagi tug'ma qobiliyatlarning bu ahamiyatini bilsalar edi, o'z ko'ngillarida ko'pchilik baho berishi mumkin bo'lgan, ko'p marta qaytariluvchi biror fazilatni topgan bo'lar edilar. Keyin ular o'sha fazilatni, teskari biror ish qilib, odamlardan yashirgan bo'lardilar, odamlar esa (shu teskari ishni) uning avvalgi xislati, deb o'ylar edilar. Bu xuddi imon, haqgo'ylik, zohidlik hamda marosimlardan yaxshi xabardor bo'lgan va ezguliklarni xalq orasida tarqatuvchi bir pokdomon taqvodorning ishiga o'xshaydi. U johil hokim ta'qibidan qo'rqib shahardan qochmoqchi bo'lgan. Ammo o'sha hokim tomonidan uni qayerdan topib bo'lsa-da, darhol hibsga olish to'g'risida farmon chiqarildi. Taqvodor shaharning hech qaysi darvozasidan chiqib ketolmadi, u sultonning soqchilari qo'liga tushib qolishdan qo'rqardi. Shunda zohid bayramona kiyimlarni kiyib yasanishga, qo'liga tanbur olib o'zini yolg'ondakam mastlikka solib, tanburni chertib kechasi shahar darvozasi oldiga kelishga majbur bo'ldi. Darvozabon undan: "Sen kimsan?" deb so'radi. Zohid masxaraomuz javob berdi: "Men falonchi zohidman". Darvozabon, ustimdan kulyapti, deb o'ylab, uning yo'lini to'smadi. Shunday qilib zohid, sira yolg'on gapirmay ta'qibdan qutildi.

Ushbu muqaddimadan ko'zlagan maqsadimiz, donishmand Aflatun (Platon) o'z ilmlarini hamma odamlarga oshkor etishni o'ziga ep bilmaganini, shuning uchun timsollar, majozlar, topishmoqlar va idrok etishga qiyin usullar vositasida ilmni unga aloqasi bo'limgan odamlar tushuna olmaydigan darajaga yetkazganini ko'rib chiqishdir. Bu, ilmning qadriga yetmaydigan yoki undan to'g'ri foydalanmaydigan odamlarga nisbatan to'g'ri tadbirdir. Agar ilm ma'lum va tushunarli bo'lib ko'pchilik orasida yoyilganida, Aflatun balki ilm to'g'risida

AFLOTUN QONUNLARI MOHIYATI

ochiq va aniq gapirgan bo'lardi. Mutolaa qiluvchi va eshituvchi esa, ularni bir timsol deb, Aflatun shu timsollar orqali asarlaridagi pinhon nuqtalarni va ziddiyatlarni tushuntirmoqda, deb o'ylashi mumkin edi. U avval tushuntirgan, ko'rsatib o'tgan nuqtalarida to'xtalib o'tirmay, o'z suhbatlarida yoritilgan ilmda ko'rsatilganlarnigina ta'kidlaydi. Bu, uning "Qonunlari" dagi usuldir. Biz, bu kitobni tushunmoqchi bo'lgan va o'rganishga qiyngagan odamlarga foydali bo'lishi uchun uning ushbu asarida uqdirilgan asosiy ma'noni ta'kidlab ko'rsatishga ahd qildik.

BIRINCHI BO'LIM

Savol beruvchi (Afinalik) qonunlar joriy etilishining sababalarini va bu sabablarning ma'nosini, ayтиб o'tilganidek, haqiqatan ham qonunlar tuzuvchi nomidan amalga oshiriladimi, yo'qmi aniqlaydi. Javob beruvchi (Kliniy) yunonlarda bu qonunlarni joriy qiluvchi Zevs ekanligini va, bu ishda buyuk natijalarga erishganligini tushuntiradi. Qonunlarning ko'pligi va ularning ko'pi befoyda ekanligini tushuntirish uchun Aflatun boshqa bir qonun haqida hikoya qila boshlaydi. U isbot tariqasida she'riyatdan misol oladi va qadimgi qonun joriy qiluvchilarni madh etuvchi, odamlar orasida keng tarqalgan matalni keltiradi. Keyin u, qonunlarni o'rganish to'g'ri ekanligini ko'rsatib o'tadi. Chunki qonunlarni bilmagan va ularga bo'ysunmaganlar (qonunlarni) bema'ni deb atashni xohlاب qoladilar. Aflatun, qonunlarning har qanday oqillikdan benihoya ustun turishini tushuntiradi. U o'z davrida ma'lum bo'lgan qonunlardan ayrimlarini o'rganib chiqadi.

Suhbatda savrlar haqida va savol beruvchi qaysi yo'ldan borishi zarurligi haqida eslatib o'tiladi. Ko'p odamlar bu yerda nozik ma'no bor deb o'ylaydi. Aflatun bahslashuvchilarning savol-javoblari va erkin hamda tushunish qiyin bo'lgan g'oyalar yordamida boshqalar o'yagan ma'nodan o'zgacha ma'noda o'z nutqini cho'zmoqchi bo'lgan. Gapni

bunday aylantirish tufayli u o'zi berkitmoqchi bo'lgan ma'noning teskarisini yoritishda nutq ravshanligiga erishgan.

Keyin u o'zlarida (yunonlarda) ma'lum bo'lgan qonunlarni barkamol etishga kirishadi, sog'lom aql talabiga binoan ularning qanchalik to'g'riliqi va foydalanishga yaroqliligin o'rganadi. Jamoa bo'lib ovqatlanish, og'ir yuklarni tashishda yengil qurilmalardan foydalanish shular jumlasidandir. Kishilarning ko'pchiligi piyoda yurishlarini hisobga olib, notejis yo'llarda odamlar orasida ahillik va o'zaro yordam mavjud bo'lsa, bundan foya juda ko'pligini tushuntiradi.

So'ngra, u muayyan qurollarning qo'llanishi, ularni ishlatish mahorati, birlashtirish va o'zaro joylashtirish – ayrim odamlar uchun emas, doimiy urush holatlarida umuman zarur narsa ekanligini tushuntiradi.

Aflatun shuningdek, ba'zilar urushda qanday foya olishlarini, urushning ayrim o'rinnari ko'pchilik tomonidan puxta o'rganilganmi, yo'qmi ekanligini bayon etadi. So'ng juz'iy va umumiylasiga o'tadi va urushda ham qonunlarning ko'p foydalilari tomonlari borligini eslatadi. Masalan, sirdan tazyiq o'tkazib singdiriladigan ko'ngil g'azabini bostirish uchun insonning o'zi bilan olib boradigan haqiqat izlash borasidagi kurashda qonunning foydasini borligini aytadi.

U yana, qanday shahar fozil shahar va qanday odam fozil odam ekanligini tushuntiradi, qoidali va sog'lom fikrlash fazilatiga ega bo'lgan shahar va fozil odam hamisha g'olib ekanligini ko'rsatadi. U, hokimga ega bo'lish xohishining chin istak ekanligini, unga bo'y sunishning zarurligini tushuntiradi va bundan keladigan foydani ko'rsatadi. U mehribonlik va boshqaruvdag'i asosiy va eng arzimas tomonlardan boshlab, xalqni urushlardan saqlashda hamda jaholatni bostirishda xayrixoh hokimning hayot tarzi qanday bo'lishi zururligini ta'riflaydi.

U odamlarning o'zaro urushlarni bartaraf etishga bo'lgan chin xohishlarini tushuntiradi va bu xohishni mustahkamlash zarurligi haqida gapiradi, chunki bu – ezzulik, yaxshilikdir. Bu narsa, faqat qonun bo'lganadgina va u qonun yaxshi ishlagandagina amalga oshishi mumkin. Agar qonun jang

qilishni buyursa, demak bu urush uchun emas, tinchlik uchun qilinadi. Aflotun insonning xavfsiz yashashi uchun birgina farovonlikning o'zi yetishmasligini ko'rsatadi. Misol tariqasida u mashhur yunon shoiri Tirteyning she'rлarini keltiradi. Aflotun, madh etilayotgan jasorat tashqi urushdagi jasorat emas, lekin odamlar baholi-qudrat o'z (illatlari) ustidan g'olib kelib, tinchlikni ta'minlashlari mumkin deydi.

Aflotun aytadiki, balog'atga yetgandan so'ng va bu ish nasib etganda, qonunlar yaratuvchisining maqsadi xudo yo'lida jasurlik, buyuklikka erishish, narigi dunyoda yaxshi mukofot olishga intilish bo'lishi zarur. Buning uchun to'rt tug'ma fazilatdan buyukroq fazilatga erishish zarur. Aflotun, insonlar orasida shunday sohibi qonunlar uchrab qolishi mumkinligini va ular o'z oldilariga turli maqsadlar qo'yishlarini, ammo qonunlarni tuzishda shoshma-shosharlik natijasida yomon natijalarga erishishlari mumkinligini tushuntiradi. Aflotun o'shalarga o'xshashlarning avrashlaridan odamlarni ehtiyoj qilish maqsadida bu gaplarni eslatib o'tadi.

Aflotun ezgulik, yaxshiliklarni ikki turga bo'ladi va ularning qaysi birlari insoniy, qaysi birlari ilohiy ekanligini tushuntiradi. Ilohiy yaxshilik insoniy yaxshiliklarga ta'sir o'tkazadi. Agar ilohiy ezguliklar, yaxshiliklar o'zlashtirilsa, u holda insoniy yaxshiliklar ham o'zlashtiriladi, faqat insoniylari o'zlashtirilganda esa ilohiylarini boy berib qo'yish mumkin. Insoniy ezguliklar, xayrli narsalarga kuch, go'zallik, boylik, bilim va boshqalar kiradi, bularni Aflotun o'zining axloq haqidagi kitoblarida tahlil qiladi. U, haqiqiy sohibi qonun ilohiy ezguliklarga yetishish uchun bu ezguliklarni yaxshi bir tartibga soluvchi zot ekanligini tushuntiradi. Chunki u foydalananidigan ezguliklar qonun talab qilganday ilohiy ezguliklardir. Aflotun qonun chiqaruvchilar ezgulikka, yaxshilikka erishishga yordam beruvchi vositalarga intilishlari, odamlar ezguliklarga erishishi borasida qat'iyat ko'rsatish zarurligini onglariga singdirishlari kerakligini aytadi. Avvalo bu, qonuniy nikohlarga, hirs va ehtiroslarni tartibga solishga, ulardan faqat qonun talab qilgan miqdorda o'zlashtirishga taalluqlidir. Bu yana, qo'rqinch va g'azab, xunuk va go'zal

ishlar hamda ezbilikka olib boruvchi boshqa vositalarga tegishlidir. So'ngra Aflatun bu vositalarning hammasidan Zevs va Appollonlarning foydalanganligini aytib o'tadi, ularning qonunlaridagi har bir amru talablardan qanchalik ulkan foyda borligini tushuntiradi, masalan, ovga taalluqli yoki jamoa bo'lib ovqatlanish yo bo'lmasa urushga tegishli bo'lgan amru farmonlar. U yana, urushlar zaruriyat yuzasidan va ehtiros tuyg'usi hamda biror afzallikni ko'zlab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. U qanday urush ehtiros va zavq olish uchun, qaysi biri zaruriyat jihatidan bo'lishini aniqlab tushuntiradi.

Aflatun o'zining shoirona so'zida savol beruvchi va javob qaytaruvchi orasidagi bahsda xunuk narsalarning ta'siri urgan va ularga bog'liq bo'lib qolgan ba'zi go'zalliklar haqida eslab o'tish joizligini ta'kidlaydi. Shu sababdan xayrli ishlarni rag'batlantirish, bu ishlar haqidagi boshqacha fikrni bartaraf etish, hamda ularning afzalligi va haqqoniyligiga ishontirish uchun sohibi qonun teran mulohaza yuritishi va tekshirishlar o'tkazishi zarur. Aflatun o'sha qonunlardagi ba'zi talablarning zararligini, bunday farmonlar nomaqbul ekanligini ko'rsatib o'tadi va ular g'o'r hamda johil insonlarning ishi ekanligini tushuntiradi. Idrokli odam esa o'ziga nisbatan shubha uyg'otmaslik uchun va fuqaroni qonunlar haqqoniyligiga ishontirish uchun bularga o'xhash misollarni o'rganib chiqishi zarur.

Aflatunning aytishicha, eng mushkul ish-qonunni joriy qilishdir. Qonunga shubha bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish esa eng oson ishdir. So'ngra, u avvalgi qonunlardan ma'lum bo'lgan ba'zi farmonlar haqida eslatib o'tadi. Bu, maqsadga juda muvofiq bo'lgani bayramlar haqidagi farmondir, chunki ular (bayramlar) zavq bag'ishlaydilar, ular barcha insonlar tabiatan moyillik bildiradilar, ular xudolar joriy etgan qonunlar sifatida barqaror etilgan. Ularga Aflatun xayrixohlik bildiradi, madh etadi va ular qanday foya keltirishini zikr etadi. Keyin u, qonun tarafidan talab etilgan taqdirda may ichish haqida gapiradi va boshqa biror sabab bilan mayxo'rlik qilinsa nima bo'lishi haqida mulohaza yuritadi.

Aflotun, go'yoki g'oliblar-doimo eng yaxshi odamlar, mag'lublar – eng yomonlar, degan tushunchadan ogohlantiradi. G'alaba tasodifiy bo'lishi mumkin, masalan, xalqning ko'p bo'lishidan bu xalqni qahramon deb o'ylasa bo'ladi. Ammo odam g'alabasidan mag'rurlanmasligi kerak, aksincha o'z mavqeini qonunlarga muvofiq ravishda ko'rishi lozim. Xohish bildirganlarning hammasi ham haqiqiy sohibi qonun bo'lmaydi, qonunlarni tuzishga yaralganlarigina sohibi qonun bo'lishlari mumkin. Bu ilm-fan va boshqa sohalardagi rahbarlarga ham taalluqli. O'z faoliyati davrida ham, bu faoliyatdan o'zini tortganda ham sardor o'z nomi bilan sardor deb atalishi zarur, agar u boshqalarни bu san'atga o'rgatgandan so'ng o'z faoliyatidan voz kechsa ham u rahbar deb atalishga sazovordir. Agar san'atdagи rahbarning faoliyati maqtovga sazovor bo'lmasa va bu ish uning qo'lidan kelmasa, u holda boshliq deb atalishga loyiq emas.

Aflotun sohibi qonun birinchidan, qonunlarni joriy qila olishi, ikkinchidan farmon berishni bilishi zarur, deydi. Agar u o'zi buyurgan narsani joriy etolmasa, agar boshqalar bo'ysungan narsaga o'zi amal qilmasa u holda uning ko'rsatmalari qonuniy kuchga ega bo'lmaydi va uning so'zları qo'l ostidagilariga ta'sir etmaydi. Bu nomunosib holdir. Qonuniga o'zi amal qilmagan rahbar o'zi jasoratdan bebahra bo'la turib askarlarga rahbarlik qiladiganlarga o'xshaydi, bundaylarga havas qilib bo'lmaydi.

Shu munosabat bilan Aflotun hokimlari va boshliqlari o'zlariga o'xshab ichib yuruvchilar bo'lgan mast-alastlarni misol qilib keltiradi. Ularning boshqaruvi ham o'zlariga monand. Mast-alastlarni boshqarish uchun zehn, bilim va hushyorlikda nihoyatda o'tkir bo'lish kerak emas. Darhaqiqat, Aflotun aytganidek, agar sohibi qonun oddiy odamlar kabi johil bo'lsa, u odamlarga naf keltiradigan qonunni joriy etolmaydi. Aflotun qonunlarga rioya qilishda tarbiya va mashg'uilotlar katta ahamiyaiga ega ekanligini aytadi. O'zi qonunni mensimaydigan va shu bilan birga qo'li ostidagilarni ham shunga undaydiganlar o'z xatti-harakatlari ila katta tartibsizliklar keltirib chiqaradilar.

Agar inson uni madh etib ko'taruvchilarning bahs va suhbatdagi mohirligi, so'zga boyligi, kuchli bilimlari tufayli

mashhur bo'lsa, uni ular qancha ko'p maqtashmasin, odamlar bularning hammasi uning fazilati emas, deb o'ylashlarini Aflatun eslatib o'tadi. Agar odamni so'zining qudratiga qarab ta'riflasalar, bu-olimlar ko'pincha murojaat etuvchi an'anadir. Nutqni eshituvchining vazifasi, tub ma'noni to'g'ri va sog'lom fikrlab, chuqur o'rganib, o'sha odamda ta'riflanayotgan sifatlar bormi yoki u sifatlarni notiq so'zamolligi va notiqlik mahorati bilan yoxud notiqning hamma narsa to'g'risida yaxshi fikr bildirishga o'rganganligidan shunday ko'rsatdими, bilib olishdan iboratdir... Qonunning o'zi o'z holicha olijanob va ustuvor bo'lishi kerak va uning nomidan hamda u (qonun) haqida nimaiki gapirilsa ham mo'tabar hisoblanishi lozim.

Aflatun qonunlarning mohiyati va afzalliklarini xalqqa mantiq o'qitish va o'rgatish orqali tushuntirish lozimligini aytadi. Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o'rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o'ziga foyda keltiradi. Aks holda qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Aflatun misol keltirib, go'dak bolaning hunar o'rganishiga zo'r ishtiyoqi borligi tufayli u o'yin orasida eshik va uylarning qanday yasalishini o'rganib olishini va keyinchalik shu hunarni egallab olishini, bu qobiliyatning foydasi tegishini aytadi. So'ngra Aflatun sohibi qonunga murojaat etib, agar sohibi qonun yoshligidan boshlab davlat ishlari bo'yicha foydali mashqlar qilib yurishga, davlat ishlarining to'g'ri va noto'g'riliги haqida mulohaza yuritishga o'rgangan bo'lsa, u holda vaqtı-vaqtı bilan o'zi ustidan nazorat o'rnatishi hamda avvallari shug'ullangan va hozir ham davom ettirayotgan mashg'ulotlariga sabot, qunt bilan qarashi zarurligini tushuntiradi.

Aflatun har bir odamning qalbida qarama-qarshi, o'zaro tutash juft quvvat: g'amginlik va quvonch, lazzat va iztirob va hukazolar bor deb hisoblaydi. Bu quvvatlardan biri – tahsinga sazovor, ikkinchisi hayvoniyidir. Qonun hayvoniy kuchni emas, tahsinga sazovor kuchni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Aflatun, hayvoniy quvvat tomonidagi ziddiyat kuchli va og'ir, tahsinli quvvat tomonidagi ziddiyat-

muloyimroq va xushko'ngilroq, deb tushuntiradi. Har bir ayrim odam shu ikki ziddiyat holati haqida o'ylashi, tahsinga sazovor quvvatga bo'ysunishi kerak. Shaharning hamma aholisiga kelganda, agar ular tahsinga sazovor kuchlarga erishishga kuchlari yetmasa, yo'l ko'rsatuvchi, eng mo'tabar avliyolarning ishlaridan so'z yurituvchi, sohibi qonunlarning adolatlariga bo'ysunishi kerak bo'ladi.

Aflatun aytadiki, sohibi qonun tomonidan og'ir ishlar va mashaqqatli mehnat bilan bog'liq bo'lgan matonat talab qilinishi eng yaxshiadolatdir, chunki uning pirovardida qulaylik va xayrli ishlar keladi, bu holat xuddi acheniq, ammo sog'liqqa yaxshi ta'sir etuvchi dori ichishga o'xshaydi.

Aflatun, inson tabiatidagi zaruriy xislatlarni va ularning qarama-qarshi jihatlarini farqlash kerakligini tushuntiradi. Masalan, kamtarlik — tahsinga sazovor, ammo kamtarlik haddan oshib ketsa, u holda o'z kuchini yo'qotadi va zararli bo'lib qoladi. Odamlar haqida yaxshi fikrlash va ularga nisbatan ochiq ko'ngillilik tahsinga sazovor, lekin, bular dushmanga taalluqli bo'lsa, ular zararlidir. Hushyorlik ham tahsinga sazovor, ammo haddan oshib ketsa, u qo'rquv va o'zini tiyishga aylanib, zararli bo'lib qoladi. Alloma, agar inson o'z maqsadiga erishib, hurmatga sazovor bo'lsa-yu, ammo maqsadga egrilik bilan erishsa, bu ham zararli hisoblanadi-deb tushuntiradi. Eng yaxshisi maqsadga chiroyli va halol yo'l bilan erishishdir.

Aflatun, esli odamga foydali ish sifatida, yomonlikka yaqinlashib, unga tobe' bo'lib qolmaslik uchun uni tushunish, unga nisbatan o'z hushyorligini oshirish zarurligini eslatadi. U mayxo'rlik bilan bog'liq misolni keltiradi. Aflatun sog' odamning mastlarga yaqin bo'lishi, ularning dasturxonida birga bo'lib turishi, mastlikdagi bema'nigarchiliklardan, qabih ishlardan o'zini himoya eta bilishi zarurligini tushuntiradi. Nimjon odam balki kosalab ichib, o'zini kuchli faraz qilib, o'zining kuchini ko'rsatish uchun shovqin-to'polon va urishni tusab qoladi, ammo behol bo'lib kuchdan ayrıldi. Ichuvchi odam bilan yana boshqa ko'p savdolar sodir bo'ladi.

Yaxshi fazilatlarga erishmoqchi bo'lgan odam, yaxshi xislatlarga qarshi turgan, o'zidagi illatlarni yo'q qilishga intilishi

zarur. Chunki yaxshi fazilatlarga erishish qiyin. Odam faqat illatlardan forig' bo'lgandan so'nggina yaxshi fazilatlarga erisha oladi. So'ngra u har bir inson tabiatiga ma'lum bir xislat to'g'ri kelishini aytadi. Har bir ayrim sharoitda o'zining yo ma'qullovchi yoxud nomaqbul deguvchi qarorini chiqarishi uchun sohibi qonun ham, insonning o'zi ham shu narsalarni (ya'ni insondagi bu xususiyatlarni) bilishlari kerak, bu o'sha qarorning yo'qolmasligi uchun ham zarur. Agar biror qaror noo'rin chiqarilsa, bu holda u yo'qolib ketadi va undan nom-nishon qolmaydi.

IKKINCHI BO'LIM

Aflatun, inson tabiiy xislatlarga ega – bular undagi xulq-atvor va xatti-harakatlarga sabab bo'ladilar, deb tushuntiradi. Sohibi qonun bu xislatlarni nazarda tutishi, ularni tuzatishi, shu xislatlarni tuzatuvchi qonunlar chiqarishi kerak, chunki bu bilan sohibi qonun fuqaroning xulq-atvorini ham tuzatadi...

Rohatlanish, dard chekish va qayg'urish asosiy tabiiy xislatlar hisoblanadi, ular tufayli fazilatlar va illatlar o'zlashtiriladi. Va niroyat, balog'at va bilimlarga, ya'ni rivojlanishga tarbiya va mashq orqali erishiladi. Sohibi qonun odamlarga o'zlarini tiyibroq turishlarini buyurgan bo'lsa ham, odamlar bayramlarda va orom olganlarida rohatlanadilar, chunki odamda rohatlanishga tabiiy moyillik bor. Bunday rohatlanish tuyg'ularini xudo taolo ato etgan. Musiqaga bo'lgan moyillik ham shunday: tabiiy mayl tufayli, musiqadan xabardorlik natijasida rohatlanish paydo bo'ladi. Aflatun yunonlarda mashhur bo'lgan ommaviy raqlar va surnay navolarini misol qilib ko'rsatadi. U har bir ayrim holda, go'zallik nima-yu, xunuklik, bema'nilik nimaligini tushuntiradi. Go'zallik – bu turli musiqalar, yaxshi xulq-atvorga to'g'ri keladigan, masalan, saxiylik va jasurlik kabi yaxshi, ijobjiy xislatlar – odamlar erishishiga havas qiladigan narsalardir. Xunuklik – be'manilik esa yomon xislatlarga undaydi. Aflatun, Misr ehromlarida mavjud bo'lgan kuy va tasvirlarni misol qilib ko'rsatadi, bu ehromlarda qat'iy qonun o'rnatilgan bo'lib, ular ilohiy deb e'lon qilingan.

Aflatun, xursandchilikni xotirjam va sovuqqon qabul qiluvchi katta odamlarga nisbatan o'smirlar rohatlanishdan olgan quvonchni anchagini kuchliroq his etishlarini ta'kidlaydi.

Chinakam qonun o'rnatuvchi yangi qonun qabul qilayotganida uning mamlakatdagi barcha tabaqalar va avlodlarga, barcha viloyatlarning aholisiga baxt-saodat, shod-xurramlik keltirishini hisobga oladi. Qonunda odamlarning barcha xislatlaridan farq qiluvchi xislatlarini ham hisobga oladi va u chiqargan qonunda sozandaning tug'ma xislatlari ham hisoabga olinishi kerak. Xalqlarni birma-bir mag'lub etishga qaratilgan qonun qabul qiluvchi rahbarlar ma'rifatli sohibi qonunlar qatoriga kirmaydilar. Bilimdon qonun o'rnatuvchi, masalan, sozandaning tug'ma fazilatlarini ham yuzaga chiqartiradi. Demak, qonun turli-tuman fe'l-atvordagi, turlituman xislatli odamlar xayriyohlik bilan kutib olishiga arziydigan bo'lishi zarur. Idrokli va tajribali odamni bo'ysundiruvchi qonunni joriy etish, olomon va tajribasiz odamlarni olimlarga tenglashtirib bo'ysundiruvchi qonunni joriy etishdan ko'ra ma'qulroq va afzalroqdir. Buni katta yoshdag'i, tajribali va matonatli odamlar davrasida qo'shiq aytuvchi xonandaga o'xshatsa bo'ladi. (Bu odamlar qonunni to'g'ri tushunuvchilar bilan qiyoslanayotganga o'xshaydi).

Sohibi qonun ham, uning ko'rsatnalarini bajaruvchilar ham xalqning juda ko'p, turli-tuman ishlarini nazorat qilib turishlari zarur, toki hech bir ish ularning nazaridan chetda qolmasin. Agar ular bunga befarq qarasalar, u holda ta'sirlari bo'lган barcha sohalardan ularni chetlatish kerak, agar ular biror narsaga uzoq vaqt e'tibor bermagan bo'lsalar, unda ularning sinchkovligi nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketadi, bu ularga odad bo'lib qoladi va o'z e'tiborsizliklari natijasida me'yor bilmay qoladilar, ular o'zlariga ergashib, ta'lim oladigan bolalar va o'smirlarning ishlaridan bexabar qoladilar. Agar yoshlar maishatga o'rganib, qonunga zid ravishda dilxushlik qilib va rohatlanib yursalar, sohibi qonunlar ularni tuzatishlari qiyin, ammo rohatlanishlarini qonunga

bo'ysundirishlari zarur, balog'atga yetgan yosh yigitlar esa bu shart-sharoitlarga ko'nikishlari va undan foydalanishlari kerak.

Sohibi qonunning har bir guruh odamlarga murojaati tushunarli bo'lishi zarur. Buning uchun qonun chiqaruvchi odamlarning idrok etish imkoniyatlarini hisobga olishi kerak, toki odamlar uni tushunsinlar. Chunki, odamlarga biror narsani tushunish va amalda qo'llash qiyin bo'lishi mumkin. Tushunmovchilik bunday sohibi qonundan voz kechishga turki va ag'darib tashlashga sabab bo'lib qolishi mumkin. Shu munosabat bilan Aflatun, bir bilimdon va mehrli tabib shifobaxsh dori tayyorlab, bemor yaxshi ko'radigan ovqatga qo'shib bergenini misol qilib ko'rsatadi.

Aflatun, mutlaq ezmag'an nisbiy ezmag'likni tushuntiradi. O'z so'zlarining to'g'riliqini isbotlash uchun sog'liq, chiroylilik, boylik kabi ko'p avlodlar tomonidan xayrli deb hisoblangan ezmag'liklar eslatilgan qadimiy she'rni keltiradi. U, bularning hammasi e'tiborli insonlar uchun ezmag'lik ekanligini tushuntiradi. Johil va adolatsiz kishilar uchun esa ezmag'lik yo'q va ular baxtga erisha olmaydilar. Ular uchun hatto hayot ham bir kulfatdir.

Agarda yaxshilik, ezmag'likka oid qonun mavhum bo'lsa, sohibi qonunlar va ularning pandlarini yozib boruvchilar va shoirlar ularning so'zlaridagi xatolarni tushuntirish uchun bunga jiddiy e'tibor berishlari kerak bo'ladi. Aflatun, "hamma ezmag'liklar ayni paytda yoqimli", "nimaiki chiroyli va ezmag'lik bo'lsa, xayrli va yoqimli", ammo "ko'p yoqimli narsalar xayrli emas" degan iboralarini tushuntiradi. Ezmag'ligi yo'q, faqat yoqimli narsalar bilan esa aqli kalta odamlar rohatlanadilar. Ezmag'lik, yaxshilik, ulardan hosil bo'ladiigan natijani biluvchi odamlar uchun yoqimlidir, bilmaydiganlar uchun esa yoqimsizdir. Ayrim bir oilaning turmush tarzi haqida ham shunday deyish mumkin.

Aflatun aytadiki, bir odamga taalluqli qoida, hamma odamlar uchun shart emas, bir guruh uchun yaratilgan qonunlarga, boshqa guruhdagi odamlarning rioya qilishlari ham shart emas. U quyidagi misolni keltiradi: qarilikning

AFLOTUN QONUNLARI MOHIYATI

xususiyatlarni nazarda tutganda, keksa yoshdag'i odamlar uchun raqs tushish yarashmaydi. Agar bunday odam o'rinsiz shu ishni qilsa, u ko'zga xunuk ko'rindi va odamlarga xush kelmaydi. Agar u bari-bir shunday qilsa va uning o'zini bunday tutishi yarashsa nima bo'ladi? (Forobiy bu savolni Aflatunning fikriga qarshi qo'yayotganga o'xshaydi) Aflatun, bir chol o'ziga yarashmasa ham nay chalib, raqs tushgani voqeasini misol qilib keltiradi. Bu bayramda qatnashayotgan odamlar unga qo'shilib o'ynamaydilar, quvonib shod-xurram bo'lmay, beparvo tomosha qiladilar. Agar nay chalib, raqs tushishga ehtiyoj bo'lmasa-yu, bu ish qilinsa, u holda noxushlik va odohsizlik hisoblanadi. Shunday qilib, agar nimaiki qilinsa ham, vaqt va sharoitga to'g'ri kelmasa keltirilgan misollardagi kabi bu chiroyli xatti-harakat hisoblanmaydi.

Shunga o'xhash, agar xatti-harakat zaruratsiz amalgalashirilsa, u noxush va tahsinga sazovor emas. (Buning ustiga) tomosha qilayotganlarda, ayniqsa tajribasiz odamlarda, u jirknish tuyg'ularini uyg'otadi. Aflatun, agar biror narsadan rohatlanish odamlarga xush yoqmasa, o'sha narsa ularning hojati, fitrati (tabiat) va odatiga to'g'ri kelmaydi, deb tushuntiradi. U jasur odamlar, shuningdek biron-bir san'at sohibi bo'lgan odamlarga doir misollar keltiradi. Bir san'at sohiblari uchun zavqli bo'lgan narsa boshqa san'at sohiblari uchun zavqli bo'lmasligi mumkin.

Shunga o'xhash, ba'zilarga to'g'ri va go'zal, adolatli ko'ringan narsa boshqalarga yomon ko'rinishi mumkin. So'ngra Aflatun, ashylolar o'z-o'zidan go'zal va xunuk emas, balki, (boshqa ash'yolarga) nisbatan go'zal va xunuk bo'ladi, deb qo'shimcha qiladi. Agar bu haqda san'atkorlardan so'ralsa, ular albatta bu fikrni tasdiqlaydilar.

Aflatunning tushuntirishicha, narsaning mohiyati noma'lum bo'lsa, bu narsani aniqlash uchun, uning ayrim qismlarining, uyg'unligini, tegishli jihatini va zaruriyigini tartibga solib bo'lmaydi. Agar kimdir shusiz ham (u narsani) aniqlash mumkin, deb da'vo qilsa, yanglishadi.

Agar biror odam ashyoning mohiyatini bilsa ham, o'sha narsaning yaxshi va oliy sifatlarini yoki yomon va bema'ni

xislatlarini bilmasligi mumkin. Ashyoning asl mohiyatini, uning yaxshi va oliv sifatlarini, yomon va be'mani xislatlarini bilganlaridagina bu ashyo haqida mukammal bilimga ega bo'lishlari mumkin.

Qonunlarni, hamma san'atlari (hunarlar) va fanlarga oid bilimlarni ham shunga o'xshatish mumkin. Hokim shularga yo yaxshi yoki yomon munosabatda bo'lishi uchun o'sha sohalarning mohiyatini bilishi zarur. Hokim har sohaning yuqoridagi uch jihatini yaxshi egallashi, ular haqidagi bilimini kamolatga yetkazishi, to'g'ri va haqqoniy boshqaruvi uchun ularni bilishi kerak. Qonunni yaratuvchi, bu uch narsani (ya'ni: mohiyat, sifat va xislat) yaxshi bilib olgan taqdirdagina o'sha qonun eng yaxshi qonun bo'ladi. Agar o'sha uch jihatni to'g'ri tushunmasa, u qanday qilib qonunlar yaratishi mumkin? Bu faqat qonunlargagina emas, balki har qanday ilm va san'atga ham taalluqli. Aflatun she'rлarni misol qilib ularning (umumiy) o'chovi, vazni, ohangi haqida gapirib, bularning ijodkorlari hamda bu san'atning hamma turlaridan bahramand bo'lgan odamlarni tilga oladi.

Aflatun, qonunlardagi har bir ko'rsatmadan mohiyatiga qarab foydalanish zarurligini tushuntirish uchun misol sifatida yana raqs va nay chalish haqidagi gapini davom ettiradi. Kimda kim biror narsani talqin qilishda va undan foydalanishda haqiqatga xilof ish qilsa, u odam eng qattiqqa'l, johil va bema'ni odam hisoblanadi, unday odamdan darhol voz kechish kerak.

O'zlariga ma'lum bo'lgan musiqaviy san'atlardan to'g'ri foydalanishga odatlangan odamlar tafsinga sazovardirlar. Ularning ma'nosini o'zgartirib, o'rinsiz va mavridsiz foydalanuvchilar yomonlanishga va qoralanishga loyiqdirlar, chunki bu bilan g'am-kulfatga sabab bo'ladilar. Yunonlarda qo'shiq san'ati muhim o'rin tutadi, shuning uchun sohibi qonunlar unga alohida e'tibor berishlari darkor. Darhaqiqat, qo'shiq san'ati juda foydali, ayniqsa o'zining ruhiyatga ta'siri hamda ruhiyatga aloqador bo'lgan qonunlarga ta'siri bilan nihoyatda foydalidir.

Ushbu bobda Aflotun, badan uchun juda zarur bo'lgan jismoniy mashqlar ruh uchun ham shunday zarurdir, chunki badanni pok, sog'lom etish ruhni ham pok, sog'lom etadi, deydi.

Keyin Aflotun boshqa bir masalani tushuntirishga o'tadi. Shunday narsalar borki, ulardan bir qonunda foydalanishadiyu, boshqasida uni jirkanch va nojo'ya deb voz kechishadi. U shu o'rinda mayxo'rlik haqidagi misollarni keltiradi. Yunonlarda bir guruh odamlar may ichishgan, boshqalari esa ichishmagan. Ba'zan zarurat yuzasidan may ichishga ehtiyoj bo'lgan, masalan, es-hushini yo'qotish uchun, ayollarni to'lg'oq tutganda, yoki badan yarasi kuydirilayotganda yoxud badan behol bo'lib qolganida.

UCHINCHI BO'LIM

Aflotun ushbu bo'limni turli qonunlarning vujudga kelishi, yo'qolishi va yangilanishi faqat uning zamonasigagina taalluqli bir yangilik emasligini tushuntirishdan boshlaydi. Zotan, qadim zamonlarda ham shunday bo'lgan va kelgusida ham shunday bo'ladi. Aflotun, qonunlarning bekor qilinishi va yo'qolishiga ikki sabab bor, deb hisoblaydi. Birinchisi – ularning amalda qo'llanishi muddatining cho'zilib ketishi bo'lsa, ikkinchisi – dunyoda hamma xalqlar uchun halokatli to'fon, vabo kasalligi kabi ommaviy falokatlarning ro'y berishi oqibatidir.

Aflotun yangi shaharlarning qanday bunyod etilishi, ularda boshqaruv va qonunlarga ehtiyoj qanday tug'ilishi haqida yozadi.

Misol tariqasida u hamma shaharlarni yakson etgan umumjahon to'fonini keltiradi. To'fondan keyin shaharlar (yana) qad ko'tarib rivojlana boshlaydi, u yerda odamlar to'planib, xalqlar va shaharlar vujudga keladi. U, avvalgi shaharlar qanday vayron bo'lganligi va keyinchalik qanday qilib boshqa shaharlar qurilganligi haqida gapiradi. Avvaliga bu shaharlardagi odamlarning axloqi tahsinga sazovor bo'lgan, lekin odamzot avlodni ko'paya borgan sari bu xulq o'zgara boshlagan. Oldiniga (ya'ni to'fondan keyin) ular o'zlarini

baxtiqaro sezishib, bir-birlariga xushmuomalada bo'lib, mehr bilan qaraganlar. Odam avlodining ko'payishi natijasida ular orasida hasadgo'ylik, jaholat paydo bo'ldi va ular o'zaro urusha boshladilar. Bu paytda, to'fon tufayli eng zarar ko'rgan san'atlar (hunarlar) umuman yo'q bo'lib ketdi. Asta-sekin, ma'dan qazib olish, daraxtlarni kesish, ustaxonalar, uylar qurish zarur bo'lgani tufayli hunarlarni qayta tiklay boshladilar. Bu ishlar faqat kitoblardan bahramand bo'lувchilar uchungina qiyinchilik tug'dirmaydi. Odamlar o'zlarining asl mohiyatlari (nima uchun yaratilganliklari, maqsadlari, vazifalari nimada ekanligi) haqida fikr yuritib, san'at vositalarini idrok eta boshlaydilar. Avvaliga san'at (hunar) shunchaki, o'z holicha zarur edi, keyinchalik esa, xuddi, nozik va himoyasiz a'zolarni berkitish va issiq, sovuqdan saqlanish uchun yaxshi kiyimlar kerak bo'lganiday, go'zal va chiroylar buyumlarga ehtiyoj tug'ildi. Keyincha ular bu buyumlarning eng chiroylilariga alohida e'tibor bera boshlaydilar. Aflatun, odamlar avvaliga, shaharlar, qal'alar va usti berk, pana joylarda vahshiy hayvonlar yoki kuchsiz mavjudotlar singari boshpana qilganlar, deb hikoya qiladi. Keyinroq bir-birlaridan saqlanish uchun istehkomlar qura boshlaganlar. Shunday qilib, asta-sekin ular orasida urushlar chiqa boshlagan.

Aflatun yana urf-odatlar, ularning otalardan farzandlarga qanday o'tishi haqida ham ma'lumot beradi. Agar bu jarayon birlik-birdamlikni idrok etishiga olib keladigan bo'lsa, u holda turli hayat tarzidagi odamlarni, katta, obro'li oilalarning tabarruk yoshdagi otalar va farzandlarni farog'at keltiradigan birdamlikka birlashtiradigan qonunlar yaratishga majbur etadi. Aflatun elladaliklar shahri va uning bunyod etilishini tasvirlagan Homerga murojaat etadi. Yana Aflatun jaholat va zo'ravonlikka ruju qo'ygan bir shahar aholisidan boshqa bir shahar aholisi jabr-sitam chekadigan urush g'ayriqonuniy bo'lgani uchun (hech qanday) foyda keltirmasligini tushuntiradi. Misol tariqasida u qadimiy yunonlar g'alaba qozonib zabit etgan shaharlarni keltiradi va o'sha shaharlarning ahvoli haqida eslatib o'tilgan ma'noda mulohaza yuritadi.

Aflatun, bir shaharda ko'ngli tusagan ishni qilib yuradigan bir hokim yashardi, deb hikoya qiladi. Ushbu shaharda yashaydigan odamlar har jihatdan unga taqlid qilishgani uchun hayotlari borgan sari aynib boradi, natijada shahar inqirozga uchraydi. Bu ikki sabab bilan yuz beradi: biri — o'zlariga foyda keltirishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajarmagan odamlarning hayot tarzi nopolkligidir. Boshqa bir sabab — ularning ustidan boshqa hokimlarning mavjudligidir. Bu hokimiyat balki qonuniy ravishda amalga oshirilgandir, lekin shunday bo'lgan taqdirda, bir davlatdagi bir necha hokimlar Aflatun eslatib o'tgan, uning davrida mashhur bo'lgan shaharlardagi kabi ilohiy qonun qabul qilish uchun birlashgan bo'lar edilar. Aflatun o'zi keltirgan misollardan birida tushuntirib o'tgani kabi, biror xalqqa mansub, tug'ma odatlarni inobatga olmaganda, uning fikricha, bir shahar aholisi boshqa bir shahar aholisiga qaraganda o'z qonunlarini tezroq buzadi.

Aflatun aytadiki, maqtov ba'zan qonunning barqarorligiga olib keladi va inson, o'z mohiyati boyicha farovonlik keltirmaydigan narsani ham ma'qullashi mumkin. Farovonlik keltirmaydigan va baxt sari olib bormaydigan qonunni qanday qilib ma'qullah mumkin? Aflatun, bu juda mushkul masala, deydi va ushbu misol orqali tushuntiradi: ajoyib kemani ko'rib turganlar unga ega bo'lishni xohlaydilar yoxud farovonlik va beqiyos boylik xush yoqqani uchun ularni ko'rgan odamlar hammasiga ega bo'lishni istab qolishadi. Balki bular haqiqiy farovonlik keltiruvchi narsalar ham emasdir. U yana tushuntirib aytadiki, go'daklik paytida bolaga biror narsa yoqishi mumkin, lekin u ulug'aygandan so'ng avval xush ko'rgan narsasini xohlamaydi, demak, uni ma'qullamaydi ham. Ushbu (hozir xohlanmagan) narsa esa o'zining asl mohiyatini o'zgartirmaydi. So'ogra Aflatun, qaysi hollarda xohlangan biror narsa haqiqatan ham yaxshi, foydali, qachon yaxshi emasligini isbot qiladi. Biz bilamizki, bola bir narsani xohlaydi, uning otasi esa o'sha narsani xohlamaydi. Ota ushbu xohish bolani tark etishini xudodan iltijo qiladi, chunki ota oqil, bola esa

nodondir. Oqil, idrokli insonlar xohlagan narsa yaxshi, farahbaxshdir; lekin nodonlarning xohlaganlarini rad etmoq kerak.

Aflatun yaxshilik, saodat nimaligini tushuntiradi, bu – qonun shahodat berishicha, amal qilinishi zarur, afzal ko‘rilishi kerak bo‘lgan oqillikdir va unga hamisha intilib yashash kerak. Qonun chiqaruvchi – sohibi qonun ruh va idrokni rivojlantiruvchi omillarga intilishi va o’sha omillarni rag‘batlantirishi zarur. Va agar bu narsalar har safar ishonchli bo‘lsa, u holda qaror ham ishonchli bo‘ladi. Tarbiya oqillikni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo‘lmasa, u bema’nilikni xush ko‘radi. Qonun farovonlik yo‘lidir, shunday ekan, sohibi qonun tarbiyani mustahkamlashga alohida harakat qilishi zarur. Agar tarbiya shaharlarning hokimlari va ularga o‘xshagan odamlar tabiatlarining uzviy bir qismi bo‘lsa, Aflatuning fikricha, ularni quvvatlashdan, ularning sof dalliklari va eng yuksak xislatlar majmuasi bo‘lgan hikmatdan kelgan farovonlikdan ham afzalroq natijaga erishiladi.

Aflatun, shaharda hokimlar va bo‘ysunuvchilar bo‘lgan taqdirdagina u yerda qonunchilikning barkamol bo‘lishi mumkinligi haqida yozadi. Hokimlar, asl oljanob oqsoqollar singari ulug‘vor yoshda va hayotiy tajribaga ega bo‘lishlari kerak. Bo‘ysunganlar esa go‘daklar, yoshlar va johil odamlardan tashqari, qolgan hamma kishilardir. Ishda bunga qanchalik riyo qilinsa, shunchalik to‘g‘ri bo‘ladi. Agar hokimlar tarbiyasiz bo‘lsalar, Aflatuning fikricha, u holda ularning ishlari ham, fuqarolarning ishlari ham inqirozga yuz tutadi. U misol tariqasida yunon hokimlari haqida gapiradi. Agar ular ilm egasi bo‘lmasalarida qo‘l ostidagilarning va o‘zlarining ishlarini barbod etib, shaharlarni halokatga uchratgan bo‘lardilar.

Hokimlarning nodonligi esa xalq uchun eng katta zarardir. Aflatun, hokimning tarbiyali, boshqaruvining ko‘ngildagidek bo‘lishi shahar aholisi uchun juda muhimligini uqtiradi. Bubadanga ovqat, kemaga malloh (dengizchi) kerak bo‘lgani kabi zaruriy narsadir, deydi u.

Kasal badan qiyinchiliklarga chidamsiz va yaxshi, samarali ishlarni bajarishga qobiliyatsiz bo'lgani kabi kasal ruh ham eng yuksak va foydali narsalarning farqiga bormaydi. Va ularni saralab ololmaydi. Ruhning kasalligi ilohiy boshqaruv odobini rad etadi. Aflotun, o'zlarini bilimdon va xushxulq deb bilgan, lekin aslida unday bo'lмаган hokimlarning o'z shaxsiyatlariga ortiqcha e'tibor talab etishlarini va ishni barbod qilganliklarini misol qilib keltiradi. U aytadiki, xalq qonun chiqaruvchiga ergashishi uchun qonunning qat'iyligi — olihimmat bo'lishi, uning (qonunning) kamchiligi — yengilroq bo'lishi uchun, sohibi qonun boshqaruv sohasida ulkan ishlarni amalga oshirmog'i kerak, aks holda ishning mushkilotlari chuqurlashib ketadi. Uning tushuntirishicha, ishni barbod qilgan hokimlar ko'p bo'lgan va sohibi qonunning maqsadi aynan hokimlarga qaratilgan bo'lishi, belgilangan maqsadi cho'zilib ketmasligi, uning qonuni abadiy bo'lib qolmasligi zarur. Agar sohibi qonun maxsus va mustaqil qonunga ega bo'lmasa, u holda uning ishi xayrixohlik bilan qabul qilinmaydi.

U yana, sohibi qonun uchun eng foydali va tahsinga loyiq narsa qonunning ixtiyoriy zarurat usulida amalga oshirilishi, shuningdek, hasad xizmatkorlar tabiatiga mos bo'lgani uchun, hokim hasaddan holi bo'lishi kerak, deb tushuntiradi. Agar qonunchilik erkinlik bilan ixtiyoriy amalga oshirilsa, u holda bo'y sunish va itoat ham fuqaro tomonidan xayrixohlik va quvonch bilan qabul qilinib, uzoq muddat davom etadi. Bu g'oyalar va ularning aksini u, forslar, Eron hokimlarining hayoti va odatlaridan keltirilgan misollar bilan to'ldiradi.

Aflotun, mehr-shafqatlilik va axloqlilik tushunchalari haqida gapirib, sohibi qonun inson tabiatidagi bu xislatlarni alohida inobatga olishi zarurligini va shu xislatlarning ta'sir kuchiga qarab ish yuritishi joizligini eslatib o'tadi, toki qonun chiqaruvchi qonunni qullarcha itoatkorlikni talab qilish yo'li bilan emas, balki erkin ravishda qabul qildira olsin. Aflotun o'z hikoyalarida eslatib o'tgan forslar misolida, hokimiyatning hokimdan o'g'liga o'tishi misolida va dengizdag'i urushdan qanday o'ljalar olingani misolida, qullarcha itoatkorlikning illat ekanligini ko'rsatadi. Bu yerda, bir shahardagi dushman

qanday qilib do'st bo'lib qolgani haqidagi voqeani eslatib o'tish o'rnlidir. Qonun chiqaruvchi, qo'l ostidagilarning do'stlik tuyg'ulari mavjudligini kuzatgan holda, qonunning kamchilik va illatlardan xoli bo'lishini ta'minlashi uchun joriy etgan qonunlarini chuqur ishonch va bilim bilan takomillashtirishi zarur. Aflatun, qonunlarning erkin itoat etish yo'li bilan qabul qilinishi va undan keladigan foyda hamda qonunlarga qullarcha itoat va majbur etish yo'li bilan qabul qilinishi va undan keladigan zarar masalalarini tushuntiradi. Aflatun xudojo'ylikda payg'ambarona karomatning ahamiyati haqida eslatib o'tadi. Agar shahar o'z qonunchiligidagi haqiqiy muhabbat, yuksak axloq, barkamol aqlga ega bo'lmasa, uning qismati halokat va parokandalik bo'ladi, agarda bu uch (go'zal nuqtalar) bo'lsa, oqibatda u farovonlik va baxtgta yetishadi. Buni Aflatun butun shaharga ham, bir uyga ham bitta odamga ham barobar taalluqli deydi.

TO'RТИНЧИ BO'LIM

Aflatun, o'z mavqeい va odamlar jamoasi borligi uchungina shahar deb ataluvchi shahar, haqiqiy shahar emasligini, haqiqiy shahar aholisiadolatli qonunlarga va boshqaruv qoidalariga rioya qilishlariga, xudo yorlaqagan rahbarga ega bo'lishiga va odamlarning tahsinga loyiq odatlari va axloqi ro'yobga chiqishiga shart-sharoit yaratilgan, joylashgan yeri, tabiiy sharoiti qulay, ya'ni unga aholi uchun oziq-ovqat va boshqa zarur narsalarni olib kelish mumkin bo'lgan shahardir, deb tushuntiradi.

Aflatun, agar biror odamning odati va tabiat (adolatli) Qonunga mos, go'zal va talabga javob beradigan bo'lmasa, u doimo pastkash, jirkanch bo'lib, har gal qonunni buzganida jinoyatchi sifatida qoralanadi, degan g'oyani ham eslatib o'tadi. Misol tariqasida u, dengizda suzish va shunga o'xhash sarmoya keltiradigan ishlarga hamda turli san'atlar (hunarlar) bilan shug'ullanishga o'zlarini majbur etgan, o'z ruhlarini tarbiyalab keyin esa mashqni to'xtatib qo'ygan jasur odamlar haqida hikoya qiladi. Aflatun, o'zlarining mashhur shoirlari

Homerning, o'zini-o'zi mensimay qo'ygan arslonning oxiri jasurligini yo'qotib, ohulardan ham qo'rqaqidigan bo'lib qolganligi haqidagi she'rini keltiradi. Aflatun mamlakatdağı tuzumning go'zal va yaxshi bo'lishini qonun chiqaruvchining bilimdonligi hamda o'zga tuzumlardagi farovonlik va boshqa ijobjiy jihatlardan xabardorligi bilan bog'liq, deb hisoblaydi. Yana sohibi qonun mamlakat aholisini boshqaruв silsilasidagi qonunlarga rioya qilishlarini va bo'ysunishlarini ta'minlay olsagina a'lo darajadagi davlat tuzumi bo'lisi mumkin, deydi. Aflatun hokimiyat masalasiga ham e'tibor beradi; ehtimol, mamlakat aholisi xushxulqqa ega bo'limgan taqdirda hokimiyatga ehtiyoj tug'ilari. Agar hukmdor, zaturat yuzasidan va shahar aholisi uchun emas, balki o'z odatiga ko'ra hokimiyatga ega bo'lsa, bunday hokimiyat qoralanadi. Ammo, shaharni itoatda saqlash uchun boshqaruвchiga ehtiyoj bo'lisi ham mumkin. U shaharni itoat qildiradi, qonunlarni joriy qiladi va bu qonunlar qanchalik ilohiy, adolatli bo'lsa, shunchalik tahsinga sazovor va qoniqarli hisoblanadi. Agar hokimiyat masalasi haqida mulohaza qilinadigan bo'lsa, hu jihatdan hokimiyat ixtiyoriy qabul qilinganda ko'proq ma'qul va har tomonlama qulay hisoblanadi, chunki hokim o'z hukmini aholiga tavsiya qilish bilan ularga qisqa muddatda o'zlarini tuzatib olishga imkoniyat yaratib beradi. Agarda, hokim shahar ahliga o'z hokimiyatini tavsiya qila olmasa, ishlar mushkullashadi, hokimning foyda keltirishga imkoniyati bo'lmay qoladi va uning xayrli ishlarni amalga oshirish muddati cho'zilib ketadi. Aflatun, qullar va johil odamlar ustidan hukmronlik va ularni hokimiyatga bo'ysundirish haqiqatan to'g'ri ish ekanligini, shu bilan birga erkin va mehr-shafqatlilarni bo'ysundirish o'ta bema'nilik ekanligini tushuntiradi.

Aflatun shahar aholisi qanchalik mehr-shafqatli bo'lsa, ularni boshqaruв shunchalik yuqori darajada ilohiy bo'ladi, deb hisoblaydi. Agar ularning hokimi noloyiq bo'lsa, u holda, toki u ilohiy avlodga mansub shahar hokimi bo'lism darajasiga yuksalmaguncha, aholining ozgina qismidan tashqari, boshqa o'z hukmi ostidagilar bilan til topisha olmaydi. So'ogra u

aytadiki, boshqaruv turlarining soni qonunchilikning soniga mutanosibdur, chunki hokimiyat qonunlarga bo'ysunadi, ulardan hosil bo'ladi va ularga asoslanadi. Boshqaruv ham qonunlarning soniga va mavqeiga bog'liq. Yaxshi boshqaruv, yaxshi qonunlarga bog'liq, yomon boshqaruv — yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv — yetuk qonunlarga bog'liq.

Aflatun aytadiki, o'zining kamolati yoxud davlati bilan yoki shuhrati bilan hamda tahsinga sazovor bo'lmaydigan va dilxush hisoblanmaydigan bирор xусусияти bilan kekkayib yuruvchi hokimlar takabbur hокимларdir, aslida hokim, fuqarolarning pokdomonligiga e'tibor berishi, hamda o'z shaxsiyati va ko'ngilxushligi bilangina shug'ullanuvchi ba'zi behayolarga xudo nomidan shafqatsiz munosabatda bo'lishi, go'zal va dilxush taassurot qoldirmaydiganlarga muruvvat ko'rsatmasligi zarur. Aflatun, hokimning nimalarga e'tibor berishi haqida yozadi. Bu avvalo — moddiy huzur, so'ngra ruhiy, keyin ulardan tashqari bo'lgan barcha narsalar, o'z navbati bilan. Aflatun, ko'p gapirish bilan qiziqib ketib misollar keltiradi, chunki ularni foydalı hisoblaydi va nihoyat, o'g'illar va otalar haqida gapiradi. Ular qanday bo'lishlari kerak, qonunlarni qanday bajarishadi, hayot yo'li qanday boshlanadi, umrlari oxirida ular nimalarga erishishlari haqida fikr yuritadi. So'ngra, ushbu mehr-shafqat yo'lining qiyin va yengil tomonlarini tushuntirib beradi. Shu munosabat bilan u mashhur she'rlardan misollar keltiradi.

Aflatunning fikricha, agar shoir, bahslashuvchi yoki mutakallim (notiq) bir-biriga zid fikrlar aystsalar, u holda sohibi qonun faqat foya keltiruvchi jihatlarini himoya qilishi zarur. U, o'lgan odamlarni ko'mish marosimi, kafan bilan o'rash haqida shoirlarning mulohazalaridan misollar keltirib, bu haqda sohibi qonunning fikri qanday bo'lishi zarurligi va azasi tutilayotgan odamlarning o'zları (vasiyat qilib) nima deganlarini inobatga olish kerakligi to'g'risida yozadi. Atlotun, odamlarga qonunni manzur etish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini tushuntiradi va misol tariqasida bolalar bilan muloyim muomalada bo'luvchi shifokor haqida

so'zlaydi, so'ng hamma tabiblar o'z yumushlariga ko'ra bir-birlariga o'xshashliklarini eslatadi. Xuddi shunga o'xshash, odamlarni to'g'ri yo'ldan yetaklab borishda va amaldaqi qonunlarni hurmat qilish hamda boshqalar uchun saqlab qolishga majbur qilishda sohibi qonunlarga hokimlar taqlid qiladilar. Aflatunning fikricha, shahar aholisining sonini tartibga solishning asosi — nikoh va tug'ilish haqidagi qonun bo'lishi zarur. U oliv darajada tartibli va yaxshi ishlangan bo'lishi kerak. Aflatun ba'zi chalkashliklar haqida va o'sha zamonlardagi qonunlarda jarima hamda jazo kabi choralar bo'lganligini eslatib o'tadi.

Aflatun, qonunlarni yaratishdan avval muvaffaqiyatli kelishuvlar, majburiyatlar va tabiiy holat kabi tayyorgarlik choralari ko'rilmagan bo'lsa, qonunlar insonlar yuragiga hech jo bo'lmaydi, deb tushuntiradi. Kelishmovchilik insonlar orasidagi munosabatlarni buzuvchi bir omildir. Shunday bo'lganda odamlar birlashtiruvchi va fikrlarini jamlaydigan qonunga murojaat etishga ehtiyoj sezadi. Uzoq davom etuvchi axloq inqirozi va xalqqa mansub zerikish kabi holatlar yuz beraganida aholi bahslar, nutq va tushuntirishlar orqali qonunga bo'ysunishga chaqiriladi. Agar bu uch holat tayyorlangan bo'lsa, ular odamlarning qonunlarni ixtiyoriy qabul etishlariga shart-sharoit yaratadi. Odamlar qonunlarga murojaat etishga majburlar, shuning uchun ham ular murosaga kelganlarida qonunlarni mammuniyat bilan kutib oladilar. Ammo bu yerda bu uch holatdan tashqari boshqa bir holat ko'zda tutilmogda. Bu yerda sohibi qonunlar va hokimlar takomillashtirishlari zarur bo'lgan xom yo'l-yo'riqlar haqida gap boradi. Yaxshi xulq-atvorli bo'lishga ahd qilgan yoshlar va nodonlar toki qonunni osonlik bilan qabul qilishlari va unga bo'ysunishlari uchun faollik ko'rsatishga qodir bo'lmagunlaricha o'sha xom yo'l-yo'riqlarga ergashadilar, chunki johil odamlar oson qulq soladilar. Aflatun yana, shahar aholisining ruhlari, badanlari, odatlari va tutgan o'rinnari qanday farmonlarga muhtoj ekanligi haqida ham tushuntirish beradi.

BESHINCHI BO'LIM

Aflatun, ruh eng ezgu olam bo'lgani uchun inson avvalo o'zining ruhini kamol toptirishi zarurligi haqida gapiradi... Ruhni e'zozlash – uning ehtirosini qondirishdan iborat emas, chunki, agar shunday bo'lsa, (ya'ni faqat ehtirosni qondirish bo'lsa) bolalar va johil odamlarda paydo bo'lувчи o'z ruhiy ehtiroslarini qondirish istagi, ruhni e'zozlashga intilishday tuyulardi. Ular nimani yaxshi va lazzatli deb bilsalar, ruhlari ham o'sha narsalarni xohlardi, vaholanki, bu ehtiroslarni qondirish kishiga ulkan zarar keltiradi. Aslida esa ruhning qadr-qimmati uning poklanishidan va ilohiy qonunlarda maqtovli hisoblangan istaklarini qondirishdan iborat bo'lishi kerak. Agar muayyan istaklar qonunda qoralansa, ruh ulardan muhofaza qilinsa, e'zozlansa o'sha istaklar tez orada zararli bo'lib qoladilar. Ruh bo'lmasa badan ham bo'lmas edi, degan tushunchaga suyanib, ruh badandan afzalroq, deb o'yagan odam xato qiladi. Aflatun bu muammoni qiziq bir yo'sinda tushuntiradi. So'ngra u inson bajaradigan ko'p ishlarda, masalan, boylik toplash va hakazo ishlarda, ruhni e'zozlash zarurligi haqida gapiradi, o'sha ishlarda ruhni qanday e'zozlash kerakligini ko'rsatadi. Keyin Aflatun ruhni e'zozlashning qanday xillari borligi va qonun chiqaruvchi rahbar ruhni e'zozlashga e'tibor berishi zarurligini ta'kidlaydi.

Aflatun ruh e'zozlangandan keyin badanning e'zozlanishini tushuntiradi. Olijanob badan o'z go'zalligi, kuchi, zaifligi, sog'lomligi yoki semizligi uchun oljanob emas, balki qonunlarga mos hayot tarzi bo'yicha ma'ql ko'rilgan odatlarga rioya qilgani uchun oljanobdir. Inson tabiatini tarbiyalashga bo'lgan zarurat, badanni e'zozlashni taqazo qiladi. Bu fikrni Aflatun foydali misollar vositasida keng tushuntiradi. Bolalar hali g'o'r bo'lsalar, ularning badanini e'zozlashga qaratilgan qonunlar, o'rta yosh va qari odamlarning badanlarini e'zozlashga qaratilgan qonunlarga o'xshamaydi, deydi u. Aflatun, ruhni e'zozlashga qaratilgan qonunlar chet elliklar, shahar aholisasi va qarindosh-urug'lar uchun bir xil, ularni badanlariga taalluqli qonunlar esa chet elliklarga boshqa, shahar ahliga boshqa bo'lishi kerak, deb

tushuntiradi. Tarbiya ishida chet ellik va qarindosh-urug' qilgan jinoyatlar uchun (bir xil) jazo bo'lishi kerak, chunki bu jinoyatlar qonunlarni bir xilda oyoq osti qiladi.

Aflatun axloqiy fazilatlarni qanday o'zlashtirish mumkinligini tushuntiradi. Bunday yaxshi odatlar vaqtincha o'zlashgan bo'ladi, chunki jamiyatlar va barcha odamlarda odatlar uzoq muddat o'zlashtiriladi. Adolatli, pok, jasur bo'lishga odat qilish, shu bilan birga yomon qiliqardan qutilish uchun ham ma'lum muddat o'tishi kerak. Bu vaqt davomida inson o'zining yomon qiliqlaridan voz kecha oladi. Agar odamda tug'ma, kuchli g'urur tuyg'usi bo'lmasa, u holda o'sha odam o'z ruhini mashq ila tarbiyalashi zarur, chunki o'zi sevgan insonning ko'p illatlarini sezmaslik odamning tug'ma xislatidir. Zero shunday ekan, shahvoniy xohishlarga erk bermaslik uchun albatta kuchli g'urur bo'lishi kerak. Insonni hałokatga olib boradigan narsalarni ruhiga ravo ko'rmaslik uchun bunday hollarda g'azabdan ham ijobjiy foydalana bilish va ruhni doimo o'zidan ko'ngli to'lmaslikka o'rgatish kerak.

Aflatun aytadiki, tarbiyali odamlar o'z ruhlarini doimo quvonish, ortiqcha kulish, qattiq xafa bo'lish, ortiqcha qayg'urish kabi holatlarda mo'tadillik doirasidan chiqmaslikka majbur qila olishlari kerak. Aflatunning aytishicha, odamlar ma'naviy fazilatlarga erishishni istab, iltijo qilib, ularni o'zlashtirishga e'tibor berishlari kerak, toki axloq qonuniy, maqtovlarga sazovor va ilohiy bo'lib qolsin.

Agar inson ilohiy ezguliklarga erishishni umid qilsa, uning hayoti quvonchli, turmush tarzi esa, juda go'zal bo'ladi. Go'zal hayat tarzi esa xalq nazarida ham, xudo nazarida ham yuksak bo'ladi. Buni ko'ra bilish va yaxshilab o'ylab ko'rish kerak. Aflatun bu fikrni mufassal ifodalaydi, manzur sanalgan hayat tarzi qanday bo'lishi kerakligini, har bir ayrim holatda bu hayat tarzi axloq va qonunga muvofiqmi yoki muvofiq emasligini ko'rsatadi; ulardan ba'zilarini misol tariqasida eslatib o'tadi. Bu misollarda u oqillik haqida eslatib, mashaqqatdan rohatni afzal ko'rish bema'nii hayat tarzi ekanligini, rohatdan mashaqqatni afzal ko'rish ma'qul hayat tarzi ekanligini tushuntiradi. Yana u sog'liq, jasurlik, bilim va hakazolar haqida gapiradi.

Aflatun, qonunlarni joriy qilish uchun davlat boshqaruvida tayyorgarlik ko'rilgan taqdirdagina shahar tartiboti mukammal bo'lishi mumkinligini eslatadi. Bu tayyorgarlik ishlari qonunning ustuvor va nufuzli bo'lishini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan u, kashtaning guli va chokini misol keltiradi. U ikki xil davlat boshqaruvi mavjud ekanligi haqida gapiradi. Bir xilda odamlar ustidan hokimlar turadilar, boshqasida qonunlar hokimlarga ham taalluqli...

Aflatun, boshqa bir foydali g'oya — hokimiyat haqida eslatib o'tadi. Ilohiy qonunni idrok etishga tayyorgarlik ko'rish va quyidagi yana ikki g'oyani amalga oshirish uchun hokimiyatga ehtiyoj paydo bo'ladi. Bu g'oyalardan biri — sa'y-harakati, hunarlari va maqsadlari (adolatl) hokimlarga qarshi bo'lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni tozalashdir. Boshqa bir g'oya — pand-nasihat yo'li bilan faravonlikka intilish va odamlarning ilohiy qonunni osonlikcha va quvonch bilan qabul qilishlarini ta'minlashdir. Aflatun misollar keltirib, ushbu fikrlarni qisqacha ifodalaydi...

Aflatunning fikricha, shahar tartibotida eng asosiy narsa mulk, noz-ne'matlarni to'g'ri taqsimlashdir. Shunga e'tibor qilish kerakki, ko'pchilik odamlarning ishi jo'nlashib, bachkanalashib ketmasin, zarur narsalarning ozayib ketishi odamlarni faqir ahvolga solib qo'ymasin. Avvalo, yer va joylarning miqdori, keyin ularning egalari va tutgan o'rnlari, so'ngra nihoyatda zarur narsalar bo'lgan oziq-ovqat, ekiladigan yerlar, saroy va shaxsiy uylarning miqdori hisobga olinishi kerak. Aflatun taqsimot ishini juda qiyin, lekin zarur ish ekanligini eslatadi. Rahbar o'z qonunlarini asoslاب aks ettirishi lozim. Aflatun o'z zamonasida ma'lum bo'lgan misollarni keltirib, sohibi qonunlar shahar aholisiga yer bo'lib berayotganlarida qonun loyihalarining joriy qilinmoqchi bo'lgan bo'limlarini xalqdan yashirmasliklari kerakligini aytadi.

Bolalar va o'smirlar hamda johil odamlar masalasiga Aflatun yana bir bor qaytib, ularni qanday boshqarish kerakligini ko'rsatadi. So'ngra u, qonunlarni va boshqaruvni hurmat qilish hamda ularga jiddiy ehtirom bilan qarash

AFLTUN QONUNLARI MOHIYATI

zarurligi haqida gapiradi. Aflotun, mulkni befoyda jamg'arishdan farqli ravishda mulk egasi bo'lish yomon odat emasligini, chunki mulk halollik bilan to'planadigan bo'lsa, qashshoqlikda yashashga qaraganda badavlatlik afzal ekanligini tushuntiradi. Agar mol-mulk nafsoniyat uchun to'planadigan bo'lsa, unda odam bir kun uyatga qoladi. Shunday qilib, manfaatdan o'zini tiyish, qanday qilib bo'lsa ham nopoq yo'il bilan erishilgan manfaatdan yaxshiroq, deydi u. Bu bobda Aflotun mol-mulk orttirishning yo'llari haqida batafsил gapiradi va yunonlarga ma'lum bo'lgan usullarning qaysi biri halol, qaysilari haromligi haqida misollar keltiradi. Bu fikrlar sayohat va tijoratga ham taalluqli. Aflotunning fikricha bu halol ishlarning majmuasi: avlodga zarar keltirmaydigan mol-mulk orttirish va ruh hamda badanning e'zozlanishi tufayli tahsinga sazovor ish hisoblanmish qonunlar muqaddimasi bo'lgan tarbiyadir. Boshqalarga zarar keltiradigan narsalar esa yomonlanadi. Zararkunandalikdan voz kechish, zararkunandalikka intilishdan afzaldir, chunki tarbiya va qonunlarning maqsadlari — odamlarni yomon ishlardan tiyishdir. Qonun chiqaruvchining faqirlarga va boylarga bir xil e'tibor berishi shartligi, ularning ruhlarini tuzatuvchi va yaxshilovchi qonunlar yaratishi zarurligi haqida u ko'p gapiradi.

Rahbar yana og'irlik o'lchovi, don-dun va shakarga o'xshash narsalar o'lchovlari haqida ham hech kimga zarar keltirmaydigan savdo haqida qonunlar chiqirishi kerak. Shu bilan birga qonun chiqaruvchi, qonunlarda hamma badavlat va faqir kishilarning ahvolini aks ettirishi zarur, toki qonunlarni buzuvchi va o'zining nuqsonlarini oxirigacha tuzatmay razilliklarni yangilovchi odamlar toifasi nazardan tushib qolmasin...

OLTINCHI BO'LIM

Bu bobda Aflotun, fozillar shahrida hokimlar va hokimiyat durust tabiiy tartibga keltirilgan bo'lishini, bunday tartib bo'limgan shahar yaxshi hisoblanmasligini tushuntiradi.

Hokimlar o'rtasida tabiiy tartibni o'rnata olmagan qonun chiqaruvchi ko'p o'tmay masxara bo'ladi va nihoyat uning ishlari tushunarsiz bo'lib, chiqargan qonuni hamda u bilan birga shaharning o'zi ham inqirozga yuz tutishi mumkin.

Aflatun, agar shahar aholisi ma'rifatsiz, tajribasiz odamlar va bolalardan iborat bo'lsa, u holda ular sohibi qonun o'rnatgan tartib va boshqaruv usulini yaxshi qabul qilmaydilar, deb hisoblaydi. U, qonunning tartib-qoidalalarini qabul qilishning shart-sharoitlari haqida gapirib, shahar ikki holda: yo u qadimiy bo'lgani uchun yoki yangi bo'lganidan aholi bilan gavjum bo'lmasligini ko'rsatib o'tadi. Agar shahar qadimiy bo'lsa, u holda qonun chiqaruvchi rahbarning ishi osonlashadi, chunki bu shaharda aholi axloqi va ahvoliga ta'sir o'tkazuvchi hamda keyingi qonunlarga muqaddima bo'ladi dan avvalgi qonunlar kuchini yo'qotmagan bo'ladi, agarda shahar yangi bo'lsa, u holda sohibi qonunning ishi ancha qiyinlashadi, chunki u, odamlar orasidan qonunlarni qabul qilishga tabiatan tayyor bo'lgan kishilarni tanlab olishi kerak bo'ladi, shunda sohibi qonun ular bilan hamkorlikda ishlay oladi, ko'ngillarida qonunga hurmat uyg'ota oladi va ularni yordamga jaib eta oladi.

Agarda, ushbu shahar qonunlari bilan boshqa shahar fuqarosi tanishib, shu shahar aholisiga vatandosh bo'lganlari uchun ularga ergashsalar, u holda bu shaharga mansub qonunlar boshqa shaharlarga ham taalluqli bo'ladi. Qonunlami joriy etish uchun hayot tajribasiga ega va xush xulqli odamlarni jaib etish kerak, amma aslo bu ishga go'l va johil odamlarni yo'latmaslik darkor. Agarda sohibi qonun tasodifan bundaylarga ro'bary bo'lib qolsa, ularni tartibga solish uchun nimanidir ularning tabiatiga mos ravishda o'zgartirib tartibga solishi va qonunlarini tan oldirib, o'sha qonunlarga bo'ysunib yashay olishlariga ishontira olishi kerak. Biz avval eslatib o'tgan bu fikrni Aflatun ham Krit va boshqa shaharlarning aholisi haqidagi misollarda ta'kidlah o'tadi.

Aflatun, yangi qurilayotgan shahar qanday ahvolda bo'lishi, unda odamlar qanday joylashishi, hayot kechirish uchun zarur mahsulotlar qanday taqsimlanishi, aholi nimaga

muhtoj bo'lishi mumkinligi, yoshlariga qarab vazifalar qanday bo'lishi haqida gapiradi.

Oqsoqollar amalga oshiradigan va takomillashtiradigan ishlar yoshlar uchun to'g'ri kelmaydi. Faylasuf buni ishonchli ravishda isbotlaydi.

Aflatun, odamlar orasida tartib o'rnatilgandan so'ng urush bo'lib qolish ehtimolini hisobga olib, harbiy qo'mondonlarni va boshqa rahbarlarni tayinlash kerak, deb ta'kidlaydi. Keyin u tartibot g'oyasiga taalluqli boshqa bir fikrni eslatadi. Ehtimol, butunlay to'g'ri tartibni darhol o'rnatib bo'lmas, deydi u. Agar ba'zi noshud va ishni uncha yaxshi bilmaydigan hokimlar (ishdan) chetlatilganda, ulardan faolroq va ustaroq boshqa biri topilsa, u holda ikkinchisi faqat oqko'ngillik va haqgo'ylik bilan oliy maqsadga yetish uchun tartib o'rnatadi.

Aflatun, kengashlar o'tkazilayotganda vazirlar, savdogarlar va mansabdorlarning bajarayotgan ishlariga, ularning o'zaro munosabatlari - ahil yoki noahil ekanliklariga katta e'tibor berish zarurligini va shu bilan birga sohibi qonunlar va shahar aholisi tomonidan ularning fazilatlarini e'tirof qilib rag'batlantirish kerakligini ta'kidlaydi. Aflatun rahbarlar uchun zarur bo'lgan turli fazilatlarni tushuntiradi. Eng birinchi fazilat - oqko'ngillik, ikkinchisi - mehr-shafqat, uchinchisi - kelajagi porloq bo'lishi, to'rtinchisi - obro'-e'tibor qozonganligi deydi u. Yo'llboshechilarga kelsak, ularning barcha fazilatlari foydali bo'lib, moddiy ne'matlarga taalluqli, ularning o'rtasidagi tartib, boyliklari miqdori asosida bo'lishi zarur. Bu tartiblarning hammasiga rioya qilish kerak. Aflatun o'z fazilatini qabohatga almashtirgan, tanbal va o'jar odamlarga qarshi hokimlar kurashsalargina ma'qul tartib bo'lishi mumkinligini tushuntiradi. Agar ularning fazilat va qabohatlarini huquqshunos hisobga olib tartibga keltirmasa, qonun buzilishi mumkin.

Aflatun shaharda tartib o'rnatish bo'yicha qiziq bir g'oyani eslatib o'tadi. Bu - do'stlikni paydo qiluvchi tenglikka taalluqli bo'lib, ularning ikkalasi ham tartib o'rnatishda katta ta'sir kuchiga ega. Qullar va badarg'a qilingan odamlar bilan erkin bo'lib tug'ilgan va fazilatli odamlar teng darajada fozil

bo'ladilar, deb tushunish xatodir. Tenglik ularning har biriga ato etilgan, o'zi munosib bo'lgan mavqedir. Bu tenglikdan muhabbat va do'stlik tug'iladi...

U, xarajat qilishda xotamtoylik va ziqnalik haqida so'z yuritadi. Agar yashash uchun beriladigan mablag' odamlarning xarajatiga to'g'ri kelmasa, turli nomaqbulchiliklar ro'y beradi. Bu – boshqarilishi eng qiyin bo'lgan ishdir. Kimda-kim o'z ixtiyorida bo'lgan mulkni foya chiqarish uchun muomalaga qo'shmay, o'zi uchun jamg'arsa, juda katta zarar keltiradi. Hokimlar bunday odamlarni nazorat qilishlari (mulkni ishlatmay jamg'arishlarini) man etishlari va boylikni sovurishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak. Aflatun bu fikrni batafsil izohlaydi va o'z mablag'larini ortiqcha sarflaydiganlarning illatlari haqidagi masalani tushuntiradi, chunki xuddi o'sha odamlarning sarf va mablag'lari shaharga g'oyat katta kulfat va zarar keltiradi.

Aflatun qo'riqlovchilar va soqchilar haqida eslatadi. Ular ikki xil bo'ladilar, deb ta'kidlaydi. Birinchisi shahar qo'riqlaydiganlar. Ularga tungi soqchilar va muntazam qo'shin askarlari kiradi. Boshqasi esa, qonunlar va sultanatni qo'riqlovchilardir. Bular hukmdorlar, voizlar, rahbarlar va mansabdorlardir. Aflatun bunday davlat tuzilishini dengizda suzib borayotgan kemaga o'xshatadi. U yana choparlik aloqalarining, davlat ishlarida hushyorlikning foydalari, tanballikdan voz kechish va qo'riqchilar saqlashning foydalari haqida eslatadi.

Aflatunning fikricha, mansabdorlarni to'g'ri tayinlash ulkan foya keltiradi. Shu bilan birga u xalq ichida yurib, gap teradigan josuslar va ayg'oqchilar xususida ham to'xtalib o'tadi. So'ngra u erkaklarning mohiyatiga to'xtaladi. Bu masalani tahlil qilish foydadan xoli emas. Chunki bu masala qonun chiqaruvchi va hokimlarning ishlariiga yaqin ishlarni amalga oshirish uchun erkaklarni tanlash muammosiga taalluqlidir. Aflatun yetarli miqdorda bo'lishi kerak bo'lgan tabiiy idoralar to'g'risida batafsil gapiradi. Yuzlik, yuzlikka o'nlik, o'nlikka birlilik, birlikka o'z o'mi, holati va vaziyati jihatidan to'g'ri kelishi zarur. U yana dastyorlik masalasiga to'xtalib, shahar

aholisi uchun eng muhim narsalardan biri dastyorlarga ehtiyoj ekanligini tushuntiradi. Dastyorlik ikki xil bo'ladi. Birinchi xiliga erkak va ayol qullar kiradi. Ikkinchisiga – tinchlik davrida va urush paytlarida ham shahar ahli muhtoj bo'ladigan hayvonlar kiritiladi. Shaharni idora etishda va qonunlar tuzishda qonun chiqaruvchilar va hokimlar buni hisobga olishlari kerak.

Aflotun suv masalasiga ham e'tibor beradi, chunki shahar aholisi uchun suv manba'larini tartibga solmay turib hayot kechirish mumkin emas.

Qonun chiqaruvchilar va hokimlar suv muammosiga, daryolarning o'zaniga katta e'tibor berishlari zarur. Bir yerda suv ko'p bo'lib, birovlar suv bilan ta'minlanib, boshqalar suvgaga muhtoj bo'lmasliklari uchun bu muammogaadolat bilan yondashmoq kerak. U, ekinzorlarni sug'orish va kerak bo'lsa, muhtojlar uchun jamoat quduqlarini qazish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar amalga oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu shaharlarda hayot kechirishning eng muhim omiliidir. Aflotun, qonun chiqaruvchilar va hokimlar suv inshootlariga alohida e'tibor bilan qarashlari zarurligini ko'p marta ta'kidlaydi. So'ngra u, boshqa bir fikr – odamlar dasturilamal deb bilishlari kerak bo'lgan, shahar uchun zarur narsalar – zakot, xiroj, juzya kabi soliqlarni solish tartiblari haqidagi fikr to'g'risida gapiradi. Soliqlar har xil bo'ladi va ular qonun chiqaruvchi bosh qotirishi kerak bo'lgan narsalar qatoriga kiradi.

Qonun chiqaruvchining hayot tarzi shahar aholisining hayot tarzi va ularning qonunlariga zid bo'lmasligi kerak.

Aflotun jinoyatlar va jazolar haqida gapirar ekan, jinoyatlar ikki xil bo'ladi, deydi. Ulardan birinchisi qonunga bo'ysunmaslik, boshqasi esa qonun ma'qul ko'rмагan ishlarni qilishdir. Agar jinoyat fuqaro tomonidan qilingan bo'lsa, u holda hokim qonun tomonidan ko'zda tutilgan jazoni qo'llaydi. Eng katta jinoyat – rahbar shaxs tomonidan qilingan jinoyatdir. Bunday holatda boshqa hokimlar uni tarbiyalash va unga ta'sir o'tkazish choralarini ko'rishlari kerak. Agar bunga e'tibor berilmasa, bunday jinoyatlar shahar illatlarining ko'payishiga va shaharning inqiroziga sabab bo'ladi.

Afiotun, yuqorida aytib o'tilgan, ammo oldingiday umuman farovonlikni emas, balki shaxsan o'ziga farovonlik tilaydigan shahar aholisining hayot kechirishlari uchun zarur bo'lган mablag'lar to'g'risida eslatib o'tadi.

Afotun, musiqa san'atlariga aloqador bo'lган hokimlar va mansabdorlar qanday ishlar qilishlari kerakligini eslatib o'tadi, chunki bu san'atlar faqat kerak bo'lib qolgandagina emas, balki hamma vaqt ham zarurdir. Uning fikricha bu san'atlar ikki xil bo'ladi: ba'zilari kurash va harbiy ishlarga undaydi, boshqalari esa osoyishta hayot va quvonchga da'vat etadi. Qonun chiqaruvchi va hokimlar bu sa'antlarni tartibga solib, qonunlar vositasida odamlarni san'atlar (hunarlar) bilan shug'ullanishga rag'batlanirishlari kerak.

YETTINCHI BO'LIM

Afotun bu bo'limni, sohibi qonunlar o'z asrining va kelgusi asrlarning odamlari murojaat etadigan ta'llimot joriy etishlari zarurligi haqidagi masalani tushuntirish bilan boshlaydi. Bu eng muhim ish ekanligini eslatib o'tadi. Ta'llimotlar bosqichma-bosqich va davlat ishlaridagi boshqa tadbirlar bilan birga amalga oshiriladigan asosiy ish bo'lishi zarur. Bu ta'llimot avvalan shu davrda urf bo'lган odatlarni soxtalashtirish bilan mashg'ul odamlarga nisbatan qo'llanishi kerak.

Bu soxtalashtirishlar qonunni yaxshi bilmaydigan odamlar va bolalarda muayyan bir illatlarni paydo qilishi mumkin. Agar ta'llimot va qonunlarga o'rgatish ishlarini bosqichma-bosqich va izchil olib borilsa, u holda ular a'lo natija beradi.

Afotun bu ta'llimotlarni tahlil qituvchi va ko'rib chiquvchilarga yozilmagan urf-odatlar xalaqit bermasligi kerak, deb eslatadi. U misol tariqasida qadimgi sohibi qonunlarning bu odatlarini o'rganib chiqqan va ba'zi ahamiyatsiz so'zlarning ko'p ma'nolarga ega ekanligini aniqlagan shoirlarning so'zlarini keltiradi. U, qisqa yoki batafsil bayon qilinadigan nutqlardan iborat bir necha xil nutqlar mavjudligini va ulardan qaysi biri afzalroq ekanligini aniqlash

zarurligini eslatadi. U yana pand-nasihatlar to'g'risida gapirib o'tadi. Agar shahar aholisi bu nasihatlarga quloq solsalar, ularning ko'ngillari yumshaydi, ularda nazokat va qobililik paydo bo'ladi, o'zлari itoatkor bo'lib mayin tortadilar. Aflatun, shahar aholisi, yo o'tib ketib nom-nishoni qolmagan odamlarni yoki hayvonatni, yoxud g'ayrioddiy biror narsani tushunishni dildan xohlal e'zozlashlari haqida misol keltiradi. Bu ishlarning foydali tomonlarini aniqlaydi. Bu foydalardan biri o'z tabiatlariga ko'ra tajribasiz ko'pchilik odamlarning, yozilmagan odatlardan, ularning mohiyatlarini zo'rg'a tushunsalarda, biror narsa bilishga intilishlaridandir. Ikkinchisi, bu odamlar biror yangilikka hayratlanib qaraydilar. Nihoyat uchinchisi, ular bu g'aroyibotlarning mohiyatlariga yetish uchun qonunni saqlab qoladilar. Shu o'rinda Aflatun o'sha shaharlarning fuqarolariga ma'lum bo'lgan va ular tub ma'nosiga yetmoqchi bo'lgan kitoblar haqida eslatib o'tadi. O'z she'rlarida bularning hammasini tasvirlagan shoirlar tufayli bu voqealardan xabardor bo'lindi. Homer va boshqalar shunday shoirlardir.

Aflatun, sohibi qonun o'z shahrining aholisidan yozilmagan urf-odatlarni saqlash, o'rganish va ularga itoat qilishni talab etishi zarurligi haqida gapiradi. Hech qaysi sohibi qonun o'zidan oldingi sohibi qonun tomonidan amalga oshirilgan ishlarni rad etmasligi kerak. Lekin, oldingi sohibi qonunning qarorlaridan ba'zilarini o'zgartirish zarurati paydo bo'lsa, u holda shahar aholisi ulardan (ya'ni o'zgartirilishi kerak bo'lgan moddalardan) voz kechishlari zarur va bu o'zgarishlar qonunlarda o'z aksini topishi kerak. Bu, ularning qonunlaridagi ma'nosи buzilgan moddalarga ham taalluqli. Keyin Aflatun moddalarni o'zgartirish haqida gapiradi.

So'ngra sohibi qonunlar o'rniga keladigan boshqa bir sohibi qonunlar to'g'risidagi masala ko'rildi. Sohibi qonun to'g'risidagi masala ko'rildi. Sohibi qonun o'zidan keyin bo'ladiyan boshqa sohibi qonun to'g'risida aholiga ma'lum qilsa, bu bilan u shahar aholisining ko'ngliga, ayniqsa, tajribasiz odamlarning ko'ngillariga g'ulg'ilal solib qo'yadi, ular nima bo'lar ekan, deb qalblari zirillab kutadilar va

keyingi sohibi qonun joriy etgan qoidalarga itoat etishga xohish paydo bo'lishini (Tangridan) iltijo qiladilar. Aflatun, hayot sohibi qonunda, go'yoki undan keyin boshqa sohibi qonun kelmaydi, degan fikr paydo bo'lmasligi uchun unga ehtiyyotkorlik bilan uqdirish zarurligini tushuntiradi. Agar u shunday o'ylasa va bundan xalq xabardor bo'lib qolsa, vaqt o'tishi bilan uning o'rniiga boshqasi kelganini ko'rgan xalq uchun bu voqeа barcha qonunlarni: o'zining (hozirgi) sohibi qonunini ham keyin kelganining qonunlarini ham rad etishiga sabab bo'ladi. Sohibi qonun xalq bilan birgalikda qonunlarni rad etish va tan olish orasidagi o'rta yo'lni belgilab olmog'i darkor. Buning uchun sohibi qonun o'gitlar, qonunlar va inson illatlarini o'rganish borasida uzoq vaqt ishlaydigan, yordam beruvchi odam paydo bo'lganligidan xalqni xabardor etishi kerak bo'ladi. Agar undan, xayrli ishlarda yordamchi shaxs uning o'ziga o'xshaydimi deb so'rashsa, u inkor etmasligi, aksincha xalqqa zarar keltirmasligi haqida ogohlantirishi zarur. Aflatun shaharlarning aholisi va sohibi qonunlarning hayotidan misollar keltiradi.

U qonunlarning ikki xil bo'lishi haqida gapiradi. Birinchi xil qonunlarga, har qaysi sohibi qonunda uchraydigan qonunlarni joriy etishda, shahar ahvoli va vaqt ziqligidan shoshma-shosharlik asosida paydo bo'lgan holdagilari kiradi. Boshqa bir xiliga esa o'zgarmaydigan va asl holini saqlaydiganlari kiradi, bular — tabiiy qonunlardir. Aflatun bu fikrni qarindosh-urug'larga bo'lgan munosabat, xayrli ishlarni inkor etish va boshqa misollar bilan to'ldiradi.

SAKKIZINCHI BO'LIM

Aflatun birinchi kitobda ham nishonlanadigan bayramlar, ularning tashkil qilinishi haqida eslatadi. U bayramlardan ajoyib foyda borligi haqidagi qiziq fikrni bildiradi. Bu yerda gap, birinchi kitobda aytib o'tilgan foyda haqida emas, xudolarni e'zozlash va ularning nomlarini yangilashdan kelib chiqadigan foyda haqida ketadi. Chunki ularni e'zozlash va madh etish orqali qonunlar ham e'zozlanadi. Xudolarning miqdorini

belgilash va ularning har biriga bayramlar hamda qurbanliq qilish marosimlarini tashkil etish lozim, shunda odamlar poklanadilar. Xudolar ikki xil bo'ladilar: sig'iniladigan osmoniylari va e'zozlanuvchi yerliklari, ammo ularga sig'inmaydilar. Xudolarning har bir turini belgilash uchun, qurbanliq va qonunlarda ko'zda tutilgan ishlар bilan ularning (odamlarga) mehrini orttirish zarur. Bu bayramlarda qurbanliq qilingandan so'ng yoshlar turli jismoniy mashqlar uyushtirishlari kerak bo'ladi. Bayram shod, xurram o'tishi uchun madhiya va hazil-mutoyibadan iborat qo'shiq turlaridan foydalanadilar. Bu xursandchilik va shodiyonalarning hammasi qonunlar yo'rig'iga kirishga targ'ibot etish uchun qilinadi. Madhiya va hazil qo'shiqlar, agar u qonun talab qilganiday haqqoni bo'lsa, yoshlarning qalblariga jo bo'lib, kurash orqali xayrli ishlarga sazovor bo'lishga undaydi, ularning ra'yini kuchaytiradi, ko'ngillarini to'q etadi va jasoratlarini oshiradi. Bayramlarda qatnashuvchi yoshlar bajaruvchi jismoniy mashqlar yoshlarning shahar uchun foydasi ko'p bo'lgan kurash mahoratlarini va kuchlarini oshirish uchun zarurdir.

Shahar hokimlari o'z ishlari beparvo bo'lishlari mumkin emas. Bu, qurbanliq qilishlar va shaharlarning ma'lum bir tarkibiy qismi bo'lgan bayramlarni bezatish san'ati bilan mashg'ul bo'lgan odamlarga taalluqlidir. Hokimlar shahar aholisidan haddan tashqari ko'p odamlarni san'atning bu turi bilan shug'ullanishlariga ruxsat bermasliklari, shahar aholisini buzmaslik uchun ularga shaxsiy erk bermasliklari, bu san'atning yomon tomonlarini ko'rib odamlarda nafrat paydo bo'lishidan saqlash uchun uning yomon jihatlarini namoyish etmasliklari zarur. Bu yerda, o'zi asli tabiatan nafratlvi qonunlarga zarar keltiradigan narsalarga nisbatan bo'lgan nafrat tuyg'usi mustasnodir.

So'ngra Aflatun bayram kunlarida bo'ladigan jismoniy mashqlar haqida eslatib, ularni nomma-nom sanab o'tadi va o'sha davrlarda ma'lum bo'lgan o'yinlarning har qaysisi – suvoriylik, jang qurollarini ishlata bilish hamda kurashning foydalii tomonlarini ko'rsatib beradi. Ushbu bayramoma ko'ngilxushliklar bayram kuni yoshlarning yuraklariga jo bo'lishini eslatib o'tadi. Yoshlar bunday o'yinlarga qiziqib

oddiy qonunlari ham shug'ullanib turishlari zarurligini va bu tadbirlar, toki yoshlar bayram musobaqalaridan olgan huzurlarini, qonunga xilof narsalardan olgan huzurlaridan afzal ko'radigan bo'lgunlaricha davom etishi kerakligini uqtiradi. Sohibi qonun bu g'oyani, ayniqsa, huzurlarga taalluqli g'oyani yaxshi esda tutishi kerak. Uning (huzur, ko'ngilxushlikning) foydasi qancha ko'p bo'lsa, zarari ham behad ko'p. Aflatun bu haqda batafsil gapiradi, so'ng yoshlarning oqilona, xayrli ishlariga to'xtaladi. U, xayrli ishlarining yurakka qanday jo bo'lishi hamda qonundan tashqari ko'ngilxushliklarning illatli ekanligi haqida so'zlaydi. Sohibi qonunning eng asosiy vazifalaridan biri yuqorida eslatilgan qonunlarga katta ahamiyat berishdir.

Aflatun, bu sohadagi qiyinchiliklar, ya'ni bu marosimlarni himoya va nazorat qilish haqida eslatadi. O'smirlar va yomon niyatli odamlar faqat tashqi go'zallikka oshiqdirlar, shuning uchun ularning bunday xohishlarini ta'qilashda hokimlar qiyin ahvolda qoladilar. Bunday o'smirlar to bir haloga uchramagunlaricha shunday qilaveradilar, oxir-oqibatda bu ahvol shaharni noxush falokatga olib keladi. Sohibi qonun bunday masalalarga doimo e'tibor berib turishi, ularni nazarda tutishi zarur. Shu qatori sohibi qonun, hunarmandlar, dehqonlar, chekka joylarda yashovchilarning gunoh ishlariga tegishli masalalarga ham e'tibor berishi, ularni to'g'ri yo'lga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishi kerak bo'ladi. Nihoyat, sohibi qonun, tavof qilinadigan yerlar, ibodatxonalarga katta e'tibor berishi kerak, toki ular nurab, buzilib ketmasin, ularning yomon ahvolga kelshi shahar aholisining yuraklarining, hamda shahar ishlariga mutasaddi odamlarning qalblarining buzilishi, qabihlashishiga olib keladi.

Odamlar hokimlar ko'rsatgan to'g'ri yo'lidan borishlari va qonunlarining tuzilishi hamda mohiyati ularda g'azab uyg'otmasligi uchun sohibi qonunlar hokimlarni kishilarni boshqarishga o'rgatishlari lozim. Aflatun, ozod tug'ilganlar va qullar, asir, asiralalar hayotidan misollar keltiradi, odamlar orasidagi munosabatlarga tegishli nuqtalarda u johil va razil odamlarni nazarda tutadi. U, bitta rahbar yoki boshqaruvchi hamma yozilmagan odatlar, qonunlar va an'analarning talab-

ehtiyojlarini bilishi mumkin emasligini ta'kidlaydi, chunki u, bir guruh odamlar yoxud o'z mamlakatini boshqarishga mohir bo'lishi mumkin, ammo unga boshqa xalqni, masalan uncha ko'pchilik bo'lmanan xalqni boshqarish topshirilsa, bu ishning uddasidan chiqolmaydi, negaki, ulardag'i mavjud talablarni, qonunlarni va ularning urflarini bilmaydi. Aflatun, dengiz davlatlari va quruqlikdagi davlatlarning hokimlari haqida ko'p misol keltiradi.

Aflatun o'g'rilik masalasini va mulk orttirish masalalarini ko'rib chiqadi. Mulk orttirishda uncha xavf yo'q, ammo uni ehtiyyot qilib saqlash mumkin emas. Agar, boshqa birovlar hisobiga mulk orttirganlar jazolanmasalar, u holda shahar aholisidan insof va shuhrat yo'qoladi. Mulkni ehtiyyot qilib saqlab o'z ehtiyojiga ishlatsa, bu yomon ish hisoblanmaydi. Yuqorida aytilganday, birovning mulkini olib o'z mulkini ko'paytirganlarni, biror qimmatga ega narsani o'g'irlagan o'g'rilarни jazolaganday jazolamaydilar (ularning jinoyati barobar emasligi uchun bo'lsa kerak – *tarimon*.) Aflatun uzum va boshqa mevalar bilan bog'liq misollar keltiradi.

Aflatun turli san'atlар (hunarlar) haqida gapiradi va ularning har biridan shu shaharga mansub bo'lgan san'atlarga muvofiq ravishda foydalanish zarurligini tushuntiradi. Kimki ermak uchun va o'yin uchun yoki zaruratdan emas, takabburlikdan yoxud xuddi shu san'at bilan shug'ullanishga kuchi yetmaganlikdan yo boshqa bivor sabab bilan shug'ullanayotgan san'atini o'zgartirsa, shahar rahbari unga bu ishni man etishi kerak, zaruriyat bo'lsa jazolashi darkor, chunki bu san'atdan bekordan-bekorga boshqa ishga o'tish, davlat tuzimiga chalkashlik va turli illatlar kirib qolishiga kuchli sabab bo'ladi. Aflatun bu g'oya to'g'risida va bunday hodisalar tufayli bo'ladigan zaramning tovoni haqida juda ko'p gapiradi.

So'ng'ra Aflatun, shahar aholisiga zarur bo'lgan oziq-ovqatlar to'g'risida gapirib o'tadi. Shaharning hokimlari ovqat masalasini boshqarib turishlari, sohibi qonunlar esa bu ishga bee'tibor bo'lmasliklari kerak. Aksincha, ular shahar aholisini, shu qatori qullar va hayvonlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'yicha, so'ng'ra shaharliklar bir-birlariga beradigan hadyalar, sovg'alar to'g'risida qat'iy qonunlar joriy

etishlari kerak, deydi. Aflatun xudolarga sig'iniladigan joylarni, shahar aholisi o'z manfaatlariga taalluqli masalalarни hal etish uchun yig'iladigan saroy, koshonalarни tasvirlaydi. Shunday joylardan biri bozorlardir. Sohibi qonunlar va shahar hokimlari bularning hammasini hisobga olishlari zarur.

Aflatun oldi-sotdi masalalarini ko'rib chiqadi. Shu qatori odamlarga zarur bo'lgan asbob-uskuna bilan ta'minlash, qadamjolar, ibodatxonalar, koshonalar, urush haqida, so'ngra, shartnomalar tuzish, chegaralar, dirlarga mansublik va dinlar haqida yozadi. Sohibi qonun bularning hammasi haqida jon kuydirishi, o'yashi zarur. Aflatun bu narsalarni kitobning ushbu bo'limi oxirida eslatib o'tadi.

TO'QQIZINCHI BO'LIM

Bunda Aflatun qonunlarning asosiy qoidalari va sohibi qonun bu ishning hech bir tomoniga befarq qaramasligi, ularga rioya qilinishiga g'amxo'rlik qilishi zarurligi haqida gapiradi.

Keyin Aflatun qonunni va uning asosiy qismini takomillashtirish lozimligini aytib o'tadi. Ushbu shahar aholisining eng yaxshi qonunlarga yanada sidqidildan bo'ysunishlari uchun o'z ruhlarini tarbiyalashlari zarurligini ta'kidlaydi, chunki erkin bo'lib tug'ilgan (odam) ularga (qonunlarga) ixtiyoriy ravishda, qul esa buyurilgandagina bo'ysunadi. Yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyor odamlar bo'lishlarini hamda qonunlarga ixtiyoriy bo'ysunishlarini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish va ulardagi qoidalarni mustahkamlashni rag'batlantrish kerak. Aflatun muqaddas uylar va chromlarni ziyyorat qilish hamda do'stlik eng oliv fazilatlardan biri ekanligi haqida misollar keltiradi. Ibodat qilinadigan uylarni e'zozlamaydigan johil odamlarga qanday munosabatda bo'lish zarurligi haqida eslatadi.

Aflatun ota-onalari va hokimlarini mensimaydiganlarni jinoyatchilarday jazolash zarur, deb hisoblaydi. Hokimiyat vakillari bunday ishlarni o'z zimmalariga olib, jinoyatchilarni

ularning jinoyatlariga qarab-tayoq bilan urib, jarima solib, qatl etib jazolashlari kerak, deb hisoblaydi. Agar (jinoyatchi) jazoga norozi bo'lsa va uning ijro etilishiga qarshilik qilsa, bu bilan qonunlarga tashqi dushmanga qaraganda ko'proq zarar keltiradi, deydi u.

Keyin meros masalasi ko'rib chiqiladi. Agar shaharda katta avlodga mansub, foydali ishlar bilan mashg'ul bo'lgan bivor pokdomon shaxs bo'lsa, uning ishi davom ettirilishi zarur, bivor amal sohibi vafot etsa, uning o'rniqa boshqa bir odam o'tirishi kerak. Aflatun jazolar va pul jarimalari masalasini qisqacha bayon qiladi. O'g'rilik haqida misol keltiradi. Agar o'g'ri o'g'rilaqanini ikki baravar ko'p qilib qaytarib bersa va tavba qilsa, u holda jazo, qamoqqa solishdan boshqa bir yengilroq jazoga almashtiriladi yoki bekor qilinishi darkor. Aflatun, agar odamlar oliv fazilatlarga ega bo'lsalar, u holda ular qonunlarga hech muhtoj emaslar va juda baxtiyorlar, deb tushuntiradi. U, shahar aholisi qadimgi qonunlardan ba'zi bir o'gitlarni topishlari haqida eslatadi. Bu o'gitlar, sohibi qonunlarga kamdan-kam ehtiyoj tug'dirgani holda, ularga axloqni tuzatish borasida anchagina foya keltiradi. Aflatun yana she'riyatda aks etgan yozilmagan urf-odatlar va umumiy qonunlar haqida ham eslatib o'tadi.

Aflatun, xohlab va bilib turib qilingan yovuzlik, hamda odat bo'lib qolgan va tushunmay qilingan yovuzlik, qonunlar nuqtai nazaridan bir xilda yomon, ular shahar ishlariga zarar keltiradi va buzadi, deb hisoblaydi. Aflatun (yovuzlik qilingani uchun) beriladigan jazo'lari haqida gapiradi, so'ngra u shahar aholisining bir-biriga bilib turib yoki nogahon, bilmay turib keltiradigan zararlari haqida fikr yuritadi. U, o'zlarida ma'lum bo'lgan (davlatni, shaharni) boshqarish shakllari, adolat va oljanoblik va shularga o'xshash boshqa fazilatlar, ularning bilib turib yoxud bilmay amalga oshirilishi haqida eslatadi.

Aflatun nihoyatda foydali bo'lgan bir fikrni tushuntirishga intiladi, bu — adolatning go'zalligidir. Adolatning amalga oshirilishi va bu boradagi barcha qilinadigan ishlar go'zalmi yoki yo'qmi? Aflatun o'ch olish va jinoyatchini jazolashda adolatning mohiyatini tahlil qiladi. Agar qatl etish, urish,

jarima solish kabi xatti-harakatlarning o'zi ayrim olinsa, ular umuman go'zal emas. Aflatun bunga misol keltirib aytadiki, ibodatxonalardan biriga o'g'rilikka tushgan odam yo kaltaklanadi yoki qatl etiladi.

Aflatun quyidagilarni tushuntirishni o'ziga maqsad qilib qo'yadi: qonunlar tufayli tarbiya topadigan, ulardan boshqa hech narsani bilmaydigan, faqat qonun yo'riqlarini bajarib, unga xi洛 if sh qilmaydigan, tahsinga loyiқ odam bormi yoki yo'qmi? Bu borada u odamlar orasida saqlanib kelayotgan ulkan qarama-qarshiliklar borligini aytib o'tadi. Keyin u idrok qilib, bilib turib emas, bilmasdan jinoyat qilgan shaxsni jazolash kerakmi yo'qmi, degan masala haqida gapiradi, chunki, u odam baribir qachondir, ertami-kech jazosini oladi-ku! Agar odam fahm va farosat quvvatiga ega bo'lsa, illatlar keltiradigan ishlardan o'zini tiyadi, agarda u o'z insoniy ruhiyatini mensimasa, u holda tabiatan illatli bo'lgan ishlarni qilishgacha boradi, erta yo kech u o'z qilmishlarining jazosini tortadi. So'нgra Aflatun jazolar haqida gapiradi va o'z zamonasida ma'lum bo'lgan jinoyatlarga ko'ra jazolarni darajalarga bo'lib chiqadi.

"Muallim as-soniy" o'zigacha yetib kelgan kitob bo'yicha ushbu mavzuni yoritdi. Bu kitobni diqqat bilan o'rganib, fikr yuritganimizdan so'ng, biz hakim (Aflatun) yozilmagan qonunlarning ma'nosini tushuntirib berishni o'ziga maqsad qilib qo'ygan, deb xulosa chiqardik. Kitobda bildirilgan fikrlardan go'zal va nozik ma'nolar qimmatbaho g'oyalari durdonasini topdik bu ma'nolar va g'oyalari ikki marotaba foydali bo'ldi, chunki u (Aflatun) o'z oldiga qo'ygan maqsad bizning ham maqsadimiz bo'lib chiqdi. Bu kitobdan qo'lyozmalarning biz tayyorlamagan bo'limlari tushib qoldi. Bu kitobning bo'limlar soni (har xil nusxalarda — *tarjimon*) har xil. Birovlar o'nta (bo'lim) bor desa, boshqalar o'n to'rtta, deb ta'kidlaydilar. Qo'limizda faqat bayon qilib o'tilgan bo'limlarga bor.

ARASTU FALSAFASI

(Falsafatu Aristutolis)

BIRINCHI BO'LIM

Arastu inson barkamolligini xuddi Aflatunga o'xshab, ba'zan esa kengroq ham tahlil etadi. Ammo Arastu o'zi tushuntira olmaganida, yoki o'z mulohazalarini ilmi yaqiniyaga erishishga molik bo'lувчи dalillar yordamida osonlashtira olmaganida, Aflatun (odatda) boshlaydigan hollardan emas, balki ulardan avvalgilaridan boshlash zarur, deb hisoblaydi. Shuning uchun Arastu, orzu qilinadigan bo'lib ko'ringan va vaqt nuqtai nazaridan boshqa istaklardan ustun turuvchi e兹гулик deb bilinadigan va intilinadigan, (odamlarning) maqsadlari to'rtta, deb tushuntiradi, bular: tan sog'lomligi, tuyg'ular (a'zolarning) sog'lomligi, turli narsalarni idrok etishga bo'lgan qobiliyat sog'lomligi (bu qobiliyat borligi uchun ana shu sog'lomlik ham bo'ladi), intilishga bo'lgan qobiliyat sog'lomligi (bu qobiliyat borligi uchun ana shu sog'lomlik ham bo'ladi).

Bularning (hammasini) bilmoqlik zaruriy, foydali bilimdir. Zaruriy foydali va faol intilish-bu avvalan shunday intilishki, unda o'sha intilish boshqa birovning intilishi bilan qo'shilib mazkur odam uchun bo'ladi yoxud (o'sha intilish) mazkur odamdag'i intilish bilan qo'shilib boshqa birov uchun bo'ladi va bu intilish biror harakat yoki mulohaza bo'ladimi yo'qmi farqi yo'q. Agar intilish harakatning o'zi bo'lsa, u holda u dastlabki (birinchi) va foydali (intilish) bo'ladi. Agar intilish mulohaza bo'lsa, u holda mulohaza sifatida foydali bo'ladi. Arastu aytadiki, ushbu to'rtta intilinadigan maqsadlar inson salomatligining eng olijanob holatlaridir va ular shu bilan birga o'zgarib ham turadilar. (buzilish yoki barkamollik taraflariga).

So'ngra Arastu aytadiki, osmon va yerdagi tuyg'u bilan his etiladigan narsalar va ko'zga ko'rindigan holatlarni hamda ruhning o'zidagi tuyg'ularning mavjudligi sabablarini bilihga ruh doimo intilib turadi. Ruh yana, ruhiyatda paydo bo'ladigan boshqa g'oyalar va xotiralarning haqiqiy mohiyatini, hoh ular mazkur odam ruhida paydo bo'layotgan bo'lsin, hoh boshqa bir odam ruhida paydo bo'lib, unga (mazkur odamga) ma'lum bo'lgan bo'lsin, baribir bilihga intiladi. Ammo bularning hammasi avvalgi istalayotgan maqsadlar (majmuasiga) kirmaydi. Ularni idrok etish bilan ruh na sog'lomlik va na boshqa biror narsa uchun foyda topmaydi, ulardan ruh faqat bilimni bilim sifatidagina o'zlashtiradi. Yuqorida aytilgan narsalardan bir nimani bilib olgan odam quvonch va huzur topadi.

Agar inson xayrixohlik, go'zallik, olijanoblik va ulug'verlikka boshqa odamlar orqali emas, balki o'zi va o'z ruhi o'rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo'lsa, ul (odam) haqiqatan ham xayrixohlik va barkamollikka erishadi. Buni uning o'zidan boshqa hech kim sezmagan taqdirda ham uning ruhi ulug'vor va olijanob bo'ladi va o'sha odam bu fazilatlarga erishganidan bag'oyat xursand bo'ladi. Shu bilan birga u odam ma'lum bir darajada ushbu xayrixohliklarni unga xalq baxshida etgan deb o'yaydi. Yoki o'zidagi fazilatlarning barkamolligi, ulug'verligi va tahsinga sazovorligiga, ayniqsa ko'pchilik odamlar erishib bo'lmaydi deb tasavvur qilgan xayrixohliklarga erishganiga xalq sababchi, deb o'yaydi.

Ammo ko'pchilik, yuqorida zikr etilgan narsalar va ma'lumotlarni bilih shart emas, istaluvchi maqsadlarga ularning foydasi tegmaydi, aksincha, o'zining zaruriyati va foydaliligi bilan ham ortiqchadir, deb hisoblaydilar. Shunga qaramay ular (bu bilimni) ulug'vor va olijanob deydilar. Inson intiluvchi bilimni ular avvalan ikki xilga bo'ladi: a) o'sha istalgan to'rt maqsaddagi sog'lomlikka erishishda inson foyda topishiga yoxud eng yuksak darajadagi sog'lomlikka molik bo'lishda yordam beruvchi, xohlan mish bilim; b) o'zi har qancha foydali bo'lsa ham ortiqcha bo'lgan biror narsa uchun emas, balki o'z-o'zicha xohlaniadigan bilim. Bilimning bunday bo'lishi to'g'ri, chunki u, ruhlar orasida aloqa

o'rnatilishidan ancha oldin ruhlarning o'zları (ayrim-ayrim) o'sha bilimlarga intilishlariga imkoniyat yaratadi. Ushbu bilimlardan biriga harakatni (uning yordamida) ro'yogga chiqarish uchun murojaat qiladilar. Boshqa bilimdan o'zlarini tortadilar. Bilimning birinchi xili – "amaliy", ikkinchisi esa – "nazariy", deb ataladi.

Ammo odamlar, o'sha to'rt istaluvchi maqsadlardan nimalar foydali emasligini fahm etish uchun ba'zan o'z his-tuyg'ularidan foydalanadilar. Ular sezgi-hissiyot orqali idrok etiluvchi narsalarni bilishga intiladilar, ammo ularni o'z sezgilari tufayli idrok qilsalar ham masalan, haykaltaroshlik, inja rasmlar, orombaxsh kuylar, xushbo'y islar, nozik buyumlarni bilgan kabi bilsalar-da, ulardan istalayotgan maqsadlarga (erishish) uchun emas, balki faqat zavq olish uchungina foydalanadilar. Bu holda zavqning ma'nosi, xayrixohlikka erishishdan, xayrixoh (zavqqa) erishish ma'qul ko'riganidan iborat bo'llib qoladi xolos. Huzurga erishmay huzurlanib bo'lmaydi, unga sezgi-tuyg'u orqali erishilgandagina u namoyon bo'ladi va sezmay turib tuyg'usiz huzur olib bo'lmaydi. Boshqa sezgi orqali erishiladigan bilimlar ham shu yo'sinda mayjuddirlar. Ba'zan inson idrok etishi va bilishi orqali zavq oluvchi sezgi-tuyg'u orqali idrok etiladigan narsalarning mavjudligi sababini (ko'rsatuvchi) bilimlarga nisbatan bu bilimlar (ya'ni faqat his etib olingan bilimlar) tashqi bilimlardirlar. Ammo inson afsonalar, latifalar va xalq rivoyatlarini bilishdan ham quvonib, huzur oladi. Buning (haqiqiy) quvonch olish uchun ahamiyati yo'q. Hikoya qiluvchi, afsonalarni aytuvchilar, she'riyat va xalq rivoyatlarini eshituvchi, keyin boshqalarga aytib beruvchilarga nisbatan bo'lgan fikr ham shunday. Odamga aytib berilgan va "o'qilgan" she'riyat hamda afsonalardan paydo bo'ladigan hissiyotlar u oladigan quvonch, halovat va huzurni vujudga keltiradigan hissiyotlardir. Eng yuksak, barkamol bilim (darajasiga) erishgan har bir inson eng yuksak huzurga molik bo'ladi. U ruhda barkamol bilimga erishgan chog'da undan oladigan huzuri ham to'laqonli va barkamol bo'ladi. Bu bilimlar va kamolat ham faqat o'zicha bilim va kamolat bo'llib qoladilar va huzurni, aytilgan istaluvchi to'rt maqsadda emas, ularning o'zidan

(shu bilim va kamolatdan) oladilar. Shunga qaramay, odamlar ulardan foydalanadilar. Istaluvchi (to'rt) maqsad uchun huzurlanishga erishmoq niyatida ulardan foydalanish tasodifiy bir holdir.

So'ngra, Arastuning fikricha, zaruriy bilimlar xuddi odam bilan dunyoga kelganday unga tug'ilishidan beri taalluqlidir, ular his-tuyg'u orqali erishilganidan ko'proq tabiatdan ehson qilingandirlar. Ba'zan inson o'sha istalayotgan maqsadlarning sog'lomliklariga yetishmoq uchun his-tuyg'udan olgan bilimlardan foydalanadilar. So'ngra Arastu aytadi-ki, insonga erishilgan bilimlar yetarli bo'limganidan, u inson tug'ma bilimlardan foydalanishga intiladi. Agar o'ziga zarur bo'lgan jihatlarga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsa, u o'zi bajarishi zarur va ehtiyoj his etgan ishlarni ro'yobga chiqarishi uchun tug'ma bilimlar ham yetarli emasligini tushunadi. Shunda inson bilimlarning (boshqa) ko'p turlariga ham murojaat etadi va toki ular ustida fikr yuritmay, o'rganib chiqmay hech ishga qo'l urmaydi. U o'z tashabbusi bilan doimo boshqalar uchun naf keltirishini xohlaydi, boshqafernai savollarga tutadi, o'zi o'yagan narsa to'g'risida boshqalar bilan maslahatlashadi, o'zining kashfiyoti va ehtirosi to'g'rimi, yo'qmi bilgisi keladi. Bularning hammasi bilimlarni boshqaruvchi tug'ma qobiliyat quvvatining ko'rsatkichidir. Fikrlash va tahlil etish tufayli odam o'ziga avvaldan noma'lum bo'lgan bilimlarni topadi. Ko'pincha u qaysi xulosa foydali, qaysi biri zararli ekanligini bilmay xayratlanishi ham ehtimoldan xoli emas. Ko'pincha u tahlil, tekshiruvlar natijasida kashfiyoti, avval o'zi sezmag'an bo'lsa ham, xato ekanligini keyin bilib qoladi.

Fanlarga rag'bat qilib, ularni o'rganib, tahlil etib inson ulardan ba'zilari ishonchli va haqiqiy, ba'zilari esa – bo'sh va ahamiyatsiz ekanligini bilib oladi. Ammo u o'z izlanishlari tufayli haqiqatga olib boruvchi yo'lda turgan bo'lsa, u idrok etmoqchi bo'lgan narsa haqidagi kamolot darajasi bo'ladi, bu barkamollik, o'zining haqqoniyligi bilan intihosiga yetib bormagan bir chegara, o'zidan keyin yana bir haddi bor manzildir. Amaliy fanlarga erishish borasida insonning holati shunday tasavvur etiladi.

Arastu, amaliy fanlarga erishishning uchta usuli bor deb tushuntiradi, ular: 1) his-sezgi yordamida; 2) his-sezgi orqali erishilgan bilimlardan miqdor jihatdan ko'proq bo'lgan birinchi (tabiiy) bilim yordamida; 3) tahlil, tekshiruvlar yordamida. Nazariy fanlarda ham shular borga o'xshaydi. Erishishning uch usuliga idrok etishning uch usuli to'g'ri keladi: 1) his-sezgilar; 2) his-sezgidan olingen bilim ma'lumotidan ko'proq bo'lgan birinchi bilim ma'lumotlari; 3) tekshiruv, tahlil natijasida olingen bilimlar dastlab, hali tekshirilmagan narsalardan olinadi. O'rganib, tekshirib chiqishdan avval ular izlanayotgan maqsad bo'lganlar va "idrok etish nuqtalari" deb atalgan. Fan talab etadigan jihatni aniqlash uchun foydalaniladigan dastlabki ma'lumotlar "muqaddimot" deb ataladi. Fan tekshiradigan narsalarni "matlub al-maqsad" deb, o'rganilganlarini esa — "xulosat" deb ataydilar. Shunday qilib, bu uch narsaning hammasi oldindan mavjuddir.

Arastu, inson foydali narsalar haqidagi bilim haqiqatiga yetisha olmaydi, deb tushuntiradi. Inson o'zining intilishi qanday ekanligini va foydali narsalardan qaysi biriga intilishi zarurligini bilolmaydi, intilishining chegarasi va bu chegara aniqlanganmi, uning sarhadi borni, yo'qmi unga noma'lumdir. Ammo biz, insonning eslatib o'tilgan istalayotgan maqsadlarning sog'lomligiga erishishga intilishini bilamiz. Agar inson aniq bir maqsadga yetishish uchun foydali narsalardan qaysi biri kerakligini, ko'rib o'tilgan to'rt maqsaddan qaysi birlari zarurligini aniqlashga harakat qilib ko'rsa, unda masalan, quyidagilarga o'xhash savollarga: his-sezgi sog'lomligi badan sog'lomligiga bog'liqmi, yo'qmi yoki badan sog'lomligini ta'minlash uchun his-sezgi sog'lomligi zarurmi va his-sezgi tufayli badan sog'lomligi barqarormi yoxud bularning hammasi ayrim bir foydali narsani saqlab turish uchun kerakmi, degan savollarga javob izlashga ahd qilganida u qiyin ahvolga tushib qolgan bo'lar edi.

Agar sezgilar maqsadning o'zi bo'lsalar, unda ulardan badanni sog'lomlashtirish uchun foydalanish kerak bo'lmas edi, chunki badanni, his-sezgilarning borligini ta'minlovchi bir uskuna, yoki vositachi yoxud ashyo deh hisoblash mumkin.

Badan sog'lomligi va intilishlar quvvati his-sezgilar sog'lomligining mavjudligi – hor bo'lishi uchun xizmat qiladi. Ba'zan sezgilar ta'siri va shu his-sezgilar tufayli bo'ladigan inson istagi va amali maqsadning o'zi bo'lishi mumkin.

Bu xulosalarning hammasiga e'tiroz bildirish mumkin. Ammo bilamizki, biz o'zimizning badanlarimiz va boshqa barcha narsalarni sog'lomlashtirish uchun yordam beruvchi narsaga erishish niyatida o'z his-tuyg'u sezgilarimizdan foydalanamiz yoki ulardan biri (ya'ni his-sezgi) boshqa biri (ya'ni badanni sog'lomlashtirish) uchun mayjuddir deb hisoblaymiz. Shunday qilib silsila aylanaveradi: ularning ba'zilari boshqalari uchun va boshqalari tufayli mavjuddir.

Inson, maqsadga yetib bormaslik yoki maqsadi bo'lмаган нарса олдига Yetishi uchun emas, aksincha o'zi intilishlarining ma'lum bir maqsadi bo'lishi uchun haqiqatga yetishishni xohlaydi. O'zining ruhi tabiatan badan sog'lomligi va his-sezgi sog'lomligiga bog'liqligini va sog'lomlikning bu holatlari isbot talab qilishini inson tushunadi. O'zлари haqida avvallan tugal bilim bermaydigan, ammo bu bilimning arzimas ulushini beruvchi narsalarning borligi tufayli aytish mumkinki, inson kaniolatga erishishga yo tabiatan yoki istagi va saboti ila intiladi.

Amino badan sog'lomligi va his-sezgi sog'lomligidan olinadigan narsa odamning bolalik va o'smirlik davrlarida erishiladigan (narsalarga) o'xshaydi. Badan sog'lomligi va his-sezgi sog'lomligining qisqarishi bolalik va o'smirlik davrining qisqarishiga o'xshasa kerak. Ba'zan, badan sog'lomligi boshqa (bir) maqsadga qaratilgan bo'lishi ham mumkin, u holda his-sezgi sog'lomligi, badan sog'lomligiga sharoit yaratuvchi, shu sog'lomlikka erishish uchun foydalilaniladigan maqsadga asos bo'lib qoladi. Agar inson, badan va his-sezgi sog'lomliklarini, shu his-sezgi va badan sog'lomligini ta'minlovchi farq etish kuchi sog'lomligini hamda intilish kuchi sog'lomligini chegaralaydigan bo'lsa, juda mushkul ahvolga tushib qolishi mumkin. Keyin u, badan sog'lomligi holati yaxshimi yoki his-sezgi sog'lomligi holati yaxshimi, deb o'ylab qolgan bo'lar edi, garchi ko'pchilik aytganidek eng afzali his-sezgi, tuyg'u sog'lomligi bo'lsa ham. So'ngra inson farq etish kuchi yaxshimi yoxud intilish kuchi yaxshimi,

deb o'ylashga tushar edi. Bularning hammasini tushunish nihoyatda mushkul ishdir.

Quyidagilarni ham inson mulohaza qilib tushunishi juda qiyin. Agarda izlanayotgan maqsadlardan eng zaruriylari cheklanib qo'yilsa yoki ularni kamolat darajasiga yetkazilsa, ushbu istak-xohishlarda me'yordan o'tib ketadigan va insonga xos bo'lmaydigan narsani uning ruhi xohlaydimi, xohlamaydimi? Yoki, uning ruhi har bir izlanayotgan maqsadlarning bashariyat uchun barkamol va insonga xos bo'lgan eng yaxshi holatiga intiladimi?

Ruhiy haqiqitga erishishda nimalarga intilishini, ruhiyatida nimalar paydo bo'layotganini, ko'rinish turgan narsalarning asoslarini, mohiyatini bilishda, bu oddiy insoniy bilimga erishishga bo'lgan intilishi yoki na fanlarga, va umuman odamga taalluqli bo'limgan haddan tashqari xohishmi yoki o'sha izlanilvchi to'rt maqsadga oid bo'lgan, haqiqatan ham chin insoniy xohishmi, bunday masalalarni mulohaza qilishda inson ko'p qiyinchiliklarga duch keladi.

Ushbu, insonga xos, izlanayotgan to'rtta maqsad hayvonlarga ham taalluqli. Chunki har bir hayvonning ham badani, his-sezgisi farqlash qobiliyati bor va shular tufayli ular o'zining badani va his-sezgisining sog'lomligini saqlab qolishga intiladi. Ammo hayvonda his-sezgi orqali idrok etiladigan narsalarning mavjudligi sababalarini bilishga va yerdagi barcha narsaning (mavjudligi) sabablarini bilishga bo'lgan intilish yo'q, mavjudligi sababiyatlarini bilishga bo'lgan intilishni paydo qiluvchi narsalarga hayvon hech ham hayratlanmaydi.

Quyidagi masalalarni mulohaza qilganda ham inson ko'p qynaladi. Insoning bilimga bo'lgan intilishining sababi nimada? Agar sof insoniy sifat bo'lmasa, insonni haqiqat tomon yo'naltiruvchi, bilish, idrok etishga bo'lgan intilish qibiliyati va birinchi, dastlabki bilimlar unga nega berilgan? Balki bular (faqat) odamzotga xos xislatlardir?

Ehtimol, bashariyat ichidan ba'zi odamlar, yo o'zlarining asl mohiyatlari yoki tasodif kuchi tufayli bo'lgan bilimlari bilan eng barkamol inson bo'lolsalar kerak. Balki bilish, inson mohiyati yoki inson mohiyatining ta'sirlaridan biridir. Agar-

da bilish, inson mohiyatining ta'siridan biri bo'lsa, uning mohiyati, bu ta'sir (harakat) ro'y berayotgan onda eng yuksak barkamollikka erishishga bo'lgan intilish uzra paydo bo'lgan uning (mohiyatining) ta'siri (harakatidan) iborat bo'ladi. Shunday ekan, o'sha ta'sir (harakati)ni paydo qiluvchi narsaning o'zi nima va unga intiluvchi har bir inson uchun u, izlanuvchi maqsadmi yoki yo'qmi, bilib olish kerak bo'ladi.

Haqiqatan ham odamlar zarurat orqali o'zlar ehtiyoj sezgan holatlarini bilishga, idrok etishga intiladilar. Narsalarni idrok etish, bilish uchun zarurat tug'ilmay turib bilim xayrli bo'lmaydi. Yana, bilim sifatining darajasi, zaruriy darajadan oshib ketmasligi kerak. Inson intilayotgan narsa haddan ziyodmi yo'qmi va insonga tabiatan xos bo'lgan bu haddan ziyod xohishni chegaralash va bosib turish kerakmi yoki umuman yo'qotish zarurmi? Bu savollarning barchasi mulohazalar yuritishni talab qiladi va ular bo'yicha ko'pdan-ko'p turli fikrlar mavjud. Bularning hammasi hayratga soladigan masalalar, qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lgan mulohaza mavzularidir.

Odam agar bulardan (turli fikrlardan) birontasini afzal ko'radian bo'lsa, bu ishni u, yo o'zini qoniqtirish uchun, yoki boshqa birovni qoniqtirish uchun qilgan bo'ladi. Bu haqda turli fikrlar ko'p. Lekin odamning imkoniyatlari chegaralanib qo'yilsa, bu bilan unga xos turmush, hayot kechirish sifatini chegaralab qo'yilmaydimi?

Agar odam, badan va his-sezgi sog'lomligi, tabiat ehsoni bo'lgan farq etish va bilish qobiliyati, hamda erkin tanlashga bo'lgan niyat va qobiliyat haqida mulohaza yuritadigan bo'lsa, u holda insonga tabiat tomonidan, hayvonot, nabotot va tabiatdagi boshqa narsalarga ham beriladigan qobiliyatlar, badan va his-sezgi sog'lomligiga erishish uchun yetarlimi, yo'qmi, degan savol tug'iladi.

Agar niyat va erkin tanlash maqsad bo'lsa, tabiatdan olingan qibiliyatlar badan va his-sezgi sog'lomligiga erishish uchun yetarli bo'lsa, u holda nega insonga niyat va erkin tanlash (imkoniyati) ato etilgan? Balki, niyat va erkin tanlashni tabiat haddan ortiq bergandir, unda uni chegaralab qo'yish kerak bo'ladi. Ammo tabiat ato qilgan niyat va erkin tanlash

(imkoniyatini) qanday chegaralash mumkin? Agar niyat (xohish) va erkin tanlash odamga xos bo'lsa, ular tabiat bergen badan va his-sezgi sog'lomligiga erishishga xizmat qiladimi? Balki insonga tabiatan xos bo'lgan narsa, niyat va erkin tanlash tufayli insonda mavjud bo'lgan narsa uchun xizmat qilar? Yoki tug'ma odat va niyat birgalikda, inson boshqa bir narsaga rioya qilishi uchun xizmat qilar? Inson erishgan eng yuksak kamolat, tabiat ato qilgan kamolat darajasining o'zimi yoki unga yetarli darajadagi (kamolat) emasmi? Inson erishgan barkamollik, niyat va erkin tanlov natijasimi yoki ular va yana, tug'ma, tabiiy odat tufayli erishilgan, uning mohiyatiga bois barkamollikmi yoki bu barkamollik boshqa bir alohida sifatda namoyon bo'ladimi?

Qisqasi, insonning eng yuksak barkamolligi bo'lgan maqsad o'zi nimaligini bilish kerak bo'ladi. Bu eng yuksak barkamollik insoniy mohiyatmi yoxud inson asl mohiyatiga ega bo'lgandan so'ng paydo bo'lувчи та'sir (harakat)mi, aniqlash zarur. Ushbu eng yuksak barkamollik, insonga tabiat ato qilgan narsami yoki tabiatdan olingen modda (materiya) bu barkamollik uchun asos va manba'ni tayyorlab beradimi va ularni (asos, manba'larni) inson o'zining niyati va iroda erkinligi vositalarida ana shu eng yuksak barkamollikka erishish uchun foydalanadimi? Odamning badan va his-sezgi sog'lomligi uning (odamning) mohiyatini belgilovchi narsaning sog'lomligimi yoki ular (badan va his-sezgi sog'lomligi) nuqsonlardan iboratmi? Bularning hammasi barcha hayvonlarga ham taalluqli bo'lgani uchun badan va his-sezgi sog'lomligi insonning o'z-o'zicha mohiyat kasb etishiga tayyorgarlik va manba bo'lib qoladi.

Inson narsalar, buyumlarni bilgani tufayli intilayotgani, hamda shu bilimga ega bo'lish borasida faqat haqiqatni bilish bilan chegaralanib qolishi, inson mohiyat kasb etishiga sabab bo'ladigan barkamollik uchun foya keltiradimi? Yoki haqiqatni bilish inson mohiyatining ta'sirlaridan biri bo'lib, u tufayli inson mohiyati barkamollikda o'zining eng yuqori darajasiga ko'tariladimi?

Bu savollarga javob topish uchun ham, insonning asl mohiyati nimadan iborat ekanligini, uning eng yuksak

barkamolligi qanday, odam mohiyat kasb etishiga va ana shu eng yuksak barkamollikka erishishga uning (mohiyatning) ta'siri nimalardan iborat ekanligini tahlil qilishga odam majbur bo'ladi. Buning uchun u, insonning o'zining qandayligini, insoniyligi nimadaligini, bularmi bilishga intilishi uchun (agar shunday intilish bo'lsa) uning mavjudligi nega yaratilgan va nimadan iborat ekanligini bilib olmasa, idrok etmasa, u holda qanday maqsadga intilishi zarurligi mavhum bo'lib qoladi.

Arastu, haqiqiy insoniy faoliyat bo'lgan faoliyat (harakat), agar insonning koinotda yaratilishi sababi bo'lgan maqsad aniq ma'lum bo'lsa, u holda inson uning (koinotning) bir qismi ekanligi va shu koinot bilan bir umumiylikni tashkil etishi haqida xabar berishini tushuntiradi. Agar to'quvchi, kosib va shahar fuqarosining har biri o'zining nega yashayotganini bilmasa maqsad va manfaat darajasi mavhum bo'lsa, har birining ayrim-ayrim maqsadlari ham noma'lum bo'ladi, bu xuddi, agar bo'laklardan iborat umumiyatning maqsadi noma'lum bo'lsa, uning bir bo'lagining maqsadini aniqlab bo'lmasligiga o'xshaydi. Shunga o'xhash, toki badandagi boshqa a'zolar orasida qo'lning mohiyati, maqsad va faoliyati noma'lum qolar ekan, bir barmoqning ham mohiyati, maqsad va faoliyati noma'lum bo'lib qolaveradi. Biz avvalo butun vujudning oxirgi, eng yuksak maqsadini bilib olishimiz zarur. Shunday qilib voqeliklar umumlashmasi, har bir bo'lagining maqsadi yo shu bo'lakning o'zi yoki barcha umumiyat erishadigan so'nggi maqsadga sabab bo'luvchi muqarar, zaruriy foydali bir narsa bo'ladi.

Muqarrar, inson koinotning bir bo'lagi (qismi) ekan, va agar biz uning maqsadini, faoliyatini, foydaliligini va (butun borliqqa munosabatining) darajasini aniqlamoqchi bo'lsak, biz avvalo butun koinotdan kelib chiqadigan maqsadni bilib olishimiz zarur bo'lardi. Shunda bizga, butun koinot maqsadi bo'lgan maqsadga erishishda, shu koinotning bir bo'lagi bo'lishimiz zarurligi ravshan bo'lar edi. Odamga taalluqli narsani bilish uchun biz odamning maqsadini (undan paydo bo'luvchi maqsadini) va insoniy barkamollik (nima ekanligi) ni bilishga intilishimiz zarur. Buning uchun biz butun koinotdan kelib chiquvchi maqsadni bilishga majbur bo'lamiz. Ammo

bunga, butun koinotni tashkil etgan barcha bo'laklarni va ularning asoslarini bilmay turib erishib bo'lmaydi. Biz, bu maqsad o'zi nimadan iborat ekanligini, qandayligini, nima tufayli va nima uchun u mavjudligini bilishimiz kerak. Bu butun koinotni tashkil etgan barcha narsalar majmuasiga ham, uning har bir bo'lagiga ham taalluqlidir.

Insonga ikki narsa xos. Ulardan biri – tabiatdan olingan, boshqasi-niyat (xohish) bo'yicha. Agar biz tabiatdan olinadigan barkamollik va shu barkamollik mahsuli bo'lgan maqsad haqida bilishni xohlasak, u holda biz so'nggi maqsadi inson bo'lgan tabiat umumlashmasi haqida bilishimiz kerak bo'ladi, (o'z navbatida) insonning o'zi ham shu koinot maqsadlari umumlashmasining fitriy qismidir. Darhaqiqit, agar koinot tabiatga taalluqli bo'lsa va uning ko'plab bo'laklari ham tabiat ashyolariga kirsa, u holda, tabiatan koinotni bildiruvchi hamma narsa – butuni yo bo'lagini va undan insonga tabiatan xos bo'lgani haqida, tadqiqiot, mulohaza va o'rganish orqali ayrim fikrlash kerak bo'ladi. Bunday tadqiqiot "tabiiy fikrlash" deb ataladi. Insonga va boshqa narsalarga taalluqli niyat xohish orqali, hamda niyat hosilalaridan kelib chiqadigan xos narsalar tadqiqot, mulohaza va o'rganish orqali ko'rib chiqiladi va u "irodaga asoslangan insoniy hilim" deb ataladi. Bu holat bashariyatga taalluqli bo'lgani uchun bir odamga ham taalluqlidir.

Agar inson yaratilishining maqsadi bo'lmish barkamollik insongacha faqat tabiatan xos bo'lganida va faqat yaxshi niyat bilan amalga oshirilganida edi, u holda barkamollikkiga yetishtiruvchi faoliyat va hayot tarzi faqat chin insoniy fazilat, ezgu ishlari va faoliyatlar go'zal hayot tarzi bo'lur edi. Ammo insonni ushbu barkamollikdan mahrum etadigan holatlar ham bor, ular insoniy bo'lmagan faoliyatlar va hayot tarzi bo'lib, ular yaramas, xunuk va yomon ishlari hamda yomon faoliyatlardir. Biz ulardan qaysi birlarini qabul etishimiz va qaysi birlaridan o'zimizni olib qochishimiz kerakligini bilib olishimiz zarur bo'ladi.

Agar insonga tabiatan xos bo'lgan biror narsa vaqt o'tishi bilan niyat va erkin tanlovgaga o'tsa, u holda avval unga tabiatan taalluqlisini, keyin esa erkin tanlov orqali o'zlashtirganini

tahlil etish kerak bo'ladi. Demak, agar insonga niyat va erkin tanlov orqali taalluqli bo'lgan yoki ular (niyat va erkin tanlov) ning ikkisining hosilasini aniqlash mumkin bo'lmasa, u holda dastlab insonga tabiatan xos fazilat tahlil etiladi. Inson yetishishi zarur bo'lgan va o'zi uchun uni bilishi shart deb qabul qilingan bilimni ilm al-yaqiniya (ishonch ilmi) deyiladi. Insonga tabiatan va niyat orqali mansub narsalarni, ilm al-yaqiniya tadqiq etganlarning barchasini inson dasturulamal etishi kerak bo'ladi.

Shunday qilib, Arastuning fikricha, inson avvalo ilm al-yaqiniyani, bu ilmnинг salmoq jihatidan qanchaligini, qanday xillari borligini, qanday mavzularni o'rganishini, uning izlanayotgan maqsadlar bilan qanday qilib va nimalar tufayli munosabati borligini bilib olish kerak. Qayerda va qanday qilib va nimadan ular paydo bo'ladi? Ilm al-yaqiniyani tadqiq etish paytida qanday to'siqlar, qarshiliklar bo'lishi mumkin, bu qarshiliklarning o'zi nimalardan iborat? Ilm al-yaqiniyani o'rganishning qanday shakllari bor, uni o'qitadiganlar bu shakllarning qaysi biridan foydalanadilar, haqiqiy, ishonchlilikning qaysi daraja va turkumlari ishlataladi, e'tiqod, ishontirishning hamda tasavvurning shakllaridan o'qitish davrida foydalaniладими? Ilm al-yaqiniyani o'rganish va uni idrok etish qobiliyatini baxsh etuvchi san'at, qanday san'at, u nimalardan iborat, bu san'atlarning qancha turlari bor, ularning har biri o'zi qanday? O'rganishning boshqa hamma turlari bo'yicha qobiliyat beruvchi san'at nimalardan iborat?

So'ngra Arastu, turli turkum, darajadagi odamlarni qanday, nimalarga, bilimlarning qaysi turlariga o'rgatish zarurligini tushuntiradi, toki har bir inson o'zi intilayotgan maqsadni yaxshi tasavvur etsin, ko'r-ko'rona jaholatda qolmay shu bilimni o'ziga rahnamo, dastur qilib olsin.

Keyin u, bahslardan kelib chiqadigan sofizmlar nimaligini, ular nimalar bilan uzviy bog'liqligini, qancha turlari borligini, qandayliklarini tushuntiradi. Turli sofizmlar ta'sirida bo'lgan insонning yomon xislatlari va holatlari haqida misollat keltiradi, sofizmlarning qaysi turlari qanday xislatlar tug'dirishini ko'rib chiqadi. Keyin u, bu xislatlar va holatlар

heshta ekanligini aytadi. Ulardan qaysi tarafdan ogoh bo'lish zarurligini tushuntiradi.

Faqatgina "as-sana'yı mantiqiya" ("mantiq san'atigina") sofizmlardan saqlaydi, u ruhning oqil qismini to'g'rilaydi, ruhni ilmi yaqiniya va fanlarni o'rganish, tadqiq etishning foydali jihatlari tomon yo'llaydi. Bu san'at vositasida ruhning oqil qismi, o'qitish silsilasida nutq va suhbatlardan qanday foydalanishini, bahslar qanday qilib sofizmlarni keltirib chiqarishini biladi, ularning biridan foydalanib, biridan ogoh bo'lmoq uchun bilib oladi.

Arastuning fikricha, ko'pdan-ko'p fanlar orasida bir turi (Forobiy turni al-jins deydi) borki, u uch xilda namoyon bo'ladi, ular "mantiq san'ati", "tabiat haqidagi fan" fizika va "niyatlar haqidagi fan"lardir. Mantiq san'ati bu ikki fandan oldinroq, yuqoriroq turadi va bu ikki fanga erishgan har bir kimsani mantiq san'ati sinovdan o'tkazadi, bu ikki fan, ya'nii-tabiat haqidagi fan fizika va niyatlar haqidagi fanlarga kelsak, ular mayjud bo'lgan, o'z jinslari ila bir xil narsalarni qamraydi, mantiq fani esa, avvalo fizika va niyatlar haqidagi fanlar qamrab olgan narsalar to'g'risida bilim berishga intiladi. Modda materiya va mayjud ashyolar bu uchta fan nuqtai nazaridan bir jinsdag'i narsalardir, degan fikr bor. Mantiq fani bu ikki fandan peshvoroq bo'lganidan, bu uch fanga mansub mayjud narsalarni birinchi bo'lib tekshiradi, hisobini oladi. Bu uch fan tabiatan barcha mayjud narsalarni va niyat bo'yicha barcha mayjud narsalarni o'rganadilar. Tabiatan mayjud narsa, tabiiy narsalarni o'rganuvchi fanga taalluqli bo'ladi. Mayjudligi faqat niyatga bog'liq narsalar, niyatlar haqidagi fan tasarrufiga kiradi. Agar ular birlashgan bo'lib, ularga tabiatan va niyat tufayli erishilsa, bu ikkala fanga taalluqli bo'ladi...

Shuning uchun Arastu, muqaddimot beruvchi narsalarning jins turlarining izlanadigan maqsadlari bor va ularni tadqiq etadilar, ularga ko'pchilikka ma'lum so'zlar ishora qiladilar, deb hisoblaydi. Bu narsalarning haqiqatan mayjudligiga histuyg'u (shu'ur) shahodat beradi, har bir aqlan idrok etiladigan mohiyat esa, his-tuyg'u ila o'zlashtiriladigan narsa hisoblanadi.

Mavjud narsalarning ushbu xillari o'n jinsga-turga bo'linadi va ular sinf-kategoriyalar, deb ataladi, ular "Kataguriyas" yoki "Kitob fi al-ma'qulot" nomli risolada tasvirlangan. Bu jinslar tabiiy fanlar o'tganadigan narsalar bo'lib, shu bilan birga yo "mohiyatni" yoki "qancha"ligini, yoxud "qanday" va hakazo ekanligini bildiradi.

So'ngra Arastu, mantiq san'atining ta'siri va undan qanday foydalanish zarurligini tahlil etadi.

U, mavjud narsalarning mazkur xillari, navlari qanday tafakkur etilishini, ulardan muqaddimot kelib chiqishini, bu muqaddimot qancha xillarga o'tishini, ulardan izlanadigan maqsadlar qanday paydo bo'lishini, muqaddimot va izlanadigan maqsadlar qaysi nuqtada bir-birlari bilan tutatishlari va ajralishlarining sabablarini tushuntiradi. Har bir izlanuvchi maqsad umumiyati ila, zaruriyatdan haqiqat va yolg'onni bildiruvchi ikki qarama-qarshi mulohaza o'rghanadigan mavzudir. Ularni o'rghanishda bu ikki qarama-qarshi mulohazalarning qaysi birlari haqiqatligi noma'lum bo'ladi. Haqiqiy bilim izlaniladi va taxmin qilinadi. Ular (ya'ni qarama-qarshi mulohazalar) ikkita zaruriy muqaddimotga bo'linadi. Muqaddimotning har biri mavjud bo'lmay qolmaydi va mavjud bo'lib ham qololmaydi. Ular ikkalasi zaruriy muqaddimotlarga bo'linadilar.

Mumkin mavjud va mumkin nomavjud muqaddimotlarni mumkiniy imkoniy muqaddimotlar deydilar. Hozir mavjud va mumkin nomavjud shunga o'xshash kelajakda ham mavjud bo'lishi va mavjud bo'lmasligi mumkin bo'lgan muqaddimotlar – ehtimol bo'lishi mumkin muqaddimotlar deb ataladi. Bular "Boriminias" yoki "Kitob al-iboratun" nomli risolada yozilgan.

So'ngra u, muqaddimotlar qanday bartaraf etilishlarini, ular bir-birlari bilan qanday yaqin, bo'lishlarini, ta'ayunligini, ulardan qanday qilib mulohaza paydo bo'ladi, bu mulohaza qanday qilib muqobil maqsad orqali muqobil mulohazalardan biriga aylanishini tushuntiradi. Biz qiyos deb taxmin qilganimiz har bir izlanadigan narsani qanday qilib haqiqatning o'zi deyishimiz mumkin, haqiqat mantiqan o'sha qiyosdan shu izlanayotgan narsa vositasida kelib chiqadi-ku.

Agar mulohaza biz uchun taxminiy bo'lsa, u holda bu mulohaza, mulohazaning o'zi uchun izlanadigan narsaga aylantiruvchi haqiqiy izlanadigan (narsa)ni mantiqan keltirib chiqaradigan mulohazami yoki yo'qligini qanday tekshirishimiz mumkin bo'ladi? Arastu, fikrlash shaklini tekshirish o'z mavzusi bo'lgan mantiq san'ati tariqatidan birining usullarini tushuntiradi. U ruhiyatda fikr, haqiqiy yoki soxta bo'lmay turib va yana, agar albatta haqiqiy yoki soxta bo'lsa, qanday paydo bo'lishini tushuntiradi. Bu holatlarning barchasi uning yuqorida aytib o'tilgan "Kitob al-iboratun" risolasida ta'kid etib o'tiladi. Shu bilan birga Arastu, o'qitishda foydalilanidigan har bir san'atdagi har bir suhbat-dialog shu qatori, yo o'qitishda yoki sofistik (sufstansiya)da va o'qitishni qabul etilmaganida erishiladigan maqsadga bois bo'lishini tushuntiradi. Bularning hammasi yunoncha "Analitika", arabcha "Kitob fi al-qiyos" nomli risolasida aks etgan.

Arastu, umuman olganda bilim nimaligini, ilmi yaqiniya nimaligini, uning o'zi qanday sifatlarga ega, uning qancha xillari borligini tushuntiradi, Arastu ilmi yaqiniya, narsaning buyumning mavjudlik uchun mavjud ekanligini va narsa zotining mavjudligi tufayli mavjudligi haqida hamda, bu bilim necha xilga bo'linishi haqida, gapiradi. U, bilimning o'zi nima, u nimadan paydo bo'ladi va u nima uchun zarur degan uch holni sanab o'tadi.

Arastu, ilmi yaqiniyaning xillaridan biri mavjud bo'lgan muqaddimotlar qanday bo'lishi kerak, ushbu izlaniladigan va muqaddimotlarni mujassam etuvchi moddalar va mavjud narsalar o'zi nimaligini, ularning holatlari xuddi shu holat, shart-sharoitlari xuddi shu shart-sharoitligini va ular, mumkin mavjud va mumkin nomavjud zaruriy muqaddimotlarni bartaraf etuvchi moddalarga borib mujassam bo'lishligini hamda imkoniy (ehtimoliy) va mumkiniy muqaddimotlar orqali ilmi yaqiniyaga erishib bo'lmasligini tushuntiradi. Shunday qilib narsaning mavjudligini tayyorlaydigan muqaddimotlar ulardan narsaning borligi sabablari, haqida yoki uning mavjudligi haqidagi bilimni oлganimiz uchun o'qitishning asosini tashkil etadi va narsaning "mavjudligi sabablari" yoki "narsaning mavjudiyoti asosi" deb ataladi.

U yana, izlanilayotganda bu moddalarning qaysi xillari va ilmi yaqiniyaning qaysi xillari borligini va zaruriy mavjud narsalarning biror xilida ilm al-yaqiniyaning har qanday xili bo'lishi mumkin emasligini aytib o'tadi. Agar narsaning mavjudligi asos va sababalga ega bo'lmasa, bu narsaning nega mavjud ekanligi haqida ilm al-yaqiniyaga erishib bo'lmaydi, ammo narsaning mavjudligi bor ekan, ilm-al-yaqiniyaga yetishsa bo'ladi.

Arastu, ilm al-yaqiniyani o'ziga jo etgan bu moddalar va mavjud narsalarni o'rganuvchi san'atning mohiyati, nimalardan iboratligini tushuntiradi. U, ilmi yaqiniyaga erishishga imkoniyat bermaydigan, mavjud narsalarni o'zida jo etgan zaruriy muqaddimotlar bilan, zaruriy va imkoniy (ehtimoliy) muqaddimtolarni bartaraf etishga vosita bo'lgan moddalardan foydalaniib, ularni (moddalarni) tahlil etuvchi san'atlarning o'rtasidagi farqni ko'rsatadi. Arastu bu san'atni "falsafa" deb ataydi.

Arastu, falsafa deb ataluvchi bu san'atdan tashqari boshqa san'atlar ham bor va har bir shu san'atga (falsafaga) taqlid etuvchi, hamda bilimlarni, amallarni chuqur o'rganishni qabul etgan boshqa san'at ham falsafa san'atiga o'xshashligi tufayli falsafa deyiladi, deb tushuntiradi. Bu xuddi farishta ismli odam, yoki fazilatli odam o'z xatti-harakatlari bilan farishtaga yoxud fazilatli odamga o'xshashni istaganiga o'xshaydi. Insonning o'z zotiga (mohiyatiga) va faoliyatiga bo'lgan munosabati, fazilatning o'z asl mohiyatiga va amallariga (faoliyatiga) munosabati sifatida ko'rildigi uchun o'z nomi bilan ataladi. Shunga o'xshab, boshqa san'atlar orasida falsafa ham o'z nomi bilan ataladi, chunki u, shu san'atga o'xshashligi nuqtai nazaridan va uning haqida shu san'at sifatida qanday fikrda bo'linsa o'sha darajada ataladi.

Arastu, bu san'atning qancha bo'lim va xillari borligini, har bir xili nimalardan iboratligini, ularning mohiyatini, uning har bir xili moddalar va mavjud narsalarning qaysi xillarini o'rganadi, u bilan (falsafa bilan) maxsus bog'liq izlaniladiganlari maqsadlari qanday, uning muqaddimotlari qanday, izlaniladiganlari va undagi muqaddimoti avallari qanday bo'lishi kerak edi, bu san'atning har bir xilidan

paydo bo‘luvchi izlaniladiganni tadqiq etishning qanday usullari bor, degan masalalarni tushuntiradi. Har bir nazariy san’atga u bilan maxsus bog‘langan mavzuda, izlaniladigan maqsadlar va muqaddimoti avval mos keladi. Bularni u “falsafa” deb ataluvchi nazariy san’atlarning har biri misolida tushuntiradi.

Arastu, nazariy san’atlarning barcha xillarini qanday tartibda bo‘lishini, ularning o‘xhash va farq qiluvchi tomonlarini, ulardan, qaysi biri ko‘proq, qaysi biri kamroq rivojlanganini, qaysilar boshqalaridan pastroqda turishini tahlil etadi. Ular orasida boshqalariga qaraganda ko‘proq rivoj topgan san’at bormi yoki yo‘q ekanligini ko‘rib chiqadi. U, bir san’at boshqasidan qanchalik quyi turishini tushuntiradi. U yana, ko‘proq rivojlangan deb oldin aytilgan san’at “falsafa” va “bilim”, “ilm” degan unvonga eng loyiq san’at ekanligini aytadi. Uni odatda mutloq ma’noda “falsafa” va “bilim” deb ataydilar, yoki yana “falsafalar faslsafasi”, “bilimlar bilimi” ham deydilar.

So‘ngra u, san’atda izlaniladiganini topish uchun muqaddimoti avvaldan qanday foydalanishni tushuntiradi.

Arastu, nazariy suhbat-bahs (xivarun nazariyyun) qanday o‘tkazilishini, uning qancha xillari borligini, suhbat-bahs xillarining nazariy san’atlarning biror xiliga xos har biridan qanday foydalanish zarurligini, o‘qitish-ta’lim berishning o‘zi nimadan iborat, uning qancha xillari borligini, o‘qitish nima bilan bog‘liq, o‘qitishning qaysi xili nazariy san’atlarning qaysi xiliga bevosita taalluqli ekanligini tushuntiradi.

Arastu, ushbu san’atga qobiliyat kasb etish uchun inson o‘qish-o‘rganish jarayonida o‘zini qanday tutishi kerakligini tushuntiradi. Bu san’atni egallash yoki bu san’atga malaka hosil qilish uchun inson qanday tabiiy ruhiy qobiliyatga ega bo‘lishi kerak? Tabiatdan olinadigan ruhiy qobiliyatlar o‘zi qancha? Kimda-kim tabiat ato qilgan ushbu qobiliyatlarga ega bo‘lmasa, u ushbu san’at bilan shug‘ullanaolmaydi, chunki bu san’at bilan shug‘ullanishning o‘zi uning barcha usullarini egallashga qobiliyat bermaydi. Agar haqiqatan ham shunday bo‘lsa, u holda san’at bilan birgalikda inson holatini yaxshilaydigan narsalarni, uning irodaga asoslangan tabiatan

berilgan xislatlarini boshqa bir o'qitish usuli va bilimning boshqa xiliga asoslanib bilib olish kerak bo'ladi. Hamma odamlar ham haqiqatni turli yo'llar bilan o'zlashtirishga qodirlar, ular turli vositalar bilan o'z ruhiyatlarida turli xil ilmlar orttirishga intiladilar va unga erishadilar ham. Tabiatan tug'ma xislatlari va qobiliyatları borlar, shu kitobda tasvirlanganiday, tabiatan alohida odamlardir. Alohida qobiliyati bo'limgan odam esa, tabiatan oddiy odamdir. Bularning hammasi "Ikkinchি analitika" ("Kitob fi al-Burxon") risolasida bayon etilgan.

So'ngra Arastu, boshqa bir san'at haqida gapiradi. Bu san'at tufayli inson, har qanday izlanadigan maqsad haqida ehtimoliy axborot beruvchi har bir qiyos (sillogizm)ni zudlik bilan olish qobiliyatiga erishish bo'yicha mashqlar qiladi. Bu san'at mavjud bo'lgan barcha nazariy san'atlarning har qaysisi bilan mos keladi. Tadqiqotchi bu qiyoslardan topgan narsa, yuqorida eslatilgan kitobda Arastu aytib o'tgan ilmiy qonunlarni topishga qandaydir tayyorgarlik vazifasini o'tashi zarur. Arastu ularni (ilmiy qonunlarni) tekshirib chiqadi, o'ziga ma'qullaridan foydalanadi va ulardan nima paydo bo'lishini tushuntiradi. U, odamning kelib chiqishini, ongingin sarchashmalarini avvalidan boshlab tahlil etadi, o'zining qarashlari va fikr-o'ylarini dalillar yordamida izohlab beradi. Dalillar tufayli u izlanilayotgan narsa haqidagi ilmi yaqiniyaga ko'p qiyinchiliklar bilan erishadi. Shuning uchun u, ilmi yaqiniyani o'zlashtirishni tayyorlashga vosita bo'lib xizmat qiluvchi amaliy san'at qobiliyatiga zarurat sezadi. U, inson o'z tadqiqotlari va mulohazalarida foydalanishi mumkin bo'lgan barcha qonunlar haqida gapiradi: ularning ba'zilaridan o'zi va ruhiyati orasida bo'lganni tadqiq etish paytida, ba'zilaridan o'zi va boshqa odam orasida bo'lganni tadqiq etish uchun foydalanadi. Bu san'at, insoning o'zi va boshqa birov o'rtasidagi mavjud narsani o'rganish jarayonida tezda qiyoslar (sillogizm) topish qobiliyatiga erishishga tayyorgarlik ko'rishda bir vosita bo'ladi. Bunday tayyorgarlik o'z mohiyati bo'yicha bu san'atdan inson va uning ruhiyati orasidagi holatni tadqiq etishda foydalanish qobiliyatini beradi.

Inson va uning ruhiyati orasidagi holatni tadqiq etishda, inson o'z qobiliyatidan juda ehtiyyotkorlik va nazokat bilan foydalanadi, chunki odam o'zi va ruhiyati orasidagi tadqiq etayotgan holatni tasavvur etayotgan chog'ida uni xuddi birov kuzatayotganga, tekshirayotganga o'xshaydi, aqlining nazokatini va tahsinga sazovor ehtiyyotkorlikni namoyon etadi. Shuning uchun bu san'at insonni, o'zi va boshqa bir odam orasidagi mavjud holatni tadqiq etishda foydalanishga, savol va javob shaklida tayyorlaydi.

Ushbu mashqiy, fanni o'rganishga tayyorlovchi va tadqiq etuvchi san'at "sana'i jadaliya" "dialektika san'ati" deb ataladi. Bular haqida Arastu "Kitobi Tubiqa" yoki "Kitob al-jadal" risolasida fikr yuritadi.

Mashqlarga asoslangan san'at, birinchi tadqiqot mavjud bo'lganligiga sababchi san'at bo'lganligidan, savol va javob shaklida tadqiqotda foydalanish uchun tayyorlovchi vosita bo'lib qoladi. Negaki, insonning o'zi va ruhiyati orasidagi holatni tadqiq etishda, uni to'g'ri yo'lidan og'dirib, boshqa tomoniga boshlovchi, izlanilayotgan maqsaddan kelib chiqadigan haqiqatga nisbatan adashtiruvchi bir narsani topishiga ishonchi komil bo'lmaydi. Chunki, mashqqa asoslangan tadqiqot, haqiqatni izlashga avvalidanoq faqatgina undaydi xolos, har holda u tufayli inson to'g'ri yo'lida bo'ladi. Ammo, shu vaqtning o'zida u, mashqqa asoslangan san'at uni dallilardan foydalana oladigan bo'lishiga tayyorlaganiga qaraganda ko'proq adashishga moyil bo'ladi. Dalillar qo'llanilganida odam adashmaydi yoki deyarli adashmaydi. Toki u mashqqa asoslangan san'atdan foydalananar ekan, (ba'zan) adashayotganini bilmaydi, chunki u to'g'ri usullar deb hisoblanuvchi dalillar va usullardan foydalanih tadqiqot olib boradi.

Xuddi shunga o'xhash, agar bularning hammasi insonni bu usullarni o'zi va boshqa birov orasidagi munosabatni, bor narsani aniqlash uchun o'tkaziladigan tadqiqotlarda savol va javob shaklida foydalanishga tayyorlaydigan bo'lsa, u holda bu usullarni o'qitish-o'rgatishning shakllari deb bo'lmaydi. U, bahslashuvchilarining beg'araz bo'lish qobiliyatlarini namoyon etish uchun bir mashq bo'lib, agar

bahslashuvchilardan biri boshqasining fikrini rad eta olsa, u ilojsiz qolib o'z maqsadidan voz kechadi. Shunga o'xshash, sofizmlarni (quruq safsatani) rad etuvchilar ning imkoniyatlari ancha ko'p bo'ladi. Shuning uchun Arastu mashqqa asoslangan faqat ushbui san'atnigina emas, balki o'zi va boshqa birov orasida mavjud bo'lgan narsani tadqiq etishda to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi barcha narsalardan, haqiqatga erishishga mone va to'g'ri yo'l haqida aldovchi tasavvur beruvchi bahslar haqida ogoh etuvchi san'atni ham bayon etishga majbur bo'ladi. Bu san'at ham, shu san'at vositalari ila insonning o'ziga emas boshqa birovga mansub fikrni rad etish uchun tayyorlaydigan bir san'at bo'lib qoladi.

Mashqlarga asoslangan san'at, uning usullaridan bahslashuvchi ikkala taraf foydalanishiga tayyorlaydigan bo'lgani uchun, bu san'at uning vositasida sofizmlar va haqiqatga erishishga monelik qiluvchi va shu yo'ldan ozdiruvchi narsalarga shubha uyg'otuvchi san'atga aylanadi. Bu san'at o'z vositalari bilan boshqa birovda namoyon bo'lувчи fikrni rad etishga tayyorlaydi.

Arastu ikkita san'at haqida gapirayotgan ko'rindi: ulardan biri — mashqlarga asoslangan san'at tufayli yetishiladigan to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, boshqa birov tomonidan bildiriluvchi fikrni o'z ta'siri bilan rad etuvchi san'atdir. Haqiqatga erishish va mashqqa asoslangan san'atni tadqiq etishda undan foydalanish uchun emas, balki mashqqa asoslangan san'atdan foydalanishga, o'sha inson va boshqa birov o'rtasidagi mavjud narsani tadqiqotiga hamda butunlay mashqlarga berilishga qarshilik ko'rsatuvchi narsalarni namoyon etish uchun foydalaniladigan san'at — ikkinchi san'atdir. Arastu aytib o'tgan ayyorlikka asoslangan bu san'at uning fikricha odamni hamda boshqa birov tomonidan bildiriladigan fikrni rad etish va mashqlarga asoslangan san'at vositalaridan chalg'ituvchi, san'at bo'lib uni u "as-sufstaniya" ("sofistika") deb ataydi.

Inson, boshqa birovning fikrini rad etishi uchun nimanidir o'zlashtirishi mumkin bo'lgan san'at, mashqlarga asoslangan san'at bilan sufstaniya san'ati o'rtasidagi oraliq bir san'atdir. Bu san'atni, birinchi maqsad foydasi uchun (ya'ni, haqiqatni

topish uchun), inson va uning ruhiyati orasidagi mavjud narsani va uning o'zi va boshqa birov orasidagi mavjud narsani tadqiq etish uchun ishlatib bo'lmaydi. U, sufstaniya yaratadigan maslakni o'zlashtiruvchi qobiliyat bo'lmay, balki inson irodasi intiladigan narsani aks ettiruvchi va inkor etuvchi bir qobiliyatdir.

Ushbular yo tadqiqotchiga, yoki bahsda g'olib kelayotgan tarafdan, yoxud o'sha yerda bo'lgan faylasufdan agar u yakka bo'lsa yo faylasuflardan (ular bir qancha bo'lsalar) foydalanuvchi boshqa somelarga (bahsni eshituvchilarga) taalluqlidir. Bu yerda sofistik bahslar to'g'risida gap ketayotgan ko'rindi. Shuning uchun some (eshituvchi) faqat tomoshabinlar va jamoa huzurida sofistning (sufstaniyunning) fikr-mulohazasi qanday bo'lishiga e'tibor berishi kerak, toki, kim eshituvchi-jamoayu, kim faylasufligi unga ravshan bo'lsin (ya'ni, savol-javoblardan kim faylasuf ekanligini ajratib olish zarur, deyilmogchi bo'lsa kerak). U, yo haqiqat haqida o'z fikrini bildirmay sukut saqlashi yoki tamoshabinlar va faylasuflar huzurida fikrini bildirmay sukut saqlashi yoki tomoshabinlar va faylasuflar huzurida fikrini aytishi kerak bo'ladi. Ushbu san'at, mashqlarga asoslangan san'at va usullari bahsdan iborat bo'lgan boshqa san'atlarga kirmaydi.

Sufstaniya san'ati bo'yicha bahsda qatnashuvchilarning har birlari quyidagi olti narsani qo'llashadi:

1. tanbeh; 2. sarosima, dovdirash; 3. tuhmat va qat'iyat; 4. nutqda duduqlanishga majbur qilish; 5. bema'ni so'zlardan foydalanish, safsata; 6. sukutga majbur etish, hatto bahslashuvchi, gapirishga qodir, qobiliyatli bo'lsa ham gapirishni man etish. Bahslashuvchi odamni, gapirmagan ma'qulroq, degan xulosaga keltirish uchun shunday qilinadi.

Tanbeh shunday narsaki, unda birinchi holatga nisbatan chalg'ituvchi narsalar tufayli yaratiladigan muqobil holat ongga singdiriladi. Bu narsalar mohiyatan shundayki, agar odam, o'zi va ruhiyati o'rtasidagi mavjud narsani tadqiq etishda ulardan foydalanadigan bo'lsa, u holda ular odamni adashtiradi va haqiqatdan muqobil tarafga burib yuboradilar, natijada haqiqat inkor etilib, haqiqatga muqobil biror nima ma'ullanadi.

Sarosima bunday emas, ikki qarama-qarshi fikr (tushuncha) mavjud bo'lganida paydo bo'luvchi sarosima inson tabiatiga xos narsadir, bu holatda adashayotgan bir odam o'zi ishontirmoqchi bo'lgan fikrni inkor etadi va o'zi ham unga qarshi tarafning ishontirmoqchi bo'lgan fikrini o'zicha inkor etadi. Ushbu holat, "bu narsa shundaymi yoki shunday emasmi?" deb so'ralganda paydo bo'ladi. Qanday javob bersalar ham tanbeh oladilar. Shuning o'zi sarosimaga solish usulidir.

Tanbeh bir muqobil tarafdan boshqasiga o'zlashtirish orqali o'tadi. Sarosima (taraddud) esa, qarama-qarshi taraflarning sarosimali fikrlari birinchisidan ikkinchisiga o'tadi, ikkinchisidan yana birinchisiga so'ng yana birinchisidan ikkinchisiga o'tib, bu hol toki ikkala muqobil tarafning ikkala tushunchasi (fikri) ham bir xil bo'lmagunicha davom etaveradi.

Tuhmat va qat'iylik (mulih)ka kelsak, ularning ta'sirida taraflardan biri butunlay aniq narsalarni inkor etadi va o'z mohiyati bo'yicha tushunarli va ravshan holatlarga shubha bildira boshlaydi. Bu holat to boshqa taraf adashib, haqiqiy narsaning borligiga shahodat beruvchi dalillarni hamda ma'lum narsalar va haqiqiyligi ayon bo'lgan narsalar haqida xato tasavvur hosil qilmaguncha davom etaveradi. Bu, sufstaniya sofistik san'atining usullaridan biridir. Shuning uchun bu san'atning maqsadi haqiqatga va aniq dalillar yordamida biror narsaga erishishga to'siqinlik qilishdan iboratdir.

Bu uch (tanbeh, sarosima, tuhmat) xislat eng yomon ruhiy sifatlar bo'lib, ularga sufstaniya san'ati vositasida erishiladi. Qolgan uchtasi esa ongga ta'sir etmay faqat tilni kishanlaydi. Avvalgi uchtasi esa ongni jarohatlaydi.

Bahsda duduqlanishga majbur bo'lgan odam yo to'g'ri ma'noda tabiatan va odad bo'lib qolganidan duduqlanadi yoki boshqa xalqning tilida bahs yuritayotgan bo'lsa, majburan duduqlanadi. Shunga o'xhash, duduqlanish yo to'g'ri ma'noda tabiatan yoki talaffuzga putr yetkazuvchi yolg'ondan tashkil etilgan narsalar sababli insonga xos bo'ladi. Bu holat biror boshqa xalqning tilidagi so'zlardan kelib chiqsa, ikkala bahslashuvchi ham o'sha xalq tilida so'zlashishlari kerak.

Safsataning ishlatalishi ham shu tarzda ro'y beradi. Duduqlanish, ishlataladigan iboraning ma'noni ifodalash uchun yetarli bo'Imaganligidan paydo bo'ladi. Buning uchun esa ma'noni shunday darajaga keltirish kerakki, ibora ham qisqa bo'lsin (bu yerda Forobiy ishlataladigan iboralarda-lafzda ma'noni to'la aks ettirolmaslik natijasida, ma'noni ifodalovchi ibora va ma'no mavqeい mutanosib bo'Imaganda duduqlanish paydo bo'ladi, degan fikrni bildirayotgan ko'rinadi). Safsata esa iboraning manosini ko'paytiradi buni, kuchaytirishdan farq qilish kerak (ya'ni, turli ma'nolar silsilasini keltirib chiqaradi, deyilmoxchi shekilli), shuning uchun ma'no jihatidan ta'sir o'tkazuvchi holat zarur bo'lib qoladi. Bunda ko'p ma'nolar bo'lib, ular faqat qaytarishlar (ko'p ta'kidlar)dagи iboralarga taalluqlidirlar. Ko'p ta'kidlar esa, yo amal (ish-harakat ma'nosida) yoki qobiliyat tufayli bo'ladilar. Bu qaytarishlar ta'kidlar bema'nigarchilikdan iborat bo'lgan ma'no ifodalariga nisbatan insonni chalg'itadi. Sufstaniyun (sofist) shu misollarga o'xshash ravishda va shu misollar vositasida safsatani qo'llashi mumkin.

Sukutga majbur qilishga kelsak, u sufstaniyunlarning eng pastkash usullaridan biridir. Bunga qo'riqitish, uyaltirish yoki hayajonga soluvchi boshqa bir narsa bilan erishiladi. Arastu bahs tarkibini va sufstaniyun maqsadiga qanday erishishini batafsil bayon qiladi.

So'ngra u qonunlar to'g'risida so'z yuritadi. Agar inson ularga rioya qilsa, ular tufayli, o'z vazifasini bajarishdan chalg'ituvchi yuqorida aytilgan biror narsada adashgan odamga imkoniyati boricha yordam berishi mumkin. Bular uning "Sufstaniya" ("Sofistika") nomli risolasida bayon etilgan. Bularni bayon etishdan maqsad, haqiqatga erishishda hali ham foydalaniladigan mashqlarga asoslangan san'atni ta'kidlab ko'rsatishdir (bu yerda so'z jadaliya san'ati-dialektika san'ati haqida ketmoqda). Sufstaniya san'ati mashqlarga asoslangan jadaliya san'atiga qarama-qarshi turadi. Sufstaniya san'ati, dialektika san'atini haqiqatga va ilmi yaqiniyga erishish yo'li bo'lgan usullardan chalg'itadi. Bu yo'lда (tariqatda), Arastu o'zining "Kitob al-Tubika" ("Topika") asarida bayon etgan san'at turadi. Bu san'at haqiqatga olib borgani uchun

haqiqatning bir quroli, xizmatkori bo'lgani hamda ilmi yaqiniyaning quroli va xizmatkori bo'lgani uchun ham foydalidir.

Shunday qilib, Arastu ilm al-yaqiniya bilan bog'liq masalalar majmuasini bayon qiladi, unga (ilm al-yaqiniyaga) olib boruvchi yo'lni ko'rsatadi, ilmi yaqiniyaga erishishga mone bo'lgan narsalar to'g'risida so'z yuritib ogohlantiradi.

IKKINCHI BO'LIM

Arastu ilm-al-yaqiniya masalalarini tugatganidan so'ng u, ilm al-yaqiniyaga erishish uchun mantiq ilmidan foydalanmaydiganlarni o'rgatishga insonni qodir etuvchi san'atlarning tahliliga o'tadi. Ular ikki guruhga bo'linadilar. Birinchingisa tabiatan alohida qobiliyatları bo'lmaganlar kiradilar. Ikkinchisiga guruhga xuddi shunday tabiatan alohida qobiliyatga ega bo'lmagan, ammo betinim mashg'ulotlar orqali o'z say'i-harakatlari bilan ilm al-yaqiniyaga yetishishga intiluvchilar kiradilar. Arastu, insoniy maqsadga, shu maqsadni mukammal biluvchi, bu maqsadga erishsa, u bilan nimalar sodir bo'lishini tasavvur qiluvchi va ilm al-yaqiniyaga erishishga tabiatan tayyor odamlarga intilishlari zarur, deb hisoblaydi. Ammo Arastu, bu maqsadga intiluvchi boshqalar ham, idrok etganlaricha shu maqsadga intilishlari (ya'ni maqsadni o'zlar haim idrok etib, shunga yarasha intilishlari zarur degan g'oya ilgari surilayotgan ko'rindi), ular mayjud narsalar haqida ilm-al-yaqiniyaga erishishning o'z usullari bo'lgan odamlardan o'qish jarayonida olgan bilimlari bilan chegaralanib qolmasliklari kerak, deb hisoblaydi.

Arastu, barcha nazariy va amaliy narsalarga xalqni ishontirish mumkin bo'lgan san'at haqida hikoya qiladi. Xaloyiq, odatda, umuminsoniy munosabatlarni o'zida aks ettirgan ayrim hollar bilan qanoat hosil qiladi. Ular shunday narsalarki, ular tufayli, odam yaratilishining boisi bo'lmish maqsadga intilishda odamlar orasida o'zaro yordam mavjuddir.

U, nazariy san'atlar yordamida idrok etiluvchi hollarni inson xayolan tasavvur etishiga ko'mak beruvchi san'at haqida so'z yuritadi. Bu san'at yana mayjud ko'rgazma nusxa orqali

taqlid etish va boshqa ayrim narsalarni tasavvur qilish va soxta tasvirlash qobiliyatini uyg'otadilar, bunda asosan mulohaza yordamida tasavvur va taqlid usullaridan foydalaniлади.

O'xshash narsa vositasida tasavvur va taqlid — xalqni ko'pgina nazariy narsalarga o'rgatishdagi usullardan biridir. Oddiy xalq uchun narsalarni tabiiy nusxalari orqali xayolan tasavvur etish qiyinligidan, ular uni tasavvur etmay, o'sha narsa haqiqatan ularga qanday namoyon bo'lsa, shunday tasavvur etadilar va idrok qiladilar. Agarda xayolan tasavvur etilayotgan narsaning mohiyati uning haqiqiy mavjudligi bo'yicha tushunilsa ham bu ish juda qiyinchilik bilan ro'y beradi, bunday fikr, bilish, idrok etish usuli faqatgina nazariy fanlarni bilgan odamlargagina taalluqli emas.

Inson, o'zi va ruhiyati orasidagi hamda o'zi va boshqa birov orasidagi mavjud narsani tadqiq etishda bor imkoniyatni ishlatib muntazam ravishda mashq qilib turishi kerak.

Buni u haqiqat vositalarini egallahsha sabot bilan yo o'qitish va murabbiylit usullari yoki bahs va himoya usullari bilan amalga oshirishi zarur. Ushbu san'at tufayli erishilgan qobiliyat "mantiqiy qobiliyat" deb ataladi.

UCHINCHI BO'LIM

Bu masalalarni ko'rib chiqqach, Arastu tabiiy fan haqida gapiradi va "Kitob fi al-jadal" risolasida turlarini bayon etgani mavjud narsalarga qaytadi.

U, mavjud narsalarning borligiga his-sezgi shunday shahodat berishi mumkinki, ulardan hosil bo'lgan turlar (kategoriyalar) dan biz o'z ixtiyoriy irodalarimiz orqali biridan boshqasiga nisbatan foydalanamiz, ularning birlari boshqasi orqali bizga ma'lumot beradilar, ba'zilari boshqalari tufayli, yoki insonning o'zi va ruhiyati, yoxud boshqa birov bilan bahsi orqali idrok etiladi, deb hisoblaydi.

Tabiatan mavjud bo'lgan narsalarning borligi bizning idrok etish qobiliyatimizga bog'liq, deb hisoblash mumkin emas. Tabiatan mavjudlik-tabiiy sifat va mohiyatlardir. Bu-ularning biz idrok qiladigan va his etadigan belgisidir. Biz tushunchalar

ila to'ldirgan o'sha holat — yo'riqlar mantiqiy holat — yo'riqlardir. Mantiq to'g'ri fikr yuritishga alohida qoidalar, usullar va yo'sinlar beradi, uning ixtiyorida mavhum tushunchalar bor, u insonni (uning aqlini) adashishlar va xatolardan ogohlantiradi, muhofaza qiladi.

Mavjud narsalar holatiga nisbatan his-sezgi shahodat beradigan narsa — beedadlik (ko'plik) dir. His-sezgi bilan biz biladigan beedadlik ikki xilga bo'linadi. Birinchi xiliga, beedadlikni turli holatlarda ajratish yordamida his-sezgi tomonidan erishiladigan narsalar kiradi, ya'ni bir xil narsalar boshqalaridan ayrim holat bilan farq qiladilar. Bu-ko'proq ma'lum bo'lgan, birinchi xil beedadliklardir. Ikkinci xiliga bir narsa (buyum) dan va bir xildagi his-sezgi tufayli bilib oladiganimiz ko'p narsalar kiradi, ba'zan bu narsalar (buyumlar) bir-biriga zid bo'lmasagan narsalar bo'lishi mumkin. Bunga ushbu misolni keltirsa bo'ladi: biz bir jismga qo'l tekkizib ko'rib, uning issiq, sovuq, qattiq, yumshoqligini bilamiz.

Ba'zan narsalar bir-birlariga zid bo'ladir, masalan, issiq va sovuq, qattiq va yumshoq, dag'al va mayin kabi. Shunga o'xhash, ba'zan shuurimiz orqali bilganimiz mavjud sifatlar beedadligi farqli bo'ladi. Masalan, ushbu narsa issiq va oq. Ulardan birini quvvai lomisa (ushlab, qo'l tekkizib sezish) tuyg'usi bilan boshqasini nigoh (ko'rish) orqali bilinadi. Shunga o'xhash, ushbu holat boshqa sezgi a'zolariga ham tegishli.

So'ngra Arastu, shuur orqali bilinadigan har bir narsa to'g'risida sezgidan olinadigan bilim darajasi haqida va ulardan birini boshqasidan farq etuvchi belgilarni gapiradi. Shuur, mavjud narsalarning hammasi yoki ko'pi o'zgarishi va bir joydan boshqa joyga o'tib turishi, bir holatdan boshqa holatga o'tishi haqida shahodat va bilim beradi. Masalan, oq narsa qanday qilib qora bo'lgani haqida.

Beedad ziddiyatlar bir-birlarini almashtirib turadilar. Ushbu tanovoblarda (almashinib turishlarda) bitta o'zgarmaydigan doimiy narsa bor. U, ushbu tanovoblarni saqlab turadi va ularga singih ketadi. Narsalar bir-birlariga ergashib va o'zgarib turganlari holida doimiy bo'lib keladigan narsa "javhar"

(“substansiya”) deb ataladi, almashinib va o‘zgarib turuvchi narsalar “oraz” (“aksidensiya”) deyiladi.

Biz his-tuyg‘u bilan biladigan va ular tasdiq etadigan narsalar tabiatan mavjud narsalardir. Mavjud narsalarning rutbalari (kategoriyalari)-xabardor etuvchi (narsalarga) kelsak, rutbalar bizga o‘zga bir narsa haqida emas, faqat o‘sha narsa haqida axborot beradi, ular bizga o‘sha narsa qanchaligini (miqdor jihatidan), qandayligini bildiradi, yoki his-tuyg‘u ila bilinayotgan narsaga nisbatan tashqarida bo‘lgan boshqa narsa haqida axborot beradi. Bu holat, qachonki, birlaridan boshqalari orqali foydalanilsa, qachonki, birlari boshqalari orqali aniqlansa ro‘y beradi.

Biz fikran tasavvur etadigan ma’qulot-aqlan tushunsa bo‘ladigan mohiyatlar sifatlarining ko‘pligi bilan ajralib turadi, bulardan his-tuyg‘u ila bilinuvchi narsaga o‘xshatib, ularni holatiga qarab xayolan tasavvur etiladiganlari mustasnodir. Bizning tasavvurimizda ma’qulotlar qanday holatda ekanliklarini sezganimizda, biz fikr qilgan beadadlikni xayolan tasavvur etamiz. Chunki biz ma’qulot deb xayolan tasavvur etadigan va sezadigan vohid (bir) narsa, biz beadad sifatida xayolan tasavvur etadigan va fikrlaydiganimiz, sifatlarning ko‘pligidan tuyg‘ular ila bilinadigan narsalarning beadadligiga o‘xshamaguncha beadad (ko‘plik) bo‘lib qolaveradi. Chunki bir narsa to‘g‘risida, bir holatda u beadad sifatlar va mahmullar (predikat)ga ega, deb axborot berilsa, u holda o‘sha narsaga shu sifatlardan har qanday bir sifat mansub, deb tushuniladi.

Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tilganidek, ushbu (odam) zayd, unga tiriklik, oqlik, (bo‘yi) balandlik sifatlari xosligini ta’kidlab o‘tsak bo‘ladi. Biz zehnimiz bilan unga beadad mavjudlik (sifatlari) mansubligini tushunamiz.

Ammo biz, bir narsaning beadad ma’qulotlari bo‘lmish beadad ashylarning har qaysisi bergan axborotni farq etadigan bo‘lsak, biz shu narsaning zehnini bilolgan taqdirimizda uning “nimalikligini” belgilovchisini aniqlay olamiz. Shu, o‘sha narsaning javhari – substansiya bo‘ladi. Bu narsaning javhari (substansiyasi) deb ataganimiz o‘zi haqida quyidagilarni bildiradi: “nimalik”ning o‘zi nima, u o‘zi

qancha, qanday, yoki “o’zi nimaligidan” boshqa bir holat haqida xabardor etadi. Ushbu narsa haqida va o’sha ma’lumotlar haqida biz ularni haqiqatan ham javhardir deb aytamiz, chunki ular “nimaligi haqida” axborot heradi va ular oraz (aksidensiya)dirlar, negaki o’zlari haqida “nimalik”dan tashqari, boshqa aniqlovchilarni ma’lum qiladilar.

Agar yuqorida aytib o’tilgan narsa tuyg’u ila idrok etiladigan narsa bo’lsa va ko’pgina ma’qulotlarga ega bo’lsa, ular orasida ushbu tuyg’u ila idrok etiladigan narsaning “nimalikligi” haqida ma’lumot beradigan ma’qulot bor bo’lsa va agar bizga boshqa bir narsa haqida hech narsa — na uning qanchaligi (miqdor hisobida), uning o’zi va holati qandayliklari — ma’lum bo’lmasa, u holda biz shu narsani so’zning tom ma’nosini ila javhar deb atagan bo’lur edik, ammo aslo biron-bir narsaning javhari va boshqa narsaning orazi bo’lish uchun qabul qilingan javhar, deb atalmas edi. Modomiki, shunday ekan, biz barcha tabiatan ma’qulotlarni so’zning tom ma’nosidagi javhar deb ataymiz. Unga tabiatan taalluqli bo’limgan barcha narsalar esa, mutlaq javhar deb ataluvchi narsaning, tabiatiga muzof munosabatdor bo’lgan orazi (aksidensiysi) deb ataladi. Va nihoyat, muzofiy javhar deganimizni, agarda u bizga narsaning “nimaligi” haqida ma’lumot bersa, haqiqatan ham, ushbu javharga bo’lgan o’xhashlik ulushiga ko’ra uning javhari deb ataymiz. Mutlaq ma’nodagi javhardan boshqa javhar mayjud emas. Boshqa hammasi umumiy nom bilan “javhardagi orzular” deb ataladi.

So’ngra Arastu ushbu holni, avvallari mantiqda qo’llanilgan da’vo bilan quvvatlaydi: javhardagi mavjud orazlarning, javhardagi mohiyati “nimalikni” oraz yordamida aniqlovchilari ham bo’ladi. Zotiy, ya’ni aynan narsaga kelsak, undan birinchi tartibdagi “nimalik” kelib chiqadi. Ushbu javhar shunday javhardirki, uni orazdan na his-sezgi va na fikr bilan ajratib bo’ladi. Ammo aql, har holda javharni orazdan va orazlarni bir-birlaridan, ular javharga xos ekanliklari uchun emas, balki faqat birgina javharni idrok etish orqaligina ajratib olishi mumkin. Uning mayjudligi his-tuyg’ularimiz va o’zimizning shaxsan bu narsalardan foydalanishimiz orgali tasdiqlanadi, chunki bizga insoniy barcha narsalar xosdir.

Arastu bu narsalarda, bizda birinchi javhar kabi qabul qilinganni nazarda tutadi. Borligi inson irodasidan tashqari mavjud bo'lganni u tabiatan mavjud narsalar deb ataydi. Inson irodasidan tashqari mavjud bo'lgan ushbu javharning har bir xiliga bir javhar xosdir va u tufayli javhar o'z asosiga ega bo'ladi hamda u tufayli javhar mohiyati uning barcha xillaridan (sinflaridan) ajralib turadi. O'z-o'zidan javhar bo'lgan ushbu har bir sinfning mohiyatini u javharning "tabiatan xislati", deb ataydi. Mohiyatlarning ushbu farqlanishlari javharlarning tabiatan xislatlari bilan aniqlanadi deb tushuntiradi. Har bir xilning mohiyati shundayki, shu xil narsaning o'z-o'zidan kelib chiqqan harakati ila unga ta'sir qilishi aniq ravshandir, shu xil narsada mavjud bo'lgan boshqa aynan zotiy orazlarning xoh harakat, xoh miqdor, xoh sifat, holat va boshqa orazlari mavjudligiga sabab bo'ladi. Masalan devorning mohiyati ustida shiftni tutib turishidir va u devorga taalluqli xislatlarni o'zlashtiradi. Chunki shu xil xislatlarga ega bo'lish uchun ham devordir. Tabiat tufayli mavjud javharlarning xillaridan har birini u "tabiatan javharlar" deb, ularning aynan (mohiyatli) orazlarini esa u "tabiatan orazlar" deb ataydi. Arastu o'z oldiga maqsadni qo'ygach, unga histuyg'u tufayli yetib borganday yetib bormadi va tug'ma odat tufayli ma'qulotlarni bilganday bilmadi, balki o'zi mantiqda eslatib o'tgan narsalarni tadqiq etish usuli tufayli muqaddimoti avvalni aniqlab, maqsadga erishdi.

TO'RTINCHI BO'LIM

Arastu bularning hamasini tushuntirmoqchi bo'lganida, u shuur uchun ravshan narsaning zidlari bo'lgan va amalda foydalanish ishida oqil hisoblangan narsaning ziddi bo'lgan mulohazalarga duchor bo'ladi. Ushbu mulohazalar shundayki, ular mavjud narsalarning o'zgarishi va ularning farqlanishlarini shak-shubhaga qo'yadi. Ushbu mulohazalar, mavjud narsalar orasidagi farqlar va o'zgarishlar, mavjud narsalarning mavjudligiga bog'liq bo'lmay, balki narsaning mavjudligidan tashqari bo'lgan boshqa bir narsaga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ushbu boshqa bir narsaning o'zi nima? U mavjudlik mahrum bo'lgani uchun shunday holatga keladi.

Ushbu, tuyg'u bilan idrok etiluvchi narsalarda, ma'lum bir yakka narsalardan ajralib turuvchi alohida narsalar yo'q. Agar mavjud narsani mutlaq ma'noda olinadigan bo'lsa, u holda biror qisqa muddat mobaynida, javhariyni nojavhاري, o'zi javhariydan tashqari bo'lgani tufayli, farq eta oladi. Ammo javhariy bo'lmagan narsa umuman bo'lmasligi mumkin, mavjud bo'lmagan narsa esa, umuman hech narsa emas. Farqlanadi, deb, o'yaydigan narsa umuman mavjud emas. Shunday ekan, haqiqatan mavjud bo'lmagan va mavjudlikdan tashqari bo'lgan narsa umuman mavjud emas.

Beadadlik (ko'plik) faqrlanish tufayli mavjuddir. Demak, ahadiy — birlik nimadir mavjud. Asartu, birlik (tanho) narsaning turli sifatlarini bayon etishgacha boradi. Ularning (shu sifatlarning) har biri, shu narsaga nisbatan, boshqa sifatlari ko'rsatmagan xususiyatlarni ko'rsatadi. Beadam so'z birikmalari — iboralar yordamida narsa haqida ifodalangan xususiyatlar miqdor jihatidan bir butun bo'lib qoladi, ammo bir so'z va bir ibora bo'lmaydi. Shu qoida bo'yicha, shuur — hissiyot shahodat beruvchi narsaga va ushbu shuur ila idrok etiladigan narsalarning ma'qulotlaridan aql bilan tushunsa bo'ladigan mohiyatlaridan foydalanganimizda erishadiganimiz holatga zid turuvchi aqliy xulosalar qilinadi.

Arastu ushbu mulohazalarni avvalidanoq mug'litot, g'alat (sofizm) deb rad etadi.

U, haqiqatan to'g'ri fikrga kelish va ixtilofli (bir-biriga zid) aqliy xulosalarni inkor etish uchun ular hech qanday foya bermaydi deb tushuntiradi (so'z sofizm haqida ketmoqda). Haqiqiylikka faqat shuur va ong (aql) tufayli erishiladi.

So'ngra Arastu o'z tadqiqotlarini davom ettirib, fazoda namoyon bo'lgan javhar deb ataluvchi har bir narsaning eni, bo'yи va qalinligi hor degan fikrga keladi. Rostki javhar fazoda cho'ziq deb ta'riflanadigan bo'lsa, shuning uchun u ba'zan "jismalar", ba'zan esa "jismiy javharlar" deb ataladi. Tabiatan mavjud narsalar, jismlargacha orazlar, jismiy javharlar va ularga xos belgilarga ega. Bularning hammasi tabiat haqidagi fan (fizika) ning mavzusidir. Arastu bu narsalarni isbot talab qilmaydigan muqaddimotlardan oladi va ularni tahlil qilishda jadaliy (dialektik) vasilani (usulni) qo'llaydi. Jadaliy hivora

(dialektik dialog) ga qobiliyat paydo etuvchi holatga olib keluvchi narsani tushuntirish uchun u shunday yo'l tutadi. Demak u, ushbu narsalarga ilmiy qonunlarni tadbiq etadi va ular tufayli ularning mohiyatini o'rganadi. Ilmi yaqiniyani beruvchi va tasodifan uchraguvchi ulardagi mavjud muqaddimotlarning shart-sharoitlarini u dalil keltirish orqali topadi. Ushbu shart-sharoitlar o'zlarida bo'lmagan narsalarni Arastu o'z holida qoldiradi.

Bu uning, undan keyin ushbu masalaga yana qaytishni istagan va ilm-al-yaqiniya talab etgan chog'larda madaniy ma'qulotlardan foydalanish haqidagi tavsiyalarida aytib o'tganlarini o'rganishga o'zlarini bag'ishlovchilar uchun yozgan kitoblarda o'z tasdig'ini topgan. Ko'rيلayotgan har bir narsani u ikki-jadaliy va ilm al-yaqiniya tarafidan solishtiradi. Buni unga xos barcha narsaning haqiqiyligiga yetishish uchun qilgan. Avvalo Arastu ushbu uslubdan foydalanadi: mavjud narsalarni ta'riflovchi umumiy tasdiq, ma'qulotlar bo'lgan umum asoslarni aniqlaydi. Va bular o'z-o'zicha ravshan ma'quloti avvallar emas, balki birinchi holdan boshlab noma'lum eng umumiy mulohazalardir, ular o'z-o'zidan ma'lum birinchi ma'qulotlardan kelib chiqadigan dalillar yordamida aniqlash vositasi bo'lib xizmat qiladilar. Ular haqida tadqiqot olib borilganida u jadaliy vasilalardan foydalanadi.

Jismiy javharlarning hammasida bo'ladigan mayjudiyatning dastlabki asoslarida mavjud qonunlarning umumiy asoslarni bayon etadi. Ulardan har biriga ayrim holda hamroh, ikkita dastlabki asos (asli mutorifat)lar bor, ular: bilquvvati (potensial) mavjud dastlabki asos – u “modda” – “materiya” deyiladi, muhimmona (aktual) mavjud asli mutorifat esa “shakl”–“forma” deyiladi.

Arastu bilquvvat holatdan muhimmonaga o'tish uchun, bilquvvati mavjud asl mutorifatning (dastlabki asosning) o'zi yetarli emas, deb tushuntiradi. Buning uchun, bilquvvatdan muhimmotga o'tkazuvchi uchinchi bir asl mutorifatning bo'lishi zarur. Ushbu asl mutorifat (dastlabki asos) “maf'uli asli mutorifat) “amaldagi dastlabki asos” – deb ataladi.

U, harakatda bo'lish uchun, harakatlanuvchi va o'zgaruvchi barcha narsa qandaydir hududga "oxiriga" va "maqsadga" qarab boradi, deb hisoblaydi. Va o'zicha jismiy javhar bo'l mish barcha narsa yo "maqsadga" va "oxirga", yoki qanday bo'lsa ham biror maqsad va hadga olib horuvchi narsaga borishi zarur. Shunday qilib "maqsadga" ham, oxirga ham asl mutorifatlar erishishlari va o'z mavjudotlari bo'yicha asl mutorifat bo'l mish barchalariga, ko'p ham emas, oz ham emas to'rtta jins hamroh bo'lishi unga ravshan bo'ladi, ular-modda, javhari soniy (ikkinci javhar)-substansiya, faoliyatidagi sabab va maqsaddir.

Arastu yana, tabiatning nimaligini, uning haqida barcha so'z yurituvchilarga qanday bo'lib tuyulishini tushuntiradi. Uning mohiyatini umum ko'rinishda tasvirlab, tabiat haqidagi fan (fizikadan) xabardor qadimgilar tabiat haqida nimalar deganlari va ularning o'zlarida-yunonlarda tabiat haqida shu dastlabki asoslar majmuasida nimalar deyilganini bayon etadi. U, tabiatning mohiyatini "tabiat" deb ataladigan asl mutorifatning qanday vazifani bajarishini, "tabiiy narsalar" degan iboraning ma'nosi qandayligini, "tabiatan birlamchi" iborasida mavjudiyatning ushbu dastlabki asoslari haqida qanday tushunchada so'z yuritiladi, "tabiiy jarayon bo'yicha", "tabiat bo'yicha", "tabiiy jarayon bo'yicha emas" iboralarining qanday ma'nolari borligini tahlil etadi. Ushbu tushunchalarning majmuasini, mavjud narsalar haqidagi bilim va ularni xato tushunish qanday farqlanishlarini ko'rib chiqadi. U yana to'rtta dastlabki asoslar qanday qonunlar bo'yicha bir-biriga nisbatan joylashganlari, ulardan qaysi birlari ko'proq, qaysi birlari kamroq rivojlanganlari haqida gapiradi va ular mavjud narsalarga mohiyat ato etishlarini ta'kidlaydi. Bu mohiyatni uning o'zi tadqiq etadi, buning ustiga bu holat maxsus tabiiy narsalarga taalluqlidir. Shuning o'zi birinchi asoslar va birinchi sabablar, maxsus tabiiy narsalardir.

Arastu jismiy javharlarda o'z-o'zlaricha mavjud qonunlar va asoslar haqida gapiradi. U, jism fazoda cho'ziq turishi nuqtai nazaridan nimadan iboratligini, jismning fazoda cho'ziq turishining mohiyatini, cho'ziq turish cho'ziq turishlarning qismlaridan iboratmi, ularning holatlarini o'zaro

yaqinlashishiga bog'liqni yoki boshqa biror usul tufayli mavjud ekanligini tushuntiradi.

U, jismiy tabiatan javharni, javhar mohiyati uning fazoda cho'ziq turishiga bog'liqmi yoki yo'qmi, tahlil etadi. Barcha o'ziga xos orazlar (aksidensiya) bilan javhar (substansiya) bo'lса, u narsa jism va cho'ziq turgan bo'la oladimi? O'zida shakllar va orazlar almashib turuvchi va undan javharlarning xillari paydo bo'luvchi modda bo'lgani uchun yo u jism va cho'ziq bo'ladi yoki u narsa moddiy javhar bo'ladi, negaki uning cho'ziqligi bo'y, en va qalinlikka ega.

Arastu, bu cho'ziq narsa javhar emas, boshqa nimadir, deb tushuntiradi. Cho'ziqlik, uzalganlik uning javharligi nuqtai nazaridan javharning mohiyatini bildirmaydi. Bizning iboramizdag'i "cho'ziqlik", "uzalganlik" xuddi "oq" iborasidagi kabi ma'noga ega va javhar haqida gapirayotganimizda biz mutlaq ma'nodagi javhar haqida gapiramiz, bunda biz uning cho'ziqligi, uzalgani va bo'y, en, qalinligi bor narsaligi haqida gap yuritmaymiz. Javhar o'ziga xos bo'lgan boshqa narsalarga ega. "Uzalgan" va "uzalganlik" tushunchalari jismliy javharning na moddasiga, na uning shakliga xos, modda esa o'z mohiyati bo'yicha jism emas, shakl ham shunday — jism emas, ammo modda va shaklining birlashib uyg'unlashuvi (sintezi) fazoda uzalganlik ko'rinishini paydo qiladi. Ushbu cho'ziqlik, uzalganlik shu birikish — sintezda mavjud, chunki u o'z mavjudiyatida o'z shaklining mavjudiyatiga ergashadi va javharning shakl mavjudiyati tufayli u ya'ni cho'ziqlik, uzalganlik haqiqiy va barkamol javohir bo'lib qoladi. Tabiiy javchirning moddasi (materiyasi) o'ziga xos bo'lgan shakldan xoli emas, shuning uchun javohir qandaydir uzalganliklardan tarkib topgan emas. Uzalganlik, uzunlik, kenglik, qalinliklar esa eng avvalgi (birinchi) orazlar (aksiyadensiya)dir. Ushbu orazlar, tabiiy javharlarda mavjud bo'lgan boshqa orazlarga o'xshab unda paydo bo'lib, o'zgarib, ko'payib yoki kamayib turadilar. Arastu so'ngra, miqyosi bo'yicha benihoya (la-nihoya) fazoda uzalgan, cho'ziq jismiy javhar bormi yoki yo'q ekanligi haqida so'z yuritadi. Va u benihoya fazoda uzalgan jismiy tabiiy javhar

yo'qligini va har bir jismiy tabiiy javhar fazoda cheklanganligini tushuntiradi. Arastu, tabiat narsalarida bo'lgan cheklangan benihoyatlik, tabiat narsalari haqida gap yurituvchilar benihoyalik haqida o'ylaganlaridek ahamiyatdan butunlay boshqa ahamiyatga ega, deb tushuntiradi. Arastu, ushbu ahamiyatni qisqacha ta'riflaydi va uning qandayligi, nimaga taalluqligi haqida aytib o'tadi.

So'ngra u harakat darajasini, rutbasi (kategoriya)ni, u qanday namoyon bo'lishini va mohiyatini tahlil etadi. Harakat, uning benihoyaligini ko'rsatuvchi mohiyatga egalik uchun, harakat, fazo va vaqt ichida bir narsadan boshqa narsaga o'tganligi uchun, harakat jismiy javharning orazi bo'lib, harakatlantiruvchi sababga ega bo'lganligi uchun uni tadqiq etishga zarurat bo'ladi. Shu qatori harakat bilan birga uning mohiyatining tartibi bilan, hamda uning o'zi nimadan iboratligi, nima uchun kerak va u qanday, uning mavjudiyati qanday ekanligini va nihoyat uning mohiyat hosilalarini aniqlash zarur. Ushbu ko'pdan-ko'p sharoitlar hosilalarining har birini harakat o'z ichiga olgani uchun, bu sharoitlarning har qaysisiga harakat xos va harakatlantiruvchi jismlarga harakat hosilalari sharoitlari xos bo'lganligi uchun, Arastu yuqorida sanab o'tilgan har bir sharoitni harakat o'z ichiga olganligini va sharoitlardan har biri harakatga xosligini tadqiq etadi.

Buning uchun Arastu makon rutbasini (kategoriyasini) tahlil etadi, makon o'zi nima ekanligi haqida fikr yuritadi. Makon mohiyatiga xos bo'lgan narsalarning ta'rifini keltiradi va jismning makoni bo'laturib qandaydir orazga ega bo'lishiga zarurat bo'lgan holda jism uchun makon zarurmi, yo'qmi, shularni ko'rib chiqadi.

Arastu, harakatlantiruvchi sabab, harakatning bo'shliqqa bo'lgan ehtiyojining oqibatimi yoki yo'qmi, degan masalani tahlil qiladi. Va uning (harakatlantiruvchi sababning) na uyg'otuvchi sababga, na vakuumning yo'qligiga, na har qanday tabiiy vasilalar majmuasiga ehtiyoji buning ustiga bo'shliqdagi — na javharga va na orazga ehtiyoji yo'q deb

ta'kidlaydi. U, mutlaq bo'shliqning yo'qligini chuqur bo'lmasa-da, tushuntirib beradi.

So'ngra Arastu "vaqt" rutbasi nimaligini tushuntiradi va tabiatdagi mavjud narsalar va harakat, vaqt va fazoning borligiga muhtojmi degan masalani ko'rib chiqadi. Arastu harakat va sharoitlarga tegishli asos va qonunlarni bayon etadi.

So'ngra u, jismlarda mavjud bo'lgan va ularning harakati va bu harakatning boshlanishiga zarur bo'lgan behisob sabablar haqida so'z yuritadi. Bir-birlariga tegib turuvchi va yonma-yon turuvchi boshqa jismlardan harakatlanadigan mutaharrik jismlar bo'lishi kerak, ular esa o'z navbatida boshqa jismlardan harakatlanadilar va hakazo. Bunday holatda bir jismning boshqasiga nisbatan harakati o'zaro yaqinlashgan va yondoshgan, bir harakat ikkinchisidan kelib chiquvchi va umuman olganda benihoyat bo'ladi.

Arastu, tabiiy jism o'z tabiatiga ko'ra boshqa bir jismni qanday qilib harakatga keltirishini va harakatdagi oldingi jismdan harakatga kelgan jismlar o'z navbatida boshqalarini qanday harakatga keltirishini ko'rsatadi. Bunda harakat shakli faqat mexanik (al-hayal) harakat bo'lib, boshqacha bo'lishi mumkin emas. Atrofdagi boshqa jismlarni harakatga keltiruvchi ushbu harakat to'g'ri chiziqli bo'lmay, balki aylanma harakatdir. Boshqa bir jism orqali harakatga keltirilgan jism o'sha jismning harakat ta'siridan tashqari bo'lmaydi. Arastu, ushbu jism mutlaq miqdorga ega bo'lishi mumkin emas, deb tushuntiradi. Demak, barcha tabiiy jismlarni harakatga keltiruvchi boshlang'ich jism bo'lishi zarur va yana o'sha jismdan harakatni qabul qilib boshqa hamma jismlarni aylanma harakatga keltiruvchi boshqa bir jism bo'lishi kerak.

So'ngra u aylanma harakatlanuvchi jism haqida so'z yuritadi, o'sha jism o'z-o'zicha harakatlanadimi yoki uni harakatlantiruvchi sabab bormi? Va uni harakat manbai bor bo'lishi kerakligini tushuntiradi. Arastu tabiatan aylanma harakat qiluvchi jismlar harakatlarining asoslarini ko'rsatadi, ular jismlarmi yoki jism emasmi, ular modda va jismlari (tanalari) bo'limgan jismsiz mohiyatmi yoki yo'qmi, degan masalani oydinlashtiradi.

BESHINCHI BO'LIM

Arastu bularning hammasini diqqat bilan o'rganib chiqqandan so'ng aylanma harakatning eng chetida turuvchi jismlar, mavjud narsalarning qandaydir mohiyati ekanliklari va hech vaqt u mohiyat na tabiat hodisasi, na jism bo'lishi mumkin emasligi, u na jismda va na moddada bo'lishi mumkin emasligi unga ravshan bo'ladi. Ularni, tabiiy narsalarga nisbatan qo'llaniladiganga o'xshash usulda tadqiq etmay, balki butunlay boshqacha uslub bilan tadqiq etish kerak bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganlar, Arastu tabiat haqidagi fanga mansub degan asoslarning majmuasini tashkil etadi. Ular haqida Arastu "Fizik garmoniya" nomli kitobida so'z yuritgan.

U o'zining "Fizik garmoniya" kitobida batafsil yoritgan mavzuni yana boshqa bir kitobida ham davom ettiradi. Bu kitobni u, zarurat nuqtai nazaridan, shunday bir jism bo'lishi kerakki, u jism o'z atrofida turuvchi, boshqa jismlarni harakatga keltirishi zarur, degan fikr bilan boshlaydi. Ammo bu jismlar mutlaq bo'shliqda emaslar. Yana ushbu jism boshqa yondosh jismlarga tutashishi va tegib turishi kerak, chunki ular orasida hech vaqt bo'shliq yo'q. Bir-biriga yaqin va yondosh jismlarni o'z ichiga olgan majmuani Arastu "koinot", deb ataydi.

Arastu, koinot o'rab olgan ushbu jismlar majmuasi ichra koinotni tashkil etuvchi eng birinchi jismlar bo'lmish jismlar bormi yoki yo'q ekanligini, hamda ular koinotning eng birinchi bo'laklari bo'lsalar va olamni yo'q qilib yoki inkor etib yuborish uchun ulardan biror bo'lagini bartaraf etilganda koinot yo'q bo'lib ketadimi, degan murakkab masalani o'rganadi. Va u, koinotni tashkil etuvchi eng birinchi jismlar bor va ular koinotni tashkil etuvchi qismlar bo'lgan birinchi mavjudiyatlardir, deb tushuntiradi.

OLTINCHI BO'LIM

Arastu, koinotni eng avvalidan tashkil etuvchi birinchi jismlarning ba'zi sifatlarini bayon etadi. Ushbu jismlar majmuasida boshqa hamma jismlarga aylanma harakat beruvchi jism bo'lgani uchun zaruriy ravishda ikki makon bo'lishi kerak,

ular: o'rtadagi, markazdagi makon va markazning atrofini qurshagan makon. Shu bilan birga mexanik harakat, tufayli harakatlanuvchi jismlar bo'lishi zarur ularning uchta eng oddiy xili bor: aylana bo'ylab harakat o'rtaga (markazga) intiluvchi harakat va o'rtadan (markazdan) chetga tomon harakat. Harakatning bu uch xili yondoshishning turli xillari bo'ladi, chunki ularning orasida hech qanday bo'shliq yo'q.

Arastu o'rtadan (markazdan) chetga tomon harakatni ko'rib chiqadi. U harakat miqdori jihatidan bittami, yoki ko'proqmi? Va bu harakat uch turli deb tushuntiradi. Bu harakatlarning har birini ayrim ta'riflaydi, har bir xilning mohiyati va ularga xos bo'lgan mohiyatiy orazlarni tushuntiradi. Arastu harakatning bu xillarini o'rganib, ularning o'zi qandayligini, nimadan va nima uchun bo'lishlarini ko'rib chiqadi. U, ushbu harakatlar oddiy jismlarga xosligini tushuntiradi. Koinotni tashkil etgan ushbu jismlar bir qanchadir. U, ushbu jismlarning koinotdagi joylashishlari, hamda bir-birlariga nisbatan holatlari va tartibini aniqlaydi. Yana ularning har bir qismini va ushbu qismlarning joylashish tartiblarini ta'riflaydi. Oddiy qismlardan biri "birinchi jism"dir va u, umumiy moddaga ega va shakl ila farqlanuvchi boshqa to'rt jism tuproq, olov, havo va suvdan farqlanadi. "Birinchi jism", boshqa to'rtta jismdan ham modda, ham shakl jihatidan farqlanadi. Ushbu to'rtta oddiy jismlar, birinchi jismdan quyida turuvchi boshqa jismlarni yaratuvchi unsurlar (elementlar)dir. Ushbu unsurlarning birlari boshqalaridan, unsurlarning o'zlaridan oddiyroq qimslardan yaratiladilar, ammo "birinchi jism" dan paydo bo'lmaydilar.

Bular haqida uning "Kitob al-samo va al-olam" asaridan ma'lumot olsa bo'ladi. Arastu "Kitob al-samo va al-olam"ning oxirida bayon etgan mavzuni, boshqa bir risolasida davom ettiradi. Bu asarda o'z-o'zlaricha paydo bo'lgan ushbu to'rt unsur, birlari boshqalaridan yaratiladilar, deb yozadi. Yana, uning yozishicha, ergashish uslubi bo'yicha bir javharning moddasi, boshqa javharning ham o'sha moddasi bo'ladi, deb tushuntiradi. Darhaqiqat, har bir unsur boshqa unsur orqali yaratiladi, boshqa yaratiluvchi jismlar esa, ushbu unsurlardan yaratiladilar. Unsurlar asoslar va kuchlarga egadirlar va ular

tufayli unsurlar bir-birlaridan paydo bo'ladilar, hamda o'zlarini uchun o'zga jismlarni yaratadilar. Paydo bo'lish va fasodga kelsak, ular haqida bunday fikr bildirilgan: bir holat boshqa holatga o'tadi, paydo bo'lish-rivojlanish, fasod (barbod bo'lish) – inkorni bildiradi. Paydo bo'lish – al-kavn nimaligi ravshan ekan, demak, bir jismning boshqasidan paydo bo'lishi, biri boshqasining ta'siriga uchrashi, biri boshqasiga ta'sir etishi uchun ular bir-birlariga tegib turishlari kerak. Buning uchun avvalo paydo bo'lish va fasod jarayonini o'rganish zarur bo'ladi, ularning o'zi nimadan iborat, qanday va nimada mavjud ekanliklarini bilish kerak. Yana, paydo bo'lish va fasod oddiy birlashishdan yoki ajralishdan iborat emasliklarini, bir holatdan boshqa holatga o'tish, na paydo bo'lish va na fasod emasligini ko'rsatish kerak bo'ladi.

So'ngra Arastu, sifatlari ta'sir etish va ta'sirlanish (harakatlantirish va harakatlanish)dan iborat jismlarning talomusini (bir-birlariga tegib turishlarini) ko'rib chiqadi. U yana, biri boshqasiga ta'sir o'tkazuvchi va boshqasi o'zi ta'sirlanuvchi jismlarning xislatlarini ko'rib chiqadi.

So'ngra u, ta'sir (harakat) nima va ta'sirlanish (harakatlanish-boshqa bir kuch ta'sirida) nima ekanligini, ular ushbu tuyg'u ila idrok etiluvchi sifatlarda bo'lishlарini tahlil etadi, bu qanday ro'y berishini tushuntiradi.

Arastu yana birikish (sintez), qorishish va boshqa tabiiy jismlar mavjudligi sababi bo'lmish to'rt unsurning qo'shilishi natijasini tahlil etadi.

ETTINCHI BO'LIM

Bularni ko'rib chiqqach, Arastu o'sha to'rt (tuproq, olov, havo va suv) jismning tahliliga o'tadi. Bu unsurlar qanday xislatga ega, ularga qanday mazmun singdirilgan, ularda shunday bo'lishlariga yordam beruvchi asos va kuchlar bormi, ular o'z mohiyatlariga ko'ra unsurmlilar yoki tabiiy sabablar tufaylimi, ular birinchi eng oddiy jismlarmi yoki ulardan avval boshqa zarralar bormi, ularga ularni benihoya etuvchi kuchlar hamroh bo'ladi yoki ular niroyali (cheagaralangan)mi. Bu yerda Arastu, avvalgi aytib

o'tganlardan farqli ravishda unsurlarni benihoya deb hisoblab bo'lmaydi, deydi. Avvalida o'z tadqiqotlarida u, har qaysi ayrim olingan unsur fazoda benihoyami yoki chegaralanganmi, koinotni tashkil etgan birinchi jismlar benihoya ko'p miqdordami yoki yo'qmi, degan masalalarni qo'ygan edi. Endigi tadqiqotlar esa ushbu masalalarni yoritish uchun olib borilgan: ular (ya'ni unsurlar) qandaydir yo'l bilan o'sha unsurlarni benihoya ko'p unsurlar bo'lishlariga yordam beruvchi kuchga ega bo'ladilarmi, yo'qmi, unsurlar abadiymi yoki ular ham paydo bo'lib yana barbod bo'ladimi?

Ular abadiy (boqiy) bo'lolmaydilar, chunki havo, suv, tuproq va olov bo'linadilar, birlari boshqasiga aylanadilar va balki har bir unsur har bir boshqasida mavjuddir. Misol tariqasida havoni olaylik, chunki u to'rt unsurning biridir. Unga qandaydir bilquvvat (potensial) imkoniyat hamroh bo'lishi mumkin. Shu bilquvvat imkoniyat tufayli u unsur bo'lib qolishi mumkin va unga ham o'z navbatida uni unsurlarga ajratib yuboruvchi o'zga bir kuch hamroh bo'lishi mumkin. Bu hol ushbu vaqtida ro'y berishi mumkin: yo suv benihoyat ko'p qismlarga (bo'laklarga) bo'linib ketadi yoki suvning har bir qismi – bo'lagida shunday kuchlar borki, ular tufayli suv, shu har bir kuchga ega bo'lgan unsur bo'la oladi. Arastu bularning hammasi boqiy bo'lishi mumkin emas, chunki unsurlar soni benihoya emas va unsurlar mavjudligini ta'minlovchi sabablar mutlaq boqiy bo'lib qololmaydilar, deb tushuntiradi.

Arastu bilquvvat imkoniyatlar bor, ular tufayli bir jismlar boshqalariga ta'sir o'tkazadilar, birlari boshqalaridan ta'sirlanadilar, deb tushuntiradi. Chunki har bir paydo bo'ladigan jismning paydo bo'lishi avvalo jismning ba'zi tuyg'u bilan idrok etiladigan sifatlariga ta'siri sabab bo'ladi. Natijada jism javhari va yuqorida aytilganidek, jismlar ushbu to'rt jism unsur bo'lishlariga sahab bo'lувчи shu sifatlar, sifatlardan ta'sirlanishlari uchun zaruriy sabab bo'ladi, deb tushuntiradi.

So'ngra Arastu, har bir ayrim unsur boshqasidan paydo bo'ladimi yoki uchta unsur bittasidan paydo bo'ladimi, degan masalani ko'rib chiqadi. U, bir unsurning boshqasidan paydo

bo'lishini va bu hol qanday ro'y berishini bayon qiladi. Keyin Arastu boshqa jismlarning paydo bo'lishlarini tahlil qiladi: ular qanday paydo bo'ladilar, qanday aralashadilar, birikish jarayoni qanday kechadi, yangi jismlar qaysi jarayon natijasida paydo bo'ladilar degan savollarga javob beradi.

SAKKIZINCHI BO'LIM

Bu masalani nihoyasiga yetkazib Arastu, bir xil jismlar boshqalariga ta'sir o'tkaza boshlashlari, ikkinchilari esa ta'sirlana boshlashlarining boisi bo'lmish o'sha sabablar va asoslar yetarlimi, yo'qmi degan masalani tadqiq eta boshlaydi. Har bir narsa ham imkoniy, ham haqiqatan mavjud bo'lganligidan, ularning har biri harakatlantiruvchi (ta'sir o'tkazuvchi) va harakat ta'sirini o'zida sezuvchi (ta'sirlanuvchi) bo'lishi mumkin. U, bir-birlariga nisbatan joylashgan jismlar koinotga xos birinchi imkoniyatni, kuchni tashkil etishlari uchun, bir (xil) jismlardan boshqalari paydo bo'lishlari uchun ushbu holat yetarlimi, yo'qmi yoki ular boshqa kuchlar yordamida bir-birlariga yaqinlashishlari uchun, bir-birlari bilan qo'shilishlari uchun ko'maklashuvchi va ulardan yangi jism paydo bo'lishiga asoslar beruvchi biron-bir tashqi ta'sir etuvchi kuchga muhtojmilar degan holatlarni bayon qiladi. U, na yuqorida aytib o'tilgan narsalar, na ularning asosları, na ularning javharlari, na boshqa xislatlari buning uchun (ya'ni, yangi jismlar paydo bo'lishi uchun, birlaridan boshqalari paydo bo'lishlari uchun-deyilmoxchiga o'xshaydi) yetarli emas, buning uchun qandaydir boshqa tashqi ta'sir etuvchi sabab bo'lishi zarur, deb tushuntiradi.

Shu bilan birga Arastu ta'sir etuvchi harakatdagi kuchlarning asoslarini tahlil etadi. Bu kuchlar yordamida bir xil jismlar boshqalariga ta'sir etadilar va ularning birlashishlari uchun ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Shu qatori Arastu, moddalarni, hamda ular tufayli paydo bo'lувчи va barbob bo'lувчи jismlarni tekshiradi qaysi asoslar umumiyligini va unsurlardagi mohiyatlar qanday ekanligini tadqiq etadi.

U, ushbu paydo bo'lувчи va barbob etiluvchi jismlar sifatlari tomonidan belgilanuvchi maqsad va orazni tahlil etadi.

U yana, bir jismlar boshqalari tomonidan yaratilishlarining, qaytarilishlarining va paydo bo‘luchchi jismlar tanovab (navbat bilan o‘rin almashtirish) qoidasi bo‘yicha muttasil almashinib turishlarining sabablarini bayon etadi.

So‘ngra Arastu, butunlay halok bo‘luchchi va paydo bo‘luchchi biror narsa bormi yoki aslida bunday bo‘lmaydimi va doimo nimadir nimadandir paydo bo‘lib turadimi, degan muammoni ko‘rib chiqadi. Shu munosabat bilan u barbod bo‘lishga mahkum narsalarni tadqiq etadi: bu narsalar yana qayta tiklanadilarmi va ular shundan keyin avvalgi hollarida mavjud bo‘ladilarmi yoki ular mohiyatsizlikka aylanib hech narsa saqlanib qolmaydimi? Mohiyatsizlik esa-yo‘qlik demakdir. Yoki ulardan nimadir qayta tiklanib, nimadir yo‘q bo‘ladimi? Agar biror narsa qayta tiklansa, u holda qay darajada tiklanadi va necha marta, paydo bo‘luchchi va fasod narsa benihoya ravishda qayta tiklanadimi yoki bu jarayonning haddi chegarasi bormi?

Bularning hammasi haqida uning “Kitob fil kavn val-fasod” risolasida yozilgan.

So‘ngra Arastu, unsurlarni tadqiq etadi. Chunki ularga muhimmona xos o‘z mohiyatlari va unsurlarning shunday bo‘lishlari boisi bo‘lmish kuchlar bo‘yicha ular bir-birlariga ziddirlar. Ulardan bir xillari boshqalariga ta’sir (harakat) o’tkazib, yana o‘zgalari uchinchilaridan ta’sirlanib bir-birlariga tegadilar, aralashadilar, barbod bo‘ladilar, yangilari paydo bo‘ladi. Shuning uchun, haddiga yetayotgan yoki yetib bo‘lgan unsurlardan har birida, ularga mohiyat beruvchi qandaydir barkamollik bo‘lishi uchun, mohiyat kamolati, unda zaruriydan ortiqcha bo‘lmasligi zarur. Shunga o‘xshab, unsur mavjudiyatining boisi bo‘lmish sabab, eng so‘nggi hududiy mezonga ega, chunki ortiqcha ziyodalik har qanday barkamollikni buzadi.

Kamolat va kuchida kichraya borib unsur, uning mohiyatiga xos eng kichkina miqdorga (hajmga) ega bo‘ladi, kamaya borib esa, ushbu unsurning mohiyati eng adno (minimal) miqdorda boshqa unsurning mohiyati bo‘lib qoladi. Bu mohiyat boshqa unsurning mohiyati bo‘lishi mumkin. Unsuming mohiyati eng kam miqdorga ega bo‘lsagina shunday hol yuz berishi mumkin. Bu ikki uslubda ro‘y beradi. Ularning biri bo‘yicha qabul

etuvchi modda, tashqaridagi zid mohiyatdan mohiyati allaqachon nimanidir qabul qilgan unsurda bo‘ladi. Ammo, u nimadir (narsa) tashqi ta’sir (ta’sir etuvchi harakat) emas va shu bilan birga teng ravishda mohiyati zid ushbu unsurda mavjud bo‘lgan (ta’sir) kuch, harakat bo‘lib ham qolaveradi va nihoyat u nimadir narsa o‘ziga zid unsurning haddini chegaralab turuvchi bo‘ladi, lekin buning uchun avval u o‘z haddini chegaralagan bo‘lishi zarur. Bu holat, zid mohiyatdan oldinroq nimanidir qabul etgani uchun ro‘y bermaydi. Arastu bu holni - haddi bo‘lmagan narsadagi kuchlar tufayli ro‘y beradimi yo‘qmi ko‘rib chiqadi.

Arastu, unsurlar bir-birlariga qaysi usul ila yondoshishlarini har bir ayrim unsurning tashkiliy qismlari boshqalariga singib, sochilib ketgan juda ham ko‘p kichkina mayda qismlarmi yoki jismlar majmuasi, boshqa jism makoni bo‘lmagan makon bilan farqlanib turadimi, degan masalani yoritadi. Markazga joylashgan va to‘rt jismdan biri bo‘lmish jism, agar uning qismlarida (bo‘laklarida) boshqa jismning bo‘laklari bo‘lmasa, erkin jism bo‘ladi. Koinotning (Olamning) yuqori qismidagi jism ham markazdagi (o‘rtadagi) jismga o‘xshagan holatda bo‘ladi (ya’ni uning erkinlik shartlari ham o‘shandy deyilmoqchiga o‘xshaydi). Shunday qilib, fazoviy jismlarga tegib turgan jism qandaydir bir unsur bo‘lib qoladi, unga yaqinlashgan, yondosh va undan pastda joylashgan jism esa, qandaydir boshqa bir unsur bo‘ladi. Agarda bu holat mumkin bo‘ladigan bo‘lsa, u holda zaruriy ravishda, har bir ayrim jismning qismlari har bir ayrim boshqa jismning qismlarida, birlarining qismlari esa, boshqalarining qismlarida bo‘lishlari kerak bo‘ladi. Arastu buni ikki usulda ro‘y beradi, deb ta‘kidlaydi.

Arastu, fazoviy jismlarga talomis (tegib turuvchi) jismning holati qanday bo‘lishi kerakligini tushuntiradi. Uning bayonicha, bu holat o‘z mohiyati bo‘yicha ancha erkinroq va o‘z mohiyatining hamda o‘z kuchining (ortiqchaligiga) ancha yaqinroq bo‘lishi kerak, u o‘zi bilan aralashuvni jismlarga qaraganda ancha past yoki ancha yuqori harorat va quruqlikka (kam namlikka) ega bo‘lmog‘i zarur.

So'ngra, unga tolmis unsur, mohiyat tomonidan zid va kuch jihatidan bo'shroq bo'lish uchun unga qaraganda kamroq mohiyat va kuchga ega bo'lmog'i kerak bo'ladi. Markazga yaqin bo'lgan barcha jismlar eng kam darajadagi kuch va mohiyatga ega bo'lishlari zarur, - faqat shunday kuchki, bu kuch vositasida unsur, unsur bo'la olsin xalos va faqat shunday mohiyatki u mohiyat vositasida unsur, javharlasha olsin.

Yana, markazdagi boshqa bir unsurga intilayotgan unsurning harakatchanlik qobiliyati va boshqa unsur bilan aralashish qobiliyati yana kuchliroq bo'lmog'i zarurdir. Boshqa uchta u bilan aralashgan unsurlar aralashishni behad ko'p xillaridan iborat bo'ladi. Arastu bularga sabab ta'sir o'tkazuvchi (harakatlanuvchi) sabab bo'lmish fazoviy jismlar ularning moddalari va ularga xos bo'lgan narsalardan kelib chiqadi deb aytadi.

So'ngra, u ushbu unsurlarni nom qo'yib belgilash zarur, deydi. Chunki, ular qandaydir yo'l bilan o'z ziddiyatlari bilan aralashishdan emas, ayrim va erkin mohiyatlarga egadirlar. Chunki ular (unsurlar) unsur bo'lishlarining boisi bo'lmish zaruriy mohiyatlarga egadirlar. U ularni belgilash uchun ularga yangi nom bermaydi, balki shu unsurlarning boshqa unsurlar bilan aralashuvlari (muxtalit) natijasida olingan jismlarning nomlarini saqlab qoladi. Shuning uchun u unsurlarning nomlari ma'lum bo'lgan xillarini ko'rib chiqadi. Masalan, mexanik harakat xillaridan qaysi biri, qandaydir bir unsurning xuddi shunday harakati bo'lmog'i uchun eng yaqin turadi yoki tuyg'u bilan idrok etiluvchi qaysi sifatlarning qaysi xili biron-bir unsurda mavjud bo'lgan sifatlar bo'lib qolishga yaqinroq turadi? Unsurlarning bir xillarining nomini Arastu shu unsurlar majmuasining nomiga ko'chiradi.

Fazoviy jismlarga tutashuvchi jismni u "olov" deb ataydi va bu olov, bizda bor bo'lgan olov emasligini tushuntiradi, chunki xalq nazarida olov, alanga va yonayotgan cho'g'ma nosinigina kasb etadi.

Madomiki alanganing harakati, alanga to havoni qamrab olgunga qadar, havoning yonishining boisi bo'lmish harakatning qandaydir xislatini kasb etar ekan, boshqa unsurlarni aylanib o'tib va fazoviy jismlarning bironta egma

sathiga tutashuvchi jismni “alanga” deb ataydilar. Alangasi bo’lman (alangadan mahrum bo’lgan) jismni “havo”, havosi bo’lman jismni “suv”, markazda turgan jismni esa “yer”, deb ataydilar. Unda barcha unsurlar mujassam bo’lganlar va bu kuzatuv va tajribalar orqali tasdiqlanadi.

Unsurlarning aralashuvlari turli xillarda sodir bo’ladi: tuproq boshqa unsurlar bilan ikki xil aralashadi, suv ham tuproq va havo bilan shu yo’sinda aralashadi. Olov bilan aralashish qanday o’tgani esa sezilmaydi. Havo suv ketidan, olov ular ketidan ergashadi. Bularni Arastu chuqur tahlil etadi.

So’ngra Asartu, barcha qorishmalardan birinchisini tahlil etadi. Bunda aralashuvchi unsurlardan biri o’z mohiyatini yo’qotmaydi. Arastu qorishmalarning xillarini ko’rib chiqadi. Qorishmalar deyarli benihoya bo’lganlarida, ularga nomlar ham, ularni bir-birlaridan aniq ajratadigan narsa ham yetishmay qoladi. Faqat bir-birlaridan ozginagini farq etishlari mumkin, bug’, tutun, alanga va hokazo kabi.

TO’QQIZINCHI BO’LIM

Ko’p qorishmalar nom olishlariga zarurat paydo bo’lganidan keyin Arastu har bir ayrim qorishmani, unsurlarning mohiyatini eng yaxshi aks ettiruvchi nom bilan atashga majbur bo’ladi. Havoning mohiyatini “havoli” nomi, olovni “olovli”, tuproqni “tuproqli”, suvni “suvli” so’zi eng yaxshi aks ettiradi. Uлarni Arastu turli sinflarga ajratadi: ba’zilarini u mexanik harakat bo’yicha boshqalarini tuyg’u orqali idrok etiluvchi sifatlar bo’yicha aniqlaydi, agarda ikki unsurdan iborat qorishma uchrasa, u holda uning nomida ham ikki tashkil etuvchi aks etadi, masalan: “tuproqli-suvli” va hokazo.

U asosiy sifatlar va bu to’rt unsurda ro’y bergan uncha ahamiyatli bo’lman sifat infiolini (o’zgarishini) tahlil etadi va boshqa jismlar ta’siriga uchragan jismlar olgan mohiyatlar va moddalar haqida so’z yuritadi. Ularga ta’sir etuvchi asosiy sabablarni aniqlaydi, fazoviy jismlarga tutashuvchi unsurlarda ulardan (shu sabablardan deyilmoqchi) qaysi birlari borligini,

ulardan qaysi birlari havoda, suvda va tuproqda mavjudligini aniqlaydi.

So'ngra u, unsurlarni tadqiq etadi. Mavjudiyat kamolot kashf etishiga zarur bo'lgan narsa bo'lmog'i uchun unsurlarning mavjudiyati o'z-o'zi uchungina kerakmi, degan masalani ko'rib chiqadi. Ular yo ularning o'zidan boshqa paydo bo'luvchi narsalar kelib chiqishi uchun yaratilganlar. Yoki vujudning yaxlitlikka qo'shimcha bo'la oladigan qismlaridan biri uchun doimo mavjud biror narsa bo'lish uchun va yana unsurlar aralashishi tusayli birin-ketin paydo bo'luvchi jismarni yaratishlari uchun yaratilganlar.

U yana, ushbu unsurlardagi xislatlarni ham ko'rib chiqadi: ular biror asosiy maqsad uchun yaratilganmilar yoki ular qandaydir boshqa maqsad uchun yaratilgan narsalarga bog'liq va ular uchun zarurmilar, yoki ular maqsadga xos bo'limgan butunlay ortiqcha xususiyatmi va ulardagi ziyodalik qo'lda ortiqcha barmoqning borligi, yetishmaslik esa — yetishmagan barmoqni eslatadimi?

Bular borasida uning "Fazoviy ramzlar" risolasining uchta maxsus bobida yozilgan.

So'ngra Arastu, ushbu to'rt unsurning aralashishi natijasida bir-biridan tashkil topuvchi jismlarni ko'rib chiqadi. Aralashish natijasida hosil bo'luvchi jism ikki xil bo'ladi: *bir* xili o'xhash jismlar bilan, boshqasi — farqlanuvchi jismlar bilan hosil bo'lish. Farqlanuvchi qismlardan iborat xili, birlari boshqalariga o'xhash, jismlarning qorishishi natijasida paydo bo'luvchi jismlar qorishma yaratgan paytda bo'ladi. Bu qorishma, eslatilgan jismlardan har bir ayrim jismning mohiyatini saqlab qolgan bo'ladi. Ushbu qorishmaga, bir-biriga tutash va bir-biriga tegib turuvchi jismlar kiradi. Qismlari bir-birlariga o'xhash jismlarga kelsak, har bir ayrim qismining mohiyati saqlanib qolmaydigan aralashuv natijasida hosil bo'ladi. Bu aralashma, bir jismlar harakatni yaratganlari (ta'sir o'tkazganlari), boshqalari esa harakat ta'siriga uchraganlari (ta'sirlanganlari) natijasida ro'y beradi.

Qismlari o'xhash jismlar ikki xildir: birida asosiy xususiyatga ega unsurlarning bir qismi ko'proq bo'ladi, bu hol ma'lum bir jins va xilning saqlanishi uchun zarur. Boshqa

bir xilliga esa sobiq (oldingi) narsadan juda kam xislatga ega bo'lgan jismlar kiradi, ular yangi jismlarning paydo bo'lishi uchun zarurdir.

Arastu avvalan, unsurlardan qismlari o'xshash jismlar paydo bo'lishini tadqiq etadi va ushbu masalalarni ko'rib chiqadi: bu qanday ro'y beradi, unsurning unsur ila qo'shilishi qanday kechadi., qo'shilgan unsurlardan qaysi biri ta'sir o'tkazuvchi-harakatdagi sabab (fo'il) vazifasini o'taydi, qaysi kuch vositasida unsurlarning qanchadir qismi hayuliy — birinchi modda vazifasini o'taydi? Qanday kuch tufayli unsurlarning qanchadir qismi juz'i fo'il bo'lib qoladi, yangi jismlarning paydo bo'lishi qanday xislatlarning aralashuvi natijasida ro'y beradi, Arastu xuddi shu tartibda yo'qolib ketish masalasini ko'rib chiqadi. Jismlarning paydo bo'lishida va yo'qolishida o'zgarishlarning qancha xillari bo'lishini va bu qaysi makonda ro'y berishini tushuntiradi. Uning fikricha, bu makon (joy) o'italik bo'lishi zarur, o'rtalik esa yerga, uning sathi va bag'riga tutash.

So'ngra Arastu, his etiluvchi sifatlarning tasnifiga o'tadi. Bu sifatlarning xislatlari shundan iboratki, ular qismlari (juz'i) o'xshash jismlarda va birinchi kuchlarga bo'ysungan aralash qismlarda bo'ladilar. Bu kuchlar vositasida bir unsurlar harakat paydo etadilar, boshqalari harakatlanadilar, uchinchilari harakat ta'siriga uchraydilar ya'ni harakatni qabul etadilar (ta'sirlanadilar). Bularning hammasi unsurlarning aralashuvlari va bir-birlariga o'tishlari sababli ro'y beradi. U, his etiluvchi sifatlarni ko'rib chiqadi. Bu sifatlarning aralash jismdagi mayjudligi unsurlarda bir bo'lgan harkatdagi kuchlarga bo'ysunadi. Bu kuchlarga esa, jismlarning loqayd (passiv-harakat ta'siriga uchraguvchi) bo'lib qolishlariga rag'bat beruvchi kuchlar ko'mak beradilar.

So'ngra Arastu, boshqa sezgi a'zolari ila his etiladigan o'zga sifat va qismlarni tadqiq etadi. Lekin, ba'zi unsurlar boshqalariga ta'sir etishlariga vosita bo'luvchi kuchlar o'xshash bo'lishlari uchun ular yetarli emas, degan ko'pgina fikrlar mavjuddir. Ya'ni, tashqi kuchlardan kelib chiquvchi yoki bilquvvat mayjud bo'lgan boshqa qandaydir kuchlarga ehtiyoj seziladi. Shuning uchun, bu holatlarni o'rganish tabiat

haqidagi fanning (fizika) boshqa bo'limiga taalluqli deb hisoblaydilar. Fizikaning bu bo'limi basariy (ko'rish), samo'iy (eshitish) va boshqa his-tuyg'u a'zolarining mavzuiga taalluqli narsalarni tadtiq etadi, negaki, mavjud ranglar muhrlanib, qolishiga muxtojdirlar, tuyg'ular ila idrok etiluvchi narsalar, shu qatori his etiluvchi narsalar ham, shularga o'xshash kuchlarga muhtojdir.

Bularning hammasi yuqorida aytib o'tilgan "Fazoviy ramzlar" kitobida o'z ifodasini topgan.

So'ngra Arastu, jinsdosh narsalardan paydo bo'lgan, o'xshash qismlarga ega jismlarni ko'rib chiqadi. Ularga toshlar, hamda toshlar bilan jinsdosh toshli jismlar kiradi.

Arastu, yer (tuproq) qismlari, bu qismlarning xillari va ularning holatlarini, hamda mavjud bug'lanishlarning navlariga batafsil to'xtaladi. U, qaysinisi olovli, qaysinisi — havoli, qaysinisi esa — suvli ekanligining farqini ko'rsatadi va ulardan nimalar yerdagi (tuproqdag'i) beqiyos ko'p narsalar bilan allaqachon aralashib bo'lganini aytib o'tadi.

U, issiq bug'lanishlarni ko'rib chiqadi. Ushbu bug'lanishlarning ba'zi qismlari quruqlikka, ba'zilari namlikka, bir qismi ancha toza va nozik, boshqasi ancha tutunli bo'lishga moyil. Bug'lanish go'yoki tabiiy harorat bilan birlashadigan (narsa) bo'lib, u tufayli yer ostidagi va ustidagi jismlarning balog'ati mavjuddir. Bu jismlar suv va tuproqlarning yoki namlik va quruqlikning qorishmasidan iboratdir. Va ular o'zlariga ta'sirni qabul etuvchi moddalardir chunki, ularga harorat, va sovuqlik ta'sir o'tkazgan, o'z navbvtida bular harorat, sovuqlikka o'xshash qismlarga ega bo'lgan jismlarning, foillari ta'sir o'tkazuvchi sabablaridir. U yer osti bug'lanishlari paydo bo'lishining birinchi sababları avvalan fazoviy jismlardir, so'ngra bunga, fazoviy jismlar orqali isiydigan, yerga tutash havo imkoniyat yaratadi, deb tushuntiradi.

So'ngra Arastu, yerdagi aralashgan unsurlarning ayrim qismlari yer ostida va ustida bo'lgan tosh va ma'dan jismlarni tuzuvchi navlarni tushuntirishga o'tadi. Arastu tushunchakategoriyalarning tasnifini tuzishga hamda shu navlarning keyingi shahobchalarini aniqlashga harakat qiladi. Agar ular

o'zaro farqlansalar u holda har birining ayrim muddasi va shaklining mohiyatini va shu navlardan qaysi biridadir mayjud bo'lgan ularning harakatdagi ta'sir etuvchi asoslarini yoki ular orazlarining mohiyatini ko'rsatib o'tish kerak bo'ladi. Shu qatori yana ushbu navlardan qaysi birinidir yaratilishining boisi bo'l mish maqsadlarini ham ko'rsatib o'tish zarur. Ushbu maqsadlarni aniqlash va koinot majmuasi maqsadini bilmasdan oldin bilish mushkul ish bo'lgani uchun Arastu ushbu maqsadlarni ko'rib chiqishni fanning boshqa bo'limga havola qiladi. Fanning bu bo'lumi koinotdagi eng so'nggi chegaradagi asoslarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Bularning hammasi uning "Ilm al-ma'odin" "Mineralogiya" risolasida bayon etilgan.

Hayvonotni ko'rib chiqquniga qadar u nabotot (o'simliklar)ga to'xtaladi. Bu ishni u his tuyg'u va kuzatish orqali ma'lum bo'lgan narsalarni tasnif etish masalasidan boshlaydi. U navlarni birma-bir sanab o'tadi va sanab o'tilgan har bir navdan ko'rinish turganini tasnif etadi. Shu bilan birga u, bironta navda yoxud har bir navning biron qismida namoyon bo'l mish oraz (aksidensiya) larni tasnif etadi. Shu asnoda u o'ziga ma'lum barcha narsani bayon etgan.

So'ngra Arastu o'simliklarning har qaysi qismi paydo bo'lishining boisi bo'l mish maqsad haqida eslatib o'tadi.

U yana o'simliklarning biron bir xili paydo bo'lishini tahlil etadi va ularning har biriga ular paydo bo'luvchi modda va shu xilning paydo bo'lishiga vasila bo'luvchi fo'il (harakatdagi sabab) xos ekanligini ko'rsatib o'tadi. Shunday qilib u nabotot mohiyatiga taalluqli barcha masalalarini bayon etadi.

So'ngra u hayvonot haqidagi muammolarga to'xtaladi va ularni kuzatuv hamda his-tuyg'u orgali bilish yo'llarini ko'rsatadi. U hayvonlarning xillarini sanab o'tadi va ular haqidagi ma'lum narsalarni tushuntiradi.

O'NINCHI BO'LIM

Hayvonot va nabototning mo'tadil holatlari uchun tabiat va tabiiy asoslar yetarli emas. Bu sabablardan tashqari yana ular boshqa kuchlarga ham muxtojdir toki, hayvonot va

nabototda ushbu asos fitriy (tabiiy) narsalarda mayjud bo'lgan tabiatga o'xhashi zarur bo'ladi. Buni ko'rib chiqqanidan so'ng Arastu, hayvonlarda tabiatdan boshqa narsalardan olgan behad asoslari borligini ko'rsatishga majbur bo'ladi. Bu o'zga asosni Arastu "ruh" (Farobiy "nafs" so'zini ishlataladi), deb ataydi va hayvonning ham o'simlikning ham ruhi bir deb eslatadi. Ruh bilan hamjins asoslarni u "ruhiy asoslar va kuchlar", deb ataydi.

Avvalo Arastu tabiatan hayvonga xos narsani tadqiq qiladi. U, hayvonga xos bo'lgan barcha narsalarga e'tibor beradi. Avvalo u, hayvonlar xillarining shoxobchalarini va hayvonotning tabiatan yaratilushi har bir ayrim xili yaratilishining boisi bo'lmish tabiiy maqsadlar ustida tadqiqot o'tkazadi. U, hayvonotning har bir xilida mohiyatni qabul etuvchi asos bor hamda bu asos-qanday bo'lmashin hayvonotning qandaydir xilini paydo qiluvchi moddadir, deb ta'kidlaydi. U, Fitriy fa'ol asoslar hayvonotning har bir turida bor, deb tushuntiradi va ushbu tur tabiiy javhar bo'lishiga vosita bo'la oladigan sababni, hamda unga (fitriy asosga) tabiatan xos bo'lgan barcha narsa mavjudiyatining boisi bo'lmish maqsadni ko'rsatadi.

Bularning barchasidan Arastu o'zi uchun fitriy jismlar ikki xilga bo'linishlarini aniqlab oladi. Birinchi xili eng so'nggi nuqtaga yetgani bo'lib, uning vositasida shu xil mohiyat kasb etadi. Bu – har bir ayrim tabiiy javharning mohiyati bo'lmish tabiatning o'zidir. Ikkinci xili – aslida tabiatning o'zi bo'lgan javhari moddani tayyorlash, bilquvvat imkoniyat yoki boshqa bir asosga quroq bo'lmog'i uchun tabiatan mohiyat kasb etganidir. Ushbu xil (fitriy jismlar)ning, bir vaqtning o'zida shakl ham bo'lgan tabiatga, o'z moddasiga yoxud uning quroli bo'lmish kuchlariga nisbati, bir asos bo'lib, u- "ruh"dir.

O'N BIRINCHI BO'LIM

Shu munosabat bilan Arastu "ruh"ni tadqiq etishga, ruh o'zi nimaligini bilishga, tabiatni tadqiq etganidagi kabi zarurat sezadi. U, ruhiy kuchlar va ruhdan paydo bo'luvchi harakatlar holatini tariflaydi. So'ngra u ruh o'zi nimaligini,

uning mavjudiyati nima sababdan va qanday bor bo'lishini, o'simlik, hayvon va odamdag'i ruh qanday ekanligini tushuntirishga o'tadi. U, beedad ruhlar mavjudmi yoki ruh bittami, agar ular ko'p bo'lsa, u holda bu holat qanday namoyon bo'ladi: qismlarning ko'pligi bilanmi, yoki kuchlarning ko'pligi bilanmi kabi (murakkab) masalani tadqiq etadi. Agar qismlar beedadligi bo'lsa, u holda ular qanday ko'rinishda bo'ladi, makon (joy), moddalar va turli joylarga sochilib ketgan jismlar ko'pligi bilanmi yoki uning miqdori, qismlari o'xshash yo farqlanuvchi bir jismning qismlarining ko'pligiga bog'liqmi yoxud, beedad qismlar boshqacha bir usulda hozir bo'ladilarmi. U yana ruhiy kuchlar va ularning asoslari nimalardan ekanligini tushuntiradi. Arastu tabiatga tabiiy javhar xos bo'lganidan, ruh – bu tabiiy ruhiyat javharining mohiyatiga (zot) xos bo'lgan narsadir, deydi. Ushbu mohiyat vositasida ruh, ruhiyat javhariga erishadi, ya'ni hayotni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lib qoladi. Javhar esa, ruh uch xil asos mushtarak bo'lishiga yordam beradi. Ular: fo'il asoslari, shakl uchun asoslar va xuddi tabiatda bo'lganidek maqsad uchun asoslar. Tabiatda nimaiki aytilgan bo'lsa, ularni ruhga taalluqli desa bo'ladi, chunki u ham asos, ham javhardir. Ammo u (tabiat), moddalar mavjudligi qoidasi bo'yicha javhar bo'ladimi? Bu o'rinda shubha bor, ammo Arastu keyingi masalalardan hech niman ni tushuntirmaydi. Avval u, tabiat to'rt asosga ega, deb aytgan edi. Endi bo'lsa, tabiatning o'zi mohiyatdir va bu mohiyat vositasida javhar jismni muhimmona (aktual) o'zlashtiradi, hamda u mohiyat yana ruhning ham moddasidir, demoqda.

So'ngra Arastu, harakatlari ta'sirlari tabiatda mavjud bo'lgan fitriy jismlar nimaligini va oldin, tabiat harakatni paydo etishiga bois bo'lувчи tabiat kuchlarini nimadan iborat ekanligini tushuntirgani kabi, ruhiy kuchlar o'zi nimadan iboratligini tushuntiradi. Demak, o'ziga bir cho'ri va quroq bo'lib xizmat qiluvchi tabiatdan foydalanuvchi asosiy mohiyat mavjuddir.

Ikki xil tabiiy jismlar paydo bo'ladilar: birinchisi eng so'nggi, yuksaklari bo'lib, ularning vositasida mohiyatga ega bo'linadi – bu tabiatdir, ikkinchisi eng so'nggi yuksaklari bo'lib, ularning vositasida tabiat o'zining mohiyatiga erishadi.

Tabiatan mohiyat kasb etishga vosita bo'luvchi narsa – ruhdir va ruhning holati hayvonotning tabiiy xislatlariga uzviy bog'liqdir. Ruhning o'ziga qabul qiluvchi – kasb etuvchi tabiiy mohiyati modda bo'lib qoladi. Ruh o'z faoliyatida (harakati, ta'sirida) foydalanishi uchun tabiat yo modda, yoki qurol bo'lib xizmat qiladi. Ruhiy javharda mavjud bo'lgan tabiat ikki navga ega: ulardan bir – modda, ikkinchisi – qurol. Ruhiy javharda mavjud bo'lish tabiatning o'z mohiyati uchun emas, balki ruhiyat uchun mavjuddir. Tabiatning asosiy fitriy xislati bilan asosiysining cho'risi va quroli bo'lmish uning zuhuri orasida farq bo'lgani kabi ruhlar orasida ham farq mavjud. Arastu avval, tabiatdan kelib chiquvchi harakatlar (ta'sirlar) va tabiiy javharga bog'liq bo'lgan orazlar haqida qanday so'z yuritgan bo'lsa, xuddi shunday ravishda rug'dan kelib chiquvchi harakat (ta'sirlar) va ruhiyat javharida mavjud ruhiy bo'lganlari nuqtai nazaridan – ruh hosilasi orazlar haqida so'z yuritadi.

Tabiiy (tabiat) javharlarda mavjud ba'zi orazlar moddalardan (materiyadan), ba'zilari esa shakldan chiqqanlari uchun, ruhiy javharlarda mavjud, - orazlar maxsus xislatlar beruvchi modda va shakl oqibatidir.

Avvalo Arastu, ruhning eng birinchi xislatlaridan biri bo'lmish g'izo (oziqa)ga xos narsani tadqiq etadi. U, g'izo nima tufayli ruhning kuchlaridan, qobiliyatlaridan biri bo'lib qoladi va qaysi bir kuchga yoki ruhning qaysi qismiga taalluqli, degan masalani yoritadi. U, asosiy ruhni, cho'ri (yordamchi) va qurol bo'lmish ruhdan farq qiladi. U, ruh va ruhiy kuchlar o'z faoliyatları (harakatlari)da foydalanishlari uchun xizmat qiluvchi belgi va qobiliyatlarni tadqiq etadi. Yana ularning ta'sirlarini – harakatlarini ham u ko'rsatib o'tadi: harakat (ta'sir)larning necha turi bor, har bir ayrim harakat o'zi nimadan iborat. Hayvonlarning xillaridan biri va shu ruhning biror harakatida foydalaniladigan qandaydir bir a'zo o'zi qanday bo'lmoq'i zarur.

So'ngra Arastu oziq-ovqat va ishlab chiqarish muammolarini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, oziq-ovqatdan mahrum mavjudot yashay olmaydi; ovqat hayot faoliyatini ta'min etadi. Ovqatning bir qismi bevosita tabiatning o'zidan

olinadi, ba'zi qismi esa boshqa narsalar bilan aralashish vositasida tashkil topadi. U, o'simliklar nimadan oziqa olishini va hayvonlar nimadan oziqa olishini tushuntiradi. Hayvonlarda birlari boshqlarini yeb, ikkinchilari o'simlik yeb, uchinchilari taxminan o'simliklar qanday oziqa olsalar shu yo'sinda oziqa oladilar.

Arastu yana, oziqa bo'luchchi narsa, jismlarning navlarimi, dastlabdan ular oziqa sifatida foydalanishga tayyor bo'lganmi yoki ular koinotning bir qismi bo'lganlari uchun bu jismlar faqat o'zlar uchungina yaratilganmilar, shularni tushuntiradi. Agar jismlar oziqa uchun yaroqli bo'lsalar yoki ular dan oziqlansa bu holat ma'lum mavjudotlar mavjudiyatiga yordam beradi. Bu masalalar tadqiqoti, bundan oldingi tahlilga o'xshaydi. Va unda: unsurlar o'z-o'zlar uchun mavjudmilar yoki ular dan boshqa hosila jismlar yaratilishlari uchun mavjudmilar, degan masala ko'rib chiqiladi.

Bu narsalar Arastu tomonidan avvalidan ko'rib chiqilgan, ammo ushbu sohada u kamolatga erisha olmadi, chunki, koinot holatlarida nima muhimroq, degan savol yuzasidan unda har xil zid fikrlar bor.

Arastu sog'lomlik va kasallikni hamda ularning har bir ayrim xilini tekshiradi.

U, sog'lomlikning qandaydir bir xilini va kasalliklarning bir xilini ko'rib chiqadi. Ular qanday sabab ila, nega, nimada va nimadan paydo bo'lishini o'rghanadi. Bularning hammasini ruhiy javhar tabiatdan va maxsus ruhiy javharlarga xos tabiat kuchlaridan oladi. Shuning uchun, birinchi asos ruhga aylanib ketishi ehtimoli bor, chunki ruh — tabiat tufayli bor bo'lgan, ham o'z maqsadi ila — o'zi ruhni moddaga erishtiradigan narsaning sababidir. Tabiat ham, moddaning tayyorlanishiga bois bo'lmish xoslik ham, tabiatning o'zida bo'lib moddani tayyorlovchi tabiat kuchlari ham — hammasi, ruhga ega bo'lmish narsaga taalluqlidir.

Shunday qilib, amaldagi (harakatdagi) asos va maqsadga aloqador barcha narsalar, bir butun holda ruhni tashkil etadi.

Bular haqida uning "Salomatlik va kasallik haqida" risolasida yozilgan.

Arastu tabiatdan olingen ruhiy javhar erishgan narsani tekshiradi, tabiat hayvonni yoshdan-yoshga o'tish vaqtida bu narsa bilan maxsus ta'minlaydi.

U yana, mavjudotlarning tabiatdan olingen har bir yoshga xos holatini va ruhiy javharlarning ayrim xususiyatlari bo'lmish tabiiy kuchlarni ko'rib chiqadi. Bular uning "Yoshlik va keksalik haqida" risolasida bayon etilgan.

Arastu umrning qancha davom etishini, qandaydir bir xil hayvonning umrini nima uzaytirishini, hamda qanday sabablар uning umrini qisqartirishini o'rganadi. Ularning tabiiy (tabiatan) va ruhiy sabablari va asoslarini ko'rsatib beradi, hayot va o'limni, ularning har biri o'zi nimadan iboratligini tahlil etadi. U, ruhiyat sohibi bo'lmish hayvonning paydo bo'lishi va barbod bo'lishini, bu hol nimadan, nimaga va nima munosabat bilan ro'y berishini tekshiradi.

Arastu, bularning hammasi o'simliklarga ham, hayvonotga ham taalluqli ekanini ta'kidlaydi. Lekin, ayni vaqtda o'simliklar, hayvonlar bilan tosh jismlar oralig'idagi qandaydir o'ziga xos joyni egallaydilar, deb hisoblaydi. Oddiy odamlar, ularni nimaga ruhiy yoki tabiiy jismlarga taalluqli ekanligini bilolmay shubhalanadilar. Ko'pchilik o'simliklarni hayvonlar sinfiga (qatoriga) kiritish zarur deb hisoblaydi. Shuning uchun ruh yoki ruhiyatga taalluqli qandaydir kuchlar tabiatga yaqinroq bo'ladilar.

Arastu yana shuur va sezgi a'zolarini ko'rib chiqadi va ular ruh yoki ruhiy kuchning bir qismi deydi. U yana, sezgi a'zolarining holati va bu a'zolar ta'siridagi mavzularni tadqiq etadi. Bular — his-tuyg'u ular orqali idrok etadigan narsalar: har bir his-tuyg'u orqali idrok etiluvchi narsa o'zi nimadan iborat, ularning har biri necha xil bo'ladi, bu xilning o'zi qanday, ular nimada, nimadan va nima uchun mavjudlar degan savolga javob beradi.

So'ngra u, sezgilar mansub bo'lmish tabiiy a'zolarni va ular nimalar vositasida his etishlarini tekshiradi. Ba'zi a'zolar sezgi uchun modda, ba'zilari esa qurol bo'lib xizmat qiladi. Ushbu a'zolarning har birini tabiatni qanday bo'lishi zarur va ularning har biridagi tabiiy kuchlar va orazlar (aksidensiya) qanday bo'lishi kerak? U, his-tuyg'ularga mos keluvchi

a'zolarni va ularning vazifalarini birma-bir tekshirib chiqadi. Ularda (a'zolarda) mayjud ruhning kuchlaridan biri yoki biror qismi tomonidan bo'lgan sabablarni ko'rsatib o'tadi.

Bular uning "Tuyg'u ila idrok etiluvchini his etish" risolasida bayon etilgan.

Arastu, jonli jismlarda mayjud bo'lgan va ruhdan chiquvchi harakatlar (ta'sir etuvchilar)ning xillarini, tabiiy jismlarda tabiatan mayjud bo'lmish hiyaliv (mexanik) harakatni tekshiradi. Chunki tabiat, harakat va rohat (sukun, harakatsizlik) ning qandaydir ibtidosi va sababidir. Uning fikricha harakatning o'zi nimaligini oxirigacha aniqlamay qoldirish mumkin emas, harakatning qanday xillari bor, o'zgarishning yoki sukunatning yoki harakatning boshlanishi qayerdan paydo bo'ladi, bularni bilish kerak. U, hayvonlarning har bir xilidagi shu harakat uchun moslashgan a'zolarni aytib o'tadi va hayvon a'zolarining har birida mayjud bo'lmish asoslarni va ruhiy kuchlar yoxud ularning qismlari oqibati bo'lgan sabablarni ko'rsatib o'tadi. Bu harakatlar shundayki, ularning vositalari ila hayvonlar nimalarnidir xohlaydilar, nimalardandir o'zlarini olib qochadilar.

Yana, biron-bir xil hayvonning yashash joyini, nima uchun unga shu joy zarurligini, u qanday joylarda yashashi mumkinligini tadqiq etish kerak bo'ladi. Hayvonlar ba'zi joylarda ovqat qidirish bilan mashg'ul bo'ladilar, boshqa joylarda dushmanlardan o'zlarini saqlash uchun berkinadigan joy istaydilar, yana bir joy esa ularga avlodlarini o'stirishlari uchun xizmat qiladi. Ko'p hayvonlar oziq-ovqat saqlaydigan joylarga muhtojlar. Ba'zi hayvonlar oldindan yig'ib qo'yilgan ovqatdan foydalanadilar, ba'zilari esa uni har kuni izlab topadilar.

Bularning hammasi uning "Hayvondagi hiyaliv (mexanik) harakatlar" risolasida bayon etilgan.

So'ngra Arastu, nafas olishni tadqiq etadi va halqum nafas olish a'zosi bo'lib xizmat qiladi va halqumning mayjudligining boisi esa o'pkadir, deb tushuntiradi.

U, uyqu, bedorlik va tush ko'rishlarni tahlil etadi. Ular o'zlar ni nimalardan iborat, nimada va qanday bo'ladi, ruhiy kuchlardan qaysi biri sabab bo'lib, ular ro'y beradi? degan

savollarga javob izlaydi. U, uyqular va tushlarning sabablari, xillari va asoslarini tekshiradi, endi ro'y beruvchi voqealardan ogohlantiruvchi tushlarni tushuntiradi. Arastu, "nima bo'lishi"dan ogohlantiruvchi tushlar haqidagi masala, birligina ruhning tabiiy kuchlar bilan qironi (birlashgani) bilan chegaralanib qoladi, deb tushuntiradi. Buning uchun bunday tush, yana ruh mavjudiyatidan yuqoriroq darajada turuvchi boshqa asoslarga ham muhtojdir. Shuning uchun, Aarstu ushbu masalani chuqr o'rganishdan voz kechib o'z izlanishlarini shu yerda to'xtatadi.

So'ngra Aarstu, uch xil-ongsiz, aqlsiz hayvonning xotirasini tekshiradi, qanday ruhiy kuch vositasida unga erishilishini va bu qanday ro'y berishini bayon etadi.

O'N IKKINCHI BO'LIM

Insonni mustasno etilganida, hayvonga xos narsalarni tekshirganda Arastu ruhiyat va ruhiy kuchlar oqibati bo'lmish ularning sababalari asoslarini ko'rsatish bilan cheklandi.

O'N UCHINCHI BO'LIM

Insonda o'sha narsalarning o'zini tadqiq etganida Arastu, ularning hammasining sababini tushuntirishda faqat birligina ruh bilan chegaralanib qolmaydi. Chunki, insonda biz kuzatadigan narsaga to'g'ri keluvchi narsalar ruh harakatlari (ta'sirlari)ga qaraganda ko'proq miqdordagi va kuchliroq harakatlar (ta'sirlar)ga moslashgan Arastu insonda, hayvonlarda bo'lmagan boshqa imkoniyatlar, ruh va ruhiy kuchlardan paydo bo'lolmaydigan sabab va asoslarni topadi. Inson tabiatini va unda mavjud bo'lmish tabiiy kuchlarni tushuntirish borasida ular, faqat ruh faoliyati (harakatlari, ta'sirlari)ga qaraganda yuksakroq faoliyat (harakatlar) uchun moslashgan, degan fikrga keladi. Insonning ruhi va ruhiy kuchlarini tekshirish borasida Arastu inson faqat ruh va ruhiy kuchlar vositasida o'z mohiyatiga erishishi uchun ular yetishmasliklarini va buning uchun yana o'zga nimadir zarurligini aniqlaydi. Bu o'rinda Arastu, nega bunday bo'lishini o'rganishga majbur bo'ldi va

inson nutq egasi ekanligini topdi, nutq esa aql bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan Arastu aqlini, aql o'zi nima ekanligini tahlil etdi. Buni u ruh va tabiatni qanday tadqiq etgan bo'lsa, shu yo'sinda tadqiq etdi. Ruhning qismlarga bo'linishiday aql ham qismlarga bo'linadimi, unda qismlar va kuchlar bormi? Aqlning holati xuddi ruh va tabiiy holati kasb ekanligi, aql qismlarga yoki kuchlarga bo'linishi, inson mohiyat kasb etishiga vosita bo'luchchi faol (ta'sirchan) asos ekanligi xuddi tabiatda bo'lgani kabi u — aql o'z maqsadi (g'arazi)ning sabab va asosi ekanligi Arastuga ravshan bo'ladi.

Tabiiy javharlar ikki xil bo'ladi: birida nimadir eng oxirgi, so'nggi narsa bo'lib, uning vositasida mohiyat kasb etiladi, bu tabiiydir, ikkinchisida bir nimadir bor bo'lib, uning vositasida ruhni tayyorlovchi mohiyat kasb etiladi, bu yo modda yoki quroldir. Xuddi shunga o'xshab ruhiy javharlar ham ikkiga bo'linadi: biri nimadir so'nggi-haddiga etgan bir narsaga ega bo'lib, uning vositasida ruh mohiyat kasb etadi, ikkinchisida — ruhga bir narsa hamroh bo'lib, uning vositasida u, aql va oqil kuchlar uchun yoki bir qurol bo'lib borib mohiyat kasb etadi. Arastu aql va fikrlovchi kuchlarni, ular ruh va tabiatdagi kabi asosiy qism va xizmatchi (yumushdag'i) qismlarga bo'linadilarmi, yo'qmi degan savolga javob izlab ko'rib chiqadi. U fikrlovchi kuchlarni tekshiradi. Ularning qaysi birlari qaysi birlari uchun mavjud, degan masalalarни tahlil etadi. Shu munosabat bilan Arastu fikrlovchi kuch harakatlarini (faoliyat, ta'siri) va aqlning harakatlarini yaxlit holda tahlil etadi. Agar nimanidir mohiyati o'z-o'zicha harakat (faoliyat, ta'sir) bo'lmasa, u holda u, o'z mohiyati uchun emas, balki harakat uchun mavjud bo'ladi.

O'N TO'RTINCHI BO'LIM

Fikrlovchi kuchlarning harakatlari (ta'sirini) va aqlning harakatini tadqiq etish borasida Arastu, ular ma'qulotlarga erishishga qaratilgan, degan fikrga keladi. Ammo Arastu, ba'zi ma'qulotlar shunday darajada idrok etiladilarki, inson ularning tabiatian fitriy (tabiiy) narsalarda aktual mavjudligini topadi, ba'zilarini esa inson darrov payqamaydi, shuning uchun

uni idrok etish ancha qiyin bo'ladi, deb hisoblaydi. Inson tabiatan aktual mavjud sifatida payqashi, bilishi mumkin bo'lgan va agar aniqlansa foydalaniladi, deb o'ylaydigan mavjud narsalarni idrok etadigan kuchni Arastu "aqli amaliyyun" (amaliy aql) deb ataydi. Inson aniq narsalardan muforiq bo'lib, mavjud narsalarni mavhum fikrlab bilib olishiga, idrok etishiga vosita vazifasini o'taydigan narsani Arastu "aqli nazariy" deb ataydi. "Aqli amaliy" idrok etib bo'lgan tabiiy narsalardan biron bir narsani payqashga, topishga vosita bo'la oladigan kuchni Arastu "irodiyyun va ixtiyoriyun" ("erkin iroda va erkin tanlash") deb ataydi.

O'N BESHINCHI BO'LIM

Aqlning ushbu ikki amaliy va nazariy kuchini o'rganib, Arastu ular ikkalasi ham xizmatkor, ularning harakatlari (faoliyatları; ta'sirları)ni esa xizmat harakatlari, degan fikrga keladi. Ular-aytib o'tilgan kuchlar xiz-matda bo'lgan narsalarni tekshirish borasida Arastu, bu narsalarga avvalan tabiatdagi (tabiiy) narsalar va ruhiy kuchlar taalluqli degan xulosaga keladi. U yana aqlning turlari xizmat qiluvchi o'sha narsalar, insonda o'z-o'zi uchun mavjud bo'lувчи narsalar bo'lmay, balki ular insonning aql bovar qilmaydigan barkamolligiga erishishi uchun mavjuddir, deb hisoblaydi.

Arastu insonning ruhiy kuchlari birinchi navbatda tayyorlanishining boisi bo'lmish aqlni tekshiradi ushbu kuchlarga xizmat qiluvchi aqlning bir qismi uchun ular (ya'ni, ruhiy kuchlar) mavjudmilar yoki bu xizmatni bajo keltira turib, aql ularda xizmatda turgan boshqa bir narsami, degan savolga javob izlaydi. Xizmatda bo'lgan o'sha qism o'z mohiyati bo'yicha xizmatda bo'lish maqsadiga ega bo'lgani uchun xizmat qiladimi yoki u qism xizmatida bo'lishiga majbur etadigan kuchlar borligidanmi. Va u tushuntirib aytadiki, unda (ya'ni xizmatkor qismida) o'sha kuchlarga xizmat qilish maqsadi yo'q. U (ya'ni, xizmatkor qism) xizmat qiladigan kuchlardir, aniqroq aytganda, ulardan modda yoki qurol sifatida foydalaniladi va u o'sha o'zi foydalananadigan kuchlarga nisbatan bosh, vetakchi bo'ladi.

Arastu aqlning yetakchiligini tekshiradi. Va aqlning vositasi ila xizmat qilish mumkin bo'lmagan narsami, yo'qmi ekanligini aniqlaydi. Arastu ushbu yetakchilikning barcha harakatlari (ta'siri) shunday harakatlarki, uning vositasi ila xizmatda bo'lmashlik ham mumkin bo'ladi, degan xulosaga keladi.

Arastu nazariy aqlni tekshirar ekan, nazariy aql erishadigan ma'qulotlar, o'z vositasida hech ham xizmatda bo'lish mumkin bo'lmagan mohiyatlar emas, degan fikrga keladi (ya'ni bu ma'qulot nazariy aqlning xizmatda bo'lishiga mon'e bo'lmaydigan mohiyatdir). U yana, ushbu aql o'zining oliv darajadagi kamolatiga erishgani taqdirda ham, o'zi bilquvvat bo'lgandan so'ng (uni) oliv darajadagi kamolatni faol aql sifatida qabul etadi, deb hisoblaydi. Ma'qulotlarga yetishishgandan so'ng faol aqlga erishiladi. Arastu, faol (aktual) mohiyat bo'lmish nazariy ma'qulotlarga nimaning vositaligida yetilishini ko'rsatib o'tadi va qo'shimcha qilib aytadiki, ular (nazariy ma'qulotlar) anchagini to'laroq shaklda idrok etiladilar va bu aql (nazariy aql ko'zda tutilmoxda) o'zining oliv kamolatiga erishadi, undan ziyodaroq kamolati bo'lishi mumkin emas. Uning fikricha, bu holda aql shunday javharga ega bo'ladiki, u javhar o'z-o'zidan uning (aqlning) harakati va yoki uning harakati bo'lishga yaqin bo'lib qoladi.

O'N OLTINCHI BO'LIM

Arastu aqlning ushbu mavjudiyatidan barkamolroq mavjudiyat bo'lishi mumkin emas, degan xulosaga keladi. Va o'zga nimadir borki, o'sha tufayli, u, ya'ni aql mohiyat kasb etadi, mohiyat kasb etish borasida esa, o'sha o'zga nimadir insonning aqlga (ongga) erishishiga ionat — yordamchi bo'ladi. Agar inson o'zining bundan ortiq barkamol bo'lmaydigan oliv kamolatiga, (ya'ni aqlga) erishsa, uning mohiyati, insonning (asl) mohiyati bo'lishiga yaqinlashgan bir qismi bo'la boshlaydi va bu mohiyat uning faoliyati (harakati)dir. Bundan ma'lum bo'ladiki, nazariy aql bo'lmish xayrli narsaga ega bo'lishi uchun insonga xizmat qilish maqsadi bo'lgan kuchlar zarur ekan. Inson mohiyati

aqlda namoyon bo'ladi. Aqlning mohiyati uning (aqlning) harakati (faoliyati) bo'lishiga yaqin bo'lganida aql egalik qiluvchi faoliyat (harakat) bo'la boshlaydi. Buning uchun insonning faqat tabiiy (tabiat ato qilgan) avloddan-avlodga o'tib vorislik yo'li ila erishiladigan fikrlash qobiliyatidan tashqari yana amaliy mahoratlar bo'lmog'i zarurdir. Aql fikrlash vositasida faoliyat ko'rsatadi. Shu munosabat ila Arastu, aqlning kamolatga erishmog'i uchun tabiiy (tabiat) va ruhiy kuchlarning o'zları yetarlimi, degan masalani o'rganadi va ular yetarli emas, deb tushuntiradi. Xullas, inson eng oliv kamolatga erishuvi uchun unga (yana) inson tabiatini va faoliyatiga qo'shimcha ikkita – amaliy va nazariy fikriy kuchlar zarurdir.

O'N YETTINCHI BO'LIM

Ushbu masalalarni tekshirishni tugatib Arastu avval tadqiq etib bo'lgan narsalarga qaytadi. Tabiatan inson o'zi qanday zot, unda ruhdan nimalar mavjud. U ushbu sabablarning, agar ular yo modda tomonidan yoki qurol-vosita tomonidan tayyorlovchi bo'lsalar mavjudliklari shart-sharoitlarini ko'rsatib o'tadi, toki aqlning amaliy kuchlari nazariy aqlga erishishda ulardan imkonli boricha to'la foydalana olsinlar.

So'ngra Arastu insonga xos ruhiy mohiyatlarni tekshirishga o'tadi. Ulaming borligi insonning kamolatga erishishiga yetarlimi yoxud ular faqatgina ionat – yordamchi bo'lib qoladilarmi? Ushbu tadqiqot mavjudiyat unsurlari haqidagi nizomning o'zidir. Bu unsurlar o'zlarining vositasida paydo bo'lувчи narsalar uchun yetarli deb hisoblaydilarmi, yo'qmi? Fitriy (tabiiy) javharlar oqilonqa faoliyatni tayyorlay oladilarmi, yo'qmi, degan masalalarni Arastu tadqiq etadi.

O'N SAKKIZINCHI BO'LIM

Ammo ushbu masalalarni o'rganishda Arastu ma'lum bir mushkulliklarga duch keladi. Uning, ruh va ruhning qobiliyatlarini tugatganidan so'ng boshlagan tadqiqoti bilquvvat va bilquvvatning boshqa kuchlarga bog'liq tomonlariga

bag'ishlangan. Arastu kamolatga ya'ni haqiqatga erishishda faqat ruhiy mohiyatlarning o'zi yetarli emas fikriy kuchlar yana boshqa asosga muhtojdir, deb tushuntiradi. Hur iroda va fikrlash tufayli fikriy kuchlar tomonidan idrok etiluvchi mavhum mohiyatlar (bilimlar) tabiiy asoslari bo'lmish mohiyatlardan avval mavjud bo'lganligi uchun, ulardan boshqa ma'qulotlarga erishishda foydalananadilar.

Shuning uchun oldin bilquvvat aqlga ma'qulotlar qanday ta'sir etishlarini o'rganish ma'qul bo'ladi. Bilquvvat aql nega abadiy emas. Buning uchun hur iroda bo'yicha emas, tabiatan taalluqli bo'lishi zarurdir. Demak, albatta bilquvvat aqlda birinchi faol harakatdagi sabablarni yaratuvchi va boshqa ma'qulotlarga tabiiy qobiliyat beruvchi qandaydir mavzu (ob'ekt) bo'lishi kerak.

O'N TO'QQIZINCHI BO'LIM

Ushbu aqlni (o'n yettinchi bo'lim so'ngida so'z yuritilgan aql nazarda tutilmoxda) Arastu tadqiq etar ekan, uni bilquvvatga hech ham ega bo'lmagan, faoliy (aktual) ekanligini aniqlaydi va mutlaqo bilquvvatga ega bo'lmagan narsa modda qatoriga kirmaydi, deb tushuntiradi. Inson aqli o'zining so'nggi kamolatiga yetishgan taqdirda ham faqat o'zining mohiyatila faol aql mohiyatiga yaqinlasha oladi, xolos. Arastu inson o'z mohiyatining kamolatga yetishishi borasida shu aqlga taqlid etishini va taqlid usuli bo'yicha eng so'nggi holat va fo'il (ta'sir etuvchi sabab) ekanligini o'zi uchun aniqlab oladi. Ushbu aql zehnning asosidir, chunki u fo'il va uning vositasida inson o'zining aqliy mohiyatiga erishadi. Ushbu aql yana maqsad ham, chunki u inson eng so'nggi holatga (kamolatga) erishishiga vosita bo'luvchi asosni hozirlaydi. Inson aqli uchta xislatga ega asosdir. U fo'il (ta'sir etuvchi sabab), u — maqsad va u — faol aqlga yaqin bo'lishga intiluvchi barkamollikdir. Inson aqli shakl, maqsad va fo'ili bilan farqlanadi. Inson zehn ila qandaydir bir on faol aqlga (aqli fa'ol) yetishgach, unga talomus bo'ladi. Shu narsa ma'lum bo'ladiki, tabiatan inson mohiyatida mavjud bo'lgan nimadir (narsa) aqlning o'zidir. Fa'ol aqlga yetishish borasida, inson o'zi va uning

(fa'ol aqlning) o'rtasida bo'lmaydi va shu yo'sinda odam ruhi (nafsi insoniy) ushbu aql egasi bo'ladi. Inson ruhi (nafsi insoniy) shu aql uchun mavjud bo'lganidan, tabiat esa-odamning tabiiy mustahkamligini bilish uchun, ruh (nafs) bo'lsa – bor narsalardan eng mukammali nazariy aql uchun mavjud ekan, bularning hammasi mavjudiyatning, hayotning ma'lum bir darajasiga ko'tarilishda insonga xizmat qiladi.

Ba'zan Arastu, avvallari o'ziga tushunarsiz bo'lgan masalalarga yoki inkor etgan ko'p narsalarga qaytadi.

So'ngra u faol aqlni ko'rib chiqadi. Bu aql tabiat va ruh (nafs), tabiiy va ruhiy mohiyatlar mavjudiyatining sababimi, yo'qmi degan savolga javob izlaydi. Natijada u, unsurlar va boshqa narsalarning harakatiga (haraktlanishiga) moyil etuvchi asoslardir, degan fikrni ma'qul deb topadi. U, o'ziga samoviy jismlarni ham olgan mavjud narsalarga mavjudiyat bag'ishlash jarayonlarida aql samoviy jismlarga ionat bo'ladimi, yo'qmi degan masalani ko'rib chiqadi. Ularda (narsalarga mavjudiyat bag'ishlash jarayonlari nazarda tutilayotgandir) tabiat, ruh va aqlga erishish uchun fazoviy jismlarga kamolat baxsh etadi va ushbu fazoviy jismlar yetarli emas deb tushuntiriladi, faol aql fazoviy jismlar yordamida tabiat va ruhiyatni harakatga keltiradi. Ko'p ruhiy mohiyatlar o'zlariga munosib moddalarga erishadilar, bu moddalar esa, aqlni qayta yaratish uchun ularda mavjud bo'lgan tabiatni tayyorlaydilar, bu hol xuddi odam o'zidan oldingi odamda, unisi esa yana oldingisidan tug'ilganiga o'xshaydi. Hayvonot va nabobotda ham xuddi shu tarzda ro'y beradi. Ma'danlar esa o'zlariga o'xshash xillardan paydo bo'lmaydilar.

Shunga o'xshab, mazkur xilning shakllanishiga ionatlik etuvchi narsani ham tekshirib chiqiladi. Qisqasi, xillarga shakl beruvchi narsa fazoviy jismlarmi yoki faol aqlmi yo faol aql fazoviy jismlarga shakl berib, ular o'z navbatida moddalarni harakatga keltiradimi? Shunisi aniqki, fazoviy jismlar tabiiy jismlarni harakatga keltiradi. Shuning uchun fazoviy jismlarning javharlarini ham tadqiq etish zarurati paydo bo'ladi. Ular tabiatmi, ruhmi yoki aqlmi, yoxud boshqa bir barkamolroq narsami? Ularning tadqiqoti, faqat tabiat tadqiqotiga qaraganda umumiyoq, kengroq bo'lmog'i darkor. Arastu

fizikada bu masalalarni tadqiq etar ekan, tabiatni tekshirishdagi eng so'nggi nuqta – aqli faol va fazoviy jismarning harakat manbaidir, deb ta'kidlaydi. Inson tarafidan qobiliyatga erishishda ruhlarning kuch va harakatlari amaliy fikriy kuchlar bilan birlgilikda nazariy aql kamolati uchun xizmat qildilar. Faqatgina fitriy mayllar va his-tuyg'uning o'zi, amaliy aqlga tobe bo'lmish niyat va hur iroda bo'yicha mavjud bo'lgan harakatlar (faoliyatlar) yetarli emas.

Shu munosabat bilan amaliy aqlga tobe bo'lmish niyat va hur iroda bo'yicha mavjud bo'lgan harakatlarni o'rganish zarurati paydo bo'ladi. Insoniy niyat shularga taalluqli. Boshqa tirik jonzotlardagi nimagadir bo'lgan intilishga kelsak, ular insoniy niyatga aloqador emaslar va nazariy kamolatga erishish ishida foydasizdir, chunki unga erishishda inson va hayvonning qobiliyatları bir xilda emas.

Shuning uchun, irodaviy (hur iroda) va niyat ila mavjud bo'lmish barcha faoliyatlarni (harakatlarni) o'rganish zarurati paydo bo'ladi. Ezgu irodaning mohiyati amaliy aqlga mansub bo'lgan hur irodadir. Shu sababdan uni boshqa tirik mavjudotlardagi, masalan, hayvonlardagi "ezgu irodaga" o'xshatib bo'lmaydi. Demak, ushbu harakatlarni bilish va so'nggi maqsaddan olinadigan sud (foyda) va zararning farqini bilib olish kerak bo'ladi. Arastu yana, bu harakatlardan paydo bo'luvchi foydali tabiiy narsalarni ham o'rganadi. U, hayvonlar va o'simliklarning ruhiy mohiyatlaridagi tabiiy asoslarni ham ko'rib chiqadi va insoniy kamolatga olib boruvchi harakat faoliyatlarning majmuasi uchun ularning (ruhiy asoslarning) qaysi biri foydali ekanligini aniqlash zarur, deydi. U, boshqa tabiiy (tabiatga oid) narsalarni ham, ya'ni toshlar, ma'danlar va unsurlarni tahlil etadi va ulardan qaysi birlari foydali ekanligini aniqlaydi, ulardagagi tosh, ma'dan, unsurlardagi mavjudiyatga fazoviy jismlar sabab bo'luvchi holatlarni ko'rsatadi. U, hayvonlar va o'simliklarga nisbatan ham xuddi shunday tahlil o'tkazadi.

Shuning uchun narsalarning hammasini o'rganish, tabiiy mohiyatlar haqida barkamol bilim olishga ionat bo'lmog'i zarur va ular haqida fizikaviy va fuqaroviylar falsafadan

(falsafatun madaniyatun) yetarlicha ma'lum bo'lmagan holatlarni to'ldirish kerak.

Shu munosabat bilan Arastu o'zining "Kitob al-rububatun" ("Metafizika") risolasida mavjud narsalarni, tabiiy mohiyatlarni o'rgangan va tadqiq etgan usulidan o'zgacharoq usulda o'rgangan va tadqiq etganini tushuntiradi.

* * *

Yuqorida aytilganlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bevosita badan va his-tuyg'u salomatligi uchun bevosita foydalanmaydigan ma'qulotlarni (aql bovar qiladigan mohiyatlarni) o'rganish va tadqiq qilish zaruriy ishdir va inson bilishi zarur bo'lgan ilmlarga nisbatan inson qalbi (nafsi insoniy) ruh intiladigan ko'rinish turuvchi narsalar mavjudligining sababi haqida ma'lumotni bilishga insoniy mohiyatning ehtiyoji ko'proqdir. Ulardan eng foydalilari inson mohiyatining shakllanishida va insonning eng yuqori kamolatni egallashida zarurdir.

Fanda Arastu tomonidan birinchi marotaba o'rganilgan donishmandlik (hikmat) masalasi (ya'ni, falsafa) va haqiqatni tiklash bo'yicha o'tkazgan tadqiqoti, inson aqli-zakovatini boyitishda birinchi zaruratga aylandi, zero inson yaratilishining boisi ham shudir. Boshqa fan, ya'ni mantiqqa kelsak, Arastu uni ikki maqsadda tadqiq etadi: ulardan biri, inson yaratilishining boisi bo'lmish inson aqlini barkamol etishga xizmat qiladi, boshqasi-fizika (tabiat) va metafizika al-ilohiyot (al-rububat) fanlarida yetishmayotgan bilimlarni to'ldiradi.

Shunday qilib, falsafa-hikmat imkoniyat horicha haqiqatga yetishish uchun, albatta zarurdir.

MUNDARIJA

Fozil odamlar shahri I–21 boblar Abdusodiq Irisov tarjimasi, <i>28–34 boblar Mahkam Mahmud tarjimasi</i>	3
Aflatun qonunlari mohiyati (Talxisu navomisi Aflatun) <i>Urfon Otajon tarjimasi</i>	57
Arastu falsafasi (Falsafatu Aristutolis) <i>Urfon Otajon tarjimasi</i>	97

ABU NASR FOROBIY

FOZIL ODAMLAR SHAHRI

“O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti
700129, Toshkent Navoiy ko’chasi, 30.

Muharrir *Muhiddin OMON*
Badiiy muharrir *A. BOBROV*
Texnik muharrir *M. OJIMOV*
Sahifalovchi *H. SAFARALIYEV*

20.12.2004-y.da bosishga ruxsat etildi. Qog’oz bichimi 84x108 1/32.
8,4 shartli bosma tabog’i. 8,37 nasr hisob tabog’i. Adadi 10100 nusxada.
Bahosi shartnomaga asosida. Buyurtma № A-6020.

“O’zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uy bosmaxonasida bosildi.
Toshkent 700129, Navoiy ko’chasi, 30-uy.